

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI  
IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI  
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
NEMIS VA FARN SUZ TILLARI KAFEDRASI



70230101–Lingvistika(nemis tili) mutaxassisligi uchun

## Matn lingvistikasi

fani bo'yicha

I-kurs magistratura talabalari uchun

## O'QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	200000 - San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230000 - Tillar
Ta'lim darajasi:	70230101–Lingvistika(nemis tili)

NAMANGAN – 2025

**Tuzuvchi:**



**f.f.n., dotsent A.Abdullayev**

Fanning o`quv - uslubiy maymuasi Nemis va fransuz tillari kafedrasining 2025 yil 28 avgustdagi 1 - sonli yig`ilishida muhokamadan o`tgan va fakul'tet Kengashiga ko`rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**



**A.Tursunov**

O`quv - uslubiy maymua Filologiya fakul'tetining 2025 yil 29 avgustdagi 1 - sonli Kengashida ko`rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

**Fakul'tet dekani:**



**E.Isomiddinov**

# MUNDARIJA

So`z boshi.....	3
Fanni o`qitishda qo`llaniladigan interfaol metodlar .....	4
Pedagogik texnologiyalar.....	5
O`qitishning interfaol usullari.....	6
Qabul qilish vositalari (kanallari).....	6
Yumaloqlangan qor.....	8
Taqdimot.....	10
Misollar asosida ta`lim berish .....	11
Hayotiy vaziyatlarni o`yin qilib ko`rish (simmulyatsiya).....	11
Germenevtik suhbat.....	12
Keys – stadi usuli.....	13
<b>ASSESSMENT metodi .....</b>	<b>14</b>
<b>MATN LINGVISTIKASI FANIDAN MA`RUZALAR .....</b>	<b>15</b>
<b>1-mavzu. Matn lingvistikasi faniga kirish.....</b>	<b>17</b>
<b>2-mavzu. Matn lingvistikasining turli yo`nalishlari .....</b>	<b>18</b>
<b>3-mavzu. Matn tipologiyasi .....</b>	<b>36</b>
<b>4-mavzu. Matn va uning asosiy kategoriyalari.....</b>	<b>49</b>
<b>5-mavzu. Badiiy matn va uning asosiy kategoriyalari.....</b>	<b>57</b>
<b>6-mavzu. Matn lingvistikasi va kommunikativ Tilshunoslik.....</b>	<b>66</b>
<b>7-mavzu. Matn lingvistikasi lingvopragmatik jihatlarini.....</b>	<b>68</b>
<b>8-mavzu. Matn lingvistikasining kognitiv aspekti.....</b>	<b>69</b>
<b>9-mavzu. Matn lingvistikasining lingvomadaniy aspekti.....</b>	<b>77</b>
<b>10-mavzu. Matn tahlili metodlari.....</b>	<b>84</b>
<b>11-mavzu. Sarlavha.....</b>	<b>94</b>
<b>12-mavzu. Matn tahlili metodlari.....</b>	<b>97</b>
<b>13-mavzu. Superlinear tahlil metodi.....</b>	<b>116</b>
<b>14-mavzu. Kontseptual tahlil.....</b>	<b>118</b>
<b>15-mavzu. Matn tahlilining statistik metodlari .....</b>	<b>121</b>
Seminar mashg`ulotlari uchun mavzular.....	127
Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar .....	127
Textsorten (glossar).....	129
Ilova. O`quv dastur .....	133
Baholash mezonini.....	142

## SO`Z BOSHI

Mazkur o`quv-uslubiy majmua Matn lingvistikasi fanidan 70230101–Lingvistika(nemis tili) yo`nalishi uchun mo`ljallangan. Majmuani yaratishda yetakchi xorijiy OTMLari o`quv dasturlariga asosiy adabiyotlar ro`yxatiga kiritilgan - Gerhard Neuner und Hans Hunfeld "Methoden des fremdsprachlichen Deutschunterrichts" Berlin, Muenchen. Langenscheidt 2012, - Karin Kleppin "Fehler und Fehlerkorrektur" Berlin Munchen. Langenscheidt 2012, Pool -Lifdu "Heute hier, Morgen dort. Lieder, Chansons und Rockmusik Deutschunterricht" Berlin Munchen. Langenscheidt, 2015 va boshqa adabiyotlardan foylalanildi.

Semestr davomida o`quv kursiining obekti, predmeti, tadqiqot metodlari, kursga oid masalar yuzasidan fikrlar va muammolarni muhokama qila olish nazarda tutiladi. Matn, matn turlari, ularning o`ziga xos xususiyatlari va belgilarini bayon qila olishni taqozo etadi. Bundan tashqari yozma matnni o`qish va fikrni yozma ravishda bayon qila olish ham til bilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu amallarning hammasi tillar haqidagi bilimlarni, yani ularning tovushlar tizimi, grammatikasi, so`z boyligi hamda ular amal qiladigan qonuniyatlarni egallab olishni taqozo qiladi. Bundan tashqari talabalar jahon tillari, ularning o`rni, strukturasi, qonuniyatlari va boshqa masalalar haqida fikr bildira olishlari, muhokama qilish va bahslasha olish ko`nikmalari va malakalarini egallashlari ham talab etiladi.

Matnlar va ularni o`rganish va tahlil qilish haqidagi nazriy masalalarni va ularning amaliyotdagi tadbirini Matn lingvistikasi fani o`rganadi va shu fan orqali o`rgatiladi.

I. O`UM quyidagi bo`limlardan tashkil topgan:

1. Titul varaqi

2. Mundarija.

3. O`quv materiallar.

a) Birinchi o`rinda fan dasturiga muvofiq ma`ruzalar mavzulari yoritib berilgan.

har bir mavzu bo`yicha:

- reja

- tayanch so`z va iboralar

- asosiy matn

b) Ikkinchi o`rinda fan dasturiga muvofik amaliy mashqulotlar mavzulari bo`yicha yoritib berilgan.

Amaliy mashqulotlarning qar bir mavzu bo`yicha:

- asosiy matn;

- topshiriklar variantlari;

- nashqlar;

- keyslar to`plami;

- xorijiy va maxalliy adabiyotlar ro`yxati;

4. Mustaqil ta`lim mashqulotlari. Fan bo`yicha mustaqil ta`lim mashqulotlar mavzulari va ularni o`zlashtirish bo`yicha zarur uslubiy ko`rsatmalar berilgan.

Mustaqil vazifalarini bajarishga qaratilgan boshqa ma`lumotlar keltiriladi.

5. Kurs ishlari va kurs loyiqasi ko`zda tutilmagan.

6. Glossariy. Fanga oid termin va iboralarning qisqa talqini bo`yicha o`zbek, rus va ingliz tillarida berilgan.

## 7. Ilovalar:

- fan dasturi;
- ishchi fan dasturi;
- tarqatma materiallar;
- testlar;
- ishchi fan dasturiga muvofiq baqolash mezonlarini qo`llash bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar.

### **FANNI O`QITISHDA QO`LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR**

Ba'zi interfaol usul va innovatsion texnologiyalarning qisqacha ta'riflari

☒ Intervyu - Talaba (yoki magistr) ni savolni to'g'ri tuzish, savol bera olish, savolga to'g'ri javob berish, boshqalarni tinglay olish madaniyatiga o'rgatishiga qaratilgan.

☒ Iyerarxiya -oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali Talaba (yoki magistr) larni mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rgatishiga qaratilgan.

☒ Talaba - Talaba (yoki magistr) lar bilan yakkama-yakka holda ishlash o'qituvchi va Talaba (yoki magistr) o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishiga qaratilgan.

☒ O'qituvchi shaxsi – o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi "O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar" mavzusidagi mustaqil fikrlashga qaratilgan.

☒ Muloqot - Talaba (yoki magistr) larni dars jarayonida diqqatini o'ziga jalb qilish, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish, uni tashkil etishni o'rgatishiga qaratilgan.

☒ Boshqaruv - O'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda Talaba (yoki magistr) larni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtirish va shunga o'rgatishiga qaratilgan.

☒ Tanishuv - Talaba (yoki magistr) larni bir-biri bilan tanishtirish, do'stona munosabat va ijodiy muhit yuzaga keltirish, ularning ijodiy imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini ochish, jamoada ishlash uchun qulay sharoit vujudga keltirish va talaba (yoki o'quvchi)lar o'rtasida psixologik to'siqlarni yengishga yo'naltirilgan.

☒ Murabbiy va jamoa – murabbiy va jamoa bilan ishlash muammolari mohiyatini aniqlash malakasini shakllantirish, uning yechimini izlash va topishga yo'naltirilgan.

☒ KBI (kuzatish, bahslashish, ishontirish) – faol hayotiy holatni, sardorlik sifatlarini, jamoada ishlash ko'nikmalarini hamda o'zgalar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontirish, asoslash, munozara olib borish mahoratini, murosaga kelish va izlash qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

☒ IMAK (ishontirish maktabi) –ishontirish (murosa yo'llarini toppish, uni asoslab berish), tashkilotchilik qobiliyatini, noan'anaviy vaziyatlarda o'zini va jamoani boshqara olish hamda mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, ularni hal qilish yo'llarini izlab topish mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan.

☒ Uchlik (SAN –samarali, axloqiy, nazokatli) – bezak ishlari, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy tasavvurni rivojlantirish, tashkilotchilik

qobiliyatlarini, turli badiiy eskizlarni tayyorlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

☐ Senariy (sahna) –ijodiy fikrlashni rivojlantirish, tadbirning reja senariysini tuzish ko'nimasi hamda sahna, aktyorlik asoslari, madaniyat, rejissura, tadbirni tashkil etish, notiqlik mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan.

☐ AJIL (amaliyotda jamoaviy ijodiy ishlar) – jamoaviy, ijodiy ishni tashkil qilish, tayyorlash va o'tkazish usullarini o'rganish hamda ijodiy faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan.

☐ Bahslashuv –talaba (yoki o'quvchi)lar o'rtasida bahs, munozaralar o'tkazish va bahslashuv klublarini tashkil etish hamda ularni ba'zi Yanglish fikrlar, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga qarshi kurashish, noo'rin fikrlarga o'z vaqtida qarshilik ko'rastish yoki bildirilgan fikrni to'g'ri, noto'g'ri ekanligini aniqlab olish, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olishga o'rgatish va bahslashish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan.

☐ Tanqid qilishni o'rganing – tanqid ko'rinishlarining tasnifi, ularni ishlatish yo'llari bilan tanishtirish, tanqidni to'g'ri qabul qilish ko'nikmasi va tanqid qilish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan.

☐ Kelishuv va ziddiyat – mantiqiy va tanqidiy fikrlash, murosaga kelish mahoratini shakllantirish hamda asosli bahslashish qoidalari bilan tanishtirish, ziddiyatlarni yechishda har kimning o'z usullarini topa olishlariga ko'maklashishga yo'naltirilgan.

☐ Iyerarxiya texnikasi – murabbiylarning shaxsuy va kasbiy fazilatlarini hamda murabbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan fazilatlarini aniqlash va ularni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

☐ Loyiha – Talaba (yoki magistr) larni mustaqil fikrlash, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni eslash, ularni yozma bayon etish, fikrlarni umumlashtirishga o'rgatishga yo'naltirilgan.

### **Pedagogik texnologiyalar**

Ushbu ilovada hozirgi kunda respublikamizda ta'lim tizimidagi innovatsion Yondashuvlarda hamda "Pedagogik texnologiyalar" kursida qo'llanadigan taqdimot materiallarini keltiramiz. Taqdimot materiallari 36 ta kaddan iborat bo'lib, unda pedagogik jarayonning samarali va natijali o'tishini ta'minlaydigan interfaol usullar keltirilgan.

Jumladan, aqliy hujum, klaster, zigzag, bahs-munozara, muz yorar, IMEN (ARIZ), yumaloqlangan qor, 6x6x6, kungaboqar, jadvallar, akvarium, olmos, taqdimot, keys-stadi, misollar asosida ta'lim berish, haqiqiy vaziyatlarni o'yin qilib ko'rsatish, Suqrot suhbat, germeneytik suhbat kabi usullar, guruh bo'lib ishlash, guruhlarni tashkil etish va guruh bo'lib ishlash modellari keltirilgan.

## Pedagogik jarayonining samarali bo'lishini taminlaydigan interfaol usullar

❓ „Interfaol,, -ingillizcha so'z bo'lib, „interact,,: “inter” –,,o'zaro,, va “act” -,harakat qilmoq,, ularni umumlashtirganda esa, „interfaol,,-,,o'zaro harakat qilmoq,, ma'nosini anglatadi.

❓ Interaction - hamkorlikni (boshqalar bilan) bildiradi.

O'zaro harakat turlari; o'qituvchi-talaba (yoki o'quvchi); talaba (yoki o'quvchi); talaba (yoki o'quvchi); o'qituvchi-Talaba (yoki magistr) lar; Talaba (yoki magistr) –talaba (yoki o'quvchi)lar; talaba(yoki o'quvchi)lar-o'qituvchi.

### O'QITISHNING INTERFAOL USULLARI

1. Kognitiv (cognito-lotincha so'z bo'lib "bilim", "bilish" ma'nosini anglatadi)-eng avvalo, Talaba (yoki magistr) larning tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan usuldir .

2. Eksperimental talaba (yoki o'quvchi)larning "jonli", shahsiy tajriba orttirishlariga yo'naltirilgan

3. Rolli o'yinlar, Modellashtirish hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma'lum rollarni ijro etish orqali ularni sinab ko'rishga yo'naltirilgan (usul jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog'liq, ammo muhokama rolli o'yin tahlili asosida olib boriladi

4. Fasilitasiya (inglizcha facilitate - osonlashtirish) –guruh ishini tashkil etish, ko'pincha aniq, haqiqiy, amaliy topshiriqlar bilan bog'liq aniq qaror qabul qilish bo'yicha muhokama faoliyatning haqiqiy rejasini ishlab chiqish, Haqiqiy, mojarolarni manfaatlarni muvofiqlashtirishga mo'ljallangan.

#### **Qabul qilish vositalari (kanallari)**

- Qabul qilishning eng muhim filtrlaridan biri
- Ko'rish, eshitish, xis-tuyg'udir.

Vizual - ko'rish orqali qabul qilinadigan axborot (obrazlar, rasm, film).

Auditiv - eshitish orqali qabul qilinadigan axborot (nutq, shamolning xushtagi, tomchilayotgan suv, oxang, tembr, ovoz balandligi).

Kinestetik (grekcha-kines-harakat) - xis qilish orqali qabul qilinadigan axborot (xid , tam).

#### **Aqliy xujum**

Bevosita jamoa bo'lib fikrlar xujumini olib borish. Bu usuldan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talaba (yoki o'quvchi) larni ayni bir xil fikrlashdan xoli qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

#### **Breynstorming**

Bu atama inglizcha so'z bo'lib, ikki tushunchadan iborat: brain- miya, storming –xujum, bo'ron, kattiq hayajon. Usulning «Miyani hayajonga solish» deb yuritilishi, uning asl mohiyatini ochib beradi, lekin bazida uni «Jamoaviy ijodiy fikrlash» deb ham tushunsa bo'ladi. Rus tilida usul «mozgovaya ataka», o'zbek tilida esa «Aqliy xujum» yoki «Fikrlar xujumi» deyilishi, uning asl mohiyatini saqlashga yordam beradi.

Bu usul 15 kishi dan ortiq bo'lmagan guruhlarda o'tkaziladi. Asosiy tamoyil: erkin muloqot-munozara jarayonida berilgan mavzu asosida yangi novatorlik g'oya, fikrlar to'planadi. Aytilgan g'oya, fikrlarning sifatiga emas ularning qanchalik ko'pligiga etibor qaratiladi.

Aytilgan g'oya, fikrlar muhokama ham, tanqid ham qilinmaydi. Munozara erkin va o'zaro samimiy munosabat xolatida o'tkaziladi. To'plangan g'oya, fikrlar asosida mavzu bo'yicha umumiy fikr shakllantiriladi. Aytilgan g'oya, fikrlarning sifati va ular asosida tuzilgan umumiy g'oya, fikrlarning qay darajada muximligi, muammo yoki mavzu bilan yaxshi tanish bo'lgan muaxassis-ekspertlar tomonidan baxolanadi.

Ushbu jarayonda o'qituvchining asosiy vazifasi- imkon boricha har bir aytilgan g'oya, fikrni to'plab borishdan.

#### Breyndayting

Ushbu usulning qo'llanishi breynstorming usuliga o'xshash bo'lib, faqat unda barcha g'oya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa, o'z g'oya va fikrlarini og'aki bayon etishga uyaladigan yoki qiynaladigan ba'zi tinglovchilar uchun qulaylik yaratadi. Talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan yozilgan fikrlar, g'oyalarning imloviy va usuliy xatolariga e'tibor qaratilmaydi hamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik hayolga kelgan fikrlarni yozish uchun bo'sh joylar ham qoldiriladi.

Talaba (yoki o'quvchi)lar o'z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiradilar. G'oyalar tahlili keyinroq o'tkaziladi. Bu usuldan foydalanganda, muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

#### **„Tarmoqlar“ (Klaster) usuli**

Fikrlashning tarmoqlanishi –pedagogik strategiya bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi)larning biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'lagan ketma-ketlikda tarmoqlashni o'rgatadi.

Fikrlarni tarmoqlash quyidagicha tarmoqlanadi:

1. Hayolga kelgan har qanday fikr bir so'z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi.
2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizilib turiladi.
3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o'zaro bog'liqlik ketma-ketligini ko'paytirishga harakat qilinishi lozim.

#### **SWOT- tahlil**

S - strength - kuch  
W - weariness - ojizlik  
O - opportunity - imkoniyat  
T - threat - tahdid

Kuchli tomonlari- hal etilayotgan vazifaning afzalliklari;

Kuchsiz tomonlari-maqsadga erishishda ichki muhim omillarning ta'siri;

Imkoniyat-belgilangan vazifalarni hal etishdagi eng ma'qul holat;

Tahdid-faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi tashqi muhit omillari.

Bahs-munozara(discussion method)- usulida guruh a'zolari biron muammoni yechish (yoki bilimlarini oshirish yoki mavzuni tushunish) maqsadida o'z g'oyalarini og'zaki taklif etadilar.Usuldan samarali foydalanish

uchun ishtirokchilar muhokama predmetiga oid yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishlari lozim. Bu usul kattalar ta'limida ko'proq samara beradi.

### **„Muzyorar“ o'yini**

(qizdiruvchi, faoliyatga jalb qiluvchi mashq) – talaba (yoki o'quvchi)larning o'zaro tanishishi va ishchi muhit yaratish maqsadida qo'llanadigan mashq.

Mashqning vazifasi - talaba (yoki o'quvchi)larni muloqotga chorlash („muzni yorish“).

Bu o'yin-o'quv honasidagi ruhiy taranglikni yengish, guruhning shakllanish jarayonini tezlatish, muloqot va axborot almashinuvini yo'lga qo'yish, shuningdek, samimiylik va hamkorlik muhitini yaratishga yordam berishdir.

„Muzyorar“ barcha ishtirokchilarni jarayonga muvaffaqiyatli jalb qiladi va treningni umumiy yo'nalishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **IMEN (ARIZ) –IMEN (TRIZ) usuli**

- ❑ IMEN (TRIZ) – ixtiro masalalarni yechish nazariyasi;
- ❑ IMEA (ARIZ) ixtiro masalalarni yechish algoritmi;
- ❑ IshRN (TRTL) –ijodiy shaxsni rivojlantirish nazariyasi;
- ❑ ITR (RTV) – ijodiy tasavvurni rivojlantirish.

Ilmiy ijodkorlik texnologiyasini yaratish ustida 1946 yildan e'tiboran ish boshlangan. Bu Yangi texnologiya TRIZ (teoriya resheniya izobretatelskix zadach) deb nomlangan. TRIZ haqidagi birinchi ma'lumot matbuotda 1956 yilda paydo bo'lgan.

1926 yili Toshkent shahrida tug'ilgan Genrix Saulovich Altshuller 1958 yili TRIZni o'rgatish bo'yicha birinchi o'quv seminarini o'tkazgan va ushbu o'quv seminarida G.Altshuller tomonidan ilk bor IOK (IKR –idealniy konechniy rezultat) tushunchasiga ta'rif berilgan.

IMEN-ishlab chiqarishni, yangi texnik fikrlarni aniq fanga aylantiradi, ixtiroli masalalarni yechishga yordam beradi. IMEN-talimda eskiliklardan voz kechishdi. IMEN elementlarni faqat texnik sohalarda emas, balki talim-tarbiya, shuningdek, boshqa sohalarda ham ishlatilishi mumkin.

Xayotdagi va tabiatdagi har bir predmet, har bir modda, hodisa, voqea, obyektida ikkilamchilik siri qarama-qarshilik mavjudligi talaba(yoki o'quvchi) larni har bir narsaning nimasidir yaxshi yo nimasidir yomon, bir tomondan foydali ikkinchi tomondan zararli, bir jihatdan halal bersa ikkinchi jihatdan zarur ekanligiga qiziqish uyg'otadi va uni topishga undaydi. Bu bilan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan ayrim materiallarni IMEN elementlari orqali osonlik bilan o'zlashtira olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

„Zigzag“ usuli 1980-1990 yillardan boshlab paydo bo'lgan. Bu usulning boshqa usullardan farqi shundaki, ishtirokchilar mayda guruhlarga ajratiladilar va Talaba (yoki magistr) lar raqamlanadilar, spiker (boshliq) saylanadi, so'ngra bir xil raqamlar bir-birini topshiriq „topadilar. Topshiriq beriladi va u o'zlashtirgach, tarqalishadilar. Har bir azo o'zi o'zlashtirgan materialni eski sheriklarga aytib beradi. Savol-javobda esa guruh baholanadi. Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir Talaba (yoki magistr) o'z guruhi manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga majbur! Chunki, u o'z guruhiga qaytganda, o'rgangan mavzu bo'yicuha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak. 4 ta guruh bo'lsa, 1,2,3,4 va 3 ta guruh bo'lsa 1,2,3 kabi va xokazo raqamlanadilar.

### **YUMALOQLANGAN QOR**

Bu usul har qanday tushunchaga mumkin qadar aniqroq tarif topishga imkon beradi, talaba (yoki o'quvchi)larga guruhlarda ishlashni boshqalar fikriga quloq solishni va umumiy nuqtayi nazarni ishlab chiqarishni o'rgatadi.

Bu usul bosqichma-bosqich hamda har bir bosqichga aniq vaqt belgilanishi bilan o'tkaziladi.

- ☐ 1-bosqich. Har qatnashchi 2 daqiqa mustaqil ishlaydi .
- ☐ 2-bosqich. Juftliklarda ishlash-uchliklarda ishlash-5 daqiqa.
- ☐ 3-bosqich. To'rtliklarda ishlash-oltiliklarda ishlash-5 daqiqa.
- ☐ 4-bosqich. Sakkizliklarda ishlash 5-daqiqa.
- ☐ 5-bosqich. 5-daqiqa muhokama.

Gruhlardagi ish tugashiga ko'ra har bir guruh vakillari navbati bilan o'z plakatlarini hona xattaxtasiga ilib qo'yadilar va uni o'qiydilar. Agar savollar bo'lsa guruh javob beradi. O'qituvchi barcha guruhlar ishtirokidagi ummumiylikni topishga yordam beradi.

### **6x6x6**

6x6x6 usulida o'qituvchi guruh 36 ta qatnashchisini qisqa vaqt mobaynida bironta masalani muhokama qilishga o'rgatish va ular ko'pchiligining fikrlarini bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

6 ta guruh (har birida olti kishi dan) ishtirokchilarni o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni 6 daqiqa mobaynida muhokama qiladilar. shundan keyin o'qituvchi 6 ta Yangi guruhni shunday tuzadiki, unda oldingi munozara guruhda qatnashganlardan birortasi bo'ladi. Yangi guruh qatnashchilarini o'z guruhlarining ish natijalarini muhokama qiladilar.

6x6x6 –guruhining barcha a'zolarini faollashtiruvchi usuldir. Qatnashchilardan har biri qisqa vaqt mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham so'zlovchisi rolda bo'ladi.

Guruhlar bitta muammoni yoki bir muammoning turli jihatlarini muhokama qilishlari mumkin. 6x6x6 usuli o'qituvchi va guruhlarning faol ishtirokini talab qiladi.

### **JADVALLAR**

Har bir ishtirokchiga flomaster va qog'oz varag'i beriladi va uni to'rt qismga ajratib har biriga quyidagi axborotni yozishni iltimos qilinadi;

- ☐ Chap yuqori burchakda o'zinini bitta so'z bilan ifodalasin;
- ☐ O'ng yuqori burchakda o'zi sevgan va faxrlanadigan narsasini yozsin;
- ☐ Chap pastki burchakda o'zi to'g'risidagi bironta sirni oshkor qilsin (jiddiy sir bo'lishi shart emas, lekin atrofdagilardan hech kim bilmaydigan sir bo'lishi kerak);
- ☐ O'ng pastki burchakda o'zi yaxshi ko'radigan mashg'uloti (hobbysini) yozsin.

O'qituvchi ham o'z jadvalini Talaba (yoki magistr) lar bilan bir vaqtda to'ldiradi.

**DIQQAT!** Jadvalni ayrim kataklari mazmuni o'quv predmeti yoki mavzusiga ko'ra o'zlashtirilishi mumkin. Hamma ishtirokchilar o'zlari tayyorlagan jadvallarini o'rgata olib chiqib namoyish etadilar va devorga ilib qo'yadilar.

### **KUNGABOQAR**

Talabalar 4-5 kishi dan iborat guruhlarga bo'linadi. O'qituvchi o'quv predmeti mavzusidan kelib chiqib o'rtaga bitta muammoni yoki asosiy muammodan kelib

chiqib, har bir guruhga bittadan muammo tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiriladi. Mavzuga qarab doiraga yoki umumiy bitta muammo yoki har bir guruhning muammolari yozilib doskaga yopishtiriladi (yetarli miqdorda qog'oz barglar oldindan tayyorlab qo'yilishi kerak. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlashib, umumiy yoki bir-birlarining muammolari bo'yicha fikr almashinmoqchi bo'lsalar, fikrlarini bargga yozib, uni o'sha guruh muammosi yozilgan gullarga joylashtirib qo'yadilar va har bir guruhning „muammoli guli“ vaqt o'tishi bilan o'sib boraveradi. O'qtuvchi barcha guruhlar qatnashchilariga muammoning eng qulay yechish yo'llarini topishga yordam berib boradi. Bu usuldan o'tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talaba (yoki o'quvchi)lar egallagan bilimlarini aniqlashda foydalanish mumkin. Usul, talaba (yoki o'quvchi)larga muammolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va fikrlarini erkin bayon qilishga o'rgatadi.

### **OLMOS**

Har bir juftlikka 9 ta jumla (hikoya) bo'lgan convert beriladi va ularni olmos shaklida joylashtirish topshiriladi.

Masalan:

Eng muhimi, ma'noli va qiziqarli jumla olmosning uchiga joylashtiriladi. Keyingi 2 tasi bir hil 2-o'ringa yig'iladi. O'rtadagi uchtasi 4-keyingi uchtasi esa 7-daraja hisoblanadi. Olmosning pastiga qo'yilgan jumla, guruh tomonidan eng muhim ma'noli va qiziqarli bo'lmagan jumla deb hisoblanadi. Juftliklar o'z mashqlarini tamomlaganlaridan so'ng ular 6 ta bo'lib guruhga bo'linadi. Guruhdagi har bir juftlik qanday tanlanganini boshqa 2 ta guruh tushuntirib beradi. shundan so'ng, umumiy 6 ta talaba (yoki o'quvchi), kelishuv asosida bir fikrga kelishadi. Fikrlarini navbatdagi guruhga aytib, shu tariqa suhbat davom etadi. Mashg'ulot ohirida juftliklar bir-birlariga baho beradilar va o'qituvchi fikrlarni umumlashtiradi.

Jumlalar o'rniga 9 ta turli rasmlar ishlatilishi mumkin. Bunday holatda mezonlar ham „o'ziga hos“, „chiroyli“, „kulgili“, „ajoyib“ yoki „o'zgacha“ liklari bilan baholanadi. Joylashtirish piramida shaklida (6 ta jumla, rasm va sh.k) bo'lishi ham mumkin.

Talaba (yoki magistr) lar jumla yoki rasmlarni katta formatli qog'ozga „Zina“ yoki „Narvon“ shaklidagi chizma ko'rinishida ham joylashtirishlari mumkin.

### **AKVARIUM**

O'quv honasida stullardan iborat ikki doira tashkil qilinib, birida stullar tashqariga, ikkinchisida ichkariga qarab joylashtiriladi. Talaba (yoki o'quvchi)lar teng ikki guruhga bo'linadilar: biri ichki stullar aylanasi boshqasi esa tashqi stullar aylanasi o'tiradilar. Bunda har kim o'z sherigiga qarab o'tiradi. Talaba (yoki magistr) larga muhokama qilish uchun savol beriladi.

Yaxshilab o'ylab ko'rganlaridan so'ng Talaba (yoki magistr) larga sheriklari bilan savolni muhokama qilish uchun bir yoki ikki daqiqa vaqt beriladi.

Ma'lum signaldan so'ng tashqi aylanadagilar bir o'rin chapga surilishadi va ayni savolni Yangi sheriklari bilan muhokama qilishadi. Tashqi aylanadagi talaba (yoki o'quvchilar) o'zlarining eng birinchi sheriklari surilib kelgunga qadar yoki yetarlicha Yangi sheriklari bo'lungacha faoliyat davom ettiriladi.

shu usulni tashqi doiradagilar tadqiqotchi sifatida ichki doiradagilar himoyachi sifatida „doiraviy rolli o'yin“ shaklidagi mashg'ulotlarda ham qo'llash mumkin.

### **TAQDIMOT**

Taqdimot –axborot, nazariya yoki tamoyillarni Talaba (yoki magistr) larga yetkazish maqsadida ekspert tomonidan o'tkazaladigan tadbir. U turli (ma'ruza, savol berish, munozara yurutish) shakllarda o'tkazilishi mumkin. Taqdimotning mazmuni usul sifatida o'qituvchiga ko'proq bog'liq bo'ladi.

Uni o'tkazish tartibi:

1. Talaba (yoki magistr) larni mavzu bilan tanishtirish –so'zlab bermoqchi bo'layotgan narsalar to'g'risida bayon etish.
2. Auditoriyadagi bor imkoniyatdan foydalanib, mavzu bilan tanishtirish (ko'rgazmali).
3. Bajarilgan ishga yakun yasash.
4. Talaba (yoki magistr) larning savollariga javob berish.

### **MISOLLAR ASOSIDA TA'LIM BERISH**

Misollar asosida ta'lim berish- tahlil qilish va muhokama qilish uchun foydalaniladigan(gipotetik, taxminiy) vaziyatning yozma ravishdagi ta'rifidir.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

1. Talaba (yoki magistr) larni misol bilan tanishtirish.
2. Misol bilan tanishishlari uchun talaba (yoki o'quvchi)larga vaqt ajratish.
3. Munozara yuritish (yoki muammo hal etish) uchun savollar taqdim etish.
4. Muammoni hal etish uchun Talaba (yoki magistr) larga vaqt berish.
5. Muammini hal etish (yoki o'z javoblari taqdimotini o'tkazishlari) uchun talaba (yoki o'quvchi)larga imkon berish
6. Barcha taxminiy yechimlarni javoblarni muhokama qilish
7. Talaba (yoki o'quvchi)lardan misol bilan ishlash jarayonida nimalarni o'rganganliklarini aytib berishlarini so'rash
8. Mashg'ulot haqida fikr bildirish.

### **„KEYS –STADI“ USULI**

„Keys- stadi “ inglizcha so'z bo'lib, (case-aniq vaziyat, hodisa, stadi-o'qitish). Bu usul aniq vaziyat hodisaga asoslangan o'qitish usuli hisoblanadi.

„Keys- stadi “ usuli bo'yicha ishlash:

1. Yakka tartibda ishlash (umumiy vaqtning 30% i)
  - ☐ Vaziyat bilan tanishish (matn bo'yicha yoki so'zlab berish orqali);
  - ☐ Muammolarni aniqlash
  - ☐ Axborotlarni umumlashtirish
  - ☐ Axborot tahlili
2. Guruhda ishlash (umumiy vaqtning 50% i)

- ☐ Muammolarni hamda ularning dolzarbligi bo'yicha ketma-ketligini (ierarxiyasini) aniqlash
  - ☐ Muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish
  - ☐ Har bir yechimning afzal va zaif jihatlarini belgilash
  - ☐ Muqobil yechimlarini baholash
3. Yakka tartibda va guruhda ishlash (umumiy vaqtning 20%)
- ☐ Muqobil variantlarni qo'llash immkoniyatlarini asoslash
  - ☐ Hisobot hamda natijalar taqdimotini tayyorlash

### **HAYOTIY VAZIYATLARNI O'YIN QILIB KO'RISH (SIMMULYATSIYA)**

Hayotiy vaziyatlarni o'yin qilib ko'rish – hayotiy vaziyatlarni o'yin shaklida ko'rsatishdan iboratdir.

Otkazish tartibi:

1. Talaba (yoki magistr) larni o'yin davomida o'ziga hos rollarni bajarishlariga tayyorlash.
2. Talaba (yoki magistr) larni bu o'yinning maqsadi, qoidalari va vaqt bilan belgilanadigan chegaralari bilan tanishish.
3. O'quv predmeti mavzusi bo'yicha yoki tanlangan muammo bo'yicha simmulyatsiyaviy sharoit yaratish
4. O'yinni o'tkazishga yordam berish
5. Talaba (yoki magistr) lardan bu o'yin ularda qanday taassurot qoldirganligini aniqlash
6. Yana qanday simmulyatsiyaviy sharoitlar bo'lishi haqida fikrlashish
7. Mashg'ulotni yakunlash

### **SUHBAT USULI**

Suhbat usuli-og'zaki bayon qilish usuli bo'lib, talaba (yoki o'quvchi)larning bilimlarini asta-sekin o'zlashtirishlariga olib keluvchi puxta o'ylangan savollar tizimidir. Bu usul materiallarni mustahkamlash va Yangi bilimlarni bayon qilishda qo'llanadi.

1. Evristik suhbat (evrestika yunoncha so'z bo'lib-heuruskeo izlayman, topaman, kashf etaman ma'nosini anglatadi).

Maqsad –o'qituvchining mohirona qo'ygan savollari yordamida hamda Talaba (yoki magistr) larni tirishqoqligi va mustahkam fikrlashlari tufayli ularni Yangi bilimlaarini jadal o'zlashtirishlarini ta'minlash.

Bu suhbatda o'qituvchining bitta savoliga Talaba (yoki magistr) larning ko'plab javoblarini kutish mumkin.

2. Katexizik suhbat(katehizic yunoncha so'z bo'lib katechesis „nasihat,o'git“ ma'nosini anglatadi) biron bir ta'limot asoslarini savol javob tarzidagi qisqacha bayoni

Maqsad – Talaba (yoki magistr) larning bilimlarini tushunganlik va o'zlashtirganliklarini nazorat qilishdir. Bu usul, 1-o'rinda hotira va tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. Bu suhbatda o'qituvchining bitta savoliga Talaba (yoki magistr) lar bitta aniq to'g'ri javob berishlari kerak.

### **GERMENEVTIK SUHBAT**

Germenevtik-(yunoncha so'z bo'lib, hermeneutikes-tushuntiruvchi, talqin qiluvchi ma'noni anglatadi).-matnlarni sharhlash san'ati.

Maqsad-o'qilayotgan, o'rganilayotgan matni tomosha qilinayotgan rasmni experiment va sayohat natijalarining asl ma'nosini mazmunini Talaba (yoki magistr) lar hamkorliklarida tushuntirish va izohlash.

Bu suhbat mobaynida o'rganilayotgan materialni to'g'ri tushunish va baho berish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

### **“SWOT-tahlil” metodi**

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Namuna: Badiiy tarjimaning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S Badiiy tarjimaning kuchli tomonlari

W Badiiy tarjimaning kuchsiz tomonlari

O Badiiy tarjimaning S – (strength) • kuchli tomonlari

W – (weakness) • zaif, kuchsiz tomonlari

O – (opportunity) • imkoniyatlari

T – (threat) • to'siqlar

foydalanishning imkoniyatlari (ichki)

T To'siqlar (tashqi)

### **Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi**

Metodning maqsadi:

Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot byeriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi.

Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi.

Bu intyerfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Namuna: Tarjima turlari Og'zaki yozma afzallig i kamchilig i afzalligi kamchiligi

### **Xulosa:**

Metodni amalga oshirish tartibi: trenyer-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishi dan iborat kichik guruhlarga ajratadi;

trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;

har bir guruh o'ziga byerilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar.

shundan so'ng, trenyer tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

## **“Keys-stadi” metodi**

«Keys-stadi» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard univyersitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan.

Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### **“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari**

Ish bosqichlari. Faoliyat shakli va mazmuni

1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish yakka tartibdagi audio-vizual ish;

keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash;

3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining echimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish individual va guruhda ishlash; muqobil echim yoʻllarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash

4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash;

ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;

yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

### **«FSMU» metodi Texnologiyaning maqsadi:**

Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni oʻzlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyadan maʼruza mashgʻulotlarida, mustahkamlashda, oʻtilgan mavzuni soʻrashda, uyga vazifa byerishda hamda amaliy mashgʻulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid boʻlgan yakuniy xulosa yoki gʻoya taklif etiladi;  
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qogʻozlarni tarqatiladi;

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishiga asos boʻladi.

Namuna. Fikr: “Tarjima muammolari haqida fikringizni bildiring”. Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

## **“ASSESSMENT” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis

F • fikringizni bayon eting • fikringizni bayoniga sabab ko'rsating

S • ko'rsatgan sababingizni M isbotlab misol keltiring

U • fikringizni umumlashtiring 18 qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, Yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. shuningdek, o'qituvchining ijodiy Yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, Yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar byeriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- talabalar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot byeradil 19
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o'qituvchi byerilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi; har bir ishtirokchi byerilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Tarjima nazariyasidagi tushunchalar tahlili”

Tushunchalar Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?

Qo'shimcha ma'lumot Tarjimon - forscha “tarzabon” so'zidan olingan bo'lib chiroyli so'zlovchi notiq kishi degan ma'noni anglatadi.

Ekvivalent lotincha “equivalence” so'zidan olingan bo'lib, o'xshash degan ma'noni anglatadi.

Pragmatika - til kollektivlarining biror axborotga nisbatan sub'ektiv munosabati.

Adekvat “adequate” so'zidan olinga bo'lib, to'la mos, aynan o'sha degan ma'nolarni anglatadi.

Retseptor - axborotni qabul qiluvchi shaxs

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

## **MATN LINGVISTIKASI FANIDAN MA`RUZALAR**

№	Ma'ruza	Qisqacha mazmuni	Soati
1	<b>1-mavzu. Matn lingvistikasi faniga kirish</b>	Matn lingvistikasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Fanning shakllanishi va rivojlanish tarixi. Matn lingvistikasining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Matn tushunchasi. Matnning asosiy xususiyatlari. Matnga turli Yondashuvlar va matn lingvistikasining yetakchi kontseptsiyalari. Matnning umumiy nazariyasi.	2
2	<b>2-mavzu. Matn lingvistikasining turli yo'nalishlari</b>	Matnning umumiy nazariyasi yo'nalishi. Matn grammatikasi va uning tadqiqot ob'ektlari va vazifalari. Matn semantikasi va uning tadqiqot muammolari. Matn stilistikasi. Matn stilistikasining asosiy muammolari. Kognitiv uslub. Stilistik vositalarning kontseptual ahamiyati. Kompozitsion struktura. Muallifning idiosтили tushunchasi	2
3	<b>3-mavzu. Matn tipologiyasi</b>	Matn tipologiyasiga turli Yondashuvlar. Matn tipologiyasining kriteriyalari. Matnga funksional-stilistik Yondashuv. Matn turlari va janrlari. Matn getyerojenligi.	2
4	<b>4-mavzu. Matn va uning asosiy kategoriyalari</b>	Matn kategoriyalari hakida tushuncha. Matn kategoriyalarining klassifikatsiyasi. Matn kategoriyalari: modallik kategoriyalari, matn yaxlitligi va tugallanganligi kategoriyalari, matnda o'rin-payt kategoriyalarini. Informativlik kategoriyasi va uning turlari.	2
5	<b>5-mavzu. Badiiy matn va uning asosiy kategoriyalari</b>	Emotivlik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Obrazlilik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Implitsitlik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Intyertekstuallik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Pretsedent matn tushunchasi. Intyertekst tushunchasi. Intyertekstuallikni matnda ifodalovchi til birliklari va stilistik vositalar: allyuziya, antonomaziya, tsitata, epigraf. Allyuziya turlari.	2
6	<b>6-mavzu. Matn lingvistikasi va kommunikativ Tilshunoslik</b>	Matnning kommunikativ mohiyati. Adresat va adresant faktorlari. Matn muloqotning asosiy va eng murakkab birligi sifatida. Kommunikativ maqsad va intentsiyalari. Matni qabul qilish va intyepretatsiyasi. Diskurs tushunchasi. Tekstual	2

		kommunikatsiyasi nigohida G.Graysning kommunikativ qonunlari.	
7	<b>7-mavzu. Matn lingvistikasi lingvopragmatik jihatlar</b>	Matn pragmatikasi. Matnga pragmatik Yondashuv. Pragmatik intentsiya tushunchasi. Pragmatik intentsiya turlari. Badiiy matnda pragmatik vazifalar turlari: "diqqatni jalb etish" vazifasi, "qiziqishni uyg'atish" vazifasi, "emotsional ta'sir ko'rsatish" vazifasi, "bilimlar tuzilmasini aktuallashtirish" vazifasi, "kontseptual dunyoqarashni aks ettirish" vazifasi. Matn ta'sir va tushunishning pragmatik effektivligi.	2
8	<b>8-mavzu. Matn lingvistikasining kognitiv aspekti</b>	Tayanch tushunchalar: bilimlar tuzilmalari, kontseptualizatsiya, kontseptual tizimlar, kognitiv model, kategoriyalashtirish, freym, kontsept, kontseptual va lisoniy dunyo tasviri tushunchalari. Matnda axborotni taqsimlash kognitiv printsiplari. "Axborotni ilgari surish" kognitiv printsiipi va uning turlari. Matnning kontseptual ahamiyati.	2
9	<b>9-mavzu. Matn lingvistikasining lingvomadaniy aspekti</b>	Lingvokulturema, madaniy kontsept, madaniy konnotatsiya, madaniy semalar, milliy dunyo tasviri tushunchalari.	2
10	<b>10-mavzu. Madaniy kontsept tushunchasi</b>	Madaniy kontsept tushunchasi va uning badiiy matndagi kontseptual ahamiyati. Madaniy kontseptlarning matnda vyerballashuvi.	2
11	<b>11-mavzu. Sarlavha</b>	Sarlavhaning matnning kontseptual dunyo tasvirini namoyon etishdagi ahamiyati.	2
12	<b>12-mavzu. Matn tahlili metodlari</b>	Lingvistik sharxlash (kontekstual ma'nolar tahlili, denotativ va konnotativ ma'nolar birikishi tahlili, matn birliklarini, ularning lug'atdagi ma'nolari bilan solishtirish).	2
13	<b>13-mavzu. Supyerlinear tahlil metodi</b>	Supyerlinear tahlil metodi (matnda implitsit ma'lumot signallarini aniqlash). Stilistik eksperyment metodi (sinonimlar tanlash, matnni toraytirish va kengay - tirish, pyerifraz, gapda kompressiyadan foydalanish, matnda aranjirovkaning turli ko'rinishlari).	2
14	<b>14-mavzu. Kontseptual tahlil</b>	Kontseptual tahlil (odam kognitsiyasining yuzaki til tuzilmalari bilan aloqasini o'rganishni nazarda tutadi). Infyerentsiya metodi (semantik kontseptualizatsiya jarayonida xulosaviy ma'nolarni olish).	2

1 5	<b>15-mavzu. Matn tahlilining statistik metodlari.</b>	Matn tahlilining statistik metodlari. Matnda freym tahlili. Matnda kross-madaniy tahlil.	2
<b>Jami</b>			<b>30</b>

### **1-mavzu. Matn lingvistikasi faniga kirish**

Matn lingvistikasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Fanning shakllanishi va rivojlanish tarixi. Matn lingvistikasining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Matn tushunchasi. Matnning asosiy xususiyatlari.

Matnga turli yondashuvlar va matn lingvistikasining yetakchi kontseptsiyalari. Matnning umumiy nazariyasi.

#### **Matn uz. saytidan foydalanuvchi siyosati**

##### **1. Umumiy qoidalar**

1.1. Matn.uz tizimi faoliyati demokratiya, insonparvarlik, barcha uchun ochiqligi, umuminsoniy qadriyatlar ustunligi, shaxsning erkin rivojlanishi prinsiplariga asoslangan.

1.2. Matn.uz tizimidan foydalanish bepul.

##### **2. Matn.uz tizimining asosiy vazifalari**

2.1. Berilgan matnning imlo xatolari mavjud yoki yo'qligini tekshirish, universal izohli lug'at, lotin alifbosida keltirilgan matnni kirill alifbosiga o'girib berish (shu o'rinda kirill alifbosidagi matnni lotin alifbosiga o'girish), matn tahriri.

2.2. Dasturchilar uchun REST-API xizmati.

##### **3. Foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari**

3.1. Tizimdan foydalanish huquqi fuqaroligi, yoshi, ijtimoiy va boshqa kelib chiqishidan qat'i nazar, turli hududlarda yashovchi barcha aholiga, shu jumladan ishlab chiqarish korxonalarini va tashkilotlarga beriladi.

3.2. Foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

- Tizim fondidan kerakli so'zlar haqida to'liq izoh olish;
- Tizim tomonidan ko'rsatiladigan imloviy xatolar tekshirish, onlayn tahrirlash va boshqa xizmat turlaridan foydalanish;
- Tizimning kamchiliklarini ko'rsatish (qayta aloqa bo'limi) hamda izohli lug'at omborini to'ldirish;

3.3. Tizimning xizmatlaridan foydalanish mutlaqo bepul va ro'yxatdan o'tish talab etilmaydi.

3.4. Foydalanuvchilarga cheklanmagan ravishda o'z materiallarini tekshirish imkoniyati beriladi.

Dasturchilarga REST-API xizmati maxsus kelishuv hamda bepul ravishda taqdim etiladi.

3.5. Tizimni rivojlantirish bo'yicha takliflar berish hamda hamkorlikka chorlash.

3.6. Foydalanuvchilarni tizimga kiritilayotgan ma'lumotlarga (yangi so'z qo'shish, so'zga izoh berish, qayta aloqa xizmatidan foydalanish) e'tibor bilan qarashga chorlaymiz.

Tizim faoliyatida kamchiliklar aniqlansa, Matn.uz xodimlariga xabar berishlarini so'raymiz.

3.7. Matn.uz tizimiga zarar yetkazgan shaxslar, qonunga binoan jinoiy yoki boshqa javobgarlikka tortiladi.

3.8. ARM fondidan hujjatlar va materiallarni yo'qotgan yoki unga qayta tiklab bo'lmaydigan darajada zarar yetkazgan foydalanuvchilar ARM xodimlari

tomonidan tan olingan teng qiymatli xuddi shunday hujjat va materiallar bilan o'zgartirishlari (shu jumladan, nusxalari bilan) kerak bo'ladi. Buning imkoni bo'lmagan hollarda ularning qiymati 5 barobar narxda undiriladi. Ko'p miqdorli (bir necha barobar ko'p miqdordagi to'lov) amaldagi belgilangan hujjatlar asosida yo'qotilgan va zarar ko'rgan nashrlarning bahosidan kelib chiqqan holda ARM xodimlari yoki jalb etilgan mutaxassislar tomonidan aniqlanadi.

3.9. Tizimdan foydalanish qoidalarini buzgan foydalanuvchilar ma'lum muddatga rahbariyat tomonidan o'rnatilgan tizimdan foydalanish huquqidan mahrum etilishi mumkin.

#### **4. Foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha Tizimning majburiyatlari**

4.1. Tizimdagi materiallardan qoidalar asosida foydalanishni ta'minlash hamda ularni saqlash va hisobot ishlarini amalga oshirish, izohli lug'atni yuritish;

- foydalanuvchilarga yuqorida ko'rsatib o'tilgan turdagi xizmatlardan foydalanishlarini ta'minlashi;
- foydalanuvchilarning talablarini o'rganish va imkon qadar qondirib borish;
- xizmatlarni mukammallashtirish maqsadida foydalanuvchilar bilan ishlashning turli individual va guruhli shaklini qo'llash;
- foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda yuqori madaniyat namunasini ko'rsatish va kasb mahoratini ta'minlash;
- kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlashni o'rgatish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish;
- tizimning ijobiy qiyofasini yaratishga ko'maklashish, ARM tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni va fondlarni targ'ib qilish, foydalanuvchilarning talablarini o'rganish va ularning xohishlarini inobatga olgan holda yangidan-yangi xizmat turlarini yaratib borish.

#### **2-mavzu. Matn lingvistikasining turli yo'nalishlari**

Matnning umumiy nazariyasi yo'nalishi. Matn grammatikasi va uning tadqiqot ob'ektlari va vazifalari. Matn semantikasi va uning tadqiqot muammolari. Matn stilistikasi. Matn stilistikasining asosiy muammolari. Kognitiv uslub. Stilistik vositalarning kontseptual ahamiyati. Kompozitsion struktura. Muallifning idio stili tushunchasi.

#### **Matn va uning til tizimida tutgan o'rni**

##### **1.1. Matn lingvistikasi va uning shakllanishi**

Matn nazariyasi, matn lingvistikasining umumiy rivojlanishida Praga lingvistik to'garagi vakllari, nemis, fransuz, ingliz, Amerika, golland, polyak va boshqa tilshunoslik maktablarining xizmatlari dunyo lingvistikasida e'tirof etilsa, rus lingvistikasida V.V. Odinsov, I. R. Galperin, O. I. Moskalskaya, L. M. Loseva, Z.Ya. Turayeva, N. S. Valgina, N. D. Zarubina kabi ko'pgina tilshunos olimlarning xizmatlari alohida e'tiborga loyiq.

Turkiyshunoslikda matn masalasi birinchi marta o'tgan asrning 70-yillarining boshlarida taniqli tatar tilshunosi M. Zakiyev tomonidan o'rtaga qo'yilgan. O'zbtik lingvistikasida birinchi bo'lib akademik G'. Abdurahmonov 1980 - yil Toshkentda bo'lib o'tgan sobiq Ittifoq turkiyshunoslarining III konferensiyasida matn nazariyasiga bag'ishlangan ma'ruza qilib, muammoning mohiyati va yechimlari haqida o'z fikrlarini bildirgan, bir qancha matn turlarini ajratib ko'rsatgan edi. shuningdek buyuk tilshunos olim A.

G'ulomov ham matnning mohiyati bo'yicha o'zining qimmatli fikrlarini bayon qilgandi.

Keyingi davr o'zbek lingvistikasida A. Mamajonov, M.To'xsonov, M. Abdupattoyev, N. Turniyozov, M. Xakimov kabi olimlarning ishlarini alohida qayd etish mumkin<sup>1</sup>. Matn lingvistikasi tilshunoslikning alohida sohasi, yo'nalishi sifatida shakllandi, muttasil rivojlanib kelmoqda, yangidan-yangi nazariy umumlashmalar qilinmoqda. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, matn tushunchasini material jihatdan belgilash va ta'riflashda mutaxassislar o'rtasida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yahlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Masalan, rus tilshunosi L.M. Loseva "matn" tushunchasini aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo'lgan belgilardan kelib chiqish lozimligini alohida qayd etadi<sup>2</sup>. Matnning lingvistik tadqiqot ob'yekti sifatida o'rgangan I. R. Galperin "matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlardan biri sifatida yozma hujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik" ni alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir. Ammo matn lingvistikasi muammolari bilan shug'ullangan ko'pchilik tilshunos olimlar matnning yozma ham, og'zaki ham bolaverishini ta'kidlab o'tadilar<sup>3</sup>. Chindan ham, ayni shu fikr ilmiy – mantiqiy jihatdan to'la asosga ega va u matnning mavjud mohiyatini to'g'ri aks ettiradi. Z.Ya. Turayeva matn lingvistikasining umumiy nazariyasiga ko'ra uning predmeti sifatida og'zaki yoki yozma nutq mahsuli bo'lgan matn olish mumkinligini aytadi, ammo matnni tor ma'noda, Ya'ni faqat yozma nutq mahsuli sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Matnning semantik –struktur tuzilishini rus tilidagi og'zaki va yozma nutq misolida o'rgangan R. A. Karimova matn faqat grafik, yozma shakldagina emas, balki og'zaki shaklda ham namoyon bo'ladigan nutqiy asar ekanligini, bunda og'zaki shakl genetik asos ekanligini alohida ta'kidlaydi va faktlarning tahlillaridan kelib chiqqan holda " bir qarashda matn makonnining qarama-qarshi nuqtalarida joylashganday ko'rinadigan og'zaki spontan matn va yozma matn (badiiy matn) umumiy xususiyat-muayyan tuzilishga ega", - degan nazariy xulosaga keladi<sup>4</sup>. Tilshunoslikda matnga berilgan juda ko'p va xilma-xil ta'riflarning deyarli barchasida bog'lanishlilik va yahlitlik belgisi y yoki bu tarzda o'z ifodasini topgan.

Ulkan tilshunos A.G'ulomov matnning mohiyati bo'yicha o'zining qimmatli fikrlarini bayon qilgan. U dunyo lingvistikasida kechayotgan jarayonlardan muttasil boxabar keng qamrovli olim sifatida "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis" darsligi(M.Asqarova bilan hamkorlikda)ni qayta ishlab, to'ldirib, uchinchi nashrini tayyorlar ekan, matn masalasini chetlab o'tolmaydi, ixcham bir tarzda bo'lsa-da, matn haqidagi qarashlarini kitobga kiritadi. A.G'ulomov gapdagi fikr tugalligining nisbiy ekanligini, asarda mazmun to'liqligi butun

---

1. Qarang: Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. - T.: 1989; To'xsonov M. Mikromatn va uning kommunikativ yahlitligi // O'zbek tili va adabiyoti, 1990, 5 - son, 66 – 69 - betlar; Mamajonov A. Abdupattoyev M. Matn sintaksisi.- Farg'ona, 2002 ; Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. - Toshkent, 1995.

2. Loseva ko'rsatilgan asar 4-bet; Galperin ko'rsatilgan asar, 18-bet.

3. Qarang: Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. - T.: 1989; M.To'xsonov Mikromatn va uning kommunikativ yahlitligi // O'zbek tili va adabiyoti, 1990,5-son, 66-69-betlar; A.Mamajonov, M. Abdupattoyev Matn sintaksisi.- Farg'ona, 2002; J. Lapasov Badiiy matn va lisoniy tahlil. - Toshkent, 1995.

4. Каримова Р.А. Семантико структурная организация текста(на материале устных спонтанных и письменных текстов) : Автореф. дисс... д.ра фил. аук. -М.: 1992, с 27.

matndan anglashilishini ta'kidlab, uch abzatsdan tashkil topgan yaxlit matn misol qilib keltiradi va undan kelib chiqib, quyidagilarni yozadi: "1. Fikr bayon qilish gap (sodda gap va qo'shma gap) doirasi bilangina chegaralanmaydi. To'liq fikrni, odatda, gapdan yirik bo'lgan sintaktik butunlik beradi. Gap bu butunlik sostavida uning bir komponenti sanaladi. 2. Bu komponent shu butunlikdagi boshqa komponentlar bilan har jihatdan (mazmun, grammatik) turli vositalar orqali bog'langan bo'ladi. Uning o'z kompozitsiyasi va stilistik xususiyatlari saqlangan bo'ladi. 3. Sodda gap butunlik sostavida ma'lum sharoitlarda o'zicha bir abzatsni tashkil qilishi mumkin... 4. Bunday sintaktik butunlik, sintaktik konstruktsiya tekst sanaladi. Ayrim - uzuq gap nisbiy tugal fikrni ifodalaydi, tekst butun bir kompleksning mundarijasini bildiradi. 5. Tekst bir butunlik bo'lganligidan, u o'z mundarijasiga mos keladigan ayrim sarlavhalarga ega bo'lishi ham mumkin. Tekst ayrim segmentlarga – qismlarga (ayrim parchalarga, abzatslarga, gaplarga) bo'linadi). Demak, tilning aloqa-aralashuv vositasi ekanligini tekst yana ham aniq ko'rsatadi. Nutq tekst tusida namoyon bo'ladi. 6. **Tekst – yirik nutq parchasi, abzats esa tekstning bo'lagi.** Tekstning hamma ko'rinishlari (maksimal tekst va minimal tekst) ma'lum bir temani (mundarijani) tugal ifodalaydi. Demak, u – yuqori darajadagi sintaktik birlik.<sup>5</sup>

Tekstning bu xususiyatlarini hisobga olib, ba'zi tekshiruvchilar uni lingvistikaning mustaqil bir sohasi sifatida (tekst grammatikasi, tekst lingvistikasi kabi nomlar bilan) ajratishni zarur deb biladilar. Ba'zilar esa uni tekst sintaksisi deb atab (so'z birikmasi sintaksisi, sodda gap sintaksisi kabi), gap sintaksisining davomi sifatida qarab, bu bilan sintaksis terminining mazmunini kengaytirishni, asosiy sintaktik birlik sifatida gapdan ko'ra katta sintaktik butunlik deb qarash kerakligini ta'kidlaydilar: bunda sintaksisning yuqori chegarasi qo'shma gap sintaksisi emas, balki tekst sintaksisi bo'ladi. Tekshiruvchilarning ko'pchiligi bu sohani birinchi qarash bo'yicha yoritmoqdalar.

A.G'ulomov o'zbek tili faktlaridan kelib chiqqan va dunyo lingvistikasidagi turli qarashlarni inobatga olgan holda matnning tabiati va mohiyatini aniq ko'rsatib bergan. Mazkur olti bandda birma-bir qayd etilgan qoidalar matnning asosiy umumiy xususiyatlarini o'z ichiga olgan.

M.To'xsonov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida makromatn va mikromatnni farqlagan holda o'zbek tilidagi mikromatn tarkibidagi unsurlarni bog'lovchi vositalar sistemasini tadqiq etgan<sup>6</sup>. Bu ish o'zbek lingvistikasidagi mikromatn va uning monografik aspektda o'rganishga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlardan ekanligi bilan diqqatga sazovordir.

O'zbek lingvistikasida matn lingvistikasi bo'yicha umumlashtiruvchi, ta'limiy xarakterdagi ilk ishlardan biri A.Mamajonov tomonidan yaratilgan. Uning filolog-talabalar uchun mo'ljallangan "Tekst lingvistikasi" nomli maxsus kursida matn haqidagi ilmiy qarashlar tahlil etilgan, matn tushunchasining mohiyati, tiplari va birliklari, bu birliklarning bog'lanishi va bog'lovchi vositalari, matn birliklariaro sinonimiya, sintaktik-stilistik figuralar masalalar bayon

5. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. -Toshkent: O'qituvchi, 1987, 6-7-betlar.

6. Tuxsanov M. Mikrotekst i sistema virajeniya ego kogerentnosti v uzbekskoy xudojestvennoy rechi: Avtoref. diss. ...k-ta filol. nauk. -Tashkent, 1987.

qilingan<sup>7</sup>. Keyinroq shogirdi M. Abdupattoyev bilan hamkorlikda nashr yettirgan “Matn sintaksisi” nomli o’quv qo’llanmasida matnning struktur-semantik va stilistik jihatlari, matn birliklaridagi tema-rematik munosabat atroficha tahlil qilingan, tegishli xulosalar umumlashtirilgan<sup>8</sup>

N. Turniyozovning “Matn lingvistikasi” nomli qo’llanmasi ham ana shunday ta’limiy xarakterdagi ishlardan bo’lib, unda tegishli o’quv rejasiga muvofiq matn haqida umumiy ma’lumot, mikro va makromatn tushunchalari, matn uzvlari orasidagi turli munosabatlar kabi ilmiy mavzular bo’yicha ma’lumotlar berilgan<sup>9</sup>. Matn muammolari bilan jiddiy shug’ullangan o’zbek tilshunoslaridan yana biri M. Hakimovdir. U asosiy maqsadi“ ilmiy matn va uning birliklari orasidagi mazmuniy munosabatni ifoda etuvchi bog’lovchilar, ularning o’ziga xos xususiyatlari va vazifalarini aniqlashga yo’naltirilgan ishlarga hissa qo’shish, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati hamda uning turlarini belgilash”dan iborat bo’lgan nomzodlik dissertatsiyasida o’zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini boy faktik materiallari asosida batafsil tadqiq etgan<sup>10</sup>.

M. Hakimov o’zbek tilidagi matnning pragmatik talqiniga bag’ishlangan doktorlik dissertatsiyasida esa matnning lingvistik pragmatika, G’arb falsafiy lingvistikasida shakllangan nutqiy akt nazariyasidan kelib chiqqan holda o’rgangan va matnda ochiq va yashirin ifodalanadigan mazmunlarning o’ziga xos qonuniyatlarini ko’rsatib bergan, ularning semantik, sintaktik, presuppozitsional va pragmatik mexanizmlariga daxldor qoidalarni konkretlashtirgan.

Keyingi yillarda o’zbek lingvistikasida matn masalasining u yoki bu jihati tadqiqiga daxldor bir qator ilmiy maqolalar ham e’lon qilindi<sup>11</sup>. Matn mummaolarini o’rganish va uning yaxlit ilmiy nazariyasini yaratishning xorijdagi faollaridan biri nemis tilshunosi R. Harveg 1974 yilda matn lingvistikasining tilshunoslikda to’liq asoslanishi uchun kamida yuz yil kerak bo’lishini ta’kidlagan edi<sup>12</sup>. Ammo bugun bu gapning aytilganiga hali 40 yil ham bo’lgani yo’q. Lekin butun dunyoda muntazam va qizg’in olib borilgan jiddiy ilmiy izlanishlar, tadqiqotlarning tabiiy natijasi o’laroq “matningvistikasi” (“matn nazariyasi”) nomi bilan bo’ladimi yoki “matn grammatikasi” (“matn sintaksisi”) nomi bilan bo’ladimi, baribir, shunday bir yo’nalish alohida fan va o’quv predmeti sifatida shakllanganligi keng e’tirof etilgan va buni hech kim inkor qilmaydi.

“Matn lingvistikasi” (“matn nazariyasi”) nomi bilan bo’ladimi yoki “matn grammatikasi” (“matn sintaksisi”) nomi bilan bo’ladimi, baribir, shunday bir yo’nalish alohida fan va o’quv predmeti sifatida shakllanganligi keng e’tirof

---

7. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. –Toshkent, 1989.

8. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi. -Farg’ona, 2002.

9. Turniyozov N. Matn lingvistikasi (ma’ruzalar matni). -Samarqand, 2004.

10. Hakimov M. O’zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ...diss. –Toshkent, 2001.

11. Masalan: To’xsanov M. Mikromatn va uning kommunikativ yaxlitligi // O’zbek tili va adabiyoti, 1990, N5, 66-69-betlar;

Shahobiddinova Sh., Isoqov Z. Matn va uni bog’lovchi vositalardan biri // O’zbek tili va adabiyoti, 2004, N6, 75-76-betlar;

Muhamedova D. Mikromatn ko’rinishida kesimlarning teng aloqaga kirishuvi // O’zbek tili va adabiyoti, 2004, N6, 90-91-betlar; Muhamedova D. Matn va uning turlari / Istiqlol va til. 3-qism. -Toshkent, 2007, 17-19-betlar. 5

12 Turniyozov N. Ko’rsatilgan asar, 15-bet.

etilgan va buni hech kim inkor qilmadi. Demak, shunga ko'ra, tilshunoslikda matnga doir yaratilgan tadqiqotlarni uch katta guruhga bo'lish mumkin: a) matnning formal-grammatik va ma'no qurilishiga oid ishlar; b) matnni turlicha idrok qilishga sabab bo'ladigan matn qurilishining shakliy va konseptual xususiyatlari tahliliga bag'ishlangan ishlar; v) matnning o'zini idrok qilishga oid ishlar. Yana shuni ta'kidlab aytish mumkinki, bugungi kunga kelib matnni o'rganishning yigirmadan ortiq usullari, metodlari ishlab chiqilgan va ular tilshunoslik fanida keng qo'llanmoqda. Ulardan biri o'zbekcha matnlarni statistik usulda o'rganishdir. Matnni o'rganishning bu usuli haqida B.Yo'ldoshevning "Matnni o'rganishning lingvostatistik metodlari" uslubiy qo'llanmasida izchil fikrlar bildirilgan bo'lib, unda turli vazifaviy uslubdagi matnlarni statistik metodlar asosida o'rganish usullari, ko'rinishlari, chastotali lug'atlar va ularni yaratish tamoyillari bayon qilingan<sup>13</sup>. Matnni o'rganishning lingvostatistik metodlarini tahlil va tatbiq qilish ham matn lingvistikasining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu borada samarqandlik olimlar S.Karimov, B.Yo'ldoshev, D.O'rinboyevalarning tadqiqotlari e'tiborga sazovor.

Tilshunoslikda matnni psixolingvistik jihatdan o'rganish ham o'ziga xos tarixiga ega. Ayniqsa, tilshunoslar I.Lisakova, A.A.Leontyev, N.S.Evchik, A.Shtern, T.A.Drozdovalarning bu boradagi tadqiqotlari diqqatga sazovor.<sup>2</sup> Bu yo'nalishdagi ishlarda matnning yaralishi va tushunilishi (pertseptsiyasi) bilan bog'liq jarayonlar, Ya'ni inson psixologiyasi va matn yaratish qobiliyati o'rtasidagi bog'liqligi masalalari ko'rib chiqiladi<sup>14</sup>.

O'zbek lingvistikasida ham bu yo'nalishda ishlar yuzaga kelmoqda. Xususan, I.Azimovning nomzodlik dissertatsiyasida psixolingvistikadagi matnning mazmuniy pertseptsiyasiga oid umumnazariy qarashlar sharhi berilgan, matnni tushunishga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni psixolingvistik tajribalar asosida tadqiq etilib, matnni tushunish jarayonining darajalari ko'rsatilgan, shuningdek, ishda matnning mazmuniy pertseptsiyasidagi birliklar aniqlanib, ularning formal-semantik xususiyatlari tahlil qilingan<sup>15</sup>.

Matn lingvistikasining yana bir muhim tarmog'i – badiiy matnni tadqiq qilish yo'nalishi ham, aytish mumkinki, o'zbek lingvistikasida yuqori darajada taraqqiy qilgan. Bu yo'nalishda M.Yo'ldoshev badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. Mazkur doktorlik ishida badiiy matnda tilning estetik vazifasining namoyon bo'lish tarzi o'zbek adabiyotining eng sara asarlari misolida tahlil qilingan, badiiy matnning mazmuniy turlari hamda intertekstuallik muammosi faktik materiallar asosida tasnif va tavsif qilingan, badiiy matnni lingvopoetik tahlili tamoyillari ishlab chiqilgan, shuningdek, badiiy matnning shakllanish tarzi va unda ishtirok

---

13. Yo'ldoshev B. Matnni o'rganishning lingvostatistik metodlari (uslubiy qo'llanma). - Samarqand, 2008.

14. Bu haqda qarang: Lisakova I.P. YAzik gazet: sotsiopsixolingvisticheskiy aspekt. -L., 1981, Leontyev A.A. Psixolingvisticheskie yediniti i porojdenie rechevogo viskazivaniya. -M., 1969, Evchik N.S. Perseptivnaya baza teksta: teoreticheskie i prikladnie aspekti formirovaniya. -Minsk, 2001, Shtern A.S. Perseptivniy aspekt teksta. -L., 1990, Drozdova T.A. Psixologicheskie osobennosti ponimaniya teksta kak protsess // Psixologicheskie mexanizmi porojdeniya i vospriyatiya teksta. Sbornik nauchnix trudov MGIIYA. Vip.23. -M., 1985. -S.106-120.

15. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertseptsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Filol.fan.nomz...dis.-Toshkent, 2008.

etuvchi lisoniy omillar o'rganilib, badiiy matnda fono-grafik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarning poetik aktualashish mexanizmlari tadqiq etilgan<sup>16</sup>.

S.Boymirzayevaning doktorlik ishi matn hodisasi mazmuniy tuzilishining kognitiv mohiyatini monografik tadqiq qilishga bag'ishlangan. Ishda matn hodisasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini tadqiq etilgan, uning mazmunini shakllantirishga xizmat qiluvchi modallik va temporallik kategoriyalarining matn mohiyati bilan uzviy aloqadorligi ko'rsatib berilgan hamda matn mazmuni shakllanishining ijtimoiy hodisa ekanligi, uning muallif va retsipient ishtirokida kechadigan lisoniy kognitiv faoliyat mahsuli ekanligi ochib berilgan<sup>17</sup>.

Sh.Turniyazovaning nomzodlik ishi matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda mikromatn va uning turlari haqida mulohaza bildirilib, unda oddiy grafema (nutqda tovush), so'z va so'z birikmalari ham matn maqomida kelishi mumkinligi dalillangan, mikrova makromatnlar voqelanishining derivatsion xususiyatlari ilmiy talqini berilgan, matn komponentlarining va umumiy matn strukturasiining derivatsion xususiyatlari yoritildi va bunda derivatsiya operatori vazifasida keluvchi semantik omil hamda leksik vositalar, matn komponentlarining pog'onali munosabati xususida fikrlar bildirilgan<sup>18</sup>.

Sh.Haydarovning "Badiiy matnda partsellyativ konstruktsiyalarning qo'llanilishi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ham matn lingvistikasining tarkibiy qismi, o'rganish ob'ektlaridan biri bo'lgan partsellyativ konstruktsiyalar tadqiqiga bag'ishlangan<sup>19</sup>.

Ishda partsellyativ konstruktsiyalar badiiy matn materiallari asosida lingvopoetik tadqiq qilingan, partsellyativ konstruktsiyalarning mohiyati, ularning ilova va boshqa konstruktsiyalardan farqli belgilari badiiy matndan olingan misollar asosida izohlanib, partsellyativ konstruktsiyalarning og'zaki va badiiy nutqqa xoslanishi, ularning o'ziga xos tomonlari tahlil etilgan hamda partsellyativ konstruktsiyalarning voqelanishiga ko'ra tasnifi ishlab chiqilib, partsellyativ konstruktsiyalar grammatik va lingvopoetik jihatdan tavsiflangan. Ko'rinadiki, matn lingvistikasi yuzasidan turli yo'nalish va aspektlarda tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda.

Bugungi kunda fanlarning integratsiyalashuvi natijasida sohalar orasidagi chegaralar ancha nisbiy bo'lib qoldi.D.Xudoyberdiyevaning "Matnning antropotsentrik tadqiqi" nomli monografiyasi fanlarning anashu integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin<sup>20</sup>. Ishning ahamiyatli tomoni shundaki, muallif antropotsentrik tilshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi, matn tadqiqiga oid ishlar va ularda yaratuvchi shaxsga e'tiborning qaratilishi, matn talqini va shaxs omili masalalari, "til egasi" tushunchasining hozirgi tilshunoslikdagi talqini, matn yaratilishi va uning idroki bilan bog'liq muammolar haqida ma'lumot berilgan. Matnni tadqiq qilishning kelajakda yanada yangidan-yangi sohalarini kashf etiladi, albatta.

---

16. Yuldashev M.Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi.Filol.fan.dokt...dis.-Toshkent, 2009.3

17. Boymirzayeva S. O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar.Filol.fan.dokt...dis.-Toshkent, 2010.

18. Turniyazova Sh.Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari.Filol.fan.nomz...dis.-Toshkent, 2010.

19. www.ziyouz.com kutubxonasi 17

20. Xudoyberdiyeva D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. T.: Fan, 2013.- 136 bet.

### 3-mavzu. Matn tipologiyasi

Matn tipologiyasiga turli Yondashuvlar. Matn tipologiyasining kriteriyalari. Matnga funksional-stilistik Yondashuv. Matn turlari va janrlari. Matn getyerojenligi.

. Poema. Povest. Roman. Dramatik asarlar. Trilogiyalar. Tema. Rema. Gipyertemali bog'lanish. Izchil tema-rematik bog'lanish.

#### **Mavzuga oid asosiy muammolar:**

1. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? Ularning bir-biridan farqi?
2. Abzatsning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari qaysilar?

#### **1-savol bo'yicha darsning asosiy maqsadi:**

Talabalarga matn butunligini ta'minlashda mazmuniy o'qning bajaradigan vazifasini tushuntirish. Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlash. Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn)ni bir-biridan farqlay olishga o'rgatish.

#### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra tiplarini farqlay oladi.
2. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplarini tushuntira oladi.
3. Mazmuniy o'q tushunchasini izohlaydi.
4. Motivatsion yaxlitlik va kompozitsion butunlik tushunchalarini ajrata oladi.
5. Mikromatn va makromatn haqida tushunchaga ega bo'ladi.
6. Abzatsning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari haqida bilib oladi.
7. Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlay oladi.

#### **1-asosiy savolning bayoni:**

Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1.Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari. 2.Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplari.

#### **1.Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari.**

Matn gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko'rinishidir. Matnni hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratamiz: **Minimal matn** (mikromatn) va **maksimal matn** (makromatn). shuni ham aytib o'tish kyerakki, ayrim adabiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: kichik, o'rta va katta hajmli matnlar. «Telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O'rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she'r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmdagi matnlarga povest, roman, drammatik asarlar, trilogiyalar kiradi.»<sup>1</sup> Lekin bu tarzda bo'linish ayrim chalkashliklarni yuzaga chiqaradi. shunday dostonlar borki, hajm jihatidan romandan katta. Nafaqat hajm jihatidan balki, ichki mazmun, xarakterlar tasviri, ruhiyat talqini jihatidan ham uncha-muncha romandan qolishmaydigan dostonlar bor. Masalan, «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi go'zal dostonlarimiz shakl va mazmun jihatidan yirik hajmli asar hisoblanadi. yoki kichik hajmli she'rlarni ham o'rta matn hisoblaymizmi? Umuman bu tarzda tasnif jiddiy asosga ega emas. shuning uchun matnni Tilshunoslikda keng tarqalgan ikkiga ajratib tekshirish tamoyili asosida o'rganishni ham mantiqan ham amaliy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Badiiy uslubda **minimal matn** deyilganda biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan:

Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi!(O'.Hoshimov)<sup>2</sup>

yoki: **Sevgi nima?** Insoniyat paydo bo'ptiki, shu savol ustida bosh qotiradi. Ammo javob topolmaydi. Agar inson sevgining barcha sir-asrorlarini bilganida edi, uning modeli – qolipini yaratgan bo'lardi. Sevgi hech qanday qolipga sig'magani uchun ham sirli va abadiydir (O'.Hoshimov).

Mikromatn deb atash mumkin bo'lgan ikkita parchani keltirdik. Tarkiblanish jihatidan birinchisi ikkita gapdan tuzilgan. Mazmunni birlashtirishga xizmat qiladigan sarlavha byerilmagan. Bu vazifa tovuq va u bilan bog'liq so'zlarga yuklatilgan (tovuq-tuxum-qaqog'lamoq). Iste'dodsiz yozuvchi birinchi gapda tovuqqa o'xshatilmoqda. Ikkinchi gap esa bu o'xshatishni to'laroq izohlash yoki sababini ko'rsatish uchun keltirilgan. Ya'ni, iste'dodsiz yozuvchi tovuqqa o'xshatildi, ammo tovuqning qaysi sifat va xususiyatiga? Muallif munosabati ikkinchi gapda tugal ifodasini topgan. Matn butunligini ta'minlashda tovuq-tuxum-qaqog'lamoq so'zlari **mazmuniy o'q** vazifasini bajarmoqda. Keyingi kichik hajmli matnni oladigan bo'lsak, ushbu matnning ichki mazmuni savol shaklidagi sarlavha orqali oshkor qilingan. Matn 4 ta gapdan tashkil topgan. Butunlikni ta'minlayotgan vositalar sirasiga izchil va tugal ohang, ammo bog'lovchisi, agar bog'lovchisi va matnning **mazmuniy o'q**ini tashkil qiluvchi sevgi so'zi kiradi. Demak, masala savol shaklida qo'yilyapti va unga matn orqali javob byerilyapti. Ya'ni, Sevgi nima? Sevgi - sirli va abadiy tushuncha.

O'tkir Hoshimovning Daftari hoshiyasidagi bitiklar turkumiga kiritilgan **Sadoqat** deb nomlanuvchi lavhada boshqacharoq holatni ko'rishimiz mumkin.

Qadim zamonda bir yurt bor ekan. Xalqi mehnatkash, Podshosi odil, hayoti tinch, turmushi farovon ekan. Boshqa bir mamlakatning shohi g'ayrligi kelib, o'sha yurtni bosib olmoqchi bo'pti. Biroq daf'atan hujum qilishga jur'at etolmay, o'sha yurtga o'z xufiyasini yuboribdi. «Qanday qilib bo'lmasin, Podshoning ishonchiga kirasan, yurtning sir-asrorini bilib kelasan» debdi.

Xufiya o'sha yurtga boribdi. Vaqti kelib, chindan ham Podshoning ishonchiga kiribdi, mulozimlaridan biriga aylanibdi. So'ng, o'z mamlakatiga qaytib borib, shohiga «Bu yurtni olib bo'lmaydi!» debdi. «Nima, qal'asi mustahkammi?»-deb so'rabdi shoh. «Gap qal'ada emas»,-debdi xufiya. «Bo'lmasa gap nimada o'zi?»-debdi shoh darg'azab bo'lib. shunda xufiya o'zi guvoh bo'lgan bir voqeani aytib byeribdi:

-Bir kuni o'sha Podsho shikorga chiqdi. Yonida qirq nafar yigiti ham bor edi. Men ham ularga qo'shildim. Podsho uchqur bir kiyik ortidan ot qo'ydi. Hammamiz unga ergashdik. Kiyik cho'qqiga qarab yugurdi. Podsho ham uning ortidan ot surib ketavyeradi. Bir mahal kiyik cho'qqi tepasiga etganda tubsiz dara ustidan sakradi-da, narigi cho'qqiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Podsho noiloj jilov tortib, ortidan tushdi. Tyerlab ketgan edi. Yonidan ro'molcha chiqarib, peshonasini artmoqchi bo'lgan edi, nogahon shamol kelib, ro'molchani daraga uchirib ketdi. shunda qirq yigitning hammasi o'zini tubsiz

jarlikka otdi. Qanchasi parcha-parcha bo'lib ketdi. Qanchasi mayib-majruh bo'ldi. Omon qolgan bir yigit ro'molchani olib chiqib, Podshoga topshirdi.

U yurtda bunaqa yigitlar ko'p. Bunaqa yurtni engib bo'lmaydi...

Mazkur matn sadoqat haqida, Vatanga, yurtga vafodorlik haqida. Biz matnning nima haqda ekanligini dastlab sarlavhadan bilib olamiz. Bu so'z matn ichida boshqa qaytarilmaydi, lekin sarlavha sifatida kelgan shu so'z matnning ham **motivatsion yaxlitligini** ham **kompozitsion butunligini** ta'minlashga xizmat qilyapti. shunga ko'ra yozuvchi **mazmuniy o'qni** nom darajasiga ko'tarish orqali maqsadiga to'la erishgan deyishimiz mumkin. shuni aytib o'tish kyerakki, hamma nomlar ham bunday vazifani bajaravermaydi.

Mutaxassislar ba'zan bittagina gap ham mikromatn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Masalan: Bahor... Bu jumlada «tabiatning jonlanishi», «hammayoqning ko'm-ko'k tusga kirishi», «atrof-muhitning go'zal tusga burkanishi» kabi yashirin mazmun mavjuddir.<sup>3</sup> Lekin bu tipdagi ko'rinishlarni tom ma'noda matn deb atash mumkin emas. Chunki matn struktural jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlik. Demak, gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan ma'nolar so'zning ma'no strukturasi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish to'g'ri bo'ladi. Agar yashirin mazmunga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, istalgan so'zni matn deyishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, ona degan so'zni oladigan bo'lsak, bu so'zning ham moddiylashmagan yashirin ma'nolari mavjud va ular mazkur so'zni talaffuz qilishimiz bilanoq, ko'z

oldimizda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi.

**Maksimal matn** deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Maksimal matn mikromatnlardan tashkil topadi. Eng kichik butunlik abzatsga, eng katta butunlik esa bob(qism yoki fasl)larga to'g'ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi. Masalan, F.M.Dostoevskiyning jahon adabiyotining mumtoz namunasiga aylangan «Jinoyat va jazo» romanini olaylik. Roman 6 qism va epilogdan tashkil topgan. Har bir qism 5-7 bo'limni o'z ichiga olgan. Qism va bo'limlarga alohida nom byerilmagan. Romanning umumiy hajmi 21 bosma taboq. yoki, Pirimqul Qodirovning «Humoyun va Akbar» tarixiy romanini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, mazkur asar ikki mustaqil qismga ajratiladi.

3. Hakimov M.X. O'sha asar. 24-b

Har ikki qism alohida nomlanadi (Humoyun. Akbar). Qismlar 9-10 tadan bo'limlarga bo'linadi va har bir bo'lim voqea bo'lib o'tayotgan joy hamda gap kim yoki nima haqida ketayotganligiga qarab nomlab boriladi (Masalan: 1.Agra. Hamida bonu arosatda... 2.Ganga. Ko'rgilik. v.h.). Romanning umumiy hajmi 30 bosma taboq.

Makromatnning tashkillanishini quyidagi sxema asosida yanada yaqqolroq

ko'rishimiz mumkin:

Makromatn

Qism yoki fasllar

Mikromatn

Bo'limlar

Abzatslar

Makromatnning eng kichik birligi abzatsdir. Abzats bir mazmuniy butunlik bo'lib «matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo'lgan qismi» hisoblanadi. Abzats **qisqa xabar** (abzatsda aytilmoqchi bo'lgan mavzu haqidagi dastlabki, qisqacha xabar), **oldingi xabar bilan keyingi xabarni bog'lovchi vositalar** (bog'lovchi vositalar abzatsni o'zidan oldingi abzatsga bog'laydi, shuningdek, abzats ichidagi xabar jummlarini bir-biriga bog'laydi), **xabarning to'ldirilishi** (dastlabki xabar to'ldiriladi, izohlanadi, sharhlanadi) va **xulosa** (xabar yakunlanadi, natija aytiladi) qismlarni o'z ichiga oladigan butunlikdir. «Matn lingvistikasi» qo'llanmasida abzatsni tashkil etgan gaplar o'zaro sinsemantik (sintaktik va leksik-semantik) hamda, avtosemantik (grammatik aloqalarsiz, faqat semantik) aloqa usulida birikishi aytiladi. shuningdek, abzatslarning strukturasi ko'ra quyidagi ko'rinishlari mavjudligi sanab o'tiladi: 1) Sodda gapdan iborat bo'lgan abzatslar; 2) Qo'shma gapdan iborat bo'ladigan abzatslar; 3) Pyeriodik nutq formasidan iborat bo'lgan abzatslar; 4) Superfrazali sintaktik butunlikdan iborat bo'lgan abzatslar; 5) Ko'chirma-o'zga gapli abzatslar.<sup>4</sup> Bunga aralash tipdagi nutq formalaridan tashkil topgan abzatslarni ham kiritish mumkin. Abzatsdagi «xabar» tema-rematik munosabatdagi gaplarda ifodalanadi. Tema (yunoncha thema – asos bo'lgan narsa) deb gapning aktual bo'linishida so'zlovchi va tinglovchi (o'quvchi) uchun ma'lum (tanish) bo'lgan narsani ifodalovchi, Yangi narsani ifodalashga o'tish uchun asos xizmatini bajaruvchi qismga aytiladi. Rema (rheme-commentaire – ma'lumot, sharh) esa temadan keyin kelib so'zlovchi tinglovchiga (o'quvchiga) bildirmoqchi, aytmoqchi bo'lgan Yangi xabar mazmunini ifodalovchi qism, gapning Yangi ma'lumot (axborot) qismi.<sup>5</sup> Odatda gapning ega sostavi tema, kesim sostavi esa rema vazifasida keladi: Ahmad //darsga kelmadi. Sotvoldi // nima qilishini, qayoqqa borishini bilmay, hayron turardi. U // Sotvoldining dadasi To'lagan edi.

Lekin har doim ham ega sostavi tema bo'lavermaydi. Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin: *Do'stim menga kitob sovg'a qildi.* Bu gapda tema to'ldiruvchi vazifasidagi so'z bilan ifodalangan. Rema esa ega va kesim sostavidan iborat gap bilan ifodalangan. Yuqorida tema - rematik munosabatdagi gaplarning ketma-ket kelishi natijasida abzats yuzaga kelishini ta'kidlagandik. Faqat bu ketma-ketlik qay tarzda namoyon bo'ladi, degan tabiiy savol tug'iladi. Buni quyidagi gaplar misolida ko'rib chiqamiz. *Do'stim menga kitob sovg'a qildi.*(1). *Kitob samimiy va beg'ubor muhabbat haqida edi.*(2). *Muhabbat hech kimni befarq qoldirmaydigan tuyg'u.*(3). Birinchi gapda qo'shninga so'zi tema qolganlari rema ekanligini ko'rib chiqdik. Ikkinchi gapda birinchi gapning remasi Yangilik xususiyatini yo'qotib, tema maqomiga o'tadi. Uchinchi gapda ham shu jarayon ro'y byeradi. Bunday bog'lanish tarzini **izchil tema-rematik bog'lanish** deb ataymiz. Buni quyidagi chizma orqali yanada aniqroq tasavvur qilishimiz mumkin:

Tema<sub>1</sub> Rema<sub>1</sub>

Tema<sub>2</sub> Rema<sub>2</sub>

Tema<sub>3</sub> Rema<sub>3</sub> va hokazo.

Ba'zan tema o'zgarmas bo'ladi. Dastlabki tema bilan aloqador Yangi xabarlar, ma'lumotlar keyingi gaplarda byerib boriladi. Masalan: Ahmad *darsga kelmadi*(1). *shanbalikda ham qatnashmadi*(2). *Bayram tantanasida ham teatrda ham ko'rinmadi*(3). Bunday bog'lanishni **o'zgarmas temali bog'lanish** deb ataymiz. Chizmada quyidagicha ifodalash mumkin:

Tema<sub>1</sub> Rema<sub>1</sub>

Rema<sub>2</sub>

Rema<sub>3</sub>

Ba'zan datlabki gapdagi temani keyingi gaplardagi temalar o'ziga aloqador remalar bilan birga to'ldirib keladi. Bunda dastlabki tema gipyertemaga aylanadi.<sup>6</sup> Masalan: Bu xotin *butun kecha bo'yi juda tinch va xotirjam uxlaganga o'xshaydi*. Bir oyog'i *tizdan quyisi bukilib, so'richadan pastga osilibdi*, bir oyog'i *unisini quvlab borib so'richaning qirg'og'ida uxlab qolibdi*. Uzun ko'ylagi *butun badanini kam-ko'stsiz yopib turadi*. Faqat bir engi *tirsakkacha shimarilib qolgan*. Oppoq qo'llari va bilaklari *o'z Yonida – o'z onasining to'qlisiday – bir chiroylik uxlaydi* (Cho'lpon).

Bunday bog'lanishni **gipyertemali bog'lanish** deb ataymiz.

Chizmada quyidagicha ifodalanadi:

(Tema) Tema<sub>1</sub>+Rema<sub>1</sub>      Tema<sub>2</sub>+Rema<sub>2</sub>      Tema<sub>3</sub>+Rema<sub>3</sub>

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra qanday tiplarga bo'linadi?
2. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari haqida ma'lumot byering.
3. Mazmuniy o'q tushunchasini izohlang.
4. Motivatsion yaxlitlik va kompozitsion butunlik tushunchalarini izohlang.
5. Mikromatn va makromatn haqida ma'lumot byering.
6. Abzatsning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari haqida ma'lumot byering.
7. Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlang.

**2-savol bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarga matnning ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra tiplarini tushuntirish. Ularni bir-biridan farqlay olishga o'rgatish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matnning tiplarini sanab byeradi.
2. Hikoya mazmunli matnlar (narrativ matn)ni tushuntiradi.
3. Tasviriy matnlar (deskriptiv matn) qanday matn ekanligini izohlaydi.
4. Izoh mazmunli matnlar (argumentli matn)ni bilib oladi.
5. Didaktik matnlar (eksplikativ matn) haqida ma'lumot byera oladi.
6. Buyruq mazmunli matnlar (injonktiv matn)ga misollar keltiradi.
7. Tasvirdagi birlamchi va aloqador xususiyatlar haqida ma'lumot byeradi.
8. Hissiy ifoda mazmunli matn deb qanday matnlarga aytilishini anglab etadi.
9. Xabar mazmunli matnlar(informativ matn) qanday matn tiplariga kirishini ayta oladi.

6. Bu haqda qarang: Bozorov O. O'zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi. NDA., -Farg'ona, 2004, 12-b., Moskalskaya O.I. Grammatika teksta.-M: «Visshaya shkola»,1981. s-136.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1. Hajm belgisiga ko'ra matn

tiplari. 2. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplari.

Ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra matn tiplari.

Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda har doim Yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga ko'ra turli matn tiplaridan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib byeramiz. Tinglovchiga notanish bo'lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab byerishga harakat qilamiz. Ba'zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihat qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz ba'zan qandaydir informatsiyani tinglovchiga etkazishga qaratilgan bo'ladi. shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kyerakligi haqida tavsiyalar byeramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq byeramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitob jumllaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba'zan mubolag'a ba'zan o'xshatish – qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanamiz.

shundan kelib chiqib matnni, xususan, badiiy matnni quyidagi tiplarga bo'lib chiqish mumkin: 1.Hikoya mazmunli matn. 2.Tasviriy matn. 3.Izoh mazmunli matn. 4.Didaktik matn. 5.Xabar mazmunli matn. 6.Buyruq mazmunli matn. 7.Hissiy ifoda mazmunli matn.<sup>7</sup>

**1.Hikoya mazmunli matnlar** (Le texte narratif - narrativ matn). Bunday matnda muallif yoki asar qahramoni o'zi boshidan o'tkazgan, eshitgan, o'qigan yoki guvoh bo'lgan biror bir voqeani hikoya qilib byeradi. Xotiralar, esdaliklar, ertak va

rivoyatlarni narrativ matn tipiga kiritish mumkin. Hikoya tarzi asosan o'tgan zamon

shaklida, birinchi shaxs birlik yoki ko'plikda ifodalanadi. Hikoya qilinayotgan voqea

– hodisa kichik yoki keng qamrovli bo'lishi mumkin. Sekin - asta ko'tarilib boruvchi

izchil va yaxlitlovchi ohang kuzatiladi. Biryoqlama ifoda uslubidan foydalaniladi. Ya'ni, matn shakllanishida asosan, hikoya qiluvchi (roviy) yetakchi faktor hisoblanadi. Monologik nutq ko'rinishi bunday matnlar uchun juda mos va qulay bo'ladi. O'rni bilan dialogik nutq ko'rinishlariga murojaat qilinganligini kuzatishimiz mumkin. shunda ham hikoya matnining motivatsion butunligi roviyga bog'liq bo'ladi. Bu tip matnlarda tasviriy, izoh, xabar, hissiy ifoda mazmunli matnlar birdaniga ishtirok etishi mumkin.

«**Duogo'y**». Said Ahmad aka boshchiligida bir guruh adiblar olis tog' qishlog'iga etib bordik. Mehmonga chaqirishdi. Uy to'la odam. Davra boshida to'rvadek soqoli ko'ksiga tushgan qariya o'tiribdi. Hamma unga ta'zim bajo qiladi. Davraga kim kelib qo'shilmasin chol uzundan-uzoq duo o'qiydi. «Sen ham mening yoshimga etib yurgin, bacham», deb fotiha tortadi.

Bir xil duo takrorlanavyergach, Said Ahmad aka so'radi:

-Necha yoshga chiqdingiz, taqsir?

-Menba?-dedi chol salmoqlab. –Ikkam jetmishga bordim.

-Voy bo'-o'-o'!-dedi Said Ahmad aka bosh chayqab. –Agar sening duoning mustajob

7. Matn tiplari haqida qarang: Filizok R. Metin tipleri. <http://www.ege.edebiyat.org>.

bo'lsa, men sakkiz yil avval o'lib ketishim kyerak ekan-da, ukam? Men etmish oltiga chiqdim! Turaqol endi, joy almashamiz! (O'.Hoshimov)

**Yo'li topildi.** Erkin Vohidov univyersitetni endi bitirgan paytidayoq taniqli shoir edi. O'zingiz bilasiz, oliy o'quv yurtini bitirgan odam oldida uylanish muammosi ko'ndalang bo'ladi. shu masala yuzasidan Erkin aka Said Ahmad akaga maslahat solibdi.

-Oqsaqol,-debdi. -Xabaringiz bor, bir-ikkita kitobim chiqdi. Uch ming so'mcha pulim ham bor (U paytda uch ming katta pul edi). Lekin qaysi biriga etkazishni bilmayapman. Mashina olaymi, uy solaymi, xotin olaymi? Mashina olsam, uy sololmayman, uy solsam, uylanolmayman, uylansam, Mashinaga pul qolmaydi... Nima qilay?

Said Ahmad aka peshanasini Rashid abzining garmoniday tirishtirib, chuqur va uzoq o'yga tolibdi. Oxiri chehrasi yorishib bunday debdi:

-Bolam, men xo'p o'yladim. Hisoblab ko'rsam uch ming so'm puling hammasiga etarkan. Maslahat shuki, sen avtobus sotib olgin! Avtobus degani Mashina bo'ladi. Rulini qayoqqa bursang ketavyeradi. Bu - birinchidan. Avtobusning ichi keng-mo'l bo'ladi. Ko'ch-ko'roningni olib kirsang tayyor uy bo'ladi. Bu – ikkinchidan. Uchinchidan, rostki avtobus bo'lgandan keyin ichida konduktori ham bo'ladi. O'sha konduktorni xotin qilib olib qo'ya qolasan!..(O'.Hoshimov)

Bunday zotlarning har bir uchrashuvi bayram bo'lib ketadi, ular o'rtasidagi do'stlik afsonaga aylanib ketadi. Taniqli o'zbek adibi Nosir Fozilov qachonlardir Sobit Muqonov to'g'risidagi xotiralarini «Mehribonlik» nomi bilan atagandi. O'sha xotiralarda qiziq bir voqea eslatib o'tiladi.

Toshkentdan Sobit Muqonovning uyiga mehmon bo'lib kelgan qadrdon do'sti Oybekni Mashinaga o'tqazib, ko'm-ko'k o'tloq, bog'-rog' qoplagan Olatov etaklariga olib ketadi. Tabiat go'zalligidan bahramand bo'ladilar. Sip-silliq qizil qoyalar Yonidan o'tayotib, Mashinaga tormoz byeradi. Xarsang toshlardan birini aylanib tomosha qiladi. Tabiatning o'zi obi-tobida sayqal byergan toshdan ko'zlarini uzolmasdan bosh chayqadi-da: «Go'zal! Mo''jiza!» deydi. Sobit esa sir boy byermasdan Oybekning Yoniga yaqinlashadiyu unga sinchikov razm solib:

-Xo'sh, yoqib qoldimi?-deb so'raydi.

-Bo'lmasam-chi!-deb to'lqinlanib javob byeradi.

-Unday bo'lsa, buni men senga sovg'a qilaman. Faqat o'z nomimdan emas, butun qozoq xalqi nomidan sovg'a qilaman. An'anamiz bo'yicha arg'umoqqa ega bo'ldim deyaver.

shunday qilib, Medeo chegarasida yotgan xarsang tosh mehmonga yoqib qoladi: Sobit uni sovg'a qiladi, Oybek qabul qilib oladi. Tez orada Oybek Toshkentga qaytib ketadi. Sobit esa keyin o'sha xarsang Yoniga bitta toshtaroshni yollab boradi. Xarsang toshga hech o'chmaydigan so'zlar o'yib yoziladi:

«Bu silliq toshni men Muso Oybekka sovg'a qildim. Sobit Muqonuli. 1962 y. 3. VI».

O'sha kuni Sobit o'z hayotida bag'oyat mas'uliyatli vazifani ado etgan kishi dek kayfiyati ko'tarinki holatda quvnoq qo'shiq aytib uyiga qaytadi.

-Men o'z hayotimda juda ko'p sahiy odatlarni ko'rganman. Lekin tog'da yotgan chaqirtoshni sovg'a qiladigan Sobitga o'xshash odamni aslo uchratmaganman,-deb tez-tez eslab yuradi Oybek.<sup>8</sup>

Byerilgan matnlarda uch xil holatni kuzatish mumkin. Birinchi matnda yozuvchi o'zi guvoh bo'lgan voqeani hikoya qilyapti, ikkinchi matnda muallif eshitgan voqeasini so'zlayapti. Uchinchi matnda esa muallif o'qib ta'sirlangan voqeasini aytib byeryapti. shunga ko'ra ifoda tarzi o'zgarib borgan. Hikoya mazmunli matn boshqalariga qaraganda murakkab tarkiblangan bo'ladi.

**2.Tasviriy matnlar** (Le texte descriptif - deskriptiv matn). Bunday matn tinglovchiga noma'lum bo'lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani batafsil tasvirlab byerish maqsadida tuzilgan bo'ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko'rinishi yetakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi. Ya'ni, tasvirlanayotgan ob'ektning dastlab, birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlardan so'z yuritiladi. Masalan:

**Yakan** degan o'simlik bo'ladi. Nima uchundir san'atkorlar, aniqrog'i otarchilar pulni «Yakan» deyishadi. Aslida esa Yakan – qamishzorda o'suvchi o'simlik. Yakanni o'rib olib, quritib uzum osadilar yoki savat qalpoq to'qiydilar. Ma'lumki, qamish uzun, Yakan esa, aksincha, pastak o'simlik. shunday bo'libdiki, bir kuni Yakan qamishga qarab:

-O', birodar, hadeb g'o'ddayavyerma, salgina egil. Ollohning quyoshi nuridan biz ham bahramand bo'laylik - debdi.

Qamish unga qaragisi ham kelmabdi, javob ham byermay burnini jiyirib qo'ya qolibdi. Vaqti-soati kelib avval qamishni, so'ng Yakanni o'ribdilar. Tasodifni qarangki, o'sha qamishdan yasalgan bo'yroni bir uyga to'shabdilar. Tasodifni qarangki, shu uy to'sinlariga uzumlarni osibdilar, Yakandan to'qilgan savat qalpoqlarni esa devordagi qoziqlarga ilibdilar. Oradan kunlar o'tavyeribdi. Qamish pastda, oyoq ostida, Yakan esa tepada ekan. Oyoqosti bo'lavyerib xorlangan qamish axiyri Yakanga qarab zorlanibdi:

-Meni o'rib olib quritdilar, tepkilab qovurg'alarimni sindirdilar, so'ng suvga bo'ktirdilar. So'ng qayirib-bukib mana shu bo'yra holiga keltirdilar. Endi esa tinimsiz, har kuni tepkilaydilar. Bu ham etmaganday sal qayirib, ostimga noslarini tupuradilar.

Bu zorlanishni eshitib Yakan debdikim:

-Siz bekorga g'o'ddaydingiz. G'o'ddayib o'savyerdingiz. Ichingiz g'ovak ekanini unutdingiz. G'ovak bo'lganingiz uchun ham tepkilashdan bo'lak narsaga yaramadingiz. Hali ham kech emas, siz o'sgan yerda ildizingiz qolgan. Siz o'sajak qamishlarga etkazing. Sizning holingizga tushmasinlar. Qamishni ba'zan tomga ham to'shaydilar. Lekin baribir uning basharasiga loy chaplanadi...<sup>9</sup>

Keltirilgan matnda Yakan deb nomlanadigan bir o'simlik tasvirlanadi. Buni **tasvir ob'ekti** deymiz. Uning o'simlik ekanligi haqidagi axborot **birlamchi**

**xususiyat** hisoblanadi. Uning qanday o'simlik ekanligi haqidagi axborot **aloqador xususiyat** hisoblanadi. Bu matnda aloqador xususiyat deb ataluvchi qism boshqa bir o'simlik bilan bog'liq tasvir fonida yanada ravshan ifodalangan.

yoki Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar» romanini bir saroy tasviridan boshlaydi: Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilgan bu dong'dor saroyini Toshkent, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to'la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, \_\_\_\_\_

8 Aytmatov CH., shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. –T: «sharq», 1998, 103-b.

9. Tohir Malik. Mehmon tuyg'ular. –T: «sharq», 2002, 19-b.

shuning uchun kunduzgiga qarag'anda saroy jonliq: kishi larning shaqillashib so'zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyini ko'kka ko'targudek.

Saroyning to'rda boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham' Yonadir, o'zga hujralarda engil tabiatlik, syerchaqchaq kishi lar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda. Og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit.<sup>10</sup>

Bu parchada **tasvir ob'ekti** - saroy, bugungi til bilan aytadigan bo'lsak, mehmonxona. Uning Toshkent, Samarqand va Buxoro savdogarlari orasida mashhurligi haqidagi axborot **birlamchi xususiyat** bo'lsa, hujra va jihozlar haqidagi axborot **aloqador xususiyat** hisoblanadi. Bu matnda ham ob'ektning aloqador xususiyati u yerdagi insonlar tasviri fonida yanada aniq va tushunarli qilib tasvirlanyapti. Buni o'z navbatida **ikkilamchi xususiyat** u bilan bog'liq tasvirni esa **ikkilamchi aloqador xususiyat** deb atasak bo'ladi. Yakan haqidagi matnda qamish ikkilamchi xususiyat, u bilan bog'liq tasvir **ikkilamchi aloqador xususiyat** hisoblanadi. Mazkur matn o'sha xususiyatlar tasviriga asoslanib shakllantirilgan. Matnda bunday aloqadorlik bitta yoki bir necha bo'lishi mumkin. Bitta va ikkitalik turini tahlil qilish qulay. Agar ikkitadan ortiq bo'lsa tahlil murakkablashib ketadi. Bunday paytda eng xarakterlisi va matnning tashkillanishida yetakchilik qiladiganini olamiz. Buni quyidagicha formulalashtirishimiz mumkin:

1.  $m=(bx-ax)$ ;

2.  $m=n \cdot (bx-ax)$

Bunda m-matn so'zining belgisi, «**bx**»-birlamchi xususiyat, «**ax**»-aloqador xususiyat, agar matn ikki va undan ortiq aloqadorliklardan tuzilgan bo'lsa «**n**» belgisi o'rniga ularning miqdorini ko'rsatamiz.

**3. Izohtash mazmunli matnlar** (Le texte argumentatif – argumentli matn). Bunday matnda aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta'kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o'zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil vajlarni keltirish argumentli matn tipining o'ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Fikr bilan keltirilgan dalil o'rtasida **mantiqiy bog'liqlik**ning (connecteurs logiques) bo'lishi muhim sanaladi. Bunday matnda Chunki, Zero, lekin, aslida, shuning uchun, to'g'risini (ochig'ini, rostini) aytganda, eshitishimga qaraganda, bilishimcha, taxminimcha kabi birliklar (le lexique

appreçiatif) qo'llanilganligini ko'ramiz. Kitobxonni yoki tinglovchini ishontirish asosiy maqsad bo'lganligi uchun shunga mos ritorik uslub tanlanadi. Badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. Gaplar o'zaro zich bog'langan va ta'kid ohangi sezilib turadigan matn tipi hisoblanadi.

**4. Didaktik matnlar** (Le texte explicatif – eksplikativ matn). Kimgadir pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o'rgatish istagi asosida tuzilgan matn eksplikativ yoki didaktik matn deyiladi. Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalaniladi. Ularning matn ichiga singdirilish tarzi turlicha bo'ladi. Muallif bunday didaktik birliklarni matnga \_\_\_\_\_

<sup>10</sup> Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar», -T: «sharq», 2000, 11-b.

to'g'ridan to'g'ri olib kiradi va uning qaysi janrga taalluqli ekanligini aytib o'tadi. Didaktemalar matn tashqarisida avvaldan tayyor holda mavjud bo'ladi. Muallif yoki qahramon nutqida quyidagi ifoda shakllari ishlatiladi: shunday maqol bor, mashoyihlar demishlarki, ulug'lar(eskilar)da shunday gap bor, dyerlarkim, shunday rivoyat (o'git, voqea, masal) eshitganman va hokazo.

**Hudhudning Tovusga javobi.** Hudhud unga javob byerish uchun nafasini rostlab, shunday dedi:

- Ey jaholat ahli kabi har narsani havas qiluvchi! Sen shunday holatlarni bayon etdingki, bu ish faqat devonalar va yosh bolalar qo'lidangina kela oladi, xolos. Odam degan tashqi go'zallik haqida so'z aytmaydi. Kimki undan faxr etar ekan, uni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi! Noz va husn faqat dilbar qizlargagina yarashadi. Er kishi esa dard va mashaqqat chekishi bilan yaxshidir. Barcha shakl ahli uchun eng sharafli ish ana shudirki, u shakldan ma'no tomon olib boradi. Sen o'z shaklingga bino qo'yding, buning uchun kishi lar tomonidan masxara etilishga loyiqsan. Chunki, inson o'z tashqi go'zalligi bilan faxrlanmaydi, agar faxrlansa, u masxaralanishga sazovordir! (Alisher Navoiy)

**Donishmand debdiki:** har qanday yaxshi qonunning muqaddimasi, shuningdek, xotimasi ham shundan iboratkim, har bir inson bir burda nonini yaxshi mehnati bilan topa olsin va ayni choqda mehnatiga loyiq yaxshi non ola olsin (T.Malik).

**Demishlar:** moru qushni bir qafasda asratib bo'lmas, Vatandin ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.

Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas (A.Oripov).<sup>11</sup>

Didaktemalarni keltirishdan asosiy maqsad shu orqali pand-nasihat berish, muammoli masalani echishga ko'maklashish, qandaydir murakkab vaziyatdan chiqish yo'llarini ko'rsatish, to'g'ri yo'lni topishda keltirilgan misoldan ibrat chiqarishga da'vat qilish yohud bo'lib o'tgan voqeaga munosabat bildirishdan iborat. Lingvopoetik tahlilda didaktemalarning estetik mohiyati muhim hisoblanadi.

**5. Xabar mazmunli matnlar** (Le texte informatif – informativ matn). Biror voqea-hodisa haqida xabar byerish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matn informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o'ziga xos tarzda bo'ladi. Oddiy xabardan farq qiladi. Estetik maqsad yuklangan bo'ladi. Narrativ, deskriptiv, argumentli, didaktik kabi matn tiplari tarkibida keladi.

Masalan, Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar» romani yakunida shunday bir xabarni keltiradi:

Keyingi Marg'ilon borishimda yaqin o'rtoqlardan Yodgorbek to'g'risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o'n to'qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miYonasida vafot qilib, undan ikki o'g'ul qolibdir. O'g'ullaridan bittasi bu kunda Marg'ilonning mas'ul ishchilaridan bo'lib, ikkinchisi Farg'ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o'luk-tirigi ma'lum emas, deyдилar.

Bu ham xabar mazmunli matn hisoblanadi. Lekin asar ichida emas balki, ilova sifatida keltirilgan. Asar qahramonlarining hayotdan olinganligini ta'kidlash, bunga kitobxonni ishontirish istagi bilan kiritilgan. Bu haqda asar avvalida ham yozuvchi alohida ta'kidlagan edi: «xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «CHor darvesh»lari, «Farhod-shirin» va «Bahromgo'r»lari bilan tanishdirishka o'zimizda majburiyat his etamiz.» Balki, yozuvchi, ushbu qahramonlar taqdiri qanday kechganligi haqida kitobxonlarga xabar byerishni xohlagandir, balki, romanni davom

---

11. Abdulla Oripovdan keltirilgan misollar quyidagi kitobdan olindi: Saylanma. –T: «sharq» 1996.

ettirajagini, agar davom ettirilsa voqealar shu mazmunda bo'lishi mumkinligi haqida xabar byerayotgandir. Bu bizga qorong'u, lekin keltirilgan matn xabar mazmuniga ega. Asar ichida yozuvchi tomonidan keltirilgan turli havolalar ham informativ xarakterda bo'lishi mumkin. «O'tkan kunlar»da muallif Musulmonqulning dovyurakligi haqida shunday havolani keltiradi:

Musulmonqulning o'zi ham favqulodda yuraklik edi. 1853 m. tarixida Musulmonqul qo'qonlilarga asir tushib, uni to'pdan otib o'ldirish uchun dordek bir narsaning ustiga o'tquzurlar. Ikkinchi tomondan to'pka o't byerish kutiladir. shu vaqtda kishi lar Musulmonquldan so'raydilar: «Endi qalaysan, Cho'loq?» Musulmonqul kulibgina javob byeradir: «Alhamdulillah, hali ham sizlardan Yuqori bir yerda o'ltiribman!»

**6. Buyruq mazmunli matnlar.** Buyruq hamda maslahat ohangi yetakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli ta'qiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq mazmunli matn deyiladi. Asosan qahramonlar nutqida kuzatiladi. Lekin muallif nutqida maslahat yoki tavsiya ma'nosida qo'llanilishi ham ma'lum. Masalan:

**Odat.** Ishdan nega kech kelganingizni surishtirsa, xayron bo'lmang. Bo'yinbog'ingizni echishga ko'maklashish bahonasida yoqangizni hidlab ko'rsa, hayron bo'lmang. Majlisda nima masala ko'rilganini so'rasa, hayron bo'lmang. Kimning Yonida o'tirganingizni so'rasa, hayron bo'lmang. Telefoningiz rangi qanaqaligini so'rasa, hayron bo'lmang. Necha kishi qo'ng'iroq qilganini so'rasa hayron bo'lmang. Qayerda tushlik qilganingizni so'rasa, hayron bo'lmang. Bufet nechanchi qavatdaligini so'rasa, hayron bo'lmang. Nima ovqat eganingizni so'rasa, hayron bo'lmang. Sizga choyni qaysi qo'li bilan uzatganini so'rasa, hayron bo'lmang! Boringki, oftob qaysi tomondan chiqqanini so'rasayam hayron bo'lmang. Qiziquvchanlik – ayolning tabiiy odati! (O'.Hoshimov)

**Buzilgan nikoh.** Uyni qonuniy bo'lashdingiz... Mol-mulkni qonuniy bo'lashdingiz... Muhabbat bo'laklandi... Sadoqat bo'laklandi... Bola-chi? Bolani qaysi qonun bilan bo'lashasiz? Onasi bilan bo'lsa, otasiz qolsa. Otasi bilan bo'lsa, onasiz qolsa... YAxshisi, uniyam ikkiga bo'ling! Bir nimtasi-eriga!

Bir nimtasi-xotinga! Qani ko'taring boltani, bolaning uvoli tutgurlar!  
(O'.Hoshimov)

**Tiriklar va o'liklar.** Vaqti-vaqti bilan qabristonga borasiz. Ajdodlaringiz boshida turib o'tganlar ruhini xotirlaysiz... Keyin... o'z yumushingiz bilan ketasiz.

shoshilmang. Dunyo ishi bitganmas... Iloji bo'lsa, qabristonni osoyishta aylaning. shunda... g'alati holat ro'y byeradi. Marhumlar sizga ko'-o'-o'p narsalar aytadi...

Ishoning, o'liklar tiriklardan ko'ra tyeranroq fikrlaydi... (O'.Hoshimov)

**7.Hissiy ifoda mazmunli matnlar** (Le texte expressif - ekspressiv matnlar). Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini, o'ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi.

Erta bahor – cheksiz sog'inchning ufqi. Muzga aylanishdan bosh tortgan isYonkor tomchilar yomg'ir bo'lib to'kilmoqda. YOmg'irning daraxtga, kurtakning tomchiga aytadigan «shiviri» yig'ilganey-yig'ilgan. Xo'ngrab-xo'ngrab, bo'zlab-bo'zlab dil rozini aytayotgan erda bahor buluti aslida osmon dardidan so'z ochishga botingan asov g'alaYon. Nish urmish kurtakka nasib etgan yomg'ir tomchisi ko'kning beqiyos ehtirosi parchasi. YOmg'ir «shiviri» umidlarga to'la daraxt ta'zimiga kutilmaganda duch kelsa, bu ajib bir shoYonlik tavalludi. Aslida bu «shivir-shivirlar» rishta xolos. Aslida ulkan osmonning jajji zaminga aytadigan dardi ko'p-ey... Zamin esa dil izhorini minnatdor tinglar ekan, jajji daraxtlari, endi unajak o't-o'lani-yu, chamber gullari-la ta'zim etadi.

Yeru-osmon, daraxtu yomg'ir, nish urish orzusidagi kurtagu, unga lab tegizgan tomchi, ko'kdagi bulutdan barqini kutgan maysalar, chechaklar yamoqchi sog'inch dardida butun bo'ladilar endi. Bilaman, zamin-u falak visoli xayoliy ufqdagina namoyon. Bilaman... Ammo... Qalbim zulflariga urilgan shivir-shivirlarni sezmaslikni eplay olmayapman. Sog'inch – umrim yamog'i...  
(Yo.Akram)<sup>12</sup>

<sup>12</sup>YOqutxon Akram. YOmg'irkuy. –T «sharq», 1994, 45-b.

Biror bir badiiy matnda sanab o'tilgan matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Yohud butun boshli asar Yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matnning qanday tiplari mavjud?
2. Hikoya mazmunli matnlar (narrativ matn) deb qanday matnga aytiladi?
3. Tasviriy matnlar (deskriptiv matn) deganda qanday matnni tushunasiz?
4. Izoh mazmunli matnlar (argumentli matn) haqida ma'lumot byering.
5. Didaktik matnlar (eksplikativ matn) haqida o'z fikringizni bildiring.
6. Buyruq mazmunli matnlar (injonktiv matn)ga misollar keltiring.
7. Tasvirdagi birlamchi va aloqador xususiyatlar haqida ma'lumot byering.
8. Hissiy ifoda mazmunli matn deb nimaga aytiladi?
9. Xabar mazmunli matnlar (informativ matn) qanday matn tiplariga kiradi?

**“Badiiy matnning lisoniy tahlili”fanidan 2-mavzu bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:**

Matnni hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratamiz: **Minimal matn** (mikromatn) va **maksimal matn** (makromatn). shuni ham aytib o'tish kyerakki, ayrim adabiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: kichik, o'rta va katta

hajmli matnlar. «Telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O'rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she'r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmdagi matnlarga povest, roman, drammatik asarlar, trilogiyalar kiradi.»

Ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra badiiy matnni quyidagi tiplarga bo'lib chiqish mumkin: 1.Hikoya mazmunli matn. 2.Tasviriy matn. 3.Izoh mazmunli matn. 4.Didaktik matn. 5.Xabar mazmunli matn. 6.Buyruq mazmunli matn. 7.Hissiy ifoda mazmunli matn.<sup>14</sup>

Biror bir badiiy matnda sanab o'tilgan matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Yohud butun boshli asar Yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra qanday tiplarga bo'linadi?
2. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari haqida ma'lumot byering.
3. Mazmuniy o'q tushunchasini izohlang.
4. Motivatsion yaxlitlik va kompozitsion butunlik tushunchalarini izohlang.
5. Mikromatn va makromatn haqida ma'lumot byering.
6. Abzatsning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari haqida ma'lumot byering.
7. Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlang.
8. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matnning qanday tiplari mavjud?
9. Hikoya mazmunli matnlar (narrativ matn) deb qanday matnga aytiladi?
10. Tasviriy matnlar (deskriptiv matn) deganda qanday matnni tushunasiz?
11. Izoh mazmunli matnlar (argumentli matn) haqida ma'lumot byering.
12. Didaktik matnlar (eksplikativ matn) haqida o'z fikringizni bildiring.
13. Buyruq mazmunli matnlar (injonktiv matn)ga misollar keltiring.
14. Tasvirdagi birlamchi va aloqador xususiyatlar haqida ma'lumot byering.
15. Hissiy ifoda mazmunli matn deb nimaga aytiladi?
16. Xabar mazmunli matnlar (informativ matn) qanday matn tiplariga kiradi?

#### **Ma'ruza bo'yicha mustaqil ta'lim materiallari:**

1. Badiiy asar tilini o'rganishda tema-rematik munosabatning rolini tushuntirib byerish. Badiiy asarlardan unga misol topish.
2. Ma'lum bir badiiy asarni lisoniy jihatdan tematik tahlil qilish.
3. shu mavzuda referat tayyorlash.

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».
2. H.Jamolxonov, M.Yo'ldoshev «Badiiy matnning lisoniy tahlili» TDPU, 2000.
3. M. Yo'ldoshev «Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari» T.: «Fan» 2007.

#### **Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

1. Mikromatn va makromatn tushunchalari matn xajmini belgilashda torlik qilmaydimi?
2. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplariga Yangio'zgartirishlar kiritish muammosi.

### **3-mavzu. Matn tipologiyasi**

Matn tipologiyasiga turli Yondashuvlar. Matn tipologiyasining kriteriyalari. Matnga funksional-stilistik Yondashuv. Matn turlari va janrlari. Matn getyerojenligi.

. Poema. Povest. Roman. Dramatik asarlar. Trilogiyalar. Tema. Rema. Gipyertemali bog'lanish. Izchil tema-rematik bog'lanish.

### **Mavzuga oid asosiy muammolar:**

1. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi? Ularning bir-biridan farqi?

2. Abzatsning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari qaysilar?

### **1-savol bo'yicha darsning asosiy maqsadi:**

Talabalarga matn butunligini ta'minlashda mazmuniy o'qning bajaradigan vazifasini tushuntirish. Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlash. Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn)ni bir-biridan farqlay olishga o'rgatish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra tiplarini farqlay oladi.

2. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplarini tushuntira oladi.

3. Mazmuniy o'q tushunchasini izohlaydi.

4. Motivatsion yaxlitlik va kompozitsion butunlik tushunchalarini ajrata oladi.

5. Mikromatn va makromatn haqida tushunchaga ega bo'ladi.

6. Abzatsning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari haqida bilib oladi.

7. Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlay oladi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1.Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari. 2.Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplari.

### **1.Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari.**

Matn gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko'rinishidir. Matnning hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratamiz: **Minimal matn** (mikromatn) va **maksimal matn** (makromatn). shuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim adabiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: kichik, o'rta va katta hajmli matnlar. «Telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O'rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she'r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmdagi matnlarga povest, roman, dramatik asarlar, trilogiyalar kiradi.»<sup>1</sup> Lekin bu tarzda bo'linish ayrim chalkashliklarni yuzaga chiqaradi. shunday dostonlar borki, hajm jihatidan romandan katta. Nafaqat hajm jihatidan balki, ichki mazmun, xarakterlar tasviri, ruhiyat talqini jihatidan ham uncha-muncha romandan qolishmaydigan dostonlar bor. Masalan, «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi go'zal dostonlarimiz shakl va mazmun jihatidan yirik hajmli asar hisoblanadi. yoki kichik hajmli she'rlarni ham o'rta matn hisoblaymizmi? Umuman bu tarzda tasnif jiddiy asosga ega emas. shuning uchun matnning Tilshunoslikda keng tarqalgan ikkiga ajratib tekshirish tamoyili asosida o'rganishni ham mantiqan ham amaliy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Badiiy uslubda **minimal matn** deyilganda biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar,

umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan:

Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi!(O'.Hoshimov)<sup>2</sup>

yoki: **Sevgi nima?** Insoniyat paydo bo'ptiki, shu savol ustida bosh qotiradi. Ammo javob topolmaydi. Agar inson sevgining barcha sir-asrorlarini bilganida edi, uning modeli – qolipini yaratgan bo'lardi. Sevgi hech qanday qolipga sig'magani uchun ham sirli va abadiydir (O'.Hoshimov).

Mikromatn deb atash mumkin bo'lgan ikkita parchani keltirdik. Tarkiblanish jihatidan birinchisi ikkita gapdan tuzilgan. Mazmunni birlashtirishga xizmat qiladigan sarlavha byerilmagan. Bu vazifa tovuq va u bilan bog'liq so'zlarga yuklatilgan (tovuq-tuxum-qaqog'lamoq). Iste'dodsiz yozuvchi birinchi gapda tovuqqa o'xshatilmoqda. Ikkinchi gap esa bu o'xshatishni to'laroq izohlash yoki sababini ko'rsatish uchun keltirilgan. Ya'ni, iste'dodsiz yozuvchi tovuqqa o'xshatildi, ammo tovuqning qaysi sifat va xususiyatiga? Muallif munosabati ikkinchi gapda tugal ifodasini topgan. Matn butunligini ta'minlashda tovuq-tuxum-qaqog'lamoq so'zlari **mazmuniy o'q** vazifasini bajarmoqda. Keyingi kichik hajmli matnni oladigan bo'lsak, ushbu matnning ichki mazmuni savol shaklidagi sarlavha orqali oshkor qilingan. Matn 4 ta gapdan tashkil topgan. Butunlikni ta'minlayotgan vositalar sirasiga izchil va tugal ohang, ammo bog'lovchisi, agar bog'lovchisi va matnning **mazmuniy o'q**ini tashkil qiluvchi sevgi so'zi kiradi. Demak, masala savol shaklida qo'yilyapti va unga matn orqali javob byerilyapti. Ya'ni, Sevgi nima? Sevgi - sirli va abadiy tushuncha.

O'tkir Hoshimovning Daftari hoshiyasidagi bitiklar turkumiga kiritilgan **Sadoqat** deb nomlanuvchi lavhada boshqacharoq holatni ko'rishimiz mumkin.

Qadim zamonda bir yurt bor ekan. Xalqi mehnatkash, Podshosi odil, hayoti tinch, turmushi farovon ekan. Boshqa bir mamlakatning shohi g'ayrligi kelib, o'sha yurtni bosib olmoqchi bo'pti. Biroq daf'atan hujum qilishga jur'at etolmay, o'sha yurtga o'z xufiyasini yuboribdi. «Qanday qilib bo'lmasin, Podshoning ishonchiga kirasan, yurtning sir-asrorini bilib kelasan» debdi.

Xufiya o'sha yurtga boribdi. Vaqti kelib, chindan ham Podshoning ishonchiga kiribdi, mulozimlaridan biriga aylanibdi. So'ng, o'z mamlakatiga qaytib borib, shohiga «Bu yurtni olib bo'lmaydi!» debdi. «Nima, qal'asi mustahkammi?»-deb so'rabdi shoh. «Gap qal'ada emas»,-debdi xufiya. «Bo'lmasa gap nimada o'zi?»-debdi shoh darg'azab bo'lib. shunda xufiya o'zi guvoh bo'lgan bir voqeani aytib byeribdi:

-Bir kuni o'sha Podsho shikorga chiqdi. Yonida qirq nafar yigiti ham bor edi. Men ham ularga qo'shildim. Podsho uchqur bir kiyik ortidan ot qo'ydi. Hammamiz unga ergashdik. Kiyik cho'qqiga qarab yugurdi. Podsho ham uning ortidan ot surib ketavyeradi. Bir mahal kiyik cho'qqi tepasiga etganda tubsiz dara ustidan sakradi-da, narigi cho'qqiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Podsho noiloj jilov tortib, ortidan tushdi. Tyerlab ketgan edi. Yonidan ro'molcha chiqarib, peshonasini artmoqchi

bo'lgan edi, nogahon shamol kelib, ro'molchani daraga uchirib ketdi. shunda qirq

yigitning hammasi o'zini tubsiz jarlikka otdi. Qanchasi parcha-parcha bo'lib ketdi. Qanchasi mayib-majruh bo'ldi. Omon qolgan bir yigit ro'molchani olib chiqib, Podshoga topshirdi.

U yurtda bunaqa yigitlar ko'p. Bunaqa yurtni engib bo'lmaydi...

Mazkur matn sadoqat haqida, Vatanga, yurtga vafodorlik haqida. Biz matnning nima haqda ekanligini dastlab sarlavhadan bilib olamiz. Bu so'z matn ichida boshqa qaytarilmaydi, lekin sarlavha sifatida kelgan shu so'z matnning ham **motivatsion yaxlitligini** ham **kompozitsion butunligini** ta'minlashga xizmat qilyapti. shunga ko'ra yozuvchi **mazmuniy o'qni** nom darajasiga ko'tarish orqali maqsadiga to'la erishgan deyishimiz mumkin. shuni aytib o'tish kyerakki, hamma nomlar ham bunday vazifani bajaravermaydi.

Mutaxassislar ba'zan bittagina gap ham mikromatn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Masalan: Bahor... Bu jumlada «tabiatning jonlanishi», «hammayoqning ko'm-ko'k tusga kirishi», «atrof-muhitning go'zal tusga burkanishi» kabi yashirin mazmun mavjuddir.<sup>3</sup> Lekin bu tipdagi ko'rinishlarni tom ma'noda matn deb atash mumkin emas. Chunki matn struktural jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlik. Demak, gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan ma'nolar so'zning ma'no strukturasi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish to'g'ri bo'ladi. Agar yashirin mazmunga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, istalgan so'zni matn deyishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, ona degan so'zni oladigan bo'lsak, bu so'zning ham moddiylashmagan yashirin ma'nolari mavjud va ular mazkur so'zni talaffuz qilishimiz bilanoq, ko'z oldimizda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi.

---

2 O'tkir Hoshimovdan keltirilgan misollar adibning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» deb nomlangan kitobidan olindi. –T., «sharq», 2005.

**Maksimal matn** deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Maksimal matn mikromatnlardan tashkil topadi. Eng kichik butunlik abzatsga, eng katta butunlik esa bob(qism yoki fasl)larga to'g'ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi. Masalan, F.M.Dostoevskiyning jahon adabiyotining mumtoz namunasiga aylangan «Jinoyat va jazo» romanini olaylik. Roman 6 qism va epilogdan tashkil topgan. Har bir qism 5-7 bo'limni o'z ichiga olgan. Qism va bo'limlarga alohida nom byerilmagan. Romanning umumiy hajmi 21 bosma taboq. yoki, Pirmqul Qodirovning «Humoyun va Akbar» tarixiy romanini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, mazkur asar ikki mustaqil qismga ajratiladi. Har ikki qism alohida nomlanadi (Humoyun. Akbar). Qismlar 9-10 tadan bo'limlarga bo'linadi va har bir bo'lim voqea bo'lib o'tayotgan joy hamda gap kim yoki nima haqida ketayotganligiga qarab nomlab boriladi (Masalan: 1.Agra. Hamida bonu arosatda... 2.Ganga. Ko'rgilik. v.h.). Romanning umumiy hajmi 30 bosma taboq.

Makromatnning tashkillanishini quyidagi sxema asosida yanada yaqqolroq ko'rishimiz mumkin:

Makromatn

Qism yoki fasllar

Mikromatn

Bo'limlar

Abzatslar

Makromatnning eng kichik birligi abzatsdir. Abzats bir mazmuniy butunlik bo'lib «matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha bo'lgan qismi» hisoblanadi. Abzats **qisqa xabar** (abzatsda aytilmoqchi bo'lgan mavzu haqidagi dastlabki, qisqacha xabar), **oldingi xabar bilan keyingi xabarni bog'lovchi vositalar** (bog'lovchi vositalar abzatsni o'zidan oldingi abzatsga bog'laydi, shuningdek, abzats ichidagi xabar jumllarini bir-biriga bog'laydi), **xabarning to'ldirilishi** (dastlabki xabar to'ldiriladi, izohlanadi, sharhlanadi) va **xulosa** (xabar yakunlanadi, natija aytiladi) qismlarni o'z ichiga oladigan butunlikdir. «Matn lingvistikasi» qo'llanmasida abzatsni tashkil etgan gaplar o'zaro sinsemantik (sintaktik va leksik-semantik) hamda, avtosemantik (grammatik aloqalarsiz, faqat semantik) aloqa usulida birikishi aytiladi. shuningdek, abzatslarning strukturasi ko'ra quyidagi ko'rinishlari mavjudligi sanab o'tiladi: 1) Sodda gapdan iborat bo'lgan abzatslar; 2) Qo'shma gapdan iborat bo'ladigan abzatslar; 3) Pyeriodik nutq formasidan iborat bo'lgan abzatslar; 4) Supyerfrazali sintaktik butunlikdan iborat bo'lgan abzatslar; 5) Ko'chirma-o'zga gapli abzatslar.<sup>4</sup> Bunga aralash tipdagi nutq formalaridan tashkil topgan abzatslarni ham kiritish mumkin. Abzatsdagi «xabar» temarematik munosabatdagi gaplarda ifodalanadi. Tema (yunoncha thema – asos bo'lgan narsa) deb gapning aktual bo'linishida so'zlovchi va tinglovchi (o'quvchi) uchun ma'lum (tanish) bo'lgan narsani ifodalovchi, Yangi narsani ifodalashga o'tish uchun asos

xizmatini bajaruvchi qismga aytiladi. Rema (rheme-commentaire – ma'lumot, sharh) \_\_\_\_\_

<sup>3</sup> Hakimov M.X. O'sha asar. 24-b.

esa temadan keyin kelib so'zlovchi tinglovchiga (o'quvchiga) bildirmoqchi, aytmog'chi bo'lgan Yangi xabar mazmunini ifodalovchi qism, gapning Yangi ma'lumot (axborot) qismi.<sup>5</sup> Odatda gapning ega sostavi tema, kesim sostavi esa rema vazifasida keladi: Ahmad //darsga kelmadi. Sotvoldi // nima qilishini, qayoqqa borishini bilmay, hayron turardi. U // Sotvoldining dadasi To'lagan edi.

Lekin har doim ham ega sostavi tema bo'lavermaydi. Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin: *Do'stim menga kitob sovg'a qildi.* Bu gapda tema to'ldiruvchi vazifasidagi so'z bilan ifodalangan. Rema esa ega va kesim sostavidan iborat gap bilan ifodalangan. Yuqorida tema - rematik munosabatdagi gaplarning ketma-ket kelishi natijasida abzats yuzaga kelishini ta'kidlagandik. Faqat bu ketma-ketlik qay tarzda namoyon bo'ladi, degan tabiiy savol tug'iladi. Buni quyidagi gaplar misolida ko'rib chiqamiz. *Do'stim menga kitob sovg'a qildi.*(1). *Kitob samimiy va beg'ubor muhabbat haqida edi.*(2). *Muhabbat hech kimni befarq qoldirmaydigan tuyg'u.*(3). Birinchi gapda qo'shningma so'zi tema qolganlari rema ekanligini ko'rib

chiqdik. Ikkinchi gapda birinchi gapning remasi Yangilik xususiyatini yo'qotib, tema maqomiga o'tadi. Uchinchi gapda ham shu jarayon ro'y beradi. Bunday bog'lanish tarzini **izchil tema-rematik bog'lanish** deb ataymiz. Buni quyidagi chizma orqali yanada aniqroq tasavvur qilishimiz mumkin:

Tema<sub>1</sub> Rema<sub>1</sub>

Tema<sub>2</sub> Rema<sub>2</sub>

---

Tema<sub>3</sub> Rema<sub>3</sub> va hokazo.

Ba'zan tema o'zgaras bo'ladi. Dastlabki tema bilan aloqador Yangi xabarlar, ma'lumotlar keyingi gaplarda byerib boriladi. Masalan: Ahmad *darsga kelmadi*(1). *shanbalikda ham qatnashmadi*(2). *Bayram tantanasida ham teatrda ham ko'rinmadi*(3). Bunday bog'lanishni **o'zgaras temali bog'lanish** deb ataymiz. CHizmada quyidagicha ifodalash mumkin:

Tema<sub>1</sub> Rema<sub>1</sub>

Rema<sub>2</sub> <sup>20</sup>

Rema<sub>3</sub>

Ba'zan datlabki gapdagi temani keyingi gaplardagi temalar o'ziga aloqador remalar bilan birga to'ldirib keladi. Bunda dastlabki tema gipyertemaga aylanadi.<sup>6</sup> Masalan: Bu xotin *butun kecha bo'yi juda tinch va xotirjam uxlaganga o'xshaydi*. Bir oyog'i *tizdan quyisi bukilib, so'richadan pastga osilibdi*, bir oyog'i *unisini quvlab borib so'richaning qirg'og'ida uxlab qolibdi*. Uzun ko'ylagi *butun badanini kam-ko'stsiz yopib turadi*. Faqat bir engi *tirsakkacha shimarilib qolgan*. Oppoq qo'llari va bilaklari *o'z Yonida – o'z onasining to'qlisiday – bir chiroylik uxlaydi* (Cho'lpon).

Bunday bog'lanishni **gipyertemali bog'lanish** deb ataymiz.

Chizmada quyidagicha ifodalanadi:

(Tema) Tema<sub>1</sub>+Rema<sub>1</sub>

Tema<sub>2</sub>+Rema<sub>2</sub>

Tema<sub>3</sub>+Rema<sub>3</sub>

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra qanday tiplarga bo'linadi?

---

5. (Mamajonov A. *Tekst lingvistikasi*. –T: TDPI., 1989, 39-40-b. Hojiev A. *Tilshunoslik tyerminlarining izohli lug'ati*. –T., O'ME., 2002.)

2. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari haqida ma'lumot byering.

3. Mazmuniy o'q tushunchasini izohlang.

4. Motivatsion yaxlitlik va kompozitsion butunlik tushunchalarini izohlang.

5. Mikromatn va makromatn haqida ma'lumot byering.

6. Abzatsning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari haqida ma'lumot byering.

7. Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlang.

**2-savol bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarga matnning ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra tiplarini tushuntirish. Ularni bir-biridan farqlay olishga o'rgatish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matnning tiplarini sanab byeradi.

2. Hikoya mazmunli matnlar (narrativ matn)ni tushuntiradi.

3. Tasviriy matnlar (deskriptiv matn) qanday matn ekanligini izohlaydi.

4. Izoh mazmunli matnlar (argumentli matn)ni bilib oladi.
5. Didaktik matnlar (eksplikativ matn) haqida ma'lumot byera oladi.
6. Buyruq mazmunli matnlar (injonktiv matn)ga misollar keltiradi.
7. Tasvirdagi birlamchi va aloqador xususiyatlar haqida ma'lumot byeradi.
8. Hissiy ifoda mazmunli matn deb qanday matnlarga aytilishini anglab etadi.
9. Xabar mazmunli matnlar (informativ matn) qanday matn tiplariga kirishini ayta oladi.

## **2-asosiy savolning bayoni:**

Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari. 2. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplari.

Ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra matn tiplari.

Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda har doim Yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga ko'ra turli matn tiplaridan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib byeramiz. Tinglovchiga notanish bo'lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab byerishga harakat qilamiz. Ba'zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. YOxud kimgadir pand-nasihat qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz ba'zan qandaydir informatsiyani tinglovchiga etkazishga qaratilgan bo'ladi. shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kyerakligi haqida tavsiyalar byeramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq byeramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitob jumllalaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba'zan mubolag'a ba'zan o'xshatish – qiyoslash kabi tasviriy vositalardan foydalanamiz.

shundan kelib chiqib matnni, xususan, badiiy matnni quyidagi tiplarga bo'lib chiqish mumkin: 1.Hikoya mazmunli matn. 2.Tasviriy matn. 3.Izoh mazmunli matn. 4.Didaktik matn. 5.Xabar mazmunli matn. 6.Buyruq mazmunli matn. 7.Hissiy ifoda

6. Bu haqda qarang: Bozorov O. O'zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi. NDA., -Farg'ona, 2004, 12-b., Moskalskaya O.I. Grammatika teksta.-M: «Visshaya shkola»,1981. s-136.

mazmunli matn.<sup>7</sup>

**1.Hikoya mazmunli matnlar** (Le texte narratif - narrativ matn). Bunday matnda muallif yoki asar qahramoni o'zi boshidan o'tkazgan, eshitgan, o'qigan yoki guvoh bo'lgan biror bir voqeani hikoya qilib byeradi. Xotiralar, esdaliklar, ertak va rivoyatlarni narrativ matn tipiga kiritish mumkin. Hikoya tarzi asosan o'tgan zamon shaklida, birinchi shaxs birlik yoki ko'plikda ifodalanadi. Hikoya qilinayotgan voqea – hodisa kichik yoki keng qamrovli bo'lishi mumkin. Sekin - asta ko'tarilib boruvchi izchil va yaxlitlovchi ohang kuzatiladi. Biryoqlama ifoda uslubidan foydalaniladi. Ya'ni, matn shakllanishida asosan, hikoya qiluvchi (roviy) yetakchi faktor hisoblanadi. Monologik nutq ko'rinishi bunday matnlar uchun juda mos va qulay bo'ladi. O'zni bilan diologik nutq ko'rinishlariga murojaat qilinganligini kuzatishimiz mumkin. shunda ham hikoya matnining motivatsion butunligi roviyga bog'liq

bo'ladi. Bu tip matnlarda tasviriy, izoh, xabar, hissiy ifoda mazmunli matnlar birdaniga ishtirok etishi mumkin.

**«Duogo'y».** Said Ahmad aka boshchiligida bir guruh adiblar olis tog' qishlog'iga etib bordik. Mehmonga chaqirishdi. Uy to'la odam. Davra boshida to'rvadek soqoli ko'ksiga tushgan qariya o'tiribdi. Hamma unga ta'zim bajo qiladi. Davraga kim kelib qo'shilmasin chol uzundan-uzoq duo o'qiydi. «Sen ham mening yoshimga etib yurgin, bacham», deb fotiha tortadi.

Bir xil duo takrorlanavyergach, Said Ahmad aka so'radi:

-Necha yoshga chiqdingiz, taqsir?

-Menba?-dedi chol salmoqlab. –Ikkam jetmishga bordim.

-Voy bo'-o'-o'!-dedi Said Ahmad aka bosh chayqab. –Agar sening duoing mustajob bo'lsa, men sakkiz yil avval o'lib ketishim kyerak ekan-da, ukam? Men etmish oltiga chiqdim! Turaqol endi, joy almashamiz! (O'.Hoshimov)

**Yo'li topildi.** Erkin Vohidov univyersitetni endi bitirgan paytidayoq taniqli shoir edi. O'zingiz bilasiz, oliy o'quv yurtini bitirgan odam oldida uylanish muammosi ko'ndalang bo'ladi. shu masala yuzasidan Erkin aka Said Ahmad akaga maslahat solibdi.

-Oqsaqol,-debdi. -Xabaringiz bor, bir-ikkita kitobim chiqdi. Uch ming so'mcha pulim ham bor (U paytda uch ming katta pul edi). Lekin qaysi biriga etkazishni bilmayapman. Mashina olaymi, uy solaymi, xotin olaymi? Mashina olsam, uy sololmayman, uy solsam, uylanolmayman, uylansam, Mashinaga pul qolmaydi... Nima qilay?

Said Ahmad aka peshanasini Rashid abzining garmoniday tirishtirib, chuqur va uzoq o'yga tolibdi. Oxiri chehrasi yorishib bunday debdi:

-Bolam, men xo'p o'yladim. Hisoblab ko'rsam uch ming so'm puling hammasiga etarkan. Maslahat shuki, sen avtobus sotib olgin! Avtobus degani Mashina bo'ladi. Rulini qayoqqa bursang ketavyeradi. Bu - birinchidan. Avtobusning ichi keng-mo'l bo'ladi. Ko'ch-ko'roningni olib kirsang tayyor uy bo'ladi. Bu – ikkinchidan. Uchinchidan, rostki avtobus bo'lgandan keyin ichida konduktori ham bo'ladi. O'sha konduktorni xotin qilib olib qo'ya qolasan!..(O'.Hoshimov)

Bunday zotlarning har bir uchrashuvi bayram bo'lib ketadi, ular o'rtasidagi do'stlik afsonaga aylanib ketadi. Taniqli o'zbek adibi Nosir Fozilov qachonlardir Sobit \_\_\_\_\_

7. Matn tiplari haqida qarang: Filizok R. Metin tipleri. <http://www.ege.edebiyat.org>.

Muqonov to'g'risidagi xotiralarini «Mehribonlik» nomi bilan atagandi. O'sha xotiralarda qiziq bir voqea eslatib o'tiladi.

Toshkentdan Sobit Muqonovning uyiga mehmon bo'lib kelgan qadrdon do'sti Oybekni Mashinaga o'tqazib, ko'm-ko'k o'tloq, bog'-rog' qoplagan Olatov etaklariga olib ketadi. Tabiat go'zalligidan bahramand bo'ladilar. Sip-silliq qizil qoyalar Yonidan o'tayotib, Mashinaga tormoz byeradi. Xarsang toshlardan birini aylanib tomosha qiladi. Tabiatning o'zi obi-tobida sayqal byergan toshdan ko'zlarini uzolmasdan bosh chayqadi-da: «Go'zal! Mo'jiza!» deydi. Sobit esa sir boy byermasdan Oybekning Yoniga yaqinlashadiyu unga sinchikov razm solib:

-Xo'sh, yoqib qoldimi?-deb so'raydi.

-Bo'lmasam-chi!-deb to'lqinlanib javob byeradi.

-Unday bo'lsa, buni men senga sovg'a qilaman. Faqat o'z nomimdan emas, butun qozoq xalqi nomidan sovg'a qilaman. An'anamiz bo'yicha arg'umoqqa ega bo'ldim deyavyer.

shunday qilib, Medeo chegarasida yotgan xarsang tosh mehmonga yoqib qoladi: Sobit uni sovg'a qiladi, Oybek qabul qilib oladi. Tez orada Oybek Toshkentga qaytib ketadi. Sobit esa keyin o'sha xarsang Yoniga bitta toshtaroshni yollab boradi. Xarsang toshga hech o'chmaydigan so'zlar o'yib yoziladi:

«Bu silliq toshni men Muso Oybekka sovg'a qildim. Sobit Muqonuli. 1962 y. 3. VI».

O'sha kuni Sobit o'z hayotida bag'oyat mas'uliyatli vazifani ado etgan kishi dek kayfiyati ko'tarinki holatda quvnoq qo'shiq aytib uyiga qaytadi.

-Men o'z hayotimda juda ko'p sahiy odatlarni ko'rganman. Lekin tog'da yotgan chaqirtoshni sovg'a qiladigan Sobitga o'xshash odamni aslo uchratmaganman,-deb tez-tez eslab yuradi Oybek.<sup>8</sup>

Byerilgan matnlarda uch xil holatni kuzatish mumkin. Birinchi matnda yozuvchi o'zi guvoh bo'lgan voqeani hikoya qilyapti, ikkinchi matnda muallif eshitgan voqeasini so'zlayapti. Uchinchi matnda esa muallif o'qib ta'sirlangan voqeasini aytib byeryapti. shunga ko'ra ifoda tarzi o'zgarib borgan. Hikoya mazmunli matn boshqalariga qaraganda murakkab tarkiblangan bo'ladi.

**2.Tasviriy matnlar** (Le texte descriptif - deskriptiv matn). Bunday matn tinglovchiga noma'lum bo'lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani batafsil tasvirlab byerish maqsadida tuzilgan bo'ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko'rinishi yetakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi. Ya'ni, tasvirlanayotgan ob'ektning dastlab, birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlardan so'z yuritiladi. Masalan:

**Yakan** degan o'simlik bo'ladi. Nima uchundir san'atkorlar, aniqrog'i otarchilar pulni «Yakan» deyishadi. Aslida esa Yakan – qamishzorda o'suvchi o'simlik. Yakanni o'rib olib, quritib uzum osadilar yoki savat qalpoq to'qiydilar. Ma'lumki, qamish uzun, Yakan esa, aksincha, pastak o'simlik. shunday bo'libdiki, bir kuni Yakan qamishga qarab:

-O', birodar, hadeb g'o'ddayavyerma, salgina egil. Ollohning quyoshi nuridan biz ham bahramand bo'laylik - debdi.

Qamish unga qaragisi ham kelmasdi, javob ham byermay burnini jiyirib qo'ya qolibdi. Vaqti-soati kelib avval qamishni, so'ng Yakanni o'ribdilar. Tasodifni qarangi, o'sha qamishdan yasalgan bo'yroni bir uyga to'shabdilar. Tasodifni qarangi, shu uy to'sinlariga uzumlarni osibdilar, Yakandan to'qilgan savat qalpoqlarni esa devordagi qoziqlarga ilibdilar. Oradan kunlar o'tavyeribdi. Qamish pastda, oyoq ostida, Yakan esa tepada ekan. Oyoqosti bo'lavyerib xorlangan qamish axiyri Yakanga qarab zorlanibdi:

-Meni o'rib olib quritdilar, tepkilab qovurg'alarimni sindirdilar, so'ng suvga bo'ktirdilar. So'ng qayirib-bukib mana shu bo'yra holiga keltirdilar. Endi esa tinimsiz, har kuni tepkilaydilar. Bu ham etmaganday sal qayirib, ostimga noslarini tupuradilar.

Bu zorlanishni eshitib Yakan debdikim:

-Siz bekorga g'oddadingiz. G'oddayib o'savyerdingiz. Ichingiz g'ovak ekanini unutdingiz. G'ovak bo'lganingiz uchun ham tepkilashdan bo'lak narsaga yaramadingiz. Hali ham kech emas, siz o'sgan yerda ildizingiz qolgan. Siz o'sajak qamishlarga etkazing. Sizning holingizga tushmasinlar. Qamishni ba'zan tomga ham to'shaydilar. Lekin baribir uning basharasiga loy chaplanadi...

Keltirilgan matnda Yakan deb nomlanadigan bir o'simlik tasvirlanadi. Buni **tasvir ob'ekti** deymiz. Uning o'simlik ekanligi haqidagi axborot **birlamchi xususiyat**

hisoblanadi. Uning qanday o'simlik ekanligi haqidagi axborot **aloqador xususiyat** hisoblanadi. Bu matnda aloqador xususiyat deb ataluvchi qism boshqa bir o'simlik bilan bog'liq tasvir fonida yanada ravshan ifodalangan.

yoki Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar» romanini bir saroy tasviridan boshlaydi:

Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilgan bu dong'dor saroyi Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to'la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, shuning uchun kunduzgiga qarag'anda saroy jonliq: kishi larning shaqillashib so'zlashishlari, xoxolab kuliahishlari saroyi ko'kka ko'targudek.

Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham' Yonadir, o'zga hujralarda engil tabiatlik, syerchaqchaq kishi lar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda. Og'ir tabi'atlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit.<sup>10</sup>

Bu parchada **tasvir ob'ekti** - saroy, bugungi til bilan aytadigan bo'lsak, mehmonxona. Uning Toshkent, Samarqand va Buxoro savdogarlari orasida mashhurligi haqidagi axborot **birlamchi xususiyat** bo'lsa, hujra va jihozlar haqidagi axborot **aloqador xususiyat** hisoblanadi. Bu matnda ham ob'ektning aloqador xususiyati u yerdagi insonlar tasviri fonida yanada aniq va tushunarli qilib tasvirlanyapti. Buni o'z navbatida **ikkilamchi xususiyat** u bilan bog'liq tasvirni esa **ikkilamchi aloqador xususiyat** deb atasak bo'ladi. Yakan haqidagi matnda qamish ikkilamchi xususiyat, u bilan bog'liq tasvir **ikkilamchi aloqador xususiyat** hisoblanadi. Mazkur matn o'sha xususiyatlar tasviriga asoslanib shakllantirilgan. Matnda bunday aloqadorlik bitta yoki bir necha bo'lishi mumkin. Bitta va ikkitalik turini tahlil qilish qulay. Agar ikkitadan ortiq bo'lsa tahlil murakkablashib ketadi.

---

8 Aytmatov Ch., Sshoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori. -T: «sharq», 1998, 103-b.

9. Tohir Malik. Mehmon tuyg'ular. -T: «sharq», 2002, 19-b.

10. Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar», -T: «sharq», 2000, 11-b.)

Bunday paytda eng xarakterlisi va matnning tashkillanishida yetakchilik qiladiganini olamiz. Buni quyidagicha formulalashtirishimiz mumkin:

1.  $m=(bx-ax)$ ;

2.  $m=n \cdot (bx-ax)$

Bunda m-matn so'zining belgisi, «**bx**»-birlamchi xususiyat, «**ax**»-aloqador xususiyat, agar matn ikki va undan ortiq aloqadorliklardan tuzilgan bo'lsa «**n**» belgisi o'rniga ularning miqdorini ko'rsatamiz.

**3.Izoh mazmunli matnlar** (Le texte argumentatif – argumentli matn). Bunday matnda aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta'kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o'zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil vajlarni keltirish argumentli matn tipining o'ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Fikr bilan keltirilgan dalil o'rtasida **mantiqiy bog'liqlik**ning (connecteurs logiques) bo'lishi muhim sanaladi. Bunday matnda Chunki, Zero, lekin, aslida, shuning uchun, to'g'risini (ochig'ini, rostini) aytganda, eshitishimga qaraganda, bilishimcha, taxminimcha kabi birliklar (le lexique apprécitatif) qo'llanilganligini ko'ramiz.

Kitobxonni yoki tinglovchini ishontirish asosiy maqsad bo'lganligi uchun shunga mos ritorik uslub tanlanadi. Badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. Gaplar o'zaro zich bog'langan va ta'kid ohangi sezilib turadigan matn tipi hisoblanadi.

**4.Didaktik matnlar** (Le texte explicatif – eksplikativ matn). Kimgadir pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o'rgatish istagi asosida tuzilgan matn eksplikativ yoki didaktik matn deyiladi. Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalaniladi. Ularning matn ichiga singdirilish tarzi turlicha bo'ladi. Muallif bunday didaktik birliklarni matnga to'g'ridan to'g'ri olib kiradi va uning qaysi janrga taalluqli ekanligini aytib o'tadi. Didaktemalar matn tashqarisida avvaldan tayyor holda mavjud bo'ladi. Muallif yoki qahramon nutqida quyidagi ifoda shakllari ishlatiladi: shunday maqol bor, mashoyihlar demishlarki, ulug'lar(eskilar)da shunday gap bor, dyerlarkim, shunday rivoyat (o'git, voqea, masal) eshitganman va hokazo.

**Hudhudning Tovusga javobi.** Hudhud unga javob byerish uchun nafasini rostlab, shunday dedi:

- Ey jaholat ahli kabi har narsani havas qiluvchi! Sen shunday holatlarni bayon etdingki, bu ish faqat devonalar va yosh bolalar qo'lidangina kela oladi, xolos. Odam degan tashqi go'zallik haqida so'z aytmaydi. Kimki undan faxr etar ekan, uni odam qatoriga qo'shib bo'lmaydi! Noz va husn faqat dilbar qizlargagina yarashadi. Er kishi esa dard va mashaqqat chekishi bilan yaxshidir. Barcha shakl ahli uchun eng sharafli ish ana shudirki, u shakldan ma'no tomon olib boradi. Sen o'z shaklingga bino qo'yding, buning uchun kishi lar tomonidan masxara etilishga loyiqsan. Chunki, inson o'z tashqi go'zalligi bilan faxrlanmaydi, agar faxrlansa, u masxaralanishga sazovordir! (Alishyer Navoiy)

**Donishmand debdiki:** har qanday yaxshi qonunning muqaddimasi, shuningdek, xotimasi ham shundan iboratkim, har bir inson bir burda nonini yaxshi mehnati bilan topa olsin va ayni choqda mehnatiga loyiq yaxshi non ola olsin (T.Malik).

**Demishlar:** moru qushni bir qafasda asratib bo'lmas, Vatandin ayri ko'ngilni bilingki, yayratib bo'lmas.

Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas (A.Oripov).11

<sup>11</sup> Abdulla Oripovdan keltirilgan misollar quyidagi kitobdan olindi: Saylanma. –T: «sharq» 1996.

Didaktemalarni keltirishdan asosiy maqsad shu orqali pand-nasihati byerish, muammoli masalani echishga ko'maklashish, qandaydir murakkab vaziyatdan chiqish yo'llarini ko'rsatish, to'g'ri yo'lni topishda keltirilgan misoldan ibrat chiqarishga da'vat qilish yohud bo'lib o'tgan voqeaga munosabat bildirishdan iborat. Lingvopoetik tahlilda didaktemalarning estetik mohiyati muhim hisoblanadi.

**5.Xabar mazmunli matnlar** (Le texte informatif – informativ matn). Biror voqea-hodisa haqida xabar byerish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matn informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o'ziga xos tarzda bo'ladi. Oddiy xabardan farq qiladi. Estetik maqsad yuklangan bo'ladi. Narrativ, deskriptiv, argumentli, didaktik kabi matn tiplari tarkibida keladi. Masalan, Abdulla Qodiriy «O'tkan kunlar» romani yakunida shunday bir xabarni keltiradi:

Keyingi Marg'ilon borishimda yaqin o'rtoqlardan Yodgorbek to'g'risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o'n to'qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miYonasida vafot qilib, undan ikki o'g'ul qolibdir. O'g'ullaridan bittasi bu kunda Marg'ilonning mas'ul ishchilaridan bo'lib, ikkinchisi Farg'ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o'luk-tirigi ma'lum emas, deydilar.

Bu ham xabar mazmunli matn hisoblanadi. Lekin asar ichida emas balki, ilova sifatida keltirilgan. Asar qahramonlarining hayotdan olinganligini ta'kidlash, bunga kitobxonni ishontirish istagi bilan kiritilgan. Bu haqda asar avvalida ham yozuvchi alohida ta'kidlagan edi: «xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-shirin» va «Bahromgo'r»lari bilan tanishdirishka o'zimizda majburiyat his etamiz.» Balki, yozuvchi, ushbu qahramonlar taqdiri qanday kechganligi haqida kitobxonlarga xabar byerishni xohlagandir, balki, romanni davom ettirajagini, agar davom ettirilsa voqealar shu mazmunda bo'lishi mumkinligi haqida xabar byerayotgandir. Bu bizga qorong'u, lekin keltirilgan matn xabar mazmuniga ega. Asar ichida yozuvchi tomonidan keltirilgan turli havolalar ham informativ xarakterda bo'lishi mumkin. «O'tkan kunlar»da muallif Musulmonqulning dovyurakligi haqida shunday havolani keltiradi:

Musulmonqulning o'zi ham favqulodda yuraklik edi. 1853 m. tarixida Musulmonqul qo'qonlilarga asir tushib, uni to'pdan otib o'ldirish uchun dordek bir narsaning ustiga o'tquzurlar. Ikkinchi tomondan to'pka o't byerish kutiladi. shu vaqtda kishi lar Musulmonquldan so'raydilar: «Endi qalaysan, Cho'loq?» Musulmonqul kulibgina javob byeradi: «Alhamdulillah, hali ham sizlardan Yuqori bir yerda o'ltiribman!»

**6.Buyruq mazmunli matnlar** (Le texte injonctif – injonktiv matn). Buyruq hamda maslahat ohangi yetakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli ta'qiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq mazmunli matn deyiladi. Asosan qahramonlar nutqida kuzatiladi. Lekin muallif nutqida maslahat yoki tavsiya ma'nosida qo'llanilishi ham ma'lum. Masalan:

**Odat.** Ishdan nega kech kelganingizni surishtirsa, xayron bo'lmang. Bo'yinbog'ingizni echishga ko'maklashish bahonasida yoqangizni hidlab ko'rsa, hayron bo'lmang. Majlisda nima masala ko'rilganini so'rasa, hayron bo'lmang. Kimning Yonida o'tirganingizni so'rasa, hayron bo'lmang.

Telefoningiz rangi qanaqaligini so'rasa, hayron bo'lmang. Necha kishi qo'ng'iroq qilganini so'rasa hayron bo'lmang. Qayerda tushlik qilganingizni so'rasa, hayron bo'lmang. Bufet nechanchi qavatdaligini so'rasa, hayron bo'lmang. Nima ovqat eganingizni so'rasa, hayron bo'lmang. Sizga choyni qaysi qo'li bilan uzatganini so'rasa, hayron bo'lmang! Boringki, oftob qaysi tomondan chiqqanini so'rasayam hayron bo'lmang. Qiziquvchanlik – ayolning tabiiy odati! (O'.Hoshimov)

**Buzilgan nikoh.** Uyni qonuniy bo'lashdingiz... Mol-mulkni qonuniy bo'lashdingiz... Muhabbat bo'laklandi... Sadoqat bo'laklandi... Bola-chi? Bolani qaysi qonun bilan bo'lashasiz? Onasi bilan bo'lsa, otasiz qolsa. Otasi bilan bo'lsa, onasiz qolsa... YAxshisi, uniyam ikkiga bo'ling! Bir nimtasi-eriga! Bir nimtasi-xotinga! Qani ko'taring boltani, bolaning uvoli tutgurlar! (O'.Hoshimov)

**Tiriklar va o'liklar.** Vaqti-vaqti bilan qabristonga borasiz. Ajdodlaringiz boshida turib o'tganlar ruhini xotirlaysiz... Keyin... o'z yumushingiz bilan ketasiz.

shoshilmang. Dunyo ishi bitganmas... Iloji bo'lsa, qabristonni osoyishta aylaning. shunda... g'alati holat ro'y byeradi. Marhumlar sizga ko'o'o'p narsalar aytadi...

Ishoning, o'liklar tiriklardan ko'ra tyeranroq fikrlaydi... (O'.Hoshimov)

**7.Hissiy ifoda mazmunli matnlar** (Le texte expressif - ekspressiv matnlar). Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini, o'ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi.

Erta bahor – cheksiz sog'inchning ufqi. Muzga aylanishdan bosh tortgan isYonkor tomchilar yomg'ir bo'lib to'kilmoqda. YOmg'irning daraxtga, kurtakning tomchiga aytadigan «shiviri» yig'ilganey-yig'ilgan. Xo'ngrab-xo'ngrab, bo'zlab-bo'zlab dil rozini aytayotgan erta bahor buluti aslida osmon dardidan so'z ochishga botingan asov g'alaYon. Nish urmish kurtakka nasib etgan yomg'ir tomchisi ko'kning beqiyos ehtirosi parchasi. YOmg'ir «shiviri» umidlarga to'la daraxt ta'zimiga kutilmaganda duch kelsa, bu ajib bir shoYonlik tavalludi. Aslida bu «shivir-shivirlar» rishta xolos. Aslida ulkan osmonning jajji zaminga aytadigan dardi ko'p-ey... Zamin esa dil izhorini minnatdor tinglar ekan, jajji daraxtlari, endi unajak o't-o'lani-yu, chamber gullari-la ta'zim etadi.

Yeru-osmon, daraxtu yomg'ir, nish urish orzusidagi kurtagu, unga lab tegizgan tomchi, ko'kdagi bulutdan barqini kutgan maysalar, chechaklar yamoqchi sog'inch dardida butun bo'ladilar endi. Bilaman, zamin-u falak visoli xayoliy ufqdagina namoyon. Bilaman... Ammo... Qalbim zulflariga urilgan shivir-shivirlarni sezmaslikni eplay olmayapman. Sog'inch – umrim yamog'i... (YO.Akram)

(YOqutxon Akram. YOmg'irkuy. –T «sharq», 1994, 45-b.)

Biror bir badiiy matnda sanab o'tilgan matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo'lishi mumkin. YOhud butun boshli asar Yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matnning qanday tiplari mavjud?
2. Hikoya mazmunli matnlar (narrativ matn) deb qanday matnga aytiladi?
3. Tasviriy matnlar (deskriptiv matn) deganda qanday matnni tushunasiz?

4. Izoh mazmunli matnlar (argumentli matn) haqida ma'lumot byering.
5. Didaktik matnlar (eksplikativ matn) haqida o'z fikringizni bildiring.
6. Buyruq mazmunli matnlar (injonktiv matn)ga misollar keltiring.
7. Tasvirdagi birlamchi va aloqador xususiyatlar haqida ma'lumot byering.
8. Hissiy ifoda mazmunli matn deb nimaga aytiladi?
9. Xabar mazmunli matnlar (informativ matn) qanday matn tiplariga kiradi?

### **Mavzu bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:**

Matnni hajm belgisiga ko'ra ikkiga ajratamiz: **Minimal matn** (mikromatn) va **maksimal matn** (makromatn). shuni ham aytib o'tish kyerakki, ayrim adabiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: kichik, o'rta va katta hajmli matnlar. «Telegramma, ma'lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e'lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O'rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she'r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmdagi matnlarga povest, roman, drammatik asarlar, trilogiyalar kiradi.»

Ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra badiiy matnni quyidagi tiplarga bo'lib chiqish mumkin: 1.Hikoya mazmunli matn. 2.Tasviriy matn. 3.Izoh mazmunli matn. 4.Didaktik matn. 5.Xabar mazmunli matn. 6.Buyruq mazmunli matn. 7.Hissiy ifoda mazmunli matn.<sup>14</sup>

Biror bir badiiy matnda sanab o'tilgan matn tiplarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Yohud butun boshli asar Yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. Matn hajm va mazmun belgisiga ko'ra qanday tiplarga bo'linadi?
2. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari haqida ma'lumot byering.
3. Mazmuniy o'q tushunchasini izohlang.
- 4.Motivatsion yaxlitlik va kompozitsion butunlik tushunchalarini izohlang.
5. Mikromatn va makromatn haqida ma'lumot byering.
- 6.Abzatsning tashkiliy qismlari va struktural ko'rinishlari haqida ma'lumot byering.
- 7.Tema-rematik munosabat tushunchasini izohlang.
8. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matnning qanday tiplari mavjud?
9. Hikoya mazmunli matnlar (narrativ matn) deb qanday matnga aytiladi?
10. Tasviriy matnlar (deskriptiv matn) deganda qanday matnni tushunasiz?
11. Izoh mazmunli matnlar (argumentli matn) haqida ma'lumot byering.
12. Didaktik matnlar (eksplikativ matn) haqida o'z fikringizni bildiring.
13. Buyruq mazmunli matnlar (injonktiv matn)ga misollar keltiring.
14. Tasvirdagi birlamchi va aloqador xususiyatlar haqida ma'lumot byering.
15. Hissiy ifoda mazmunli matn deb nimaga aytiladi?
16. Xabar mazmunli matnlar (informativ matn) qanday matn tiplariga kiradi?

### **Ma'ruza bo'yicha mustaqil ta'lim materiallari:**

- 1.Badiiy asar tilini o'rganishda tema-rematik munosabatning rolini tushuntirib byerish.Badiiy asarlardan unga misol topish.
- 2.Ma'lum bir badiiy asarni lisoniy jihatdan tematik tahlil qilish.
- 3.shu mavzuda refyerat tayyorlash.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».
- 2.H.Jamolxonov, M.Yo'ldoshev «Badiiy matnning lisoniy tahlili» TDPU, 2000.
- 3.M. Yo'ldoshev «Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari» T.: «Fan» 2007.

### **Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

- 1.Mikromatn va makromatn tushunchalari matn xajmini belgilashda torlik qilmaydimi?
- 2.Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplariga Yangio'zgartirishlar kiritish muammosi.

### **4-mavzu. Matn va uning asosiy kategoriyalari**

Matn kategoriyalari hakida tushuncha. Matn kategoriyalarining klassifikatsiyasi. Matn kategoriyalari: modallik kategoriyalari, matn yaxlitligi va tugallanganligi kategoriyalari, matnda o'rin-payt kategoriyalarini. Informativlik kategoriyasi va uning turlari.

### **Badiiy matn qismlarini bog'lovchi vositalar.**

#### **Asosiy savollar:**

1. Kesimlik shakllari, olmoshlar, takrorlar va xiazmatik usulda birikish.
2. Zamon va makon ifodalovchi birliklar, partselyatli tuzilmalar, nominativ va informativ gaplar hamda murojaat birliklari yordamida birikish.

### **Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:**

Matn. Sintaktik butunlik. Bog'lovchi va shakllantiruvchi vositalar. Leksik-grammatik birliklar. Kontakt va distant aloqa. Takroriy bo'laklar. Olmoshlar. Xiazmatak konstruksiyalar. Zamon va makon ifodalovchi birliklar. Partselyatli tuzilmalar yordamida birikish. Kesimlarning zamon shakllari. Modal so'zlar. . Nominativ (atov) va infinitiv(asosi harakat nomi) gaplar. Murojaat birliklari. Ritorik murojaat.

### **Mavzuga oid asosiy muammolar:**

1. Badiiy matn qismlarini bog'lovchi yana qanday vositalarni qo'shimcha qila olasiz?
2. Matnni shakllantiruvchi sintaktik birliklar haqida yana qanday fikrlar bildira olasiz?

### **1-savol bo'yicha darsning asosiy maqsadi:**

Talabalarga matn komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqa haqida ma'lumot byera olish. Mazmuniy yaqinlik va mazmun izchilligi tushunchalarini izohlash. Matn qismlari qanday vositalar yordamida bog'lanishini anglatish.Xiazm poetik nutqda qanday vazifalarni bajarishini o'rgatish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Matn komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqa haqida ma'lumot byera oladi.
  2. Mazmuniy yaqinlik va mazmun izchilligi tushunchalarini izohlaydi.
  4. Matn qismlari qanday vositalar yordamida bog'lanishini anglab etadi.
- Kesimlik shakllari,takroriy bo'laklar, olmoshlar yordamida birikishni tushuntira oladi.
- 5.Xiazm poetik nutqda qanday vazifalarni bajar ishini tushuntira oladi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

Matn kamida ikkita gapdan tuzilgan murakkab sintaktik butunlik. Gaplar o'zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo'laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruksiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi. Tilshunos olim A.Mamajonov matn komponentlari o'rtasida mustahkam sintaktik aloqa majudligini ta'kidlaydi va bu aloqaning o'ziga xosligini «Tekst lingvistikasi» deb nomlangan risolasida quyidagicha izohlaydi: «Bizningcha, sintaktik aloqaning bu turi qo'shma gap komponentlari orasidagi grammatik aloqaga o'xshab ketadi, faqat murakkabroq ko'rinishda yuzaga chiqadi. Ma'lumki, qo'shma gap komponentlari orasida birlashtirish, qiyoslash, zidlash, sabab-natija, shart-payt, aniqlash, izohlash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanadi. Bu munosabatlar qo'shma gapning uch turi: bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarda komponentlarni o'zaro birlashtiruvchi sintaktik aloqa vositalari: intonatsiya, bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, gap bo'laklari tartibi, olmoshlar, ayrim so'zlarning takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo'laklar, kesimlarning zamon munosabati kabilar orqali reallashadi. Ko'rinadiki, qo'shma gaplarda sintaktik aloqa predikatsiyalar orasida o'rnatiladi. Tekstda esa sintaktik aloqa bir butun gaplar, supyerfrazali sintaktik butunliklar, abzatslar, qismlar, bo'limlar, boblar o'rtasida yuzaga chiqib uning mazmuniy va struktural birligini ta'minlaydi».<sup>15</sup>Demak, matn tarkibidagi gaplar faqat struktural jihatdan emas, balki mazmunan ham bir-birini taqazo qilishi kerak ekan. Matn butunligida **mazmuniy yaqinlik** qanchalik ahamiyatli bo'lsa, **mazmun izchilligi** ham shunchalik muhim. Masalan: 1.Hovli yog' tushsa yalagudek top-toza bo'ldi. 2.Ahmad bugun ham darsga kelmadimi? 3.Har qanday chuqurlikdan ham yuksaklikka ko'tarilish mumkin. 4.O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga orzu ulashishdan, orzu qilishni o'rgatishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Yuqorida to'rtta gap ketma-ket keltirildi. Lekin ularda mazmuniy yaqinlik yo'q. Quyidagi gaplar yig'inida esa mazmuniy yaqinlik ko'zga tashlanadi, lekin mazmun izchilligi yo'q: 1.Qalamkashning So'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga etib boradi. 2.Demak, uning So'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir. 3.Maktab o'qituvchisining So'zi o'ttiz bolaga etib boradi. 4.Notiqning So'zi ming tinglovchiga etib boradi. 5.Dorilfunun domlasining So'zi yuz talabaga etib boradi.

Yuqoridagi gaplardan matnning so'z va uning mas'uliyati haqida ekanligini payqash qiyin emas. Bu gaplar yig'inida mazmun yaqinligi bor, lekin izchil emas. Gaplarning ketma-ketligi buzilganligi tufayli mazmun izchilligiga ham putur etgan. Endi mazkur gaplarni qayta tyerib chiqamiz:

Maktab o'qituvchisining So'zi o'ttiz bolaga etib boradi.

Dorilfunun domlasining So'zi yuz talabaga etib boradi.

Notiqning So'zi ming tinglovchiga etib boradi.

Qalamkashning So'zi bir yo'la o'n ming, yuz ming kitobxonga etib boradi.

Demak, uning So'z mas'uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir.

(O'. Hoshimov) Muallif aytmoqchi bo'lgan fikr, aslida, oxirgi gapda keltirilgan.

Agar yozuvchi faqatgina oxirgi gapni keltirib qo'ya qolganida o'sha fikrning ta'sirchanligi bo'lmasligi mumkin edi. Adib maqsadini qiyoslash usulidan foydalanib to'la va aniq etkazishga erishgan: **o'qituvchi** va bunga parallel ravishda **o'ttiz bola**, **domla** - **yuz talaba**, **notiq** - **ming tinglovchi**,

**qalamkash - o'n ming, yuz ming kitobxon.** Bu matndagi qiyos pog'onama-pog'ona «kengayib boruvchi» leksik-semantik birliklar fonida yanada aniq ifodasini topgan: 1. Muassasalar: **maktab**→**dorilfunun**→**ijtimoiy-ijodiy maktab**, **Ya'ni hayot**; 2. Kasb egalari: **o'qituvchi**→**domla**→**notiq**→**qalamkash**; 3. Miqdor: **o'ttiz**→**yuz**→**ming**→**o'n ming, yuz ming**. Ohang ham shunga muvofiq ko'tarilib boradi.

Matn komponentlari o'zaro **kontakt** va **distant aloqa**ga kirishadi. Oradan uch-to'rt kun vaqt o'tdi. Bolaga telefonimni byergan edim. Qo'ng'iroq qilmadi. Bir kuni yana uyushmaga kelsam, xuddi o'sha kitob do'koni oldida turibdi (sh.Xolmirzaev).<sup>16</sup> Bu matnda birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi, uchinchi va to'rtinchi gaplar orasidagi aloqani «**kontakt aloqa**», birinchi va uchinchi, birinchi va to'rtinchi gaplar \_\_\_\_\_

16 shukur Holmirzaev. «Saylanma» Hikoyalar.2-jild. -T: «sharq», 2005. Keyingi misollar ham shu nashrdan olingan.

orasidagi aloqani «**distant aloqa**» deymiz.

**d=(a+b)+(b+c)+(c+d)**

**k=(a+c)+(a+d)**

Bunday aloqani quyidagi leksik-grammatik vositalar yuzaga chiqaradi:

**1.Kesimlik shakllari yordamida birikish.** Fe'l-kesimlarning bir xil zamonda shakllanganligi matn butunligini ta'minlaydigan vositalardan hisoblanadi.

Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o'z asarlarida 21 ming 197 ta betakror so'z **ishlatgan**. shekspir salkam 20 mingta, Syervantes 18 mingga yaqin, Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta so'z, shu jumladan 26 mingta betakror so'z

**ishlatgan**. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan **foydalangan** (O'. Hoshimov).

**2.Olmoshlar yordamida birikish.** Bunda matnning birinchi komponenti tarkibidagi ot, sifat, son turkumidagi so'zning keyingi komponentlarda olmosh so'zlar bilan almashtirilishi tushuniladi.

Muhammad Rahimxonning Tozabog'dagi sayrgoh bog'i. **Uning** bir chekkasidan ikkinchi chekkasigacha aylanib chiqish amri mahol, kishi charchab qoladi. Katta hovlining orqasida qirg'oqlariga marmar o'rnatilgan xon hovuz. **Undagi** zog'ora baliq, cho'rtan baliq, laqqa baliqlar goh suv yuziga chiqib tashlangan nonlarni yer, goh biltanglab o'ynab sho'ng'ib ketardi. Hovuzning to'rt tomonida yo'g'on – yo'g'on qayrag'ochlar, tanalari qulochga sig'maydi. Xorazmda hovuz desa, darhol ko'z oldingga katta – katta gujumlar – qayrag'ochlar keladi. **Bu** daraxtlar go'yo azamat dubni eslatadi. Hovuz labiga husn byerib turganlar ham **o'shalar**. **Ularning** kichkina – kichkina barglari orasidan quyosh nurlari mo'ralaydi. Ammo **ular** quyosh haroratini o'zida singdirib, pastga tanga – tangaday oq shu'lalarini tushirardi. **Ular** kishi ga orom byeradi. (J.sharipov)

Ushbu matn tarkibidagi komponentlar **zanjirli aloqa** usulida munosabatga kirishgan. Dastlabki komponentda bog' va uning kimga qarashli ekanligi haqidagi axborot keltiriladi. Keyin o'sha bog'ning kattaligi va hovuz haqidagi informatsiya. Hovuz ichi va atrofi tasviri. Daraxtlar va ular bilan bog'liq tafsilotlar. Mazkur tasvirdan butun-bo'lak munosabati anglashiladi. Zanjirli aloqani quyidagi so'z va shakllar ta'minlaydi: bog' → uning, hovuz → undagi, gujumlar-qayrag'ochlar → bu, o'shalar, ularning, ular, ular. Ko'rinadiki,

olmoshlar o'zidan oldin kelgan gaplardagi ot turkumiga mansub so'zlarning o'rniga qo'llangan va matn komponentlari o'rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlashtirgan. Hamda ayni so'z takrori bilan yuzaga chiqadigan uslubiy g'alizlik oldi olingan.

**3.Takrorlar yordamida birikish.** Birinchi gapda qo'llangan ayrim affikslar, so'z, so'z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo'llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Nutqning ta'sirchanligi ortadi. «Leksik takrorlar, olmoshlar va sinonimlar yordamida hosil qilinadigan aloqa **zanjirli aloqa**, bir xil grammatik formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig'indisidan tashkil topadigan aloqa **parallel aloqa** deyiladi.»<sup>17</sup>

<sup>17</sup>Mamajonov A. O'sha asar. 18-b.

-Janoblar, siz bu yerga turli mamlakatlardan kelgansiz. Siz turli millat, turli xalqlarning vakillarisiz. Bu yerda hech mamlakat, hech bir xalqning vakili bo'lmagan yolg'iz **men**. **Men** hamma xalqlarning, hamma mamlakatlarning vakiliman. **Men** she'riyatman. **Men** butun olamga teng nur sochuvchi oftobman. **Men** hamma o'lkalarga teng yog'uvchi yomg'irman. **Men** dunYoning hamma yerida teng gullaguvchi daraxtman (R.Hamzatov).

**Turmush tashvishlari,**

**Turmush tashvishlari,**

**Biz sendan balandroq tura olsaydik,**

**Biz sendek balandroq yura olsaydik,**

Balki o'ng'ayardi dunyo ishlari,

**Turmush tashvishlari,**

**Turmush tashvishlari.** (A.Oripov)

Takrorning bir necha ko'rinishlari bor, ular ham matn tashakkulida uslubiy vazifa bajaradi: Allityeratsiya, assonans, anafora, epifora kabilar. Allityeratsiya deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi. Assonans esa unli tovushlarning takrorlanishidir. Anafora deganda so'z yoki so'z birikmalarining she'riy misralar boshida takrorlanishi tushuniladi. Epiforada esa misralar oxiridagi so'z yoki qo'shimchalarning takrorlanishi nazarda tutiladi. Bularning bari matnning kompozitsion butunligi uchun xizmat qiladi. Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra **gorizontal** va **vyertikal takrorlarga** bo'linadi. Bunday takrorlar ayniqsa, she'riy matnlarda o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko'ra **ot takrori**, **sifat takrori**, **olmosh takrori**, **fe'l takrori** kabilarga bo'linadi. Sintaktik tabiatiga ko'ra **so'z birikmasi takrori** va **juvla takrori** ham farqlanadi. Mazkur birliklarning joylashish tartibiga ko'ra ham tasnif qilish mumkin: **simmetrik takror** va **asimmetrik takror**. shuningdek, o'rtadagi masofasiga ko'ra ham guruhlashtirish mumkin: **yaqin o'rinli takror**, **uzoq o'rinli takror**. Badiiy asarlarda ma'lum bir fikrning turli shakllarda takrorlanishiga qarab **mazmuniy takror** turini ham kuzatishimiz mumkin.

**4.Xiazmatik konstruksiyalar yordamida birikish.** Xiazm asosan, ikkita gapdan tashkil topgan matn ko'rinishlarida uchraydi. Xiazm «X» harfi shaklida namoyon bo'luvchi uslubiy vositadir. Ikkinchi gap birinchi gap komponentlarining teskari tarzda joylashuvidir. Bunda yozuvchining asosiy

maqsadi ikkinchi gapda byerilgan bo'ladi. Birinchi gap ikkinchi gapdan anglashiladigan ma'noni bo'rttirib ifodalashga xizmat qiladi.

Masalan: shijoatli bo'l. Biroq andishasiz bo'lma.

Andishali bo'l. Biroq shijoatsiz bo'lma. (O'. Hoshimov)

«Xiazm poetik nutqda quyidagi vazifalarni bajaradi: 1.Uslubiy-semantik vazifa. Bunda ikki komponent mazmuni o'zaro zidlik kasb etadi yoki aksincha, bir-birini mantiqan to'ldiradi. 2.Ekspressiv vazifa. Bunda o'quvchi yoki tinglovchiga zavq bag'ishlash, fikrni tez va uzoq vaqt esda saqlab qolishiga xizmat qilishi nazarda tutiladi. 3.Evfonik vazifa. Xiazmni yuzaga keltirayotgan bo'laklar o'zaro o'rin va vazifa jihatidan almashinganda ohang ham shunga mos ravishda almashinib boradi.»<sup>18</sup>

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Matn komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqa haqida ma'lumot byering.
2. Mazmuniy yaqinlik va mazmun izchilligi tushunchalarini izohlang.

---

<sup>18</sup> Bu haqda qarang: Mamaziyaev O.X. O'zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya. NDA., -Farg'ona., 2004.

4. Matn qismlari qanday vositalar yordamida bog'lanadi?
5. Kesimlik shakllari yordamida birikish deganda nimani tushunasiz?
6. Takroriy bo'laklar yordamida birikish deganda-chi?
7. Olmoshlar yordamida birikishni izohlang.
8. Xiazmatak konstruktsiyalar yordamida birikish poetik nutqda qanday vazifalarni bajaradi?

### **2-savol bo'yicha darsning maqsadi:**

Talabarda zamon va makon ifodalovchi birliklar haqida tushuncha hosil qilish. Kesimlarning zamon shakllarining matn shakllanishida alohida xizmati borligini sharhlash. Kontakt va distant aloqa hamda murojaat birliklarining matnni shakllantirish imkoniyatlari haqida ma'lumot byera olish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Zamon va makon ifodalovchi birliklar haqida tushuncha hosil qiladi.
2. Partselyatli tuzilmalar yordamida birikish matn komponentlarini ekspressiv-stilistik maqsadga ko'ra qayta tartiblash orqali namoyon bo'lishini tushuntira oladi.
3. Kesimlarning zamon shakllarining matn shakllanishida alohida xizmati borligini sharhlay oladi.
4. Modal so'zlarni turli modal ma'nolarni tashiydigan o'tkir, ta'sirchan vosita ekanligini anglab etadi.
5. Nominativ (atov) va infinitiv(asosi harakat nomi) gaplar matnni shakllantiruvchi sintaktik birliklar ekanligini isbotlaydi.
6. Kontakt va distant aloqani tushuntirib byera oladi.
7. Murojaat birliklarining matnni shakllantirish imkoniyatlari haqida ma'lumot byera oladi.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

**5. Zamon va makon ifodalovchi birliklar yordamida** ham matnni shakllantirish va uning komponentlarini bog'lash mumkin. Badiiy asardagi voqea-hodisalar muayyan vaqt asosida ro'yobga chiqadi. Faqat badiiy asardagi vaqt tushunchasi real hayotdagi vaqt muntazamligidan farq qiladi. «Vaqt ma'noli leksemalar matn qismlarini distant (masofasiz, bilvosita) va kontakt (masofali, bevosita) bog'lash uchun xizmat qiladi. Ayrim temporal

so'zlar leksik-grammatik bog'lovchi vazifasini bajarib, matndagi xronologik ketma-ketlik, izchillikni aks ettirib turadi» 19.

<sup>19</sup> Hakimova M. O'sha asar. 135-b.

Ertalab-chi, oyi, yomg'ir yog'di. Qattiq yomg'ir yog'di. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi...(O'.Hoshimov). Ushbu matnning shakllanishida vaqt ma'noli birliklarning alohida xizmati bor. Birinchi gapda **ertalab** leksemasi yordamida sutkaning shu qismida sodir bo'lgan tabiat hodisasi haqidagi informatsiya ifodalanyapti. Keyingi gaplarda ifodalangan hodisalar ham ayni vaqt birligida ketma-ketlikda ro'yobga chiqqan. Ya'ni: ertalab → yomg'ir yog'di → qattiq yog'di → oftob chiqdi → charaqlab ketdi.

Makonni bildiradigan leksemalar ham matnni shakllantiruvchi vosita bo'la oladi. Odatda yozuvchilar voqea sodir bo'layotgan makonni batafsil tasvirlashga harakat qiladilar. Makon ma'noli leksema keltirildimi, albatta uning tavsifi ham byeriladi. shu tarzda matn yuzaga keladi. Gaplar o'zaro kontakt va distant aloqaga kirishadi.

**Bog'** juda orasta, yo'laklarga oltinrang qumlar solingan, marmar ariqlardan tiniq suvlar jildirab oqadi. **Chorchamanlarda** mamlakatning eng noyob gullari muattar hid taratib ochilib turibdi (P.Qodirov).

**6.Partselyatli tuzilmalar yordamida birikish.** Og'zaki nutqda, matnda ba'zan muloqot talabiga ko'ra yaxlit bir jumlada uzilish sodir bo'ladi. So'zlovchi tinglovchiga biror voqea-hodisa haqida xabar byerayotganda mana shu xabar ichidagi eng muhim fikrni boshqalaridan ajratib, alohida ta'kidlab aytishga harakat qiladi. Ma'lumki, ta'kid og'zaki nutqda ohang, pauza, mantiqiy urg'u kabi vositalar yordamida amalga oshirilsa, matnda partselyativ tuzilmalar - matn komponentlarini ekspressiv-stilistik maqsadga ko'ra qayta tartiblash orqali namoyon bo'ladi. Masalan: **1.Hurriyat va adolat uchun kurashish kyerak.** yoki: **2.Kurashish kyerak. Hurriyat uchun. Adolat uchun.** Birinchi gap odatdagi tartibda tuzilgan sodda gap hisoblanadi. Ikkinchi gap esa partselyatli tuzilma hisoblanadi. Uch komponentli bu qurilmada birinchi qism - **asos**, qolganlari esa **partselyat bo'lak** hisoblanadi. «Partselyatli tuzilmalardagi tartib mohiyat e'tibori bilan ta'sirchan so'z tartibi bo'lib, uslubiy jihatdan betaraf tuzilmali gap qismlarini kommunikativ maqsadga muvofiq tarzda guruhlash, sintaktik jihatdan qayta o'rinlashtirish sifatida ro'yobga chiqadi. Gap tuzilmasini bu xilda qayta qurish (uning qismlarini sintaktik jihatdan qayta tartiblash) ma'lum qismni mantiqiy jihatdan ajratishga asoslanadi va o'ziga xos ekspressiv ifoda shakli hamda funksional - semantik munosabatlar tarkib topadi». (Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis. Sintaktik va sintagmatik qayta bo'linish. Partselyatsiya. -T: «Zar qalam», 2004, 88-b.)

Jalil aka dyeraza tagida yotardi(1). To'shakda(2). Bolishi baland(3). Unga suyanib, boshini ko'tarsa, bog'ni ko'radi(4). O'zi obod qilgan bog' u(5). (sh.Xolmirzaev).

Bu matn parchasi beshta gapdan tashkil topgan. 1-gap asos, 2-gap partselyat. Asosdagi o'rin holi konkretlashtir- ilmaganligi uchun partselyat bo'lak sifatida ajratilgan. 3-partselyat gap ham asosdagi o'rin holini ta'kidlashga xizmat qilgan. shuningdek, 4-gap bilan 1-gap o'rtasidagi aloqani zichlashtirgan. Ya'ni, qahramon dyeraza tagida yotibdi. To'shakda yotibdi. Baland bolishli to'shakda yotibdi. Unga suyansa o'zi obod qilgan bog'ni

ko'radi. 5-gap 4-gapning partselyati hisoblanadi. Ya'ni asos(4) dagi to'ldiruvchi(*bog'*)ni aniqlashga xizmat qilgan.

**7.Nominativ (atov) va infinitiv gaplar** ham matnni shakllantiruvchi sintaktik birliklar hisoblanadi. Atov gaplar bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan grammatik asos yordamida ifodalangan narsa-buyumning mavjudligini anglatadi. Atov gaplar matnda yolg'iz qo'llanmaydi, ulardan keyin atov gap mazmunini ochuvchi, tavsiflovchi boshqa gap yoki gaplar keltiriladi. Natijada matn hosil bo'ladi. Masalan: Bugun bayram. Ko'chalar gavjum. sho'x-sho'x kuylar Yangraydi. Guras-guras odamlar o'tadi. O'yin-kulgi, shodon shovqin bahor osmonini titratadi(O'.Hoshimov).

Infinitiv gaplar grammatik asosi harakat nomi bilan ifodalanadigan, yakka so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'lgan gaplardir: Sevmoq! Bu toshga qarab ham gulni ko'rmoqdir. yoki, Kutish! Soniyalar daqiqalarga, daqiqalar soatlarga aylanadigan bekat.

### **8.Murojaat birliklari va ularning matnni shakllantirish imkoniyatlari.**

Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida – nutq jarayonida keng qo'llaniladigan, o'zaro aloqa aralashuvga faol xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turli modal ma'nolarni tashiydigan o'tkir, ta'sirchan vositadir. Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e'tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch; masofa (subordinatsiya), hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo'ladi. «shunga ko'ra doimiylik belgisiga ega bo'lgan murojaat birliklari nutqda appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash), konnotativ (sub'ektiv munosabat – salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash), emotiv (hissiy munosabat) funktsiyalarni bajaradi.»<sup>21</sup> Misollar: - Malikam,- debdi jahl otiga minib. – Sizga ruhsat! Saltanat xazinasidan o'zingiz uchun eng qimmatli narsani oling-da yurtingizga jo'nang! (O'.Hoshimov) Hoy, ovsar! Bosar-tusaringni bilmay qolding-ku! (S.Ahmad). Oyisha, Oyisha, Oyisha ona, Nechun ko'zlaringdan oqar marjon yosh. (A.Oripov) Keltirilgan birinchi misoldagi «malikam» murojaat birligi appelyativ-xitob, murojaat qilish orqali o'zaro muloqotni boshlash vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gap tarkibidagi «ovsar» murojaat birligi kamsitish, haqorat kabi shaxsiy munosabatni ifodalash orqali konnotativ vazifani bajargan. Uchinchi gapda so'zlovchining emotsional munosabati takror qo'llanuvchi «Oyisha ona» murojaat birligi orqali yana-da aniq ifodalangan. Murojaat birliklarining badiiy matndagi qo'llanilishini o'rganishda kim, kimga, nimaga, qanday holatda, qanday nutqiy vaziyatda murojaat qilinayotganligiga e'tiborni qaratish kyerak bo'ladi. Murojaat qilinayotgan ba'zan narsa-buyum bo'lishi ham mumkin. Masalan:

Ayo, sarv! Yuksaklarga intilmoqni bizga ham o'rgat!

Ay, g'uncha! O'zlikni namoyon etmoqni o'rgat! (J.Rumiy)

Tahlilda buning sababi aniqlanishi talab qilinadi. YOzuvchi yoki shoirning murojaat qilishdan maqsadi va badiiy niyati nimadan iborat ekanligi, murojaat birliklaridagi denotativ va konnotativ ma'nolar haqida mulohaza yuritiladi. Adabiyotshunoslikda mazkur usul ritorik murojaat atamasi ostida o'rganiladi. Ritorik murojaatda ritorik so'roqda bo'lgani kabi javob talab qilinmaydi, balki, «ob'ektga e'tiborni kuchaytiradi va kitobxonda biror munosabatni uyg'otadi».

22 Asosan, «shoirning poetik nutqda o'zi xohlagan intonatsiyani – tantanavorlik, ko'tarinkilik, g'azabkorlik, kesatish kabilarni ifodalashda»<sup>23</sup> keng foydalaniladi.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Zamon va makon ifodalovchi birliklar haqida ma'lumot byering.
2. Kontakt va distant aloqa deganda nimani tushunasiz?
3. Partselyatli tuzilmalar yordamida birikish natijasida qanday munosabatlar tarkib topadi?
4. Kesimlarning zamon shakllari haqida ma'lumot byering.
5. Modal so'zlar murojaat birliklarini shaklanishida qanday rol o'ynaydi?
6. Nominativ (atov) va infinitiv (asosi harakat nomi) gaplar matnni shakllantiruvchi sintaktik birliklar ekanligini isbotlang.
7. Murojaat birliklarining matnni shakllantirish imkoniyatlari haqida ma'lumot byering.

### **Mavzu bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:**

Matn kamida ikkita gapdan tuzilgan murakkab sintaktik butunlik. Gaplar o'zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo'laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruktsiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi.

21 Bu haqda qarang: Ahmedova N.sh. O'zbek tilida murojaat birliklari. -Toshkent, ND.

22 Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. -T: TDPU., 2001, 92-b.

23 Zunnunov A., Hotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo'llanma.-T: «O'qituvchi», 1978, 101-b.

«Bizningcha, sintaktik aloqaning bu turi qo'shma gap komponentlari orasidagi grammatik aloqaga o'xshab ketadi, faqat murakkabroq ko'rinishda yuzaga chiqadi. Ma'lumki, qo'shma gap komponentlari orasida biriktirish, qiyoslash, zidlash, sabab-

natija, shart-payt, aniqlash, izohlash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanadi. Bu

munosabatlar qo'shma gapning uch turi: bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarda komponentlarni o'zaro biriktiruvchi sintaktik aloqa vositalari: intonatsiya, bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, gap bo'laklari tartibi, olmoshlar, ayrim so'zlarning takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo'laklar, kesimlarning zamon munosabati kabilar orqali reallashadi. Ko'rinadiki, qo'shma gaplarda sintaktik aloqa predikatsiyalar orasida o'rnatiladi. Tekstda esa sintaktik aloqa bir butun gaplar, superfrazali sintaktik butunliklar, abzatslar, qismlar, bo'limlar, boblar o'rtasida yuzaga chiqib uning mazmuniy va struktural birligini ta'minlaydi».<sup>24</sup>

Demak, matn tarkibidagi gaplar faqat struktural jihatdan emas, balki mazmunan ham bir-birini taqazo qilishi kerak ekan. Matn butunligida **mazmuniy yaqinlik** qanchalik ahamiyatli bo'lsa, **mazmun izchilligi** ham shunchalik muhim.

### **Nazorat savollari:**

1. Matn komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqa haqida ma'lumot byering.
2. Mazmuniy yaqinlik va mazmun izchilligi tushunchalarini izohlang.
4. Matn qismlari qanday vositalar yordamida bog'lanadi?
5. Kesimlik shakllari yordamida birikish deganda nimani tushunasiz?
6. Takroriy bo'laklar yordamida birikish deganda-chi?
7. Olmoshlar yordamida birikishni izohlang.

8. Xiazmatak konstruktsiyalar yordamida birikish poetik nutqda qanday vazifalarni bajaradi?
- 8.Zamon va makon ifodalovchi birliklar haqida ma'lumot byering.
9. Kontakt va distant aloqa deganda nimani tushunasiz?
- 10.Partselyatli tuzilmalar yordamida birikish natijasida qanday munosabatlar tarkib topadi?
11. Kesimlarning zamon shakllari haqida ma'lumot byering.
- 12.Modal so'zlar murojaat birliklarini shaklanishida qanday rol o'ynaydi?
13. Nominativ (atov) va infinitiv(asosi harakat nomi) gaplar matnni shakllantiruvchi sintaktik birliklar ekanligini isbotlang.
14. Murojaat birliklarining matnni shakllantirish imkoniyatlari haqida ma'lumot byering.

#### **Ma'ruza bo'yicha mustaqil ta'lim materiallari:**

- 1.Badiiy asar tilini o'rganishda badiiy matn qismlarini bog'lovchi vositalarga badiiy asarlardan namunalar topish.
- 2.Ma'lum bir badiiy asarni lisoniy jihatdan tematik tahlil qilish.
- 3.Refyerat tayyorlash.

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».
- 2.H.Jamolxonov, M.Yo'ldoshev «Badiiy matnning lisoniy tahlili» TDPU, 2000.
- 3.M. Yo'ldoshev «Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari» T.: «Fan» 2007.

---

<sup>24</sup> Mamajonov A. O'sha asar, 15-b.

#### **Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

1. Kesimlik shakllari, olmoshlar, takrorlar va xiazmatik usulda birikish borasidagi muammolar.
2. Zamon va makon ifodalovchi birliklar, partselyatli tuzilmalar, nominativ va informativ gaplar hamda murojaat birliklari yordamida birikish muammolari.

#### **5-mavzu. Badiiy matn va uning asosiy kategoriyalari**

Emotivlik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Obrazlilik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Implitsitlik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Intyertekstuallik kategoriyasi va uning matnda ifodalanish yo'llari. Pretsedent matn tushunchasi. Intyertekst tushunchasi. Intyertekstuallikni matnda ifodalovchi til birliklari va stilistik vositalar: allyuziya, antonomaziya, tsitata, epigraf. Allyuziya turlari.

1. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining predmeti haqida tushuncha, fanining umumiy masalalari, maqsadi va vazifalari.
2. Matn-lingvistik tahlil ob'ekti.

#### **Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:**

Kirish. Badiiy matn Uslub. Nutq. Lisoniy tahlil. Fonetik, morfologik, sintaktik va leksik birliklar. So'z. Emotsional bo'yoq. Grammatik hodisalar. Ekspressiv vositalar. Matn. Ertak, matal, hikoyalar. E'lon, retsept, ariza, gazeta maqolasi, darslik, risola, badiiy adabiyot asari. Ilmiy maqola, dissyertatsiya, monografiya, buyruq, qaror, xat. Abzatsning boshlanishi. Asosiy fraza.

Izohlovchi qism. Olimlar A.A.Brudniy, T.M.Dridze, L.S.shkolniklar. Poetika so'zi keng ma'noda va tor ma'noda. Matnni umumfilologik planda o'rganish.

### **Mavzuga oid asosiy muammolar:**

1. Fanning tekshirish (o'rganish) ob'ektlaridan biri bo'lgan fonetika va badiiy matn o'rtasidagi o'zaro bog'lanish bormi yoki yo'qmi?
2. Leksikologiya va badiiy matnning o'zaro bog'liqligi haqida nima deya olasiz?
3. Matn deganda ko'z oldingizga avvalo qanday matn keladi? Nima uchun?
4. Olimlar A.A.Brudniy, T.M.Dridze, L.S.shkolniklarning fikrlariga qo'shilasizmi? Ularga yana qanday qo'shimcha fikrlar bildira olasiz?

### **1-savol bo'yicha darsning asosiy maqsadi:**

Talabalarga "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining predmeti haqida tushuncha byerish. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushuntirib byerish. Fanning tekshirish (o'rganish) ob'ektlari haqida tushuncha byerish. Til birliklarining barchasida uslubiy belgi-sifatlar mavjudligini tushuntirish. Istalgan bir matnni tushunish uchun avvalo nimalarni bilishimiz zarurligini anglash. "Badiiy matnning lisoniy tahlili"ning predmetini tushuntirib byerish. Fonetik, morfologik, sintaktik va leksik tahlillarning lisoniy tahlil bilan o'zaro bog'liqlik jihatlarini tushuntirish. Badiiy matnning lisoniy tahlili haqida tushuncha byerish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

- 1.1. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining maqsad va vazifalari nima ekanligini aytib byeradi.
- 1.2. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining ob'ektini izohlab byeradi.
- 1.3. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fani haqida umumiy xulosa chiqaradi.
- 1.4. Tilshunoslikda "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining tutgan o'rnini va roliga baho byeradi.
- 1.5. "Badiiy matnning lisoniy tahlili"ning predmetini tushuntirib byeradi.
- 1.6. "Badiiy matnning lisoniy tahlili"ni misollar orqali izohlaydi.
- 1.7. "Badiiy matnning lisoniy tahlili"ning Tilshunoslikdagi boshqa bo'limlar bilan aloqasini ko'rsatadi va uning ahamiyatiga baho byeradi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

O'zbek tiliga davlat maqomining byerilishi bu tilning ichki va tashqi imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish imkoniyatini yaratdi. O'zbek tili asrlar davomida necha minglab turkiy ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bo'lib, o'zbek xalqi orasida o'zaro aloqa vositasi hamda uning matbuot va badiiy adabiyot tili bo'lib xizmat qilmoqda. Bu tilda A. Navoiy, Bobur, Abulg'azi Bahodirxon, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Fitrat va boshqa qator adiblarimiz o'zlarining tarixiy badiiy asarlarini yaratib, uning qudratini namoyish qilganlar. O'zbek tilining o'ziga xos jilosi, uning syerqirraligi, badiiy obrazlar yarata olish qudratini to'laroq anglash uchun mumtoz va hozirgi zamon adiblarimiz badiiy asarlari tilini o'rganish zamon talabidir.

Oddiy tuyuqlardan toki epopeyagacha bo'lgan asarlarning tili turli-tumandir. Ayniqsa, so'zlar badiiy tasvirda estetik zavq byeruchi san'atga aylanganda yanada murakkablashadi. Jumladan, asarda tasvirlangan davrga xos so'zlar, sheva so'zlari, kasb-hunar so'zlari individual muallifga xos semantik qo'llanish, so'z yasash, grammatik shakllarni har xil ma'noda qo'llash, turli

so'z birikmalari tuzish va ishlatish xilma-xildir. Sanalgan omillarni anglab tahlil qilish ushbu kursning mazmuni va mundarijasini tashkil qiladi.

Xuddi shuningdek, istalgan bir matnni tushunish uchun tabiiy til grammatikasini bilish talab qilinadi. Ammo badiiy matnni tushunishda "badiiy matn grammatikasi"ni bilish lozim. Ya'ni konkret til grammatik vositalarini muayyan holatda qaysi shakl va mazmunda ishlatilganligini aniqlash kyerak. CHog'ishtiring: til grammatikasida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi: **-ga, -ka, -qa, -g'a** (arx), **-a, -ya, -na** (dialektal) kabilar ot yoki otlashgan so'zlarga qo'shilib, asosan harakat yo'naltirilgan tomon, vaqt, atalganlik kabi ma'nolarni bildiradi. Badiiy asar tilida esa shu ma'nolar bilan birga **-g'a** shaklida davr ruhi ifodalanadi, **-a, -ya, -na** shakllarida esa mahalliy kolorit byeriladi. Har ikkalasi ham obraz yaratadi. Badiiy matnning lisoniy tahlilida tarixiylik, shakl va mazmun birligi, umumiylik va xususiylikning uyg'unligi printsiplariga amal qilinadi. Har qanday matn ma'lum bir davr mahsuli, hayotiy reallikning til vositalarida aks etishidir. Xuddi shuningdek, badiiy matn yakka holda mavjud bo'lgan til vositalarining umumiy yig'indisi "tizimlarning tizimi"dir hamda individual muallifga xos va umumiy belgilarning konkret matnda namoyon bo'lishidir. Bu shu kursning metodologiyasini tashkil etadi.

Adabiyotning so'z **san'ati** ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan byeri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so'z, umuman, tildir. Adabiy asarning san'at darajasiga ko'tarila borishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog'atiga bog'liq ekanligi shubhasiz. shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o'ziga xosligi tahlil etilmog'i lozim.

"Badiiy matnning lisoniy tahlili" kursi "Til tarixi", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Uslubiyat", "Adabiyot tarixi", "Adabiyot nazariyasi" fanlari bilan uzviy bog'langandir. Ammo bu kurs adabiy tahlil hamda uslubiy tahlil kurslaridan farq qiladi. Adabiy tahlilda ma'lum bir badiiy asarning kompozitsion tuzilishi, g'oyaviy yo'nalishi, obrazlar tizimi, adabiy-badiiy vositalari tahlil etilsa, uslubiy tahlilda esa badiiy matndagi u yoki bu til elementining o'rinli va maqsadga muvofiq ravishda tanlab ishlatish qonuniyatlari o'rganiladi. "Badiiy matnning lisoniy tahlili"da esa til elementlarining shu matndagi ma'nosi va qo'llanish shakli, chegarasini belgilash, shu asosda matnning g'oyaviy mazmunini, estetik qimmatini, asar janriga xos xususiyatlarini bilib olish o'rgatiladi.

"Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining **maqsadi**: o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarning umumfilologik saviyasini ko'tarish va mustahkamlash. Talabalarga lisoniy tahlil haqidagi tasavvurga ega bo'lishlarini, lisoniy tahlilning (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) qatlamlaridan xabardor bo'lgan holda, mumtoz va hozirgi zamon shoir va yozuvchilarimiz badiiy asarlari tilini o'rgatish. Talabalarning Tilshunoslik va adabiyotshunoslikdan olgan bilimlarini Yangi ilmiy va metodologik bosqichga ko'tarish, o'zbek tilining chiroyi, estetik jilosini anglash, nutq madaniyatini takomillashtirish va istagan badiiy matnni sharhlash malakasini hosil qilishdir. Ana shu maqsadda o'zbek filologiyasi fakultetining oxirgi bosqichida "Badiiy matnning lisoniy tahlili" kursini o'qitish maqsadga muvofiqdir. Bu kurs filologik fanlar tizimining yakuni hisoblanadi.

"Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining **vazifalari**: talabalarni matn va uning tiplari, badiiy matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar, badiiy nutq uslubi

va uning ko'rinishlari, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlari, ko'chimlar hamda badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari bilan tanishtirish hamda mazkur kurs bo'yicha olgan nazariy bilimlarini badiiy asarlardan tanlangan matnlar tahlilida sinab ko'rish. Bu kursni o'qitishda tahlil materialini qilib mazmuni va mavzusi talabaga bir qadar ma'lum bo'lgan she'r, hikoya, dramatik parchalar olinishi mumkin. Tahlil jarayonida turli lug'atlardan foydalaniladi.

Ma'lum bir asarning g'oyaviy mazmunini, badiiy-estetik qimmatini to'la anglamoq uchun matndagi har bir til elementini chuqur his qilib, tahlil etish lozim. Buning uchun eng avvalo, bo'lajak mutaxassislarining o'zlari umumfilologik bilimga, malakaga ega bo'lishlari kerak. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" kursi xuddi shu malakani hosil qilishga ko'maklashadi. Kursning vazifasi filologik bilimlarni sintezlashdangina iborat bo'lmay, balki turli janrlarga tegishli asarlarni filologik tahlil qilishga o'rgatishdir. Til elementlarining matnda qo'llanish chegarasini belgilash va tahlil qilish kursning asosiy mundarijasini tashkil etadi. Tilni bunday aspektda o'rganish talabalardan umumlingvistik tayyorgarlikni talab etadi. Buning uchun ular tilning struktural elementlarini chegaralay olishlari va uning sotsial-kommunikativ tizimini ajratishlari lozim.

### **Muhokama uchun savollar:**

- 1.1. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fani haqida tushuncha.
- 1.2 "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining vazifalari?
- 1.3. Matn turlarini to'liq sanab byering?
- 1.4. Tilshunoslikda "Badiiy matnning lisoniy tahlili" ning tutgan o'rni va roliga baho byering.
- 1.5. Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining ob'ektini izohlang.
- 1.6 "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining maqsadi nima? 1.7. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining vazifalari nimalardan iborat?
- 1.8. Lisoniy tahlilni ta'riflang.
- 1.9. "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fani Tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan o'zaro aloqada?
- 1.10. Lisoniy tahlilning boshqa tahlil turlari bilan o'zaro bog'liqligini tushuntirib byering.

### **2-savol bo'yicha darsning asosiy maqsadi:**

Talabalarga olimlar A.A.Brudniy, T.M.Dridze, L.S.shkolniklar matnni qanday aspektda o'rganishni boshlab byerganligini tushuntirish. Matnni tushunish uchun qanday ko'rsatkichlar hisobga olinishi lozimligini izohlash. Poetika so'zi keng ma'noda va tor ma'noda qanday ma'nolarni anglatishini qiyoslash. Matnni umumfilologik planda o'rganish uchun matnshunoslik atamasini qo'llab bo'lmasligini anglab etish. Talaba I.R.Galpyerin tavsiya etgan matnning sakkiz kategoriyasi haqida tushunchaga ega bo'ladi. "Kontekst" va "Matn" so'zlarining mazmunini anglab etadi. Og'zaki va yozma nutq shakllarini tushuntirib byera oladi.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Olimlar A.A.Brudniy, T.M.Dridze, L.S.shkolniklar matnni qanday aspektda o'rganishni boshlab byerganligini tushuntira oladi.

2. Matnni tushunish uchun qanday ko'rsatkichlar hisobga olinishi lozimligini izohlaydi.
3. Poetika so'zi keng ma'noda va tor ma'noda qanday ma'nolarni anglatishini qiyoslay oladi.
4. Matnni umumfilologik planda o'rganish uchun matnshunoslik atamasini qo'llab bo'lmasligini anglab etadi.
5. Matn so'ziga «O'zbek tilining izohli lug'ati»da qanday ta'rif byerilganligini bilib oladi.
6. I.R. Galpyerin tavsiya etgan matnning sakkiz kategoriyasi haqida tushunchaga ega bo'ladi.
7. Nutqning yozma va og'zaki shakllari haqida ma'lumot byera oladi.
8. Kontekst so'zini izohlaydi.
9. «Matn» atamasining mazmunini anglab etadi.

## **2-asosiy savolning bayoni:**

Ma'lumki, inson yoshlik yillarida matnni rasmlar ostidagi imzolarda, ertak, matal, hikoyalar tarzida, keyinchalik e'lon, retsept, ariza, gazeta maqolasi, darslik, risola, badiiy adabiyot asari, ilmiy maqola, dissyertatsiya, monografiya, buyruq, qaror, xat tarzida uchratadi. Matnda inson tajribasida umumlashgan fikrlar o'z ifodasini topadi. shu munosabat bilan matnni ma'no jihatdan tahlil qilish, uning strukturasi aniqlash metodikasini ishlab chiqish masalalari bilan Tilshunoslar, mantiqshunoslar, psixolingvistlar, kibernetiklar, pedagoglar shug'ullanganlar. Ular alohida gap yoki hukmni tahlil qilishdan tashqari, o'zida keng axborotni tashuvchi matnlar, abzatslar va murakkab ma'noni ifodalovchi strukturalarni o'rganish yo'llarini tahlil qilganlar.

Tilshunoslikda matn qismlarini va matn qismlari tarkibidagi gaplarning o'zaro sintaktik aloqasini murakkab sintaktik butunlik tyermini ostida bayon qilganlar. Matn qismi, Ya'ni ikki xat boshi o'rtasidagi bo'lak, bir-biridan o'z tarkibi va mavqeiga ko'ra nutqda farqlanadi. Bu qismlar o'z navbatida, uch bo'lakka ajraladi: 1) abzatsning boshlanishi; 2) asosiy fraza; 3) kommentariya byeruvchi yoki izohlovchi qism.

Birinchi, ikkinchi bo'laklar umumiy abzatsdagi asosiy markaziy fikrni tashiydi va bevosita izohlovchi bo'lak bilan bog'liq bo'ladi hamda matnning boshqa qismidan ajratib turadi.

Ma'lumki, matn nazariyasi Tilshunoslikning semasiologiya, stilistika, grammatika bo'limlari bilan uzviy bog'liq. Traditsion Tilshunoslik so'z ma'nolarini izohlash va diffyereatsiya qilish, so'z birikmasi va gap masalalari bilan etarli darajada shug'ullangan bo'lsa-da, matnni, uning strukturasi va semantikasini etarli darajada o'rganmagan.

Vatanimiz Tilshunoslari psixolingvistlar bilan hamkorlikda 60-yillarning o'rtalaridan boshlab matnning mohiyatini o'rganishga kirishdilar. Matnning mohiyati, mazmuni va strukturasi o'rganishga doir ilmiy maqolalar, monografiyalar va nazariy ahamiyatga ega tadqiqot ishlari yuzaga keldi. Bu ishlar o'z xarakteri va mohiyatiga ko'ra, matnni o'rganish ishi bir necha yo'nalishda olib borilayotganidan dalolat byeradi.

Birinchi yo'nalishdagi ishlarda matnning formal-grammatik va ma'no qurilishini o'rganishga e'tibor qaratildi. Matnni bunday aspektda o'rganish ishini boshlab byergan olimlardan biri A.A. Brudniydir. U matnni bir necha qismlarga bo'lib, ularni qayta tiklash yuzasidan eksperiment o'tkazdi. Matnni qayta tiklashda

unga har xil Yondashish mavjudligini sezdi. Bunda mazmun va ma'no bog'liqligini tiklashning mohiyatini ko'rsatishga intildi.

Ikkinchi yo'nalishdagi ishlarda matnni turlicha idrok qilishga sabab bo'ladigan matn qurilishining formal va kontseptual xususiyatlari tahlil qilinadi. Ma'lumki, matnning formal va kontseptual belgilariga qarab, kitobxon tomonidan turlicha qabul qilinadi va o'qiladi. Matnni bunday aspektda o'rganishni boshlab byerganlardan biri T.M.Dridzedir.

Uchinchi yo'nalishdagi ishlarda matnning o'zini idrok qilish masalasi yoritiladi. Ma'lumki, matnni turli kitobxon har xil idrok qiladi, tushunadi va izohlaydi. Ana shu mummoni boshlagan olim L.S.shkolnik hisoblanadi.

shunday qilib, matnni o'rganish endigina boshlanmoqda. Bu masala o'zbek Tilshunosligida faqat epizodik xarakterda olib borilmoqda. Matnga tegishli badiiy til vositalarini o'rganishga bag'ishlangan sanoqli ishlargina mavjud.

Matn kommunikatsiya birligi bo'lib, u til sistemasi birliklarini reallashtirish vositasi tarzida xizmat qiladi; mazmunni tafakkur orqali amalga oshiradi.

Matnni tushunish uchun ko'plab ko'rsatkichlarni, jumladan uni yaratish sharoitini, mazmun va strukturasi hisobga olish lozim. Boshqacha aytganda, ekstralingvistik (tildan tashqari ijtimoiy-siyosiy faktorlar) va intralingvistik (tilning ichki sistemasi) ko'rsatkichlarni hisobga olish zarur.

shunday ekan, har bir matn murakkab struktura va mazmun mundarijasiga ega bo'lib, u og'zaki hamda yozma ijod namunasi hisoblanadi.

Matnni o'rganuvchi bir qancha sohalar mavjud. Lekin har qanday matnni butun aspektda o'rganish hali boshlanmagan.

Badiiy matnni o'rganish allaqachon boshlangan va uni poetika deb ataydilar. Poetika keng ma'noda adabiyot nazariyasi tyerminining sinonimidir. Tor ma'noda poetika she'riy janr va uning evolyutsiyasi, she'riy stilistika va nutq, tasvir vositalarini o'rganadi.

Matn stilistika va ritorika planida ham o'rganiladi. Ritorika notqlik, oratorlik san'ati nazariyasi, nutqning ifoda o'tkirligi nazariyasidir. Matnni matnshunoslik ham o'rganadi. Matnshunoslik filologiya sohasi, adabiyot va folklorga oid asarlarni, tarixiy hujjatlarni to'plash, ularning matnlarini tanqidiy o'rganish, ular ustida matnshunoslikka oid tadqiqotlar olib borish va nashrga tayyorlash jarayoni matnning muallif qalamiga mansub mavjud. Har bir matn o'zining mazmuniy, kommunikativ, struktural, variantini aniqlashdir.

shuning uchun matnni umumfilologik planda o'rganish uchun matnshunoslik atamasini qo'llab bo'lmaydi.

Har bir gap ma'lum matn tarkibida va undan tashqarida farqli ma'no xususiyatlariga ega bo'ladi. Maqol va aforizmlar o'z hajmi bilan matn hamda gapga mos tushadi. Reklama, gazeta e'lonlari matn va gapga tengdir. shunga ko'ra, matnning minimal va maksimal turlari grammatik butunligiga va kompozitsiyasiga egadir. shuning uchun matn filologiya fanining tekshirish ob'ekti sanaladi.

**«Matn»** atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. **“O'zbek tilining izohli lug'ati”**da matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Izohli lug'atning 156-betida tekst so'ziga quyidagicha ta'rif byeriladi:

1 .YOzilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti.

2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, o'pyera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z.

Z. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi.

Bugungi kun Tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supyersintaktik butunlik) va **matn Tilshunosligi** deb atalayotgan sohaning asosiy ob'ekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi matnning xam o'z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi, Tilshunos M.X. Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag'ishlangan dissyertatsion ishida bu haqda shunday yozadi: Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishi ni o'rganish «Matn Tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Matn birliklarining o'zaro bog'lanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha ko'rinishi, olmosh turkumiga oid ba'zi so'zlar, gapning so'roq shakliga xos bo'lgan ko'rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn Tilshunosligida alohida o'rin tutadi. Mazkur ishda muallif «matn» atamasini «nutq», «kontekst» kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta'kidlaydi. Nutq **og'zaki va yozma** shakllarda namoyon bo'ladi. NUTQ yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi. «Nutq sub'ektdan adresatga yo'naltiriluvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi. Matn esa faqat ob'ektiv informatsiyadan iborat bo'lmay, balki o'ziga pragmatik mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishidir». Tilshunos olim M. Arriv «Diskurs, ifoda va bular orasidagi aloqani maydonga keltiradigan butunlikka matn deyiladi»,<sup>14</sup> deydi. Ilmiy adabiyotlarda **kontekst atamasi** nutqiy vaziyat mahsuli deb ko'rsatiladi. «Kontekst - bu bir leksik yoki grammatik birlik asosida ifodalangan ma'no yoki tushunchani oydinlashtirish uchun keltirilgan, tuzilgan minimal nutq birligi. Qoida bo'yicha bu- so'z birikmasi, ba'zan gap, kamdan-kam abzats yoki yaxlit matnga teng keladi». Masalan, tuyoq so'zi hayvonga aloqador a'zo hisoblanadi: Loyi ko'pirib yotgan yo'lda ot taqalari, mol tuyoqlaridan hosil bo'lgan chuqurchalarni limmo-lim to'ldirgan sariq zardoblar jimirlab, Yoni-vyeridan sirqib yotardi (P. Tursun). Mazkur so'z insonga nisbatan qo'llanilganda salbiy ottenka birinchi planga chiqadi: Obro'ying borida tuyog'ingni shiqillatib qol. Kontekst so'zlarning semantik ma'nosi reallashadigan o'ziga xos maydon, nutqiy vaziyat hisoblanadi. Bu o'rinda S.D. Katsnelsonning quyidagi fikrini keltirib o'tish o'rinli: «Borliqning mavjud dalillari lug'atlarda byerilganidek alohida so'zlarda emas, balki nutqiy aloqalarda, tugal xabarlarda, matnlarda, ularning minimal bo'lagi bo'lgan gaplarda aks etadi....

So'zlar va ular ma'nolarining ong va borliqda munosabati gap orqali bog'langan, gapdan tashqarida ular faqat potentsial birlikdir, xolos. Ularni mexanizmning detallariga qiyoslash mumkin, ularning vazifasi faqatgina butun bir mexanizm bilan aloqada tushuniladi».

Tilshunos E. Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» deb nomlangan kitobida «**Matn** - hamma elementlari o'zaro zich aloqada bo'lgan va avtor nuqtai nazaridan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan nominativ - estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan ta'rifni keltiradi. **I.R. Galpyerin** matnning:

1. Ma'lumot byerish;

- 2.Bo'linuvchanlik;
- 3.Kogeziya (ichki aloqalar tizimi);
- 4.Kontinium (vaqt va makon izchilligi);
- 5.Qismlar avtosemantiyasi;
- 6.Retrospektsiya va prospektsiya;
- 7.Modallik;
- 8.Yaxlitlik va tugallanganlik kabi sakkiz kategoriyasi mavjudligi haqida ma'lumot byeradi. Umuman matn deyilganda NUTQIY jarayon mahsuli bo'lgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, supyerfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asarni tushunmoq kyerak. Tilshunos I.Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo'lib, u fikran va sintaktik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to'liq bo'ladi. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo'lgan belgi-xususiyatlarni aniqlash davom etmokda. Biz matnning o'ziga xos belgilari sifatida axborot byerish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitligi va tugallanganligi, bir umumiy mavzuga egaligi kabilarni tushunamiz. Matn ana shunday belgilarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ - sintaktik butunlikdir. Yu. M. Lotman «matn ifodalanganlik (ma'lum bir fikr ifodalangan bo'lishi), chegaralanganlik (mazmun va ifodadagi me'yoriylikning bo'lishi) va struktural butunlik belgilariga ega bo'lishi lozim»ligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, badiiy matn uchun mazkur belgilar favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn uslubiy mohiyatiga ko'ra **ilmiy matn** (tezis, maqola, ma'ruza, annotatsiya, taqrizlar), **badiiy matn** (nasriy va nazmiy asarlar), **rasmiy matn** (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), **ommabop matn** (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari ) kabi tarmoqlarga bo'linadi. Biz ushbu qo'llanmada faqatgina badiiy matn haqida fikr yuritamiz.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funktsional jihatdan tugallangan,tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishi larga estetik zavq byerish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga etaklash, o'yg'a cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqeahodisalarga tyeran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan. Badiiy matn, ma'lumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantanavor ifoda shakllaridan keng foydalaniladi. So'zlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik - semantik, ritmik - intonatsion birliklarning qo'llanishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, unda emotsional

bo'yoqdor so'zlarga, sheva so'zlariga, tarixiy va arxaik so'zlarga, jargon va argolarga, ko'chma ma'noli so'zlarga, ma'nodosh, shakldosh, o'xshash talaffuzli va zid ma'noli so'zlarga, shuningdek ibora, maqol-matal va aforizm kabi birliklarga keng o'rin byeriladi.

shuni alohida ta'kidlash kyerakki, har qanday matn o'ziga xos sistemadir. Buni o'zaro bir-birini taqazo qiladigan halqalar majmuiga o'xshatish mumkin: tovush (harf)lar — so'zlar — iboralar — gaplar -abzats - bo'lim, qism, boblar. Matn tarkibidagi bu uzvlarning o'zaro munosabati gapdagi so'zlarning bir-biri bilan bo'lgan munosabatiga o'xshaydi. Lekin matnning tarkiblanishi gapdagi tarkiblanishdan tubdan farq qiladi. Gapning sintaktik qolipi turg'unlashgan, asrlar davomida shakllangan, hamma uchun qulay foydalaniladigan va deyarli o'zgarmas bo'ladi. So'zlovchi yoki muallif o'z niyatiga ko'ra mazkur qoliplardan ixtiyoriy ravishda foydalanavyeradi. Matndagi holat bundan boshqacharoq. Matnda so'zlar orasidagi munosabatdan ko'ra gaplar o'rtasidagi aloqadorlik muhim hisoblanadi. Agar gaplararo ham mazmunan, ham shaklan aloqadorlik mavjud bo'lmasa, matn butunligi haqida ham gapirish mumkin emas. Badiiy matndagi kompozitsion butunlik tushunchasi makon va zamon muvofiqligi, ifoda va qolip uyg'unligi hamda motivatsion yaxlitlik tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida bunday bog'likliklarga alohida e'tibor qaratish lozim.

#### **Muhokama uchun savollar:**

1. Olim A.A.Brudniy matnni qanday aspektda o'rganishni boshlab byergan edi?
2. T.M.Dridze matnni qanday aspektda o'rganishni boshlab byergan edi?
3. L.S.shkolnik matnni qanday aspektda o'rganishni boshlab byergan edi?
4. Matnni tushunish uchun qanday ko'rsatkichlar hisobga olinishi lozim?
5. Poetika keng ma'noda qanday ma'noni anglatadi?
6. Tor ma'noda poetika qanday ma'noni anglatadi?
7. Matnni umumfilologik planda o'rganish uchun matnshunoslik atamasini qo'llab bo'ladimi?
8. Matn so'ziga «O'zbek tilining izohli lug'ati»da qanday ta'rif byerilgan?
9. I.R.Galpyerin tavsiya etgan matnning sakkiz kategoriyasi haqida ma'lumot byering.
10. Nutqning yozma va og'zaki shakllari haqida ma'lumot byering.
11. Kontekst deb nimaga aytiladi?
12. Matn deb nimaga aytiladi?

#### **Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

1. «Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganligi muammosi.
2. Matnni tushunish uchun turli ko'rsatkichlar hisobga olinishi muammosi.

#### **G) Modul bo'yicha yakuniy mashg'ulot:**

**«Badiiy matnning lisoniy tahlili» fanidan 1-mavzu bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:**

Adabiyotning so'z **san'ati** ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan byeri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so'z, umuman, tildir. Adabiy asarning san'at darajasiga ko'tarila borishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog'atiga bog'liq ekanligi shubhasiz. shunday

ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o'ziga xosligi tahlil etilmog'i lozim.

Kursning vazifasi filologik bilimlarni sintezlashdangina iborat bo'lmay, balki turli janrlarga tegishli asarlarni filologik tahlil qilishga o'rgatishdir. Til elementlarining matnda qo'llanish chegarasini belgilash va tahlil qilish kursning asosiy mundarijasini tashkil etadi. Tilni bunday aspektda o'rganish talabalardan umumlingvistik tayyorgarlikni talab etadi. Buning uchun ular tilning struktural elementlarini chegaralay olishlari va uning sotsial-kommunikativ tizimini ajratishlari lozim.

“Badiiy matnning lisoniy tahlili” fanining maqsadi talabalarning Tilshunoslik va adabiyotshunoslikdan olgan bilimlarini Yangi ilmiy va metodologik bosqichga ko'tarish, o'zbek tilining chiroyi, estetik jilosini anglash, nutq madaniyatini takomillashtirish va istagan badiiy matnni sharhlash malakasini hosil qilishdir. Ana shu maqsadda o'zbek filologiyasi fakultetining oxirgi bosqichida “Badiiy matnning lisoniy tahlili” kursini o'qitish maqsadga muvofiqdir. Bu kurs filologik fanlar tizimining yakuni hisoblanadi.

### **Nazorat savollari:**

- 1.1. “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fani haqida tushuncha.
- 1.2 “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fanining vazifalari?
- 1.3. Matn turlarini to'liq sanab byering?
- 1.4. Tilshunoslikda “Badiiy matnning lisoniy tahlili” ning tutgan o'rni va roliga baho byering.
- 1.5. Badiiy matnning lisoniy tahlili” fanining ob'ektini izohlang.
- 1.6 “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fanining maqsadi nima? 1.7. “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fanining vazifalari nimalardan iborat?
- 1.8. Lisoniy tahlilni ta'riflang.
- 1.9. “Badiiy matnning lisoniy tahlili” fani Tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan o'zaro aloqada?
- 1.10. Lisoniy tahlilning boshqa tahlil turlari bilan o'zaro bog'liqligini tushuntirib byering.
- 1.11. Olim A.A. Brudniy matnni qanday aspektda o'rganishni boshlab byergan edi?.
- 1.12. T.M. Dridze matnni qanday aspektda o'rganishni boshlab byergan edi?
- 1.13. L.S. shkolnik matnni qanday aspektda o'rganishni boshlab byergan edi?
- 1.14. Matnni tushunish uchun qanday ko'rsatkichlar hisobga olinishi lozim?
- 1.15. Poetika keng ma'noda qanday ma'noni anglatadi?
- 1.16. Tor ma'noda poetika qanday ma'noni anglatadi?
- 1.17. Matnni umumfilologik planda o'rganish uchun matnshunoslik atamasini qo'llab bo'ladimi?
- 1.18. Matn so'ziga «O'zbek tilining izohli lug'ati» da qanday ta'rif byerilgan?
- 1.19. I.R. Galpyerin tavsiya etgan matnning sakkiz kategoriyasi haqida ma'lumot byering.
- 1.20. Nutqning yozma va og'zaki shakllari haqida ma'lumot byering.
- 1.21. Kontekst deb nimaga aytiladi?
- 1.22. Matn deb nimaga aytiladi?

### **Ma'ruza bo'yicha mustaqil ta'lim materiallari:**

1. Badiiy asar tilini o'rganish muammolari.

2.Ma'lum bir badiiy asarni lisoniy jihatdan tematik tahlil qilish.

3.Refyerat tayyorlash.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».

2.H.Jamolxonov, M.Yo'ldoshev «Badiiy matnning lisoniy tahlili» TDPU, 2000.

3.M. Yo'ldoshev «Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari» T.: «Fan» 2007.

### **Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

□ O'zbek tilshunosligi va "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining o'zaro munosabatini ilmiy dalillash.

□ "Badiiy matnning lisoniy tahlili" fanining oldida turgan dolzarb muammolar.

## **6-mavzu. Matn lingvistikasi va kommunikativ Tilshunoslik**

Matnning kommunikativ mohiyati. Adresat va adresant faktorlari. Matn muloqotning asosiy va eng murakkab birligi sifatida. Kommunikativ maqsad va intentsiyalari. Matnni qabul qilish va intyepretatsiyasi. Diskurs tushunchasi. Tekstual kommunikatsiyasi nigohida G.Graysning kommunikativ qonunlari.

### **DIE TEXTANALYSE – DAS BEISPIEL: EINLEITUNG**

Die Glosse „Scharfes Handy“ von Harald Martenstein wurde im Jahr 2004 veröffentlicht.

In dem Text nimmt der Autor das Konsumverhalten der Kinder und Jugendlichen ihrer Zeit, in einer heiteren und kritischen Art und Weise genauer unter die Lupe.

Die Überfunktionalität der verwendeten Kommunikationsmittel kommt dabei nicht zu kurz und wird verdeutlicht.

Während der weiteren Analyse wird auf die inhaltlichen und sprachlichen Besonderheiten dieses Textes eingegangen. Der Grund, warum der Autor diesen Text geschrieben hat, soll am Schluss genauer betrachtet werden.

### **DIE INHALTLICHE GESTALTUNG (DIESE WIRD IMMER IM KONJUNKTIV GESCHRIEBEN)**

Die Gliederung des Textes kann in 4 Abschnitten erfolgen. Abschnitt 1 (Zeile 1-20)

Der Leser wird durch ein Alltagsbeispiel in das Thema eingeführt. Der Autor zeigt einen persönlichen Konflikt zwischen Vater und Sohn auf, in dem es um ein bestimmtes Handy geht. Abschnitt 2 (Zeile 21 – 31)

In diesem Abschnitt wird deutlich, wie wichtig die Funktionen und ein bestimmtes Handy für die Kinder und Jugendlichen sind.

Eine Szene, die auf einem Schulhof spielt, zeigt, dass das Handy eher als Statussymbol denn als Kommunikationsmittel wichtig ist. Abschnitt 3 (32 – 41)

In diesem Abschnitt wird der Vater – Sohn – Konflikt fortgesetzt. Da der Sohn nicht das gewünschte Handy geschenkt bekommt, reagiert er enttäuscht.

Der Autor betont die Sicht des Sohnes, indem sich dieser dahingegen äußert, dass er nun noch weniger Anerkennung erhält, als das ohnehin schon der Fall zu sein scheint. Abschnitt 4 (42 – 50)

Folgt die Abschnitte 1 – 3 dem Vater – Sohn – Konflikt, wird dieses Thema im vierten Abschnitt unterbrochen. Ein Kollege zeigt dem Autor auf, dass es einen neuen „Trend“ in Richtung von Nostalgie Handys gibt.

Aussehen und Funktion unterscheiden sich erheblich von den modernen Geräten. Zeitgleich wird deutlich, dass sich die Konsumwünsche an der Gesellschaft orientieren.

#### DIE FORMALE GESTALTUNG

Der vorliegende Text ist in sechs Abschnitte gegliedert und der gesamte Text ist in kursiver Schrift gestaltet. Auffällig ist die fett gedruckte Zwischenüberschrift, die durch einen Mitarbeiter der Zeitung „die Zeit“ hinzugefügt sein könnte.

Der Autor erzählt die Geschichte in einem persönlichen Kontext und nutzt häufig Adjektive.

Diese Wortwahl unterstreicht den persönlichen Erzählstil und unterstreicht die im Text enthaltene Ironie.

In weiten Zügen ist der Satzaufbau parataktisch.

Als Stilmittel verwendet der Autor durchgehend die Form der Ironie. Inhalt und Sprache unterscheiden sich deutlich voneinander. Während das Handy ein modernes Kommunikationsmittel darstellt, wird als Sprache auf altmodische Ausdrücke und Sprechweisen zurückgegriffen.

Der Vater – Sohn – Konflikt wird durch die altmodische Sprachwahl sehr deutlich zum Vorschein gebracht und verstärkt.

Die verwendete Sprache zeigt die Grundzüge der Hyperbel. Deutlich wird dies in den Zeilen 13 – 20 und 51 – 52.

Die Verwirrung des Autors wird durch kuriose Funktionsbeschreibungen, verwirrende Vergleiche und Personifikationen und in der Überfunktionalität des Handys deutlich.

Unterhaltend und ironisch fordert der Autor uns heraus, eine gewisse Distanz zum Thema zu bewahren.

#### SCHLUSSTEIL

Der im Jahre 2004 in „der Zeit“ erschienene Artikel wendet sich an die Leser derselben, die zeitgleich Eltern sind.

Der Autor will zum Nachdenken über das Konsumverhalten der Kinder anregen und nimmt sich als Beispiel das moderne Kommunikationsmittel Handy zur Vorlage.

Die persönliche und ironische Erzählweise trägt dazu bei, dass dem Autor dieses Unterfangen gelungen ist.

Meiner Meinung nach wird der Vater – Sohn – Konflikt und das Konsumverhalten deutlich dargelegt.

Beobachtet man das Verhalten von Kindern und Jugendlichen in der damaligen und heutigen Zeit, kann man dem Autor nur zustimmen.

Obwohl im Jahr 2004 veröffentlicht, hat die getroffene Aussage bis heute ihre Gültigkeit.

#### WELCHE TRICKS HELFEN BEI DER ERSTELLUNG EINER EXTANALYSE UND WELCHE FEHLER SOLLTEN VERMIEDEN WERDEN?

Korrektes Zitieren und entsprechende Zeilenangaben beachten.

Alle Aussagen, die getroffen werden, müssen durch den Text belegbar sein.

Wer sich beim korrekten Zitieren unsicher ist, sollte sich das Thema vor der Arbeit noch einmal genauer ansehen.

Ausreichend Zeit für die Vorarbeiten und das Textverständnis einplanen.

Nichts ist ärgerlicher als eine fertige Arbeit, bei der man am Ende feststellt, dass die getroffenen Aussagen eigentlich nicht mit dem Text übereinstimmen. Die abschließende Erörterung bzw. Argumentation gehört nicht zur eigentlichen Textanalyse und sollte, wenn sie als Arbeitsauftrag gefordert wird, erst dann angelegt werden, wenn die Textanalyse fertig gestellt ist.

Der Konjunktiv

Wer sich bei der Anwendung des Konjunktivs unsicher ist, sollte sich diesen vor der Arbeit erneut verinnerlichen.

### **7-mavzu. Matn lingvistikasi lingvopragmatik jihatlari**

Matn pragmatikasi. Matnga pragmatik Yondashuv. Pragmatik intentsiya tushunchasi. Pragmatik intentsiya turlari. Badiiy matnda pragmatik vazifalar turlari: "diqqatni jalb etish" vazifasi, "qiziqishni uyg'atish" vazifasi, "emotsional ta'sir ko'rsatish" vazifasi, "bilimlar tuzilmasini aktuallashtirish" vazifasi, "kontseptual dunyoqarashni aks ettirish" vazifasi. Matn ta'sir va tushunishning pragmatik effektivligi.

**PRAGMATIKA** (yun. pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va Tilshunoslikning nutqda til bel-

gilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan bel

gilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'ektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. P. haqidagi asosiy g'oya amyerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o'rtaga tashlangan; yana bir amyerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlan tirgan va «P.» tyerminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.

P. insonning ijtimoiy faoliyati-ni o'zida qamrab oluvchi nutq jarayo-ni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik P. aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi sub'ekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati b-n bog'liq ko'plab masalalar ki-radi. Mas, nutq sub'ekti b-n bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganila-di: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni etkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat, va'da byerish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va b.); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadv; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va b. xislatlariga baho byerilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. P.da nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq qolda qam ko'plab masalalar o'rganiladi. P. g'oyalari evristik (yo'naltiruvchi) dasturlash, Mashina tarjimasini, informatsion-qidiruv tizimlari va b.ni ishlab chiqishda qo'llanadi.

### **8-mavzu. Matn lingvistikasining kognitiv aspekti**

**Tayanch tushunchalar:** bilimlar tuzilmalari, kontseptualizatsiya, kontseptual tizimlar, kognitiv model, kategoriyalashtirish, freym, kontsept, kontseptual va lisoniy dunyo tasviri tushunchalari. Matnda axborotni taqsimlash kognitiv printsiplari. "Axborotni ilgari surish" kognitiv printsipti va uning turlari. Matnning kontseptual ahamiyati.

shahriyor Safarov

## KOGNITIV TILSHUNOSLIK\*

Kognitiv Tilshunoslik – Yangidan shakl topayotgan soha, shu sababli asosiy e'tibor ushbu yo'nalishning maqsadi, tahlil uslublari, metodologik tamoyillarini yoritishga qaratilgan. Risola zamonaviy Tilshunoslikning tadqiqot metodlari bilan qiziquvchi ilmiy xodimlar, magistrantlar, aspirantlarga foydalanish uchun tavsiya qilinadi.

Lisoning inson hayotidagi o'rnini beqiyos. Lisonsiz insonlar bir-birini tushunish, voqelikni, tirik dunyoni o'zlashtirish, o'zaro fikrlashish qobiliyatiga ega bo'lmas edi. yoki lison bo'lmaganda axborot qanday jamlanar, qay yo'sinda bir kishi dan boshqasiga uzatilar va bir avloddan ikkinchisiga etib kelardi?! Til tizimining vazifalari va inson lisoniy qobiliyatini namoyon etuvchi omillarning amaldagi harakati haqida ko'plab savollar tug'ilishi tabiiy. Zero, inson dunyoga kelar ekan, Ollohning bebaho in'omi – til uning xizmatida bo'ladi. Bu in'om mo'jizakor va betakroridir. Lisoning aytilgan sifatlari isbotini har qadamda sezish, ko'rish va anglash mumkin. O'tgan asrning oxirgi choragida bo'lib o'tgan bir voqeani eslatmoqchiman. Ma'lumki, yadro xomashyosini ishlab chiqarish qudratiga ega bo'lgan mamlakatlarda yadroviy qoldiqlarni saqlash va yo'qotish muammosi mavjud. AQSHda ushbu qoldiq Cho'l hududlarida maxsus qazilgan, chuqurligi yuzlab metr bo'lgan xandaklarga ko'miladi. Ammo bu qoldiqning radioaktivligi yana o'n ming yil davom etadi. Bu muddatda har qanday impyeriya (har qancha buyuk qudratga ega bo'lmasin) emirilishi, har qanday tsivilizatsiya inqirozga yuz tutishi mumkin. Bunday tsivilizatsiyadan faqatgina yozma yodgorliklarga saqlanib qolishi mumkin. Ammo tarixga nazar tashlasak, oxirgi fir'avndan so'ng bir necha asr o'tishi bilan ular qoldirgan iyerogliflarning o'qilish siri, imkoni ham yo'qoldi. Xuddi shunday holat o'n ming yil davomida bizda ham yuzaga kelish ehtimoli yo'q emas. Xo'sh, biz kelajak avlodlarni yoki Yerga tashrif buyurgan planetamiz mehmonlarini radioaktivlik xavfidan qanday ogoh etamiz? AQsh hukumati huzuridagi yadro mahsulotlari nazorati bilan shug'ullanuvchi komissiya (Nuclear Regulatory Commission) Tilshunos Tomas Sebeokka ushbu muammolarning echimini topish topshirig'ini byeradi. Maxsus loyiha asosida ish olib borgan T.Sebeok lisoniy belgi, (o'n ming yil davomida til 4 tamoman o'zgaradi, yozuvni tushunib bo'lmaydi) yoki biror bir ramziy belgidan hatto elektr ko'rsatkichlaridan (manba tugashi sababli) foydalanish imkonini shu zahotiyog' inkor etadi. Olim bu maqsadga piktografiya \_\_\_\_\_

\*Kognitiv tilshunoslik 1. «Sangzor» nashriyoti Jizzax – 2006 2 Safarov sh. Kognitiv Tilshunoslik. «Sangzor» nashriyoti, 92-bet. 2006 Mas'ul muharrir: filologiya fanlari doktori, professor D.U. Ashurova Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori, professor B. Yo'ldoshev, filologiya fanlari nomzodi, dotsent A. Rahimov Ushbu risolada izchil taraqqiyotdagi zamonaviy ilmiy-tadqiqot paradigmasi – lisoniy faoliyatning kognitiv tahliliga oid masalalar yoritilgan.

usulining ham mos kelmasligiga ishonch hosil qiladi. Nihoyat, T.Sebeok o'ziga xos

«ruhoniylar muqaddas jamoasini» tuzish mumkinligi haqida o'ylaydi. Bu jamoaga yadro mutaxassisleri, antropologlar, Tilshunoslar, psixologlar va hech qanday istisnosiz boshqa sohalar vakillari jalb qilinib, ular oldiga mavjud xavf haqidagi axborotning uzluksiz faolligini, «tirik»ligini ta'minlash vazifasi qo'yiladi. Bu maqsadda ular turli rivoyatlar, miflar yaratadilar va tarqatadilar. Mabodo, bu «ruhoniylar» insoniyatni xavfdan ogohlantirish vazifasini unutsalar ham, ogoh vositalari ma'lum darajada saqlanadi. T.Sebeokning

xulosasi qanchalik to'g'ri ekanligini aytish qiyin, ammo qo'yilgan muammo tilning betakrorligi, uning insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rne, jamiyatdagi vazifasi naqadar buyukligining guvohidir. Loyihaga ajratilgan mablag' va imkoniyatlar sarflanishiga qaramasdan, muammo saqlanib qolganining sababi ham yagonadir – lison o'ta takomil, murakkab, ko'p qirrali, ko'p vazifali, bir paytning o'zida ijtimoiy ham individual, yaratilgan va yaratuvchanlik kuchiga ega bo'lgan, turg'un va harakatdagi, tizimli va notizimiy xususiyatli hodisadir. Bularning barchasi tilning mohiyatini aniqlash, uning tabiatini anglash mushkul ekanligidan guvohlik byeradi. Tilshunoslar bu mushkulotlarni bartaraf etish yo'lini qanchalik izlamasinlar, lekin hamon mushkulot – mushkulotligicha, muammo muammoligicha qolmoqda. Albatta, bu muammolar ustida ming yillar davomida bosh qotirayotgan Tilshunoslar ko'p narsalarga erishdilar. Til haqidagi fan ham bir joyda to'xtab turgani yo'q, u uzluksiz o'z metod va amallarini takomillashtirishga harakat qiladi, Yangi g'oyalar bilan boyiydi va bu g'oyalar negizida Yangi yo'nalishlar shakllanadi. Biroq qo'yilgan vazifani T.Sebeok eslatgan «ruhoniylar uyushmasisiz» bajarishning imkoni yo'q ekanligi ravshan bo'lib qoldi. Bu «ruhoniylar» muqaddas, pok 5 niyatda bo'lishdan tashqari, turli sohalar bilimdonlari bo'lishlari kyerak. Yakkalikda «changi chiqsa ham dong'i chiqmagan» fan sohasi boshqa fanlar «og'ushida» bo'lmog'i lozim. Kognitiv Tilshunoslikning shakllanishi aynan «ruhoniylar» hamkorligi natijasidir. Lisoniy qobiliyat barcha sohalar e'tiborini tortishi aniq. Tarixan shunday bo'lib kelgan ham. Zero, insonning muloqot qobiliyati va bu qobiliyatni ta'minlovchi asosiy vosita – til tizimi muammolari bilan kimlar shug'ullanmagan: Tilshunoslar, adabiyotshunoslar, faylasuflar, ruhshunoslar, madaniyatshunoslar, etnograflar, neyrofiziologlar... Lekin «cho'pon ko'p bo'lgani sari» «arqon»ning turli tomonga tortilishi turgan gap edi. Fanda (umuman, hayotda) bir muammodan ikkinchisining tug'ilishi muqarrar. Biroq, tug'ilayotgan har bir muammo «kalava»ni yanada chigallashtirib, uning uchini topishni tobora mushkullashtiravyersa, fan taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ilmiy xulosalarga erishish ham mushkullashavyeradi. Mushkulotlarning oldini olish uchun fanlar hamkorligini umumiy maqsadga yo'naltirish lozim. shu paytgacha, turli fan sohalari til tizimini, lisoniy qobiliyatni o'z ehtiyojlari uchun, o'z qiziqishi doirasida, turli tahlil uslublari vositasida tadqiq etib keldilar. Chunki turli sohalarning vakillari hamkorligi davriy, vaqti-vaqti bilan namoyon bo'lib, ilmiy tahlil predmeti va ob'ektning yagona ekanligini anglash qiyin bo'lgan. Nihoyat, lison muammolari bilan qiziquvchi fanlar «ko'rpani har kim o'zi tomoniga tortish» kasalidan qutulishib, yagona bir ob'ektни majmuaviy, har tomonlama tadqiq qilish yo'lini tanlashdi va natijada sohalararo fanlar, yo'nalishlar shakllandi. Kognitiv Tilshunoslik xuddi shunday sohalararo muloqotning mahsulidir. Bunday muloqotning tez, osongina, ixtiloflarsiz kechishi qiyin. shu sababli kognitiv Tilshunoslikning mustaqil yo'nalish sifatida tarkib topishi ham murakkab jarayon, lisondek o'ta murakkab tadqiq ob'ektini tanlagan har qanday fan sohasining murakkab muammolar qamrovida qolishi ham muqarrar. Bunday qamrov va qurshovdan qutulish izlanishlarda izchillikni, to'xtovsizlikni va ko'pqamrovlilikni, amaliy vositalardan (metodlar va usul-amallardan) foydalanishda muntazamlikni va mustahkam nazariy asosga tayanishni talab qiladi.

## KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING PREDMETI VA VAZIFALARI

Har bir fan tarixida yuksalish davri bo'lganidek, inqiroz bosqichlari ham bo'lishi muqarrar. Bunday holatning yuzaga kelishi o'z - o'zidan olimlardan o'rganilayotgan ob'ektga «Yangicha ko'z» bilan qarashni, oldingilaridan farq qiladigan nuqtai nazardan Yondashuvni talab qiladi. Binobarin, XX asr boshlarida nazariy fizikada yuzaga kelgan inqiroz uzoq vaqt davom etdi. Tadqiqotlarda Yangicha usullarning tadbiiq etilishi natijasida tamoman Yangi yo'nalishlar, o'zga ko'rinishdagi nazariyalar paydo bo'ldi. Nazariy Tilshunoslikda xuddi shunday holat o'tgan asrning ikkinchi yarmida tug'ildi. Tilshunoslikdagi inqirozning asosiy sababi axborot texnologiyalarining rivoji bilan bog'liqdir. Zero, insonning «sun'iy intellekt» tizimiga oid vositalar bilan mulqoti til tizimi va lisoniy faoliyat tadqiqiga butunlay Yangicha Yondashuvni talab qiladi. Darhaqiqat, aynan shu davrda Tilshunoslik fanining turg'unlashgan yoki an'anaviy uslub va xulosalari keskin taraqqiy etayotgan intellektual axborot texnologiyalari amaliyotida yuzaga kelayotgan savollarga javob byera olmasligi ma'lum bo'ldi. Til tizimini va nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan matn qurilishini shu paytgacha filologik nuqtai nazardan tahlil qilib kelayotgan bu fan doirasi endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi. Natijada, Tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalari bilan hamkorlikka ehtiyoji yanada kuchaydi. Bu hamkorlik, bir tomondan, Tilshunoslikni inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitologiya fani tarmog'iga kiritgan bo'lsa, ikkinchidan, Tilshunoslikning o'zini yana bir soha – kognitiv lingvistika sohasi bilan boyitdi. Aslida kognitologiyaning tayanch nuqtasi bo'lgan Tilshunoslikning kognitiv ko'rinish olishi nima bilan bog'liq va uning tadqiq ob'ekti, maqsadi, vazifalari 8 nimalardan iborat? Tabiiyki, barcha yo'nalishdagi lingvistik tadqiqotlarning o'rganish ob'ekti yagona – til tizimi yoki, aniqrog'i, lisoniy faoliyat va uning mahsuli. Ammo ularning barchasida (sistem-struktur Tilshunoslik, psixolingvistika, sotsiolingvistika, matn Tilshunosligi va h.k.) asosiy e'tibor tayyor mahsulot – so'z, so'z birikmasi, gap va matn kabilarning tuzilishi va tarkibini, ma'lum hollarda ma'no xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tayyor mahsulot tahlili bilan qiziqayotgan bu sohalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik etarli darajada emas. Buning ustiga, ba'zi hollarda tadqiqotchilar orasida biror bir lingvistik hodisaning qaysi soha ob'ekti bo'lishi haqida yoki umuman bu hodisalar qay darajada til tizimiga oid bo'la olishi haqida munozarali bahs bormoqda. Asossiz tortishuvlar va natijasiz muhokamalar fanda qanday oqibatlariga olib kelishi ma'lum. Bu hatto til tizimi «aniq va ajratilgan tadqiqot ob'ekti bo'la olmaydi» (N.Xomskiy) degan fikr tug'ilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. «Gap til birligimi yoki nutq tizimiga oidmi?», shuningdek, «Anafora faqatgina matn tarkibida yuzaga keladigan hodisami yoki uni gap grammatikasi o'rganilayotganda ham e'tiborga olish lozimmi?» qabilidagi befoyda, nazariy xatoliklarga sabab bo'luvchi munozaralar bilan mashg'ul bo'lish o'rniga Yuqorida aytilgan sohalar o'rtasidagi tutash nuqtalarni izlash lozim. Sohalar o'rtasidagi hamkorlik natijasida ob'ektning, umuman, voqelikning Yangi qirralarini, ilgari ko'z ilg'amagan xususiyatlarini sezish mumkin. Bu esa, fanda majmuaviy muammo va vazifalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Majmuaviy muammo sohalararo Yondashuvni talab

qiladi. Faylasuflarning e'tirof etishicha, «agarda ob'ektning alohida xususiyatini tasvirlash va o'rganish lozim bo'lsa, bunga yakka bir fan sohasining imkoniyati etarlidir». Ob'ektning o'zgarishi, boshqa ko'rinish olishi haqida gap ketganda esa, majmuaviy (kompleks) Yondashuv zarur bo'ladi, «Chunki ob'ektning boshqa tomonlari (xususiyatlarini) ni ham o'rganish ehtiyoji tug'iladi» (Kochyergin 1988: 5). Binobarin, gap tarkibidagi bo'laklar tartibini aniqlash uchun sintaktik tahlilning o'zi etarli. Gap tuzilishidagi har qanday 9 o'zgarishlar (invyersiya, ellipsis va boshqa shakliy o'zgarishlar) va ma'no ko'chishlarining (sintaktik polisemiya, omonimiya kabilar) turlari, ularning yuzaga kelish sabablarini yoritish maqsadidagi tahlil, so'zsiz, matn sintaksisi va pragmatikasi darajasiga ko'tariladi. Bunday tahlil Tilshunoslik sohalarining hamkorligi namunasidir. Til tizimi va lisoniy faoliyatni har tomonlama tadqiq qilish, ularga xos hodisalarning belgi-xususiyatlarini batafsil yoritish uchun Tilshunoslikning turli sohalarini biriktiradigan, ularning barchasi uchun bir xilda tayanch nuqtasi xizmatini o'taydigan umumlashgan tahlil tizimini topish lozimligi olimlar tomonidan ko'p bor ta'kidlangan edi (Qarang: Boduen de Kurtene 1963: 206; Sapir 1929: 166). Til hodisalariga asosli va ayni paytda, xolisona izoh byerish imkonini yaratadigan bunday tahlil uslubi tizimini izlash harakati hozirgacha davom etmoqda. Muammo dolzarb, ammo umumlashgan tahlil tizimini ta'minlovchi «tayanch» g'oyani topish fan rivoji uchun muhim. Keyingi yillarda, Tilshunoslar bunday «tayanch»ni kogitologiya (cognitive science – tafakkur haqidagi fan)dan topganday bo'lishmoqda. So'zsiz, lingvistik tahlil – kognitiv tahlilning bir turi, uning ma'lum bir ko'rinishda namoyon bo'lishidir. Hali XIX asr oxirlaridayoq Tilshunoslikning psixologik va sotsiologik ruhda bo'lishini qayd qilgan Boduen de Kurtene «tilda ruhiy va ijtimoiy faktorlar harakatda bo'lishi sababli, Tilshunoslik uchun yordamchi fan sifatida dastlabki o'rinda psixologiyani va so'ng insonlarning jamiyatdagi muloqot, munosabatlari haqidagi fan – sotsiologiyani tanlaymiz» deb yozganligini (Boduen de Kurtene 1963: 217) eslaymiz. Fanlar o'rtasidagi bog'liqlik haqida gapirganda, ularning birini ikkinchisiga «yordamchi» sifatida qarash unchalik haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Aks holda, fanlar hamkorligi asosida yuzaga keladigan yo'nalishlarni alohida soha sifatida ajratish mumkin bo'lmas edi. Tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar hamkorligi kognitiv faoliyat asosida voqelanuvchi hodisadir. Kognitiv Tilshunoslik ham 10 insonning bilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi fanlar tarkibiga kiradi. Kognitiv Tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha «cognitive – bilishga oid» so'zi bilan bog'liq. (Qiyoslang: «cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq», «cognition – bilish»). Ma'lumki, dunYoni, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Ammo hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo'lsa ham) fahmlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum. shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (latincha), Ya'ni «aql, tafakkur» hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki cogitatorium – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kyerak bo'ladi. shuni unutmazlik lozimki, tafakkurning o'zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida

voqelikka nisbatan bildirilayotgan faol munosabatning ifoda topishidir. Tafakkur faoliyati jarayonida yuzaga keladigan bilim turli ko'rinish va xususiyatga ega bo'ladi. Bu farq dastlabki o'rinda bilimning qay yo'sinda va qanday maqsadda o'zlashtirilishi bilan bog'liqdir. Voqelik haqidagi oddiy, «kundalik» bilim tajriba natijasidir. Bilim madaniy hodisa sifatida talqin qilinganda, bu shakldagi bilimning ma'lum ijtimoiy guruh madaniyati uchun xos bo'lgan me'yorlarga qanchalik darajada mos kelishi nazarda tutiladi. Lisoniy bilim ikkinchi turga oid, Chunki til millatning madaniy boyligidir. Bu bilim insonning ongli faoliyati zaminida shakllanadi va bu faoliyat amalga oshishida muhim rol o'ynaydi. Aynan lisoniy bilim lingvokognitiv tahlil sifatida tanlanishi ham bejiz emas. shubhasiz, bilim – inson xotirasida saqlangan (hech bo'lmasa «iz qoldirgan») tizimlashtirilgan ma'lumotlar to'plamidir. Ammo bu to'plamning qanday tarkib topishi, undan foydalanish mexanizmini o'rganish ancha qiyin vazifa. Amyerika beheyvoristlari inson bilimlari dunyosini «qora quti» (Ya'ni o'qilishi mushkul bo'lgan manba) deb ta'riflashgan, Chunki bilim jamlanishini ta'minlovchi vositalarning «ish tartibi»ni bevosita kuzatishning imkoni yo'q (Sehnelle 1981). To'g'ri, insonning bilish qobiliyatining neyrofiziologik asoslari, ayniqsa, miya yarimsharlari faoliyati bilan bog'liq tomonlarini o'rganish borasidagi izlanishlar davom etmoqda. Psixolingvistlar va neyrolingvistlar nutqiy faoliyat ijrosi va uning qabul qilinishini (aniqrog'i, idrok etilishi) ta'minlovchi miya qismlari hamda ularning o'zaro munosabati haqidagi ma'lumotlarni to'plashgan bo'lsa-da, ushbu neyrofiziologik tizimning o'zi hanuz sirligicha qolmoqda. Olimlar miya chap yarimshari nutqiy axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi hududlar (bu hududlar neyrofiziologlar Braka va Vyernike nomlari bilan ataladi) o'zaro murakkab munosabatda ekanligini doimo uqtirishadi (Ivanov 1978: 28; Wardhandu 1994: 90-91). Lekin bu munosabatlar qanday yuzaga keladi-yu, ularning zaminida nima turishi to'g'risidagi fikrlar u qadar aniq emas. Balki neyrofiziologik tuzilmalarning vazifalari va ularni harakatlantiruvchi mexanizmlarning ish faoliyatini aniqlash uchun dastlab lisoniy faoliyatning kognitiv tizimini batafsil o'rganish lozimdir. Bu ehtimolning haqiqatga o'ta yaqinligi kognitiv Tilshunoslik taraqqiyoti jarayonida o'z isbotini topmoqda. Bilim olish va saqlash, uni amalda qo'llash va uzatish manbai va nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo'lgan til tizimi kognitiv tahlil ob'ekti ekanligiga hech qanday shubha yo'q. Biroq bunday shubha bir paytlar ayrim Tilshunoslar tomonidan bildirilganligini ham eslaymiz. Jumladan, genyerativ Tilshunoslik g'oyalarining faol targ'ibotchilaridan biri J.Katts (Katz 1981; 1984) til hech qanday ontologiyaga ega bo'lmagan mavhum hodisa ekanligi uchun Tilshunoslik fani ham mavhum predmet bilan mashg'ul bo'lishini uqtirishga harakat qilgan edi. Uning fikricha, Tilshunoslar «so'zlovchilarning o'z tili haqidagi bilimi bilan ular biladigan tillar o'rtasida katta farq mavjudligini anglamoqlari zarur» (Katz 1984: 34). Albatta, ijtimoiy qo'llanishdagi til bilan kognitiv hodisa - bilim o'rtasidagi farqni inkor qilmoqchi emasmiz. Ammo tilni, ayniqsa, nutqni butunlay mavhum hodisa sifatida talqin qilib bo'larmikan?! Nutqiy birliklarni jisman kuzatish va his etish mumkin. shu sababli ular haqidagi har qanday bilim ontologik xususiyatga ega bo'lgan predmet-hodisa haqidagi bilimdir. Aslini olganda, bilim tilga nisbatan ancha mavhum, Chunki uni jisman kuzatib bo'lmaydi. Bilimning mavjudligi tilning mavjudligidan.

Tilning o'zi esa kognitiv tizimning faoliyati mahsulidir, lisoniy tarkiblar tafakkur faoliyati natijasida shakllanadi. Lisoniy hodisalarning bilim, tafakkur, xotira va miya kabilar bilan munosabati masalasi talqinida beheyvoristlar nuqtai nazaridan Yondashuv qanday salbiy natijalarga olib kelishi barchaga ma'lum. Psixolog B. Skinnyerning 1957 yilda nashr etilgan Verbal Behavior «Lisoniy harakat» nomli kitobida bildirilgan fikrlar ko'pgina tadqiqotchilarga dastlab e'tiborlidek tuyuldi. Ular lisoniy xatti - harakatni har qanday boshqa harakatdan farqi yo'q hodisa sifatida o'rganish g'oyasini ilgari surishdi. Nahotki inson lisoniy faoliyati doirasida bajariladigan harakatlarni laboratoriya sharoitidagi tajriba jarayonida turli katta-kichik hayvonlar bajarayotgan harakatlari (mayli, ular ayrim so'zlarni yod olib, takrorlayotgan bo'lishsin ham) bilan bir qatarga qo'yib bo'lsa?! Bunday g'oyaning ilmiy jihatdan noto'g'ri ekanligi keyinchalik olimlar tomonidan to'lig'icha isbotlandi. B.Skinnyerning risolasi chop qilinganidan ikki yil o'tmasdan N.Xomskiy batafsil taqriz e'lon qilib (Chomsky 1959), beheyvorizmning qanchalik asossiz ekanligini isbotlashga urindi. U beheyvoristlarning har qanday xatti-harakat (lisoniy yoki nolisoniy bo'lishidan qat'iy nazar) biror bir stimul – qo'zg'atuvchi vositasida «o'rganish yoki o'zlashtirish» natijasidir degan fikrini inkor qilib, tilning mental hodisa sifatida qaralishi lozimligini ko'rsatdi. Darhaqiqat, lisoniy faoliyat faqatgina insonga xos faoliyatdir hamda u yana bir insonga xos bo'yluk – tafakkur bilan bevosita bog'liqdir. Til va tafakkur munosabati muammosining uzoq yillardan buYon davom etib kelayotgan muhokamasi turli 13 metodologik xulosa va tavsiyalarni yuzaga keltirdi. Tashqi dunYoning ongdagi in'ikosi paydo bo'lishida til asosiy rol o'ynashiga alohida urg'u byergan olimlar (Sepir, Hoyjyer, Hokket, Budagov, Panfilov va boshqalar) ta'kidicha, lisoniy struktura (qurilma) insonning voqelikni idrok etish qobiliyati va tajribasining shakllanishini ta'minlab, ijtimoiy ongga ta'sir o'tkazadi hamda shu yo'sinda insonning dunyoqarashi, voqelikni anglash qobiliyatini shakllantiradi. Tafakkur qanchalik darajada lison bilan bog'liq hodisa bo'lmasin, uning faqatgina til vositasida amalga oshishi yoki, boshqacha aytganda, tilsiz tafakkur bo'lmasligi haqidagi xulosa unchalik haqiqatga yaqin emas. Til va tafakkur aynan bir narsa bo'lmasa kyerak. Tafakkur predmet, hodisalarning aloqa va munosabatlari haqida ma'lumot byeruvchi voqelikning umumlashgan holdagi in'ikosidir. Voqelikning miyada aks etishi faqatgina nutqiy tafakkur harakati natijasida yuzaga kelmasligini isbotlash maqsadida B.A. Syerebrennikov (1983: 104-110) tafakkurning lisoniy va nolisoniy turlarini farqlashni taklif etganligini eslaymiz. Bular quyidagilar: a) aniq tafakkur – aniq, konkret muhitda yuzaga keladigan voqelikning umumlashirilgan obrazi (aksi); b) ramziy tafakkur – xotirada mavjud bo'lgan butun bir voqelik yoki predmet-hodisalarni alohida bir muhitsharoitga bog'liq bo'lgan holda qayta eslash; v) amaliy tafakkur – bevosita maqsadli harakatlari bajarilishi bilan bog'liq fikr; g) lingvokreativ yoki lisonni shakllantiruvchi tafakkur, Ya'ni bu turdagi tafakkur harakatlari bevosita til tizimi zahiralari bilan bog'liq; d) nolisoniy tushuncha tafakkuri - (bu turdagi tafakkurning alohida ajratilishi, voqelik haqidagi tushunchaning paydo bo'lishi nutqiy harakatdan oldingi bosqichga oidligi bilan bog'liqdir). Tafakkur qaysi holatda va qanday ko'rinishda harakatga kelmasin, yagona bir vazifani bajaradi – u voqelik haqidagi axborotni qabul qilish, to'plash, qayta ishlash va tartibga solish usulidir. Bu usul vositasida hosil

bo'ladigan g'oya yoki fikr voqelikning ongda aks etish shaklidir. Tafakkurning harakatlanishi va fikrning shakllanishi voqelikning bevosita ongda aks etishini ta'minlovchi jarayon – bilish faoliyati bilan bog'liq. Tilning bilish faoliyatidagi o'rni alohida, u voqelikni idrok etish va bilish vositasi – qurolidir. S. D. Katsnelson (1972: 110) «Til – nafaqat muloqot quroli, balki fikr va g'oyani shakllantiruvchi hamda uni ifodalovchi qurolidir» deb yozgan edi. Tilning tafakkur faoliyatidagi rolini bilish uchun ong va tilning munosabatiga oddiy bir hol (hodisa) sifatida qaramaslik lozim. Bu munosabat ikki mustaqil hodisaning o'zaro «muloqot»idir. Xuddi shu «muloqot» mental faoliyatning lisoniylik sifatiga olib keladi, Zero, lisoniy va mantiqiy faoliyatlar bir-biriga hamroh bo'lib, ular yagona nutqiy tafakkur jarayonini tashkil etadi. Demak, til ongni harakatlantiruvchi vositalardan biridir, u ongda eng oddiy, birlamchi (elementar) tafakkur kategoriyalari paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu kategoriyalarsiz «alohida nutqiy tuzilmalar – gaplarni tushunish va fikr (g'oya)ning shakllanishini hamda shu yo'sinda bilimning faollashuvini ham tasavvur qilib bo'lmaydi» (Katsnelson 2001: 480). Qay darajaligidan qat'iy nazar, til va tafakkur munosabati masalasining falsafa, Tilshunoslik va psixologiya fanlari doirasida ancha batafsil muhokama qilinishi kognitiv Tilshunoslik taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratdi. Kognitiv Tilshunoslik majmuaviy tadqiqot yo'nalishi (sohasi) bo'lib, u Tilshunoslik va psixologiyadan tashqari, sun'iy intellekt nazariyasi, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi fan sohaslariga oid ilmiy Yondashuvlarni ham umumlashtiradi. Ma'lumki, nutqiy birliklarning hosil bo'lishi va ularning tushunilishi aqliy faoliyat natijasidir. Bu faoliyatning bajarilishi bevosita lisoniy bilimga ega bo'lish sharti bilan bog'liq. Negaki, lisoniy bilimsiz voqelikni bilish, kechayotgan voqea – hodisalar haqidagi axborotni aks ettiruvchi mantiqiy strukturalarni lisoniy ifodalashning imkoni yo'q. shunday ekan, kognitiv Tilshunoslikka lisoniy qobiliyatning tarkib topishini tushuntiruvchi fan sifatida qaralishi bejiz emas. V.Z.Demyankov (1994: 17) bu sohaning asosiy vazifasini inson tomonidan tilni o'zlashtirish mexanizmlari hamda bu mexanizmlarning tarkibini «sistemaviy tasvirlash va tushuntirishdan iborat» deb ta'riflashi bundan guvohlik byeradi. Haqiqatan, kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi mexanizmlar qamrovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa ko'chadi. Voqelikdagi predmet va hodisalarni bilish, idrok qilish qator mantiqiy – ruhiy harakatlarni o'z ichiga olgan tarkibli faoliyatdir. Bu faoliyatning dastlabki bosqichini, albatta, ma'lum bir ob'ektni boshqa ob'ektlar qatoridan ajratish harakati tashkil qiladi. Bir ob'ektni boshqasidan ajratish uchun uning farqlovchi belgilarini topish lozim. Keyingi bosqichda esa, farqlovchi belgilarining chog'ishtirilishi asosida ob'ektning hissiy ramzi yuzaga keladi. Navbatdagi bosqichda paydo bo'lgan ramzning xotirada saqlanayotgan boshqa ramzlar bilan o'xshash tomonlari izlanadi. Nihoyat, voqelikni bilishning muhim bosqichi – umumlashtirish harakati amalga oshadi (Gorskiy 1985). Sanab o'tilgan mental harakatlar kognitiv strukturalarni (tafakkur faoliyati qismlarini) tashkil qilib, ob'ekt haqidagi tushunchaning shakllanishini ta'minlaydi. Tushuncha – mental tuzilma, u aqliy faoliyatning o'ziga xos shakli (turi) dir. Tushuncha «qandaydir bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va ushbu sinfni unga kiruvchi predmetlarning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasiga nisbatan ajratuvchi

mantiqiy faoliyat natijasida hosil bo'ladi» (Voyshvillo 1989: 91). Mantiqiy faoliyat hosilasi bo'lgan «tushuncha» va kognitiv Tilshunoslikda keng miqyosda qo'llanilayotgan «kontsept» atamalarini bir xil mazmunda qo'llash mumkinmi? So'zsiz, bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bularning ikkalasining ham boshlang'ich nuqtasi voqelikdagi predmet – hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog'liq. Paydo bo'lgan hissiy obraz dastlab har bir shaxsda alohida, individual 16 ko'rinishda bo'ladi. Masalan, «gul» bir kishi uchun «atirgul» bo'lsa, boshqasi uchun «rayhon», yana biri uchun «lola». Hissiyot va tafakkur faoliyatining Yuqori bosqichlarida individual obraz aniq predmetdan uzoqlashib boradi va asl mantiqiy (aqliy) hodisaga aylanadi. Voqelikning bir xilda bunday his va tafakkur etilishi, umumlashgan hamda qisman mavhumlashgan obrazning yuzaga kelishi barcha uchun bir xil kod – ramziy belgi hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu xilda paydo bo'ladigan mantiqiy tuzilmani psixolog N.I.Jinkin «univyersal predmet kodi - UPK» deb atashni taklif qiladi. Olim bu hodisaning yuzaga kelishini inson miyasining irsiy va nasliy xususiyatlari qatoriga kiritadi. Uning fikricha, aqliy qobiliyat «tushuncha, hukmni yaratadi, voqelikni tasvirlash va inson faoliyati sababini ko'rsatish uchun turli xulosa va mulohazalarga keladi. Bu mantiqiy harakatlarning bajarilishi shaxsning qaysi til sohibi ekanligiga bog'liq emas. Xuddi shuning uchun ham intellekt (aql) umumiy boshqaruv funksiyasini ijro etadi, bu univyersal predmet kodi ko'rinishidagi kodlashtirishdir» (Jinkin 1982: 88). shunday qilib, tushuncha va hukmning hosil bo'lishi aqliy faoliyatning turli bosqichlariga oiddir. Ko'pchilik hukmning birlamchi ekanligini e'tirof etishadi. Haqiqatan ham mantiqiy sub'ekt va predikat birikishi dan hosil bo'ladigan har qanday oddiy hukm (Masalan, Qor yog'moqda) predmet obrazlarining o'zaro munosabatdaligi, bog'lanishidan boshqa hech narsa emas. Tushunchalar munosabati esa ikkilamchi, u nutqiy tafakkur faoliyatining Yuqori bosqichida yuzaga keladi. Buning isbotini biz A.F.Losevning mulohazasida ham ko'ramiz. Uning fikricha, sof hukmda tushunchalar «mazmuniga» hech qanday ishora yo'q, shu sababli hukmga predmetni uning voqeligidan uzoqlashgan holda tasavvur qilishning uslubi va qonuniyati sifatida qaralishi lozim (Losev 1990: 129 -130). Bizningcha, hukm va tushunchani farqlovchi belgi va xususiyatlar haqida gapirish bilan bir qatorda, bu ikki hodisaning dialektik umumiylikka ega bo'lishini ham unutmaslik lozim. Zero, tushunchaning hosil bo'lishi voqelikdagi predmetlar, sodir bo'layotgan hodisalarni mantiqan idrok etish, ular haqida hukm chiqarish bilan bevosita bog'liqdir. Faqatgina tushuncha murakkab kognitiv tarkibga ega tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi. Kontsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Kontseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog Jyerri Fodor voqelikning ongda in'ikos etishi va bu in'ikosning tafakkurda «qayta ishlanish» jarayonini o'rganayotib, bu jarayonni «tafakkur lisoni»ga o'xshatadi. Chunki «har qanday mantiqiy tasavvur harakati ma'lum ko'rinishdagi strukturaga ega bo'ladi hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir» (Fodor 1975: 110). Kontsept – mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir (Kubryakova i dr . 1996: 90). Kontseptlar inson ongida

shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Odatda, kontseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilish jihatidan aniq ko'rinishga ega emasligi qayd qilinadi, biroq bu qayd unchalik haqiqatga yaqin emas. Zero, kontseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi etarlicha aniq va ikkilamchi o'rinni egallagan bo'laklari mavhumlikka ega bo'lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida o'zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli kontsept tarkibining tizimiy xaraktyerga ega ekanligini e'tirof etish ma'quldir. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi. Predmet – hodisalarning ongli idrok etilishi va ularning tasavvurda obraz hosil bo'lish yo'li bilan jamlanadigan bilim turlicha shakllanadi va har xil xaraktyerga ega bo'ladi. Bu bevosita turli guruhdagi va tuzilishdagi kontseptlar shakllanishiga sabab bo'ladi. Kontseptlarning guruhlanishida ularning lisoniy ifodalanish uslublariga tayaniladi. Tadqiqotchilar leksik va frazeologik kontseptlar bilan bir qatorda, grammatik 18 (aniqrog'i, sintaktik) kontseptlar guruhlarini ham ajratishni taklif qilishmoqda (Babushkin 1996; Voloxina, Popova 1999; Langacker 1987). Har qanday holda ham egallangan bilimning shakllanishi va tizimlashtirilishning asosiy vositasi til tizimidir. Tafakkur birligi va mental hodisa sifatida yuzaga keladigan kontseptning lisoniy voqelanishi ham nutqiy tafakkur faoliyati natijasidir.

### **9-mavzu. Matn lingvistikasining lingvomadaniy aspekti**

Lingvokulturema, madaniy kontsept, madaniy konnotatsiya, madaniy semalar, milliy dunyo tasviri tushunchalari. Madaniy kontsept tushunchasi va uning badiiy matndagi kontseptual ahamiyati. Sarlavhaning matnning kontseptual dunyo tasvirini namoyon etishdagi ahamiyati. Madaniy kontseptlarning matnda vyerballashuvi.

### **LISONIY - KOGNITIV FAOLIYATNING MILLIY MADANIY XUSUSIYATLARI**

Voqelikni idrok etish va uni bilishning milliy madaniy xususiyatlari muammosi tadqiqotchilarni uzoq vaqtlardan beri qiziqtirib kelmoqda va ushbu muammo haqida bildirilgan fikrlar ham turli-tuman, ba'zan esa tamoman bir-biriga ziddir. Ulardan ayrimlari hatto turli xalqlarning borliqni idrok etishi batamom mos kelmasligini ta'kidlashga harakat qiladilar: «Barcha xalqlar yagona voqelikni turlicha tasavvur va tasvir qilishadi» (Gachev 1967: 78; Qarang: Gachev 1995). G.D.Gachevning bundan qariyb o'ttiz yil oldin aytgan bu fikri Tilshunoslar va boshqa fan sohalari vakillari uchun Yangilik emas edi. O'z paytida I.Kant hech qanday tajriba o'tkazmasdan turib ham (faktlar to'plash shart emas) ong kategoriyalarini ajratish mumkinligi haqida gapirgan edi. Shundan buYon faylasuflar, psixologlar, etnograflar, kognitologlar (A.YA.Gurevich, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, V.F.Petrenko va boshqalar) borliqni idrok etish turli bilim strukturalari orqali bajarilishi va ushbu strukturalarda oldingi tajribada to'plangan bilim - axborot tartiblashgan, umumlashgan holda aks topishini qayd etib kelishmoqda. Ammo u holda oldingi tajriba qay shaklda qoliplashadi yoki tizimlashadi degan savol tug'ilishi tabiiydir. Shubhasiz, tajriba dastlabki o'rinda insonning bevosita ko'z o'ngida, o'zi yashab turgan muhitda yuz byerayotgan voqealar, uning atrofidagi

predmetlarni bevosita kuzatuv, ulardan foydalanishi jarayonida to'planadi. Inson faoliyati ma'lum milliy madaniyat, muhit doirasida kechadi. shu sababli har qanday turdagi bilish jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kolorit mavjud bo'lishi ham tabiiydir. So'zsiz, insonning inson sifatida shakllanishining o'zi ham madaniyat bilan bog'liqdir. Uning nafaqat intellektual faoliyati, balki oddiy hayotiy xatti-harakatlarining barchasi ham milliy madaniyat ko'zgidan aks topadi va ushbu madaniyat qonun-qoidalari «nazorati»da bo'ladi. Har qanday madaniyat atrof-muhit ta'sirida taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Turli millatlar madaniyati bir-biridan dastlabki o'rinda voqelikni moddiy va ma'naviy o'zlashtirishdagi farqi jihatidan ajralib turadi. Bunday farqning asosida o'zlashtirilayotgan ob'ekt yoki bu faoliyat mahsuli emas, balki ushbu moddiy-ma'naviy o'zlashtirish jarayoni qanday yoki qay uslubda kechayotganligi yotadi. shu sababli madaniyatni moddiy va ma'naviy, sub'ektiv va ob'ektiv, ichki va tashqi, shaxs madaniyati va milliy madaniyat kabi turlarga ajratishadi. Madaniyat hech qachon qotib qolgan hodisa sifatida talqin etilmasligi lozim, u taraqqiy qilib boradi, bir holatdan ikkinchisiga o'tadi, boshqa madaniyatlar bilan qorishib boradi. Yana shuni unutmaslik lozimki, hech bir inson oldindan madaniyatli bo'lib tug'ilmaydi, bunga u ijtimoiy faoliyat natijasida, muloqot (keng ma'noda) jarayonida erishadi. Axir bekorga antropologlar (K.Levi–Stross, K.Girts va boshqalar) madaniyatni insonlar o'zaro munosabatlarining mahsuli sifatida ta'riflashmasa kyerak. Madaniyat shakllanishida insonlar o'rtasidagi muloqotdan tashqari, voqelikdagi ob'ektlar bilan bo'lgan muloqotning roli ham muhimdir. Ma'lumki, inson va voqelik munosabatida lison o'ziga xos bog'lovchi, vositachilik rolini o'ynaydi. Lison o'zida voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismidir. Voqelikning o'zini ham milliy deb atash mumkin va bu milliylik lisonda dunyoni o'ziga xos «ko'rish», uni idrok etish natijasida o'z aksini topadi. Lison va madaniyat munosabati masalasi murakkab, juda qiyin hamda ko'p tomonlama muhokamani talab qiladigan masaladir. Ular tadqiqiga juda ehtiyotkorlik bilan Yondashish zarur bo'ladi, aks holda bu ikki turdagi semantik tizimni yagona bir qolipga tushirish xavfi ham yo'q emas. shuning bilan birgalikda bu ikki tizimning o'zaro o'xshash, umumiylik tomonlari ham mavjudligini unutmaslik lozim. V.N.Teliya bunday umumiylikni quyidagilarda ko'radi: 1) madaniyat, xuddi lison kabi, inson dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shaklidir; 2) til va madaniyat o'zaro munosabatda, muloqotda bo'ladi; 3) til va madaniyatning sub'ekti – bu doimo individ yoki ijtimoiy guruh – jamoa shaxs yoki jamiyat; 4) me'yoriylik (norma) til va madaniyat uchun umumiy xususiyatdir; 5) tarixiylik – til va madaniyatning muhim xususiyatidir; 6) til va madaniyatga «dinamika - statika» qarama-qarshiligi bir xilda xosdir (Teliya 1996: 225-226). Darhaqiqat, olima eslatganidek, til va madaniyatni yaqinlashtiradigan umumiy xususiyatlar anchagina (bekorga ko'pchilik tilni milliy madaniyatning ajralmas qismi, bir bo'lagi sifatida talqin qilishmasa kyerak). Ayni paytda, bu ikki hodisani bir-biriga butunlay qorishtirib yuborish unchalik to'g'ri bo'lmasa kyerak. Til va madaniyat o'rtasidagi umumiylik qanchalik darajada bo'lmasin, ularni farqlovchi xususiyatlar ham etarlidir. Bu farq, birinchi navbatda, ushbu ikki hodisaning tizimiylik ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi: madaniyat ham belgilar sistemasidir. Ammo ushbu sistema, til tizimidan farqli o'laroq, o'z-o'zidan tartiblashish, tizimlashish xususiyatiga

ega emas. Umuman, til va madaniyat tizimlari tarkibidagi belgilar strukturaviy tuzilishi va bajaradigan vazifalariga ko'ra keskin farq qilishlariga nisbatan tamoman boshqa sistemalar sifatida e'tirof etiladi. Bundan tashqari, til barcha uchun bir xil vazifa bajaruvchi, «jamoaviy adresatli» hodisa bo'lsa, madaniyatda esa ko'proq elitarlik (saralik) namoyon bo'ladi. Demak, til va madaniyat o'rtasidagi munosabat izomorflikdan (aynanlikdan) ko'ra ko'proq homomorflik, Ya'ni strukturaviy o'xshashlikdan iborat degan xulosa haqiqatdan uzoq emas. Har qalay, homomorflik faqatgina bu ikki tizimning tarkibiy tuzilishida namoyon bo'lib qolmasdan, ularning vazifa jihatidan hamohangligida ham aks topsa ajab emas. Tilning madaniyat uchun «xizmat» qilishini madaniy - ma'naviy boylik, axborot manbalarini saqlash, ularni avloddan - avlodga etkazish hamda madaniy tushunchalar va kontseptlar, styereotip va etalon-namunalarni 65 shakllantirishda bevosita ishtirok etishini hech qachon inkor etib bo'lmaydi. Til va madaniyat o'rtasidagi detyerminizm, Ya'ni o'zaro bir-birini taqoza etish haqiqiy «o'zaro chilik»dir. Shu sababli turli mamlakatlar olimlari tomonidan til va madaniyat munosabati masalasi turli yo'nalishlarda o'rganilayotganligi tabiiydir. Bu muammo Tilshunoslar (YU.Sorokin , V.Teliya, E.Vyereцagin, A.Vejbitskaya, V.Kostomarov, D.Olford, D.Xayms kabilar) bilan faylasuflarning (G. Brutyan, E. Markaryan va boshqalar), psixologlarning (L.Vigotskiy, A.Leontev, V.Petrenko, P. Gulviste) e'tiborini tortib kelmoqda. Bu masala nutq madaniyatiga oid tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi (Yu.Skvortsov , E.Begmatov, A.Mamatov, B.O'rinboev va boshqalar). Keyingi yillarda Tilshunoslikda lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakl topishi (V. Krasnix, V. Maslova, D. Gudkov, S. Tyer - Minasova, D. Ashurova) bu masalaning dolzarblashishiga sabab bo'lmoqda. Darhaqiqat, har bir shaxsning lisoniy qobiliyati va muloqot malakasi ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakl topadi va faollashadi. shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida madaniy elementlarning aks topishi tabiiydir. Oldingi sahifalarda inson har qanday voqea - hodisani, predmetni idrok etish, uning haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lishda beixtiyor yoki baixtiyor oldingi tajribasiga tayanishini eslatgan edik. Ammo «oldingi tajriba» qanday shaklda va qay yo'sinda paydo bo'lishini ham bilish kerak. So'zsiz, bu tajriba milliy madaniyat muhitida, kundalik hayot faoliyatida uchraydigan voqelik hodisalari ta'sirida yuzaga keladi. shu sababli turli madaniyat vakillari uchun kategoriyalashtirish hodisasi bir xilda kechmaydi. Kategoriyalashtirish faoliyatining madaniy - milliy xususiyatlarini, uning bevosita madaniy muhit bilan bog'liq tomonlarini ilmiy asoslashga birinchilardan bo'lib harakat qilishgan Tilshunos olimlar Vilgelm fon Humboldt va 66 Eduard Sepirlardir. Ular milliy tillar lug'at va grammatik tizimlari o'rtasidagi farqni til sohiblari – insonlarning voqelikni qabul qilish va idrok etishidagi farq bilan bog'lashga harakat qilishgan. V.Humboldt turli millat va madaniyat vakillarining voqelik haqida tasavvuri mos kelmasligini isbotlamoqchi bo'ladi. «Turli tillar – yagona bir predmetni turlicha nomlanishidan ko'ra, ushbu predmetni turlicha ko'rish, idrok etishdir» (Gumboldt 1984: 9). Voqelikni turlicha «ko'rish» hamda kategoriyalashtirish, ayniqsa, grammatik tizimlar qiyosida aniq namoyon bo'ladi. E.Sepirning obrazli ta'rificha, «til ayrim hollarda o'z tasniflarida bemantiq va qaysar...U

o'zining qat'iy chegarali kaptarxonalariga ega bo'lishni istaydi hamda kaptarlarning bir uyadan ikkinchisiga uchib o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Ifodaga talabgor har qanday tushuncha tasnif qoidalariga bo'ysunishi lozim» (Sepir 1934: 77). Tasnif qoidalarining muhimligi mental harakatlarda ham o'z aksini topadi. E.Sepirning fikricha, biz osmondan «toshlar» kategoriyasiga kiruvchi predmet tushayotganini kuzatayotganimizda, bu hodisani ikki tushunchaga taqsimlaymiz («tosh», «tushmoq» tushunchalari). Natijada ingliz tilida bu hodisa the stone falls jumlasida vositasida nomlanadi. Olmon va farang tillarida «tosh» so'zida rod kategoriyasi ham ifoda topadi, biroq bu tillarning birida mujskoy rod, ikkinchisida jenskiy. Chippeva tilida esa rod tushunchasidan ko'ra jonli/jonsizlik kategoriyasi muhimroq. Kvatiutl qabilasi vakili «tosh tushayapti» mazmunidagi jumlaning tuzishda so'zlovchi toshni ko'rish yoki ko'rmasligi hamda toshning unga yaqin yoki uzoqligiga e'tiborni qaratadi. Yana bir qizil tanlilar tili – nutqida «tosh» so'zining ishlatilishi shart emas, ular bu jumlaning yagona bir fe'l shaklida ifodalaydilar (o'zbek tilidagi «toshlamoq» shaklini qiyoslang). Biror bir madaniy muhitda ma'lum turdagi tuzilmalarning bo'lmasligi ularni lisoniy ifodalashning imkonini yo'qligidan darak byermaydi (masalan, bu ifoda tavsifiy bayon usulida, jumlar, gaplar vositasida bajarilishi mumkin). Xuddi shuningdek, grammatik 67 kategoriyalardagi farqlar u yoki bu kategoriyada ifoda topadigan mazmun ma'lum muhitda boshqa tilda so'zlovchi tomonidan mantiqan idrok etilmadi, degan xulosaga olib kelmasligi kyerak. O'z davrida Praga lingvistik to'garagining sobiq vakillaridan biri R.Yakobson o'ziga xos bir farazni muhokamaga tashlagan edi: tillar bir-birida biror narsani ifodalay olishlari bilan emas, balki ushbuni ifodalashlari shartligi bilan farq qilishlari kyerak (Jakobson 1987: 433). Aytaylik, ayrim g'arb tillari fe'l tizimida mavjud bo'lgan plyuskvampyerfekt kategoriyasi mazmunini o'zbek tilida tiklash uchun tarjimonlar «allaqachon», «o'shangacha», «shundan so'ng» kabi ravish birliklariga murojaat qilishga majburdirlar. Lekin muhokama qilinayotgan masalaga oid eng asosiy faraz «lisoniy nisbiylik» nomi bilan mashhurdir. Fanda Sepir – Uorf nomi bilan ma'lum bo'lgan ushbu farazni 1930 yillarda B.L.Uorf o'z ustozlari E.Sepir g'oyalariga taYangan holda shakllantirdi (Darnell 1990: 340). B.L.Uorf (the Worf Hypothesis) olg'a surgan metodologik g'oyalarning mazmunini qisqa qilib quyidagicha izohlash mumkin: turli tillarda so'zlovchi va turli madaniyatlarga tobe shaxslar voqelikni bir xilda idrok etishmaydilar. «Biz tabiatni (voqelikni –sh.S.) lisonimiz ko'rsatgan yo'nalishda qismlarga ajratamiz. Olamdagi hodisalar, kategoriyalar, turlarni ularning aniq mavjudligiga nisbatan ajratmaymiz, aksincha, olam bizning ongimizda misli charxpalakdek aylanib turgan taassurotlar asosida tartib topadi. Demak, bu tartibni ongimizda saqlanayotgan til tizimi ta'minlaydi. Biz olamni u yoki bu yo'sinda (boshqacha emas) qismlarga ajratishimiz, tushunchalar vositasida ifodalashimiz va ma'nolarga taqsimlashimizning sababi biz ham bunday tizimlashtirishga undovchi kelishuv ishtirokchilarimiz. Bu kelishuv ma'lum bir lisoniy jamoa uchun majburiy va bizning lisonimiz tizimidan joy olgan... shunday qilib, nisbiylik tamoyilining Yangi ko'rinishiga duch kelamiz va uning mazmuni quyidagicha: bir xil fizik hodisalardan tarkib topgan olamning bir xildagi tasviriga faqatgina til tizimlarining bir xil yoki hech bo'lmaganda o'xshashligidagina erishish mumkin» (Uorf 1960: 174-175). Lisoniy nisbiylik

va uning muqobili bo'lgan lisoniy detyerminizm (tafakkur faoliyati lison bilan bog'liq) farazlari haqida hozircha biror bir tanqidiy fikr bildirish niyatida emasman, albatta. Ammo bu farazning asosiy g'oyasi zamirida tug'iladigan bir savolni eslamalikning iloji yo'q. Yuqorida aytilganidek, B.L.Uorfning fikricha, ma'lum bir til ushbu til sohiblarining tafakkur faoliyati turini belgilab byeradi (detyerminizm) va atrofdagi voqelikni bilish, idrok etish uslubi tafakkur ifoda topayotgan (fikr yuritilayotgan) til tizimi bilan bog'liq (nisbiylik). shunday ekan, o'zaro bog'liqlikda qaralayotgan hodisalardan qaysi biri (tilmi yoki tafakkur ) birlamchi yoki qaysinisi ikkinchisiga ta'sir ko'rsatadi (ongmi yoki shaxs faoliyatimi) qabilidagi savollar tug'iladi. Albatta, bunday ritorik savollarga aniq javob topish mushkul, Chunki taqqoslanayotgan hodisalar birbirini taqozo etuvchi, bir-biriga ta'sir o'tkazuvchi o'zaro munosabatdagi hodisalardir. Tilshunos va psixologlar qator yillar davomida SepirUorf farazlarining bevosita lug'at va grammatikaga oid tomonlarini qayta tekshirish maqsadida to'xtovsiz tadqiqotlar olib borishmoqdalar. So'zsiz, tillar yagona bir tushunchani ifoda etishda ishtirok etuvchi lug'at birliklari miqdori bilan farq qilishi mumkin. Masalan, eskimoslar tilida yagona bir «qor» tushunchasining «yog'ayotgan qor», «quruq qor», «erigan qor» kabi nomlarga ega bo'lishini yoki xopi tilida yagona bir so'z vositasida qushdan boshqa barcha uchadigan predmetlarni (samolyot, hashoratlar, uchuvchi va hokazo) atay olishini qanday izohlasa bo'ladi?! Qorning turlarini farqlash to'g'ridan-to'g'ri lug'at bilan bog'liq bo'lmasa kyerak. Buning sababini ko'proq turli madaniy muhit vakillarining his etish va idrok qilish qobiliyatlari hamda ular faoliyat doirasiga oid farqlardan izlagan ma'qulroq. Xuddi shunday holatni grammatik tizimlar qiyosida ham ko'rish mumkin. Binobarin, Libyeriyada yashovchi elatlardan birining tili bo'lgan kpelle lahjasida qiyoslash mazmunini ifodalovchi «bu (predmet) undan keyin katta» qabilidagi maxsus tuzilmaga ega, Ya'ni qiyoslanayotgan predmet doimo eslatiladi. Ammo bir predmetning ikkinchisidan kichikligini ifodalovchi grammatik tuzilmada esa bunday strukturaviy element yo'q hamda kpelle elatiga mansub bolalar ushbu tuzilmalarni o'zlashtirish jarayonida ularni chalkashtirmaydilar. Demak, u yoki bu til tizimida ma'lum turdagi grammatik strukturalarning mavjudligi bevosita ularning fikrlash qobiliyatiga ta'sir qilmaydi (Koul, Skrebnyer 1977: 71). Sepir-Uorf farazlari bilan qiziqayotgan tadqiqotchilarning ko'pchiligi Uorfning tajriba va til o'rtasidagi aloqani ixtiyoriy deb ta'riflashini va ayniqsa, uning til tizimi bilish jarayonini qattiq nazorat qilishi haqidagi fikrini insonning lisoniy qobiliyati uning bilish qobiliyatini chegaralashi borasidagi ta'kidlarini haqqoniy tanqid qilishadi. Tilshunos A.M.Bushuyning bu haqda bildirgan fikrini olaylik: «til insonlar tomonidan ixtiyoriy tanlangan va istagan paytida o'zgartirishi yoki almashtirishi mumkin bo'lgan tizim emas. Til atrofdagi moddiy olamni aks ettiradi» (Abdullaev, Bushuy 2002: 85; Bushuy 2005). Haqiqatdan ham, lisoniy tizimni bilish faoliyatidan ustun qo'yish, tilni barcha turdagi mental harakatlarning belgilovchisi (detyerminanti) degan fikrni olg'a surish niyatidagi har qanday g'oya keskin tanqidga duch kelishi muqarrar. Uorfning g'oyasi bejiz «faraz» atamasini olmagan bo'lsa kyerak, Zero, farazlarning ko'pchiligi o'z isbotini kutganicha qolavyeradi. To'g'ri, millatlar va elatlarning tafakkur faoliyatida uchraydigan turlilik, mos kelmaslik holatlarini inkor qilib bo'lmaydi. Lekin buning isbotini til tizimi xususiyatidan izlagandan ko'ra, atrofmuhitdagi

predmet-hodisalar har xilligidan, ijtimoiy faoliyat turlari farqidan izlasak, ma'qul emasmikan?! Lisoniy tafakkurning turli madaniy-tarixiy sharoitlarda rivojlanishini maxsus o'rgangan eston psixologi P.Tulveste o'z ustozlari A.R.Luriya taklif qilgan metodika asosida o'tkazgan qator tajriba–sinov tadqiqotlari natijalariga ta'yan holda «turli tillarga turli xildagi bilish jarayoni mos keladi» degan fikrni butunlay inkor qiladi. Uning fikricha, lisoniy nisbiylik emas, balki «faoliyatlar nisbiyligi» to'g'risida gapirgan ma'qulroq. Zero, turli millatlar tafakkur harakatlaridagi farq «tillararo farqdan ko'ra ko'proq u yoki bu madaniyatda tarqalgan faoliyat turlari o'rtasidagi farq va bolalarni ushbu faoliyat turlarini bajarishga o'rgatish usullari bilan bog'liqdir» (Tulveste 1988: 299-300). Ko'rinib turibdiki, Tulveste ham Sepir – Uorf farazini batamom inkor qilish istagida emas, u faqatgina tafakkurni til «qaramog'i»dan chiqarib, inson faoliyati doirasiga o'tkazmoqchi. Ha, tafakkur faoliyatiga oid masalalar muhokamasi hech qachon muammosiz tugamasa kyerak. Tafakkur insonga yaratuvchi tomonidan in'om etilgan eng buyuk va, ayni paytda, eng murakkab qobiliyatdir. Ammo ushbu qobiliyat o'z qobig'idan tashqariga chiqmaydigan, qotib qolgan hodisa emas, aksincha, u doimo murakkablashib, atrofdagilar ta'sirida mazmunan va miqyosan boyib boradi. shuning uchun ham bu qobiliyat mohiyatini, uning qudratini bilish uchun unga bevosita ta'sir o'tkazuvchi kuchlarni aniqlash lozim bo'ladi. Xo'sh, insonning tafakkur faoliyatiga ta'sir o'tkazadigan, uni boshqarish qudratiga ega bo'lgan kuch nima va u qayerda bo'lishi mumkin?! Tilning tafakkur bilan aloqasini hozircha hech kim inkor etgan emas (hatto bunga harakat ham qilingan emas). Biroq, til va tafakkur aloqasini «teng huquqli hamkorlik» darajada ko'rmoq kyerak. Aslida, tilga ham, tafakkurga ham ta'sir o'tkazadigan hodisa madaniyatdir. Inson har qanday Yangi turdagi faoliyatni o'zlashtirishi, Yangi madaniyijtimoiy muhitga moslashishi mumkin. Biroq ma'lum holatlarda beixtiyor avvaldan o'zlashtirilgan (balki, tug'ma bo'lgan, deyish ma'quldir) ko'nikmalariga, o'z milliy madaniyatiga xos bo'lgan faoliyat uslublariga murojaat qilishi turgan gap. Binobarin, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi rus, ukrain, belorus, koreys, polyak kabi millat vakillarini olaylik, ular o'z ona tili sifatida rus tilini e'tirof etishadi, ammo bu «rusiyabonlar» asosan o'z madaniyatlarini saqlashgan hamda o'z madaniyatlari me'yorlariga binoan yashashadi. Natijada, ularning voqelik, hodisalarga munosabati, ularning kategoriyalashtirishida ham nomuvofiqliklar uchrab turadi. Etnik ongda bunday farqlarning mavjudligi, so'zsiz, kognitiv jarayonlarning barcha insonlar uchun (ularning qaysi millat va madaniyatga mansubligidan qat'iy nazar) umumiylik haqidagi ta'kidlarga shubha tug'diradi. Ushbu risolaning ilk sahifalaridan birida kontseptning paydo bo'lishi va tarkib topishi haqida gapirayotib, tafakkur faoliyatining umumiy xislatlarga boy ekanligini qayd qilganligimni unutmagan bo'lsangiz kyerak. Hozir ham tafakkur jarayonida umumiylik belgilari mavjudligini, N.I.Jininning univyersal predmet kodi (UPK) haqidagi g'oyasi, kognitiv jarayonning umumiy holatlarini tadqiq qilish borasidagi mahsuldor g'oyalardan biri ekanligini inkor etish niyatida emasman. Lekin mashhur frantsuz psixologi J.Piaje va uning izdoshi P.Dasenlarning o'tkazilgan qator tajribalari natijasida bu masalaga boshqacha Yondashish lozimligini uqtirganlarini eslatmoqchiman. Chunonchi, J.Piaje N.Xomskiy bilan shaxsiy muloqot uchrashuvi paytida o'z opponentining

kognitiv strukturalarning tug'ma va univyersalligi haqidagi fikriga bildirgan e'tirozini olaylik: «Insonda (ongda –sh.S.) tug'ma kognitiv struktura bo'lishi mumkin emas, faqatgina intellektning faoliyati tug'ma myerosdir. Bu faoliyat ob'ektlar doirasida bajarilgan harakatlarni tashkillashtirish vositasida strukturalarni hosil qiladi. shu sababli asosiy muammo bu harakatlarning qanday bajaralishini va ular oldindan rejalashtirilgan kognitiv tuzilma natijasi bo'lmasdan turib, taraqqiyot jarayonida mantiqan zarur harakatga aylanishini aniqlashdadir» (Piaje 1983: 90). Menimcha, P.Dasenning tafakkur faoliyatining ayrim jarayonlari umumiy (univyersal) bo'lishi bilan bir qatorda, bu jarayonlarning boshqa qismi esa individual va milliylik xususiyatiga ega, degan xulosasiga (Dasen 1977: 155) ergashgan ma'qulroq. Buning isbotini kognitiv styereotiplar va modellarning madaniyatlararo farqida ko'rishimiz mumkin. Izoh tariqasida olmon Tilshunosi Leonard Lipkaning kognitiv kategoriyalarning G'arb va sharq madaniyatlarida turlicha idrok qilinishi haqidagi bir misolini keltirmoqchiman (Lipka 1987: 292). Bu ikki madaniyat vakillari «yozuv stoli» (desk) kategoriyasini turlicha prototiplar ko'rinishida tasavvur etadilar. Ma'lumki, Xitoy va Yaponiyada yozayotgan kishi yerga tizzalab o'tirgan, shuning uchun yozuv stoli prototipi kalta oyoqli, past bo'lgan (o'zbeklar madaniyatiga oid «xontaxta» so'zini eslang). G'arbda esa yozuv bilan mashg'ul shaxs kursiga o'tirgan va stol to'rt oyoqli, yarim belgacha keladigan predmetdir. Kognitiv styereotiplar, modellar (freym, skript, stsenariy, geshtalt va hokazo) inson tarbiya topgan madaniy muhit bilan bog'liq, Zero, kognitiv birliklar madaniyatda mavjud bo'lgan voqelik idroki asosida shakllanadi. Masalan, o'zbeklardagi ot o'yini «ko'pkari» G'arb mamlakatlari xalqlari uchun yot tushuncha (xuddi «kriket» o'yini o'zbeklar uchun notanish bo'lganidek). Kognitiv modellarning etnomadaniy xususiyatlari haqida gapirayotib, madaniy modellarning vaqt davomida o'zgarib turishi, bir madaniyatdan ikkinchisiga ko'chishi, o'zgacha mazmun olishi mumkinligini ham aytib o'tmoqchiman. Bir paytlar o'zbek madaniyati uchun ma'lum bo'lgan «tomda yotmoq» (uxlamoq) tushunchasi hozirgi yoshlar uchun notanish bo'lib qoldi va arxaik kontseptga aylandi. Zamonaviy kognitiv Tilshunoslikning taniqli vakillaridan biri Anna Vejbitskaya (aslida Polshada tug'ilib, tahsil olgan, hozirda Avstraliya Milliy univyersitetida kafedra mudiri) kognitiv modellarning milliyligining izchil targ'ibotchisidir. Ma'lumki, psixolog va faylasuflarning ko'pchiligi insoniy his-tuyg'ularni barcha uchun umumiy bo'lgan «tug'ma», univyersal his-tuyg'u guruhlariga ajratish mumkinligiga ishonadilar. Ularning fikricha, qo'rquv, g'azab, qayg'u, xursandchilik birlamchi his-tuyg'ulardir va ular hech qanday istisnosiz barcha madaniyatlar uchun bir xilda xosdir (Kemper 1987). shu sababli Tilshunoslar «qayg'u», «xafachilik», «iztirob», «g'am», «yakkalik» kabi tushunchalarni yagona bir sinonimlar qatoriga joylashtirishga harakat qiladilar (Plutenik 1994: 57). Ammo A.Vejbitskaya birlamchi emotsiyalarni barcha madaniyat va tillarda bir xilda mavjud bo'lishi mumkin emas deb hisoblaydi. Olima his-tuyg'u kategoriyasini o'zgacha tavsiflash tarafdori. Inson his etadigan tuyg'u tavsifini ushbu tuyg'u yuzaga keladigan kognitiv stsenariy tahlili asosida byergan ma'qul. A.Vejbitskaya olmon tilidagi Angst (qo'rqinch) va rus tilidagi «strax» tushunchalarini, shuningdek, ruscha «grust», «gnev» kalimalarini inglizcha sadness, anger bilan solishtirib, ular vositasida nomlanilayotgan emotsional

holatlar barcha madaniyatlarda ham bir xil vaziyatlar ifodasini byermasligiga ishonch hosil qiladi (Vejbitskaya 2001). Bu esa kognitiv stsenariyalar milliy-madaniy ko'rsatkichlarga ega emasligidan guvohlik byeradi. Bunday farqlarning mavjudligi turli madaniyatlarda turlicha an'analar, qadriyatlarining faolligi bilan bog'liq. Qadriyatlar, hech qanday gumonsiz tafakkur jarayonida o'z aksini topadi va shuning natijasida «madaniy stsenariylar» (cultural sctipts) yuzaga keladi, ularning olamda kechayotgan hodisalarni fikran va lisoniy voqelantirishda tutgan o'rni alohida. Mutaxassislar ta'kidlaganidek, madaniyatning barcha sohalari, barcha ma'naviy va madaniy birliklari inson ongida o'z aksini topadi. shuning uchun ham madaniyatda «biror narsa yo'qki, inson tafakkurida o'z aksini topmasa va idrok qilinmasa» (Pelipenko, YAkovenko 1998: 12). Madaniyatning inson ongida aks topishida belgi tizimlarining roli katta va buning eng asosiy vositasi albatta, tabiiy til tizimidir. Ammo madaniyatda mavjud bo'lgan kognitiv birliklarning ba'zilari lisoniy voqelanish jarayonidan chetda qolishi, Ya'ni lisoniy nom (shakl) olmasdan qolishi ham ehtimoldan xoli emas. Masalan, yolg'on so'zlovchi shaxs o'zbek tilida «yolg'onchi», rus tilida «lgun», ingliz tilida «Liar» nomlarini oladi, ammo to'g'ri so'zlovchi shaxs faqatgina o'zbek tilida lug'aviy nomga ega (rostgo'y, to'g'riso'z) boshqa qiyoslanayotgan tillarda esa ushbu kontseptni ifodalovchi alohida so'z yo'q. Lekin bunday «kamchilik» rusiy va inglizzabonlar ongida ushbu kontsept mavjud emasligidan darak byermaydi, ular yolg'on so'zlovchilar bilan bir qatorda to'g'riso'z ham borligini biladilar hamda ushbu kontseptual tushunchani lozim bo'lganda boshqa til sathlari birliklari vositasida (jumla, gap, matn) ifodalay oladilar. Insonning tafakkur faoliyati va lisoniy voqelik o'rtasidagi farq lisoniy ongni kognitiv ongning aynan takrori emasligidan, ular o'z tarkibiy tuzilishi va vazifalari miqyosi bilan ma'lum darajada farq qilishidan darak byeradi. Xarkov univyersitetining professori G.V. Eygyerning ta'rificha, lisoniy ong «nutqiy faoliyatni boshqarish (tashkil qilish – sh.S.) mexanizmi va u lisoniy belgilarni, ularning o'zaro birikish va qo'llanish qoidalarini, insonning ularga (belgilarga) munosabatini hamda til va uning birliklari haqidagi qarashlarni shakllantiradi. Lisoniy ong barcha boshqa turdagi onglar mavjud bo'lishi va rivoj topishining asosiy sharti (ya'ni shunga imkon yaratadi)» (Eygyer 1990: 16-17). Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, lisoniy ong kognitiv ong bilan chambarchas bog'liq, Zero, ularning har ikkalasi ham voqelikni bilish jarayonidir va bu jarayonning mahsuli – bilimdir. shuning bilan birgalikda bu ikki turdagi ong shaxs faoliyati jarayonida shakllanishini unutmaslik lozim. Lekin har qanday shaxs ma'lum etnik guruh, millat va madaniyat vakili. Ammo tadqiqotlar jarayonida biz avval alohida shaxslar ongida kechayotgan lisoniy va kognitiv jarayonlarni kuzatsak ham, pirovard natijada, ularning umummilliy xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilamiz. Kognitiv jarayonlarni milliy madaniyat bilan bog'lovchi eng asosiy vosita tildir. shu sababli kognitiv Tilshunoslik uchun lisoniy va kognitiv ong jarayonlarini milliy madaniyatda yaratiladigan, hosil bo'ladigan faoliyat shart-sharoitlari bilan bog'lab o'rganish muhimdir (Gudkov 2003). Darhaqiqat, til va ong madaniyatdan xoli holda mavjud bo'lmaydi, ular bizning ijtimoiy tajribamiz, ajdodlarimizdan o'zlashtirgan an'nalarimiz natijasidir. Agarda til «qanday fikrlayotganimizni anglatsa», madaniyat esa «ma'lum jamoa nima

qilayotganligini va nimani fikrlayotganligini (o'ylayotganligini)» bildiradi (Krasnix 2002: 20).

### **10-mavzu. Matn tahlili metodlari**

Lingvistik sharxlash (kontekstual ma'nolar tahlili, denotativ va konnotativ ma'nolar birikishi tahlili, matn birliklarini, ularning lug'atdagi ma'nolari bilan solishtirish). Supyerlinear tahlil metodi (matnda implitsit ma'lumot signallarini aniqlash). Stilistik eksperyment metodi (sinonimlar tanlash, matnni toraytirish va kengaytirish, pyerifraz, gapda kompressiyadan foydalanish, matnda aranjirovkaning turli ko'rinishlari). Kontseptual tahlil (odam kognitsiyasining yuzaki til tuzilmalari bilan aloqasini o'rganishni nazarda tutadi). Infyerentsiya metodi (semantik kontseptualizatsiya jarayonida xulosaviy ma'nolarni olish). Matn tahlilining statistik metodlari. Matnda freym tahlili. Matnda kross-madaniy tahlil.

### **KONTSEPTNING LISONIY VOQELANISH JARAYONI**

Yuqorida aytilganidek, kognitologiya turli fan sohalari chorrahasida yuzaga kelgan fandır va uning tadqiqot sohasi «bilimni to'plash va qo'llash usullarini tadqiq qilish» sifatida belgilanadi (The Blackwell Dictionary of Cognitive Psychology 1990). Amyerikalik psixolog H. Gardner kognitiv fanlar chorrahasida olti fan sohasi tutashishini va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun'iy tizimlarda bilimning jamlanishi, qayta ishlanishi va qo'llanishi muammolari echimini izlash bilan band bo'lishini qayd qilgan edi (Gardner 1987). Ushbu sohalar munosabati quyidagi shaklda aks ettiriladi: Falsafa psixologiya Tilshunoslik sun'iy intellekt antropologiya nevrologiya Ko'rinib turibdiki, ushbu sohalar o'rtasidagi aloqa bir xilda amalga oshmaydi, binobarin, kompyuter fanlari (sun'iy intellekt ) va antropologiyaning falsafa bilan aloqasi ko'pincha bilvosita amalga oshadi. Tilshunoslik ushbu fanlar chorrahasida mustahkam o'rin olgan va barcha qavm sohalar bilan bevosita munosabatdadir. shu sababli kognitiv Tilshunoslik insonning bilish qobiliyati haqidagi fan – kognitologiyaning markaziy sohalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Tilshunoslik kognitologiya fani shakllanishida asos yoki poydevor bo'lib xizmat qilgan uch soha qatoridan bejiz joy olmagan bo'lsa kyerak. Bu sohalar quyidagilar:

- 1) insonlarga xos topshiriqlarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan kompyuter dasturlarining yaratilishi;
- 2) kognitiv psixologiya doirasida bilish faoliyatining ruhiyatga oid tomonlarining chuqur o'rganilishi;
- 3) genyerativ grammatika nazariyasining taraqqiy etishi va ushbu nazariya bilan bog'liq lingvistik yo'nalishlarning paydo bo'lishi (Millyer 1964).

Ko'rsatilgan sohalar hamkorligida shakllangan kognitologiyaning «tug'ilish» sanasi 1956 yilning 11 sentyabridir. Ayni shu kuni Massachuset texnologiya institutida o'tkazilayotgan simpoziumda uch ma'ruza tinglandi. Birinchi ma'ruzaning («7+2 sehrli soni») muallifi psixolog Jorj Millyer (ha, aynan eslab qolish qobiliyatini 7+2 me'yorida belgilovchi Millyer qonunining muallifi) edi. «Tilning uch modeli» deb nomlangan ikkinchi ma'ruza Tilshunos Noim Xomskiy tomonidan taqdim etildi. Nihoyat, uchinchi ma'ruza «Logic Theory Machine» («Logik nazariyotchi») sun'iy intellekt sohasi bo'yicha mutaxassis

Alen Nyuell va bo'lg'usi Nobel mukofoti sohibi, iqtisodchi Hyerbyert Saymonlar hammuallifligida bitilgan edi. Xuddi shu ma'ruzalarda kognitiv tadqiqotlarni yagona bir fan doirasida, yagona bir «soyabon» ostida birlashtirish fikri olg'a surildi. Bu voqeani J.Millyer quyidagicha xotirlaydi: «Men simpoziumdan amaliy – tajribaviy psixologiya, nazariy Tilshunoslik va bilish jarayonini kompyutyerda dasturlash sohalari yagona bir butunlikning qismlarini tashkil etishiga ruhan qattiq ishongan holda chiqdim. Kelajakda ularning umumiy maqsad sari o'zaro muvofiqlashuviga ham ishonch paydo bo'ldi. Ushbu fan shakllanishi sari men yigirma yil intildim va nihoyat, endi unga qanday nom byerishni bildim» (Qiyoslang: Gardner 1987). Kognitologiya fanining paydo bo'lish sanasini 1956 yildan deb hisoblayotgan mutaxassislar (Muers, Brown 1986) uning asosiy vazifasini aqliy tasavvur qoidalari va mantiqiy xulosalar qonuniyatlariga taYangan holda tabiiy til tizimini «qayta ishlash»ning talabga va haqiqatga mos nazariyasini yaratishda ko'radilar. Demak, cognition (kognitsiya), ya'ni bilish faoliyati axborot (ma'lumot)ni qabul qilish, taqdim etish va yaratish harakatlarini qamrab oladi. Bu turdagi harakatlar ijrosi lisoniyat zahiralariidan ozuqa oladi, bevosita yoki bilvosita lison bilan aloqada bo'ladi. Insonning bilish qobiliyati uning lisoniy qobiliyati bilan hamohangdir. O'tgan asrning boshlarida olmon faylasufi (keyinchalik AQshda yashab ijod qilgan) Ernest Kassiryer insonning bilish faoliyatiga borliqni xuddi ko'zgudek aks ettiruvchi emas, balki predmetlarning ichki yoki tashqi mohiyatini aks ettiruvchi hodisa sifatida qaralishi lozimligini uqtiradi. Bu faoliyatni, yaxshisi, tasavvur va idrokni uyg'otadigan yorug'lik manbaiga o'xshatish ma'qul: yorug'lik qanchalik ravshan bo'lsa, manba shu qadar kuchli bo'ladi va biz predmetni shunchalik aniq ko'ramiz (Sassirer 1923: 26). Bilish jarayonida hosil bo'lgan mental tuzilma – kontsept mazmunida aynan shu turdagi ravshan va aniq ko'rinishga ega bo'lgan belgi - xususiyatlar o'rin oladi hamda kontseptning lisoniy voqelanishida xuddi shu xususiyatlar yetakchilik qiladi. Voqelikni aks ettirish to'g'ridan-to'g'ri tilning vazifasiga kirmaydi, bu vazifani dastlabki o'rinda tafakkur bajaradi. Lekin tafakkurda yuzaga kelgan mental tuzilmalar til tizimida o'z ifodasini topadi. So'z, xuddi boshqa til birliklaridek, alohida bir predmetni yoki voqeani atovchi oddiy bir yorliq bo'lmasdan, balki voqelikni bilish vositasidir. Lisoniy birliklar vositasida axborot yig'iladi, saqlanadi va avloddan-avlodga o'tadi. Bir so'z bilan aytganda, til birliklarining kognitiv jarayon kechishidagi o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Mental tuzilma – kontseptning lisoniy belgiga o'tish jarayoni qanday kechishi masalasi bahsli mavzudir. Dastlabki o'rinda kontseptning lisoniy moddiylashuvi ong va til tizimi o'rtasidagi hamkorlikning mahsuli ekanligini unutmazlik kyerak. Oldin aytilganidek, kontsept shakllanishining boshlang'ich nuqtasi voqelik bo'lagi (predmet) haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo'lib qolmasdan, balki mazmunli hodisadir. Boshqacha aytganda, sub'ekt obrazning oddiy shaklini ko'rmaydi yoki uning mazmunini idrok qilmaydi, u mazmunli obrazni idrok etadi. Xuddi shu mazmunli obraz lisoniy belgiga aylanadi va bu belgi ma'nosining o'zagini tashkil qiladi. Lekin voqelik – ong – lisoniy belgi o'rtasidagi bunday uzviylikni oddiy takrorlash ko'rinishida talqin etmaslik kyerak. Chunki ong voqelikni lisoniy belgi vositasida oddiygina aks ettirmaydi, balki sub'ekt uchun muhim bo'lgan belgi-xususiyatlarni ajratadi hamda ular asosida idrok etilayotgan

ob'ekt (predmet, hodisa) ning namunaviy modelini yaratadi. Ongning bu turdagi analitik – tahliliy faoliyati amalga oshishida lisoniy belgilarning roli alohida e'tiborga loyiq. XVIII asrda yashab ijod etgan mashhur farang mantiqshunosi Eten Bano de Kondilyak (1715 - 1780) bu haqda shunday deb yozgan edi: «Biror bir belgining yordamisiz biz o'yimizni ma'lum qismlarga ajratolmas edik va shu yo'sinda fikr yuritish voqelikning bo'laklarini alohida ko'rish (idrok etish – sh.S.) imkonini byerishini anglay olmas edik» (Kondilyak 1980: 84). Bilish jarayonining ruhiyatda kechishi masalasi bilan maxsus shug'ullangan psixologlar (J. Brunnyer, L.M. Vekkyer, B.Lomov va boshqalar) voqelikning ongda aks etishi turli xususiyatlarga ega ekanligini qayd qilishadi. Jumladan, muqimlik (idrok etilayotgan predmetning doimiy, muqim bo'lishi), predmetlik (ob'ektning alohida mavjud bo'lishi), butunlik (predmet qismlari va bo'laklarining yangi bir darajada birikishi ), umumiylik (predmetning muhim xususiyatlarini farqlash) bular qatoriga kiradi (Diyanova, Щегoleva 2006: 11). So'zsiz, ushbu xususiyatlarning barchasining ham bilish jarayonida o'z o'rnini bor, ularning har biri bilishning ikkala bosqichida (obraz yaratish va tushuncha hosil bo'lishi) o'zicha namoyon bo'ladi. Kontseptning hosil bo'lishi va uning lisoniy voqelanishida esa umumiylik (aniqrog'i, umumlashtirish) xususiyati alohida rol o'ynaydi. Biz voqelikning biror bir bo'lagi, predmetini lisoniy nomlash yoki umuman lisoniy tafakkur faoliyati dastlabki o'rinda umumlashtirish harakati bilan bog'liq ekanligini yaxshi bilamiz. Bunda nomlanayotgan predmet – voqeaning alohida, yaqqol ko'zga tashlanadigan va seziladigan belgisi avval farqlanadi, keyin esa ushbu belgining butun bir guruh uchun umumiyligi e'tiborga olinadi. Mantiqshunoslar bilish faoliyatining asosiy bosqichlari sifatida qiyoslash, umumlashtirish va ideallashtirish (mavhumlashtirish) harakatlarini qarashlari bejiz emas. Bu harakatlar bilish ob'ektining umumlashgan obrazini hosil qiladi. Albatta, umumlashgan obraz mantiqiy faoliyat natijasi sifatida voqelikdagi predmet, hodisalarni lisoniy nomlash uchun mantiqiy va ma'naviy asos yaratadi. Biroq har qanday holatda ham kontseptning lisoniy ifoda topishi predmetli amaliy tafakkur faoliyati sharoitida kechadi. Nutqiy harakatning bolalar ongida shakllanishi, uning ontogenezi bilan maxsus shug'ullangan J.Brunnyer (1984: 22) til o'zaro faoliyat vositasi sifatida o'zlashtirilishini ta'kidlab, «tilni o'zlashtirishda lisoniy qobiliyat tug'ma bo'lmasdan (ayrim Tilshunoslar o'ylaganidek – sh.S.), balki inson diqqati va amaliy faoliyatining ayrim xususiyatlarigina tug'ma bo'lishi mumkin», deb hisoblaydi. O'z ota-onasi, atrofdagilardan amaliy harakat namunalarini o'zlashtirayotgan bolada ko'rayotgan predmetlari va kuzatayotgan hodisalarini nomlash qobiliyati shakllana boradi va buning natijasida uning bilim doirasi kengaya boradi. «Til o'zlashtirish jarayonida predmet va hodisalarni nafaqat bevosita idrok etish mumkin, balki ularni tushunchalar, turli munosabatlar tizimiga kiritish imkoniyati ham tug'iladi. Bu esa o'z navbatida, ular (predmet - hodisalar) haqidagi bilim miqyosini kengaytiradi» (Piaje 1984: 326). Ushbu muallif e'tiroficha, bilimning sarchashmasi doimo harakatdir, yangidan–yangi ob'ektlarni idrok etishga yo'naltirilayotgan bilish harakati amaliy kontsept shakllanishiga turtki bo'ladi. Kontseptning lisoniy moddiylashuv jarayoni yana bir muhim mental bosqichni bosib o'tadi. Voqelikning tafakkurdagi umumlashgan in'ikosi – obrazning mantiqiy «qayta ishlanishi» natijasida hosil bo'lgan kontsept lisoniy «libos»

olishidan oldin ushbu «libos»ning tasavvurdagi aksi – modeli yuzaga keladi. Lisoniy voqelanish rejasi paydo bo'lgan zahotiyoq uni amalga oshirish uslubi izlanadi. Reja hamda «so'zsiz» model nolisoniy yoki «botiniy nutq» jarayonida yuzaga keladi. Botiniy nutqning yuzaga kelish muammosi bilan shug'ullangan psixolog va psixolingvistlar ushbu hodisani turlicha talqin qilib kelishmoqda. Ulardan ayrimlari botiniy nutqni oddiygina qilib, o'z-o'ziga gapirish bilan tenglashtirsalar, boshqalari uni alohida tashqi (zohiriy) nutqdan butunlay farq qiluvchi hodisa sifatida ta'riflaydilar. Biroq, eng muhimi, botiniy nutq zohiriy nutqning asosini, negizini tashkil qilishini olimlar e'tirof etib kelishmoqda. Darhaqiqat, nutqiy faoliyat ijro (talaffuz ) va eshitish (mazmun idroki) bosqichlaridan tashqari yana bir bosqichni o'z ichiga oladi. Bu tashqi yoki zohiriy nutqni rejalashtirish bilan bog'liq yashirin jarayondir. A.R.Luriya aytganidek, bo'lg'usi nutqiy harakat niyat va rejadan boshlanadi va ushbu reja nutqiy faoliyatning «ichki harakatchan sxemasi» vazifasini o'taydi (Luriya 1975: 38). Ichki sxema o'ziga xos dasturlash xizmatini o'tab, lisoniy nomlanishi lozim bo'lgan kontseptning mundarija-sida mujassamlangan asosiy mazmuniy xususiyatlarini aks ettirmog'i darkor. Botiniy nutq kontseptning lisoniy voqelanishini ta'minlovchi jarayondir. Ushbu jarayonda bo'lg'usi lisoniy birlikning tuzilishi va mundarijasi shakllanadi. A.A. Leontev lisoniy birlikning botiniy dasturi va qolipi muhim mazmun ko'rsatkichlaridan tarkib topishini va bu ko'rsatkichlar nutqiy tuzilma uchun muhim bo'lgan sub'ekt, predikat, ob'ekt bo'laklarining muqobil «izi» dan iborat bo'lishini isbotlashga harakat qilgan edi (Leontev 1969: 159). Botiniy nutqning eng asosiy xususiyati uning sharoitida lisoniy birlik mazmunan to'liq shakllanishi va turli ma'noviy o'zgarishlar bosqichlarini (ma'no kengayishi ; murakkab tushunchalarni ifodalash uchun ma'no bo'laklarini bir-biriga «yopishtirish» kabi) bosib o'tishi bilan bog'liq ekanligini L.S.Vigotskiy ham ta'kidlagan. Xullas, botiniy nutq jarayonida kontsept, birinchidan, ma'lum mazmun shaklini olsa, ikkinchidan, lisoniy belgi tanlovi bosqichiga tayyorgarlik ko'radi. Xuddi shu hozirlik lisoniy moddiylashuvdan oldingi harakatlar vositasida nominativ birligining denotativ asosini mazmunan boyitadi. Bu bilan lisoniy tanlov imkoniyati ham kengayadi. Lisoniy tanlov esa alohida ko'rinisdagi lisoniy tafakkur faoliyati natijasidir. Bu faoliyatning ko'chishi til o'zlashtirilishi va nutqiy qobiliyat hosil bo'lishi jarayonlariga mos ravishda kechadi. Ma'lumki, inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo'nalishda o'zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushuncha tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – kontsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi. Bu xildagi ko'p bosqichli lingvopsixik faoliyatning natijali (natija muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishidan qat'iy nazar) kechishida asosiy rol ni lisoniy xotira o'ynaydi. Yuqorida qayd etilganidek, moddiy olam o'zlashtirilishining ilk bosqichida inson ongida dastlab alohida olingan predmetning obrazi, ramzi hosil bo'ladi, keyingi bosqichda ushbu predmetni inson moddiy faoliyati doirasida uni qo'llash bilan bog'liq harakatlar sxemasi yuzaga keladi. Inson faoliyati natijasida idrok etilayotgan predmet haqidagi tushunchalar, tasavvurlar doirasi ham kengayib boradi hamda ushbu predmetni boshqa predmetlar bilan qiyoslash, ular o'rtasidagi aloqalarni aniqlash ehtiyoji tug'iladi. Bu xildagi tizimiy bog'liqliklarni aniqlash asosida yuzaga keladigan

yanada umumlashgan obrazlar, harakat dasturlari lisoniy xotira shakllanishi uchun muhimdir. Chunki xotira tartibli, tizimli tafakkur qurilmasidir, shu sababli kontseptual idrok ham tizimli ravishda kechib, uning natijasida paydo bo'ladigan umumlashgan va ma'lum darajada mavhumlashgan lisoniy harakat dasturlari ham tizimlashgan bo'ladi. shu sababli lisoniy xotira nafaqat til birliklari va kategoriyalari haqidagi axborotni saqlovchi psixik tuzilma, balki nutqiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ushbu turdagi axborotni tezda topish, qo'llash imkonini yaratuvchi manba hamdir. Lisoniy xotira negizini «ichki leksikon» Ya'ni xotiradagi lug'at zahirasi tashkil etadi. E.S.Kubryakovaning ta'biricha, «ichki leksikon ma'lum sharoitda zarur bo'lgan birlikni izlab topish imkonini ta'minlovchi majmuaviy «ombor» bo'lishdan ko'ra, ko'proq harakatdagi tizim bo'lib, bu tizimda har bir birlikning faollashuv imkoniyatlari, ular qo'llanilishining pragmatik, semantik va formal ko'rsatkichlari qayd qilingan» (Kubryakova 1991: 18). Tanlov ko'rsatkichlaridan foydalanish uslublari turli xil bo'lib, ularning qo'llanishi lisoniy va nolisoniy faktorlar bilan belgilanadi. Bular orasida eng keng ko'lamda qo'llaniladigani analogiya uslubidir. Ushbu uslub namunalar va qoliplar asosida Yangi lisoniy nomlash birliklari yasash hamda ulardan nutqiy faoliyatda foydalanish imkonini byeradi. Bundan tashqari, voqelikni idrok etish jarayonida vujudga kelgan kontseptni oldindan lisoniy zahirada mavjud bo'lgan birliklar yordamida ifodalash ham mumkin. Qanday bo'lmasin, qaysi uslub qo'llanilishidan qat'iy nazar, kontseptning lisoniy voqelanishi nutqiy tafakkur faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Zero, insonning lisoniy qobiliyati xotira bilan bog'liqdir. Xotirada lug'aviy zahiradan tashqari, ushbu zahiradan foydalanishga oid ko'rsatmalar ham saqlanadi va bu ko'rsatmalar nutqiy faoliyatning ko'ngildagidek ko'chishiga imkon byeradi, til birliklarining o'z o'rnida, risoladagidek qo'llanishini ta'minlaydi. Kontseptning lisoniy voqelanish jarayoni, uning tabiati va uni harakatga keltiruvchi mexanizmlar haqida gapirayotib, N.Xomskiyning nutqiy faoliyat va lisoniy ijodni ta'minlovchi botiniy va zohiriy strukturalar haqidagi fikrini yana bir karra eslamaslikning iloji yo'q. Ushbu g'oya botiniy strukturaning zohiriy tuzilmaga o'tishini faqatgina formal jihatdan tahlil qilinishiga yo'l qo'yganligi va natijada shakl mazmun (semantika) dan ustun bo'lib qolganligi ayblovi bilan uzluksiz tanqidga uchrab kelayotganiga qaramasdan, kognitiv Tilshunoslik uchun ancha muhimdir. N.Xomskiy Tilshunoslikda birinchilar qatorida (xuddi buni psixologiyada L.S.Vigotskiy bajarganidek) nutq ijodi faoliyati bevosita mental tuzilmalarning «tashqi», Ya'ni lisoniy tuzilmalarga ko'chishi jarayonidan iborat, degan g'oyani o'rtaga tashladi va bu g'oyani nutq ijodi faoliyati tarkibida bazis (tayanch) hamda natija bosqichlarini farqlash bilan isbotlashga harakat qildi. N.Xomskiyning Tilshunoslikdagi eng katta xizmati sifatida tan olingan ushbu g'oya psixologlarning axborot inson miyasining turli qobiqlarida ko'p bosqichli «qayta ishlovdan» o'tishi haqidagi fikrlariga (Pribram 1975) qanchalik mos kelishiga e'tibor byeraylik. Tilshunos uchun eng muhimi tafakkur birligi bo'lgan kontseptning tilda (aniqrog'i nutqda) aks etishini ta'minlovchi strukturalar, harakatlar, qoidalarni aniqlashdir. Bu vazifa yana tafakkur jarayoni, tashqi dunyo idroki harakatlari qanday shaklda va qaysi vositalar qo'llanishida kechishini bilish masalasiga borib taqaladi. Zamonaviy falsafa va Tilshunoslikda (ayniqsa, kogitologiyada) mental va nutqiy harakatlar bir xil

shaklda ijro etilishi, o'z navbatida, matn lisoniy tafakkur faoliyati mahsuli bo'lishi axborot g'oyasi (Ya'ni uzatilishi va qabul qilinishi) nuqtai nazaridan izohlanmoqda. Darhaqiqat, axborot barcha tirik mavjudotlar hayotining tagzaminini (poydevori)dir. Axborot faoliyati tafakkur va lisonning kesishish maydoni. Tafakkur vositasida inson atrof-muhit bilan o'zaro munosabatga kirishadi, uning vositasida voqelik obrazlari farqlanadi, hissiyot organlari va miya tomonidan qabul qilinayotgan axborot qayta ishlanadi va amaliy faoliyatga jalb etiladi. Axborot faoliyatini taminlovchi ushbu jarayon maxsus belgilar qo'llanishi hamda axborotni ramziy shakllarda ifodalanishi bilan boshqa tus oladi. «Ramz (simvol ) inson tabiatini bilishning kalitidir» deb yozgan edi E.Kassiryer. Chunki inson «sun'iy vositasiz (Ya'ni lisonsiz – sh.S.) hech narsani ko'ra va bila olmaydi» (Kassiryer 1988: 26;29). Xuddi shu yo'sindagi fikrni E.Benvenist mulohazalarida ham ilg'ash mumkin: «inson borlig'ining eng asosiy va balki eng muhim xususiyatlaridan biri insonning na boshqa bir shaxs, na dunyoviy voqelik bilan to'g'ridan-to'g'ri, bevosita va tabiiy munosabati bo'lmasligidadir. Doimo vositachi – til va tafakkurni hozir qiluvchi ramziy tuzilma darkor. ... ramziylashtirish qobiliyati insonga xos bo'lgan qobiliyatlarning asosiysidir» (Benvenist 1974: 31). Muallifning fikricha, voqelik predmet – hodisalarini vositachilik vazifasini o'tayotgan belgilar, ramzlar orqali ongda idrok qilish va lisoniy taqdim qilish tafakkur yuritish faoliyatining asosini tashkil qiladi, Zero, «tafakkur – narsalar haqida tasavvur hosil qilish va ushbu tasavvur vositasida faoliyat ko'rsatishdan boshqa narsa emas» (O'sha asar, 29-b). Inson tafakkuri va, umuman, madaniyatining ramzli talqini unga haqiqatan ham xos bo'lgan xususiyatga asoslanadi, ammo insonni faqatgina lisoniy shakllar «asiri»ga aylantirib qo'yish va shu yo'sinda barcha turdagi mental faoliyat namunalarini lisoniy belgi vositachiligiga bog'lab qo'yish nechog'lik haqiqatga yaqin kelarkin? Bu insonning bilish qobiliyatini agnostik nuqtai nazardan (Ya'ni bilish haqiqatga intilmaydi degan aqida bilan) talqin qilishga olib kelmasmikan? Bu gumonimiz bejiz emas. Zotan, zamonamizning taniqli antropoTilshunoslaridan biri bo'lgan YU.N.Karaulov ko'pchilik tomonidan (ayniqsa, sistem-struktur Tilshunoslikda) ilgari surilgan «til – belgilar tizimidir» degan tezisning absolyut haqiqat sifatida qabul qilish imkonining yo'qligini isbotlamoqchi bo'ladi. Olim boshqa mualliflarning tafakkur kategoriyalarining bevosita, to'g'ridan-to'g'ri matnda ifodalanishi haqidagi fikrlariga hamda psixosemantika doirasida «ma'nolarning individual tizimini» qayta tiklash yo'li bilan insonning tashqi olamni bilish qobiliyatini aniqlash mumkinligi to'g'risidagi farazlariga (qarang: Petrenko 1997) qarshi chiqadi. Uning e'tiroficha, semantika va gnoseologiya (ma'no va uni bilish) bir-biri bilan bilvosita bog'lanadi, aniqrog'i, ular o'rtasida oraliq bosqich bor. Bu bosqichda obraz, geshtalt, freym, propozitsiya, formula kabi namunaviy birliklar (ular haqida keyingi sahifalarda to'xtalamiz – sh.S.) yuzaga keladi. Eng asosiysi, aynan shu bosqichda «oraliq tili» faoliyat ko'rsatadi. Oraliq tili, Yu.N.Karaulovning ta'rificha, intellektual faoliyat va uning lisoniy voqelanishi jarayonida yuzaga keladi va «tovushli, tashqi nutq va miya (ong)ning o'ziga xos tili orali g'idan o'rin oladi» (Karaulov 1987: 184). Oraliq tilning yana bir xususiyati shundaki, u biz biladigan ko'rinishdagi lug'at tarkibiga ega emas, shu sababli oraliq tilni moddiy jihatdan farqlab bo'lmaydi hamda ushbu tilda bitilgan qandaydir bir «oraliq» matnning o'zi ham yo'q.

Unda oraliq til qanday vazifani bajarishi noma'lum bo'lib qolmaydimi? YU.N.Karaulov oraliq tilning vazifasini uning biologik, fizik-kimyoviy tabiatga ega bo'lgan miya tili (Ya'ni neyronlar munosabati tili) va insonning haqiqiy tili (tabiiy til – sh.S) o'rtasidagi vositachilikda ko'radi (O'sha asar 9-b). Sof ma'noda tafakkur tili sifatida e'tirof etilayotgan ushbu hodisaning vositachilik vazifasi uning tafakkurda hosil bo'lgan bilimning lisoniy mazmunga aylanish vositasi rovida xizmat qilishida ko'rinadi. Bundan tashqari, oraliq tili obrazlar vositasida miya o'ng yarimshari va yorqin lisoniy ifoda kuchiga ega bo'lgan chap yarimshari faoliyatlarini «o'zaro bog'lovchi qatlam» vazifasini o'taydi degan faraz ham mavjud (O'sha asar 187-b). Eng muhimi, Yu.N.Karaulov oraliq tilning namunaviy birliklarini semiotik belgi xususiyatiga ega emas deb hisoblaydi. Uningcha, tafakkur faoliyatiga nisbatan «belgi(i) vositalari» tushunchasining qo'llanishi noto'g'ridir: «Belgi faqatgina oraliq tildan tashqi (tabiiy – sh.S.) tilga o'tgandan so'ng va faqatgina ijtimoiy "libosga" kirgandan so'nggina o'z shakli - zarbini oladi, belgiga aylanadi» (O'sha asar, 208-b). Muhokama qilinayotgan muammoning qanchalik dolzarb va muhimligi haqida gapirishning hojati yo'q. Bu muammoning echimini topish kognitiv Tilshunoslik taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Jumladan, kontsept lisoniy voqelanish jarayonining tarkibiy qismlari, alohida bosqichlarida yuzaga keladigan harakatlar, ularni ta'minlovchi vositalar munosabatini aniqlash va ilmiy tahlil qilish bevosita ikki buyuk nahang – til va tafakkurni bog'lovchi zanjir qay yo'sinda o'zaro birikishi ni bilish bilan bog'liq. Ushbu hodisalar mohiyati va ular o'rtasidagi munosabatning talqini ozgina bo'lsa-da, noto'g'ri asoslansa, chalkash xulosalar shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Binobarin, Yu.N.Karaulovning tafakkur faoliyati belgi ko'rinishidagi vositalardan xoli ekanligi haqidagi fikri haqiqatdan birmuncha yiroqdek ko'rinadi. Belgini faqatgina zohiriy nutqqa xos hodisa sifatida baholash belgining funksional (vazifaviy) xususiyatlarini inkor qilish, uni faqatgina moddiy mavjud hodisa sifatida tasavvur qilish bilan bog'liq. Bu esa belgi hodisasining substantsional talqini natijasidir. Unutmaylikki, belgi mental faoliyatning amaliy vositalaridan (aniqrog'i– «vositachisi») bo'la olmasligini ta'kidlagan Yu.N.Karaulovning o'zi ham oraliq bosqich birliklarining voqelanishi lisoning belgilar tizimi bilan bo'lgan aloqasi orqali amalga oshishini e'tirof etadi: «Bu birliklar ana shu aloqalarsiz izsiz yo'qoladilar (voqelanmaydilar), hech bo'lmaganda, qisman lisoniy voqelanmagan Ya'ni belgi olmagan fikr qochadi va qayta tiklanmaydi, takrorlanmaydi» (Karaulov 1987: 208). Haqiqatan ham tafakkur jarayoni va lisoniy faoliyat bevosita yo'naltirilgan axborot faoliyatining (uni jamlash, saqlash, uzatish va qabul qilish) lisoniy va ramziy belgilar tizimi vositasiz amalga oshishi mumkinligiga ishonish qiyin. Belgi o'z-o'zidan axborotni yarata olmaydi, u faqatgina voqelikning hali lisongacha bo'lgan tasavvur obraziga shakl byeradi va shu yo'sinda axborotni tarkiblashtirib, tartibga soladi hamda taqdimotga tayyorlaydi. shu o'rinda Gegelning so'zlarini eslatmoqchimiz: «Matyeriya haqidagi fikr, so'zsiz, shakl tamoyilini talab qiladi va shu sababli biz hech qayerda amalda shaklsiz matyeriyani uchratmaymiz» (Gegel 1974: 293). shunday qilib, belgi inson tafakkur faoliyatini tizimlashtirish uchun xizmat qiladi. Tafakkur va muloqot qisman insondan boshqa mavjudotlarga ham xos bo'lishi mumkin, ammo to'plangan tajribani ramziylashtirish, uni qayta ishlash va undan ijtimoiy maqsadda foydalanishda maxsus vosita-

belgilarni qo'llash faqatgina insonga xos xususiyatdir. shunday ekan, belgilar tizimini oddiy jamlama sifatida tasavvur qilmaslik lozim. Ushbu tizim insonning bilish faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Usiz kontseptual bilim va uning doirasida yuzaga keladigan birliklarni tartiblashtirish, ma'lum tarkibiy qismlarga ajratish va guruhlashtirishning imkoniyati yo'q. Ushbu xususiyatlarni aniqlash uchun kontseptlar turlarini farqlash va umuman lisongacha bo'lgan birliklarning sistem-strukturaviy ko'rsatkichlarining o'zaro munosabatlarini tahlil qilish lozimdir. Tafakkur va lisonni bog'lovchi «ko'prik» bo'lishini uqtirgan va mazkur vazifani o'taydigan «oraliq til» mavjudligi haqidagi ilmiy farazni taklif qilgan olim Yu.N.Karaulov ushbu «til»ning strukturasi, tuzilishi haqida savol tug'ilishi mumkinligini ham unutmaydi. Tabiiyki, har qanday strukturaviy tuzilma o'z tarkibiy qurilishiga, qismlar va bo'laklar bog'lanishini ta'minlovchi munosabatlar tizimiga ega bo'lishi kyerak. Bu shartlar bajararilmagan taqdirda tizimlilik xususiyati haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Lekin kontseptual bosqich (kontsept yuzaga kelishi va lisoniy voqelanishga tayyorgarlik jarayonini shu xilda atash ma'qulroq.) birliklarini farqlash va ularning sistem-strukturaviy munosabatlarini yoritish ancha mushkul vazifa. Tadqiqotchi bu yerda mantiqiy, metodologik qiyinchiliklarga duch kelishi, ushbu material tadqiqiga mos keladigan tahlil metodlarini tanlashda qiynalishi ham tabiiydir. Darhaqiqat, mutaxassislar (Tilshunos va psixolingvistlar) oraliq bosqichda yuzaga keladigan hodisalarning faqatgina individual xususiyatlarini e'tirof etishayotgan bir holda, ularni o'zaro farqlash va tizimlashtirish haqida o'ylash mumkinmi? Bir guruh psixolingvistlar qo'yilgan muammo bilan shug'ullanishning o'zi istiqbolsiz mashg'ulot ekanligini va u hech qanday ilmiy natijaga olib kelmasligini ta'kidlashga harakat qilishdi (Qarang: Issledovanie rechevogo mishleniya v psixolingvistike. -M.: Nauka. 1985: 68). Bunday gumonning paydo bo'lish sababi, birinchidan, strukturaviy birlik sifatida faqatgina belgi libosidagi birliklarning qaralishida bo'lsa, ikkinchidan, ushbu birliklarning xususiyatlarini aniqlashda introspektiv metod qo'llanishini yagona yo'l sifatida e'tirof etilishidadir. Introspektiv metod o'z-o'zini kuzatish tajribasiga asoslangan tadqiqot metodidir. Ushbu metodning psixologiya uchun muhim va samarador ekanligini inkor etmoqchi emasman. Ammo Tilshunoslik fanida inrospektiv Yondashuv har doim ham o'zini oqlay olmasligi ma'lumdir. So'zsiz, voqelikni idrok etish jarayonida yuzaga keladigan birliklarning to'liq ro'yxatini tuzish niyatining o'zi besamar maqsaddir. Bu jarayonda hosil bo'ladigan birliklarning soni, xuddi tashqi dunyo predmet - hodisalarining miqdoridek cheksiz. Buning ustiga, bu birliklarni va «oraliq til» zahirasidagi vositalarni bevosita kuzatish qiyin vazifadir. Oraliq bosqich birliklarini «qayta tiklash» lozim bo'ladi va shundagina ularni tadqiq qilish mumkin. Lekin ushbu qiyinchiliklar bu bosqichga oid hodisalar tartibsiz, ularni tizimlashtirish va tarkib-struktura jihatidan o'rganishning imkoni yo'q degan xulosaga olib kelmasligi kyerak. Tabiiy til qurilishining sistem-struktur tahlil uslublarini olib ko'rsak, aslida bu o'rinda ham tadqiqotchi «qayta tiklash» harakatini bajarishga majbur. Axir bu o'rinda ham Tilshunos og'zaki nutq (yoki uning matndagi aksi) faktlariga ta'Yangan holda bevosita kuzatilmaydigan til tizimi haqida fikr yuritadi va ilmiy xulosalar chiqaradiku?! shunday ekan, oraliq yoki kontseptual bosqich birliklarini ham turlarga ajratish, guruhlash, umumlashtirish imkoni bor. Gap faqatgina ushbu tizimlashtirish harakatini

qanday metodologik nuqtai nazardan va qaysi uslub asosida bajarishda. Yu.N.Karaulov bu vazifani o'rtacha namunalarga yaqinlashtirish hamda me'yoriy ko'rsatkichlarni aniqlash va umumlashtirish yo'li bilan bajarishni taklif qiladi. Bunday yo'l matematikada, masalan, ushbu mantiqiy harakatlarning erkin assotsiatsiyalarni o'rtachalashtirish (namunaga yaqinlashtirish) va assotsiativ me'yorlarni aniqlashda qo'l kelganligi ma'lum (Karaulov 1987: 188). shunday ekan, me'yorlashtirish va mantiqiy namunalarga tayanish uslublarini kontseptual birliklarni ajratish, o'zaro farqlash va ularning tizimdagi munosabatlarini o'rganish maqsadida ham qo'llash mumkin. Aytish joizki, ushbu bosqichga oid birliklarning turlari va ularning guruhlari haqida turli takliflar byerilmoqda. Ana shunday takliflardan biri Yu.N.Karaulovning Yuqorida bir necha bor eslatilgan risolasida keltirilgan. Ushbu asarda oraliq til birliklari qatoriga «obraz», «geshtalt», «sxema», «freym», «propozitsiya», «kartina», «simvol», «formula», «diagramma», «so'z» kabilar kiritilgan (Karaulov 1987: 189-210). Boshqa mualliflar esa xotirada egallangan bilimnig aks topishini ifodalovchi tuzilmalar qatorini «skript», «stsenariy» (Rumelhart 1975), «kognitiv model» (Fillmore 1977), «mental model» (Johnson – Laird 1983), «situatsiya modeli» (van Deyk 1989) kabilarni kiritib boyitishadi. Ushbu strukturaviy birliklar qanchalik bir-birlaridan farq qilishlariga qaramasdan, umumiy bir xususiyatga egadirlar. Ular tafakkurda to'plangan va saqlanayotgan axborot qismlarini saqlovchi «quticha»lardir. Ushbu «quticha»larning tarkibi va ish faoliyati xotira faoliyati bilan bog'liq. Xotirada mavjud bo'lgan bilim zahirasi Yangidan idrok qilinayotgan voqelikni mental «qayta ishlanishi»da muhim rol o'ynadi. Yangi voqelik eskisi bilan qiyoslanadi, Yangi bilim mavjud bo'lgan bilim asosida yuzaga keladi. Bu o'rinda oldingi tajribani qo'llash asosida shakllanadigan bilim kontseptual qurilmalarning umumlashgan tuzilishga ega ekanligidan dalolat byeradi. Oldingi tajribaning faollashuvi idrok shaxsining faol harakati asosida yuzaga keladi. Borliqni biz o'z qiziqishimiz, ehtiyojimiz doirasida qabul qilamiz. Sevishgan olamga ehtirosli ko'zlar bilan boqsa, och qolgan odam egulik izlaydi, uning uchun non, go'sht, uzum muqobil, Chunki ularning barchasi ochlikni qondira oladi. Arxitektor va din homiysi uchun me'moriy yodkorliklar bir xil mazmunni kasb etmaydi. Arxitektor, masalan, shyerdor va Bibixonim yodgorlik binolarini qurilish uslubi, naqshlari, saqlanishi va qayta tiklanishi jihatidan baholasa, din homiysi ularning ibodat yoki ta'lim maskani bo'lishiga e'tibor qaratadi. Natijada, «insonning idrok faoliyati jarayonida (uning qiziqishi va ehtiyojiga nisbatan) predmet va hodisalarning idrokiy (tushunchaviy ) umumlashtirilishi yuzaga keladi» (Xofman 1986: 63) hamda «ovqat», «daraxt», «daryo», «bino», «madrasa» kabi tushunchalar hosil bo'ladi. Voqelikni qismlarga ajratish va umumlashtirib idrok etish faqatgina insonga ato qilingan qobiliyatdir. Olloh bandasiga bu qobiliyatni tuhfa qilmaganda, odamzot axborotlar bahrida cho'kib ketgan bo'lar edi. Faqatgina ko'rsatilgan kognitiv qobiliyatgina uchrayotgan Yangi ob'ektlar, hodisalarni oldingi tajribaga taYangan holda qabul qilish imkonini byeradi. Cho'pon uchun suruvdagi har bir qo'y hissiy jihatdan har xil bo'lishi mumkin, lekin u ularni guruhlarga ajratish hamda «qo'chqor», «sovliq», «panji», «chori» sifatida tasniflash imkoniga ega. Aynan umumlashtirish qobiliyati va harakati axborotni ixchamlashtirish, ikkinchi darajali ma'lumot byeruvchi belgi, xususiyatlarni

inkor etish hamda kontsept strukturasini shakllantirish uchun muhim tomonlarni tanlash imkonini yaratadi. Olmon psixologi F.Kleks va uning shogirdi I.Xofman qaydicha, «tashqi olamning idroki jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va u bilan munosabatdagi noqulayliklarni kamaytirish istagi tushunchalar asosida tasniflash tizimining shakllanishidek yutuqqa sabab bo'ldi» (Xofman 1986: 63-64). Tushuncha va kontseptlar voqelik haqidagi bilimni tizimlashtirish bilan bir qatorda, ushbu bilim ma'lum qoliplar asosida shakllanishini isbotlash qudratiga ega. Voqelikdagi hodisa va holatlar takrorlanishi, birbiriga mos holda kechishi ularning standart – namunaviy bir xil maqomdagi ko'rinishga ega bo'lishini taqoza etadi hamda bilish ham aynan shunga monand styereotip (bir xil qolipda) shakl oladi. Bu turdagi bilim yoritilayotgan holatni hamda u haqidagi axborotni to'liq tiklash va tasvirlash imkonini byeradi. Qoliplashgan bilimni tavsiflash uchun turli modellarga murojaat qilinayotganligini oldingi sahifalarda ta'kidlagan edim. Navbatdagi sahifalarda ulardan ayrimlarining xususiyatlarini yoritish (qisman bo'lsa-da) niyatidaman. Stsenariy biror bir tipik hodisaga xos o'zaro bog'liq faktlarning ularning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy shakl misolida yoritilishidir. Ushbu namunaviy struktura ma'lum voqelik bo'lagiga oid harakatlar, holatlar uzviy munosabatlaridan iborat (masalan, restoranda tushlik, dars jarayoni, institutga qabul, muzey ziyorati va hokazo). Stsenariy (scenarios) tushunchasini kognitologiyaga oid tadqiqotlar doirasiga birinchilardan bo'lib sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislar R.shenk va R.Abelsonlar kiritishgan (Schank et al. 1975) va ularning talqinicha, ushbu tushuncha voqealar ketma-ketligini, ularning o'zaro bog'lanishini ko'rsatish uchun zarur. Har bir stsenariy tarkibida slotlar (kichik mazmundagi qismlar) ajratiladi va bu slotlarda voqea ishtirokchilarining roli, maqsadi kabilar o'z aksini topadi. «Oziq-ovqat do'koni» stsenariysi taqdimiga misol keltiramiz: Stsenariy: do'kon Rollar: mijoz, sotuvchi, xazinachi. Maqsad: oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish uchun do'konga borish.

1-sahna: do'konga kirish: Mahsulotlarni ko'zdan kechirish, Mahsulotlar narxi bilan tanishish, Sotuvchi bilan maslahatlashish, Mahsulotlarni tanlash.

2-sahna: tanlangan mahsulotlarni aravachaga solish, xazinachi tomon yurish.

3-sahna: xazinachidan hisob-kitobni so'rash, Pulni to'lash, chekni olish, Do'kondan chiqib ketish. Ko'rinib turibdiki, har bir harakat bir-biri bilan sabab bog'lanishiga ega, Ya'ni oldingi harakat keyingisiga shart-sharoit tayyorlaydi. Odatda, kompyuter Tilshunosligida stsenariylarga ajratish uslubi asosan matn qurilishi tahlilida qo'llaniladi. Stsenariy tarkibidagi «sahna» - atrof - muhit, voqelikning alohida bir qismi. Bir paytning o'zida qabul qilinayotgan axborotning miqdori chegaralangan bo'lishi kyerak. Bu hissiyot va idrok organlarining imkoniyati va talabidir. Aks holda, inson o'z diqqatini alohida bir ob'ektga yo'naltira olmaydi, parishonxotirlik yuzaga keladi. Alohida diqqat paytida yuzaga keladigan obraz kechayotgan voqelikning ma'lum bir sahnasi uchun asos bo'ladi. Ajratilayotgan har bir sahna («do'konga kirish», «mahsulot tanlash», «hisob-kitob» kabilar) umumlashgan kognitiv strukturalar (stsenariy, skript, kontsept kabilar) uchun o'ziga xos «qurilish material» vazifasini o'taydi. Ayni paytda, harakatdagi voqelik bo'lagini ifodalovchi sahna, kontsept shakllanishida ishtirok etishi bilan birgalikda, o'zi ham ushbu ishtirok jarayonida umumlashavyeradi va kognitiv birlik darajasiga ko'tariladi.

Sankt-Petyerburg davlat pedagogika univyersiteti «Nutq statistikasi» laboratoriyasining professori V.Ya.shabes kichik kognitiv birliklar obraz, stsena hamda kontsept hodisalari o'rtasidagi munosabatlarning dialektik xususiyatini quyidagicha ta'riflaydi: «Agar obraz nisbatan yakkalik, noyoblik xususiyatiga hamda bevosita sahna bilan bog'liqlik xususiyatiga ega bo'lsa, kontsept to'liq bir obrazlar sinfining umumiy va muhim xususiyatlarining umumiy majmuasidir» (shabes 1989: 18). Bu esa xususiylik va konkretlikning umumiylik va mavhumlikka bo'lgan munosabatiga o'xshaydi. Voqealarning tafakkurdagi idroki shaklini aks ettiruvchi kontseptning stsenariy tuzilishini qoliplashtirishda bajarilayotgan harakat strukturaviy markaz vazifasini o'taydi. Yoritilayotgan voqelikning boshqa bo'laklari ushbu markaz bilan maqsadli munosabatlar asosida bog'lanadilar. Munosabatlarning maqsad va mazmundagi farqiga nisbatan voqea tuzilmasi bo'laklarining semantik rollari farqlanadi. J.Fillmorning qayd etishicha, semantik rollar (semantic roles) kechayotgan voqea stsenariysining xotirada aks etgan strukturasi (Fillmore 1968). U actor (aktyor – harakat sub'ekti), recipient (retsipient–harakatni qabul qiluvchi), instrument (instrument – vosita - harakat quroli), objekt (ob'ekt – harakat ob'ekti), reason (sabab), aim (maqsad), place (makon), time (zamon) kabi 8 turdagi semantik rolni farqlashni taklif qiladi. Keyinchalik, semantik rollarni nomlash va ularning soni haqida turlicha fikrlar bildirilib (masalan, P. Lindsey va D. Norman ularning sonini 11 taga etkazishdi: Lindsey, Norman 1974), har bir munosabatning yuzaga kelishi hamda mental tuzilmalarda tutgan o'rnini o'rganishning lisoniy tafakkurning psixologik mantiqiy asoslarini yoritishda muhimligi e'tirof etib kelinmoqda (Qarang: Kubryakova, Pankrats 1985; Safarov 1983). Kognitiv Tilshunoslik yo'nalishining asoschilaridan biri Ronald Lancager (Lancager, 1991) semantik rollar majmuasini role archetypes – rollar namunasi to'plami sifatida qarashni taklif qiladi. Uningcha, rollar lisoniy hodisa bo'lishdan ko'ra, ko'proq kognitiv mohiyatdagi vositadir. Bu namunalar bizning voqelik bilan muloqotimiz natijasida hosil bo'ladigan tajriba asosida yuzaga keladi. Tajribadan ma'lumki, biz shaxslar va predmetlarni harakatga unday olamiz (harakat agenti – bajaruvchisi), shuningdek, predmetlar tashqi kuch ta'sirida o'z holati, o'rnini o'zgartirishi mumkin (patsient – ishtirokchi) va hokazo. Namunaviy rollar, xuddi barcha kognitiv kategoriyalar singari, yaqqol farqlanib turadigan kategoriyalar qatoriga kirmaydilar. Ularni tadrijiy hodisalar qatoriga kiritish ma'qulroq. Bu kategoriyalarni R.Lancager aytganidek, «san'at muzeyidagi haykallar qatoriga o'xshatmasdan, balki tog'ning eng baland cho'qqisiga o'xshatish lozim» (Lancager 1991: 285). Har holda namunaviy kognitiv strukturalarning barchasi, katta yoki kichikligidan qat'iy nazar, xotirada jamlangan axborotni maqsadli namoyon qilish vazifasini o'taydilar. Ular tizimida bilish harakatlarining ketmakteligi, axborotning tizimiy xususiyatlari o'z aksini topadi.

### **11-mavzu. Sarlavha**

Sarlavhaning matnning kontseptual dunyo tasvirini namoyon etishdagi ahamiyati.

#### **Merkmale einer guten Inhaltsangabe**

☐ Textsorte: Der Schüler ist in der Lage die Textsorte zu bestimmen. Dafür sollte er die verschiedenen Formen von Prosatexten kennen und definieren können. Kenntnisse über literarische Kleinformen (Anekdote, Kurzgeschichte, Kalendergeschichten, Novelle, Parabel) und Großformen (Roman, Schwank) müssen da sein. Der Schüler hat sich auf die Benennung des vorliegenden Textes zu beschränken und darf nicht sein ganzes Wissen über die noch anderen existierenden Textsorten niederschreiben. Eine Inhaltsangabe ist keine Wissensabfrage.

☐ Zeitform: Die Inhaltsangabe ist immer im Präsens zu schreiben. Die Wahl der Vergangenheitsform ist in diesem Fall ein Fehler

☐ W-Fragen: wer, was, wann, wo, warum, wie, wozu – diese Fragen gehören in den Hauptteil der Inhaltsangabe

☐ Inhalt mit eigenen Worten wiedergeben: Es ist wichtig, dass eine leicht verständliche Sprache gewählt wird, damit auch ein Leser, der die Geschichte nicht kennt, die Inhaltsangabe versteht und einen guten Überblick über die Geschichte bekommt. Der Schüler sollte fähig sein, die Inhaltsangabe in eigenen Worten wiederzugeben.

☐ Indirekte Rede verwenden: Es sind keine Zitate zu verwenden. Jedes direkte Wort ist ein Fehler. Die direkte Rede ist in indirekter Rede wiederzugeben

☐ Reihenfolge: Das Geschehen bzw. die Handlung der Geschichte ist in einer Inhaltswiedergabe grundsätzlich in chronologischer Reihenfolge zusammenzufassen.

☐ Länge: Die Länge der Inhaltsangabe wird häufig vom Lehrer angegeben. Der Schüler sollte darauf achten, dass die Einleitung und der Schluss der Inhaltsangabe kurz gehalten ist. Sie dürfen nicht länger oder genauso lang wie der Hauptteil sein.

### **Checkliste für eine gute Inhaltsangabe**

#### **Checkliste für die Einleitung**

☐ Textart

☐ Quelle: Autor, Titel, Erscheinungsort, Erscheinungszeit

☐ Inhalt/Thema/Kernaussage des Textes in ein bis zwei Sätzen wiedergeben

#### **Checkliste für den Hauptteil**

☐ Beantwortung der W-Fragen

☐ Wesentlichen Merkmale der äußeren und inneren Handlung aufschreiben

☐ Inhaltsangaben immer chronologisch schreiben, also in der Reihenfolge, in der die Handlung passiert.

☐ Inhaltsangaben werden grundsätzlich im Präsens geschrieben

☐ Ergebnis der Handlung

#### **Checkliste für den Schlussteil**

☐ eigene Meinung kurz darstellen

☐ sprachliche Auffälligkeiten der Geschichte erwähnen, wenn es welche gibt

☐ Lehrer fragen, ob Schlussteil für Inhaltsangabe geschrieben werden soll

#### **Häufig gemachte Fehler**

☐ Eine Inhaltsangabe in der Vergangenheit zu schreiben ist falsch. **Falsch:** Der Mann und die Frau trafen sich vor einem Supermarkt. **Richtig:** Der Mann und die Frau treffen sich vor einem Supermarkt.

☐ In eine Inhaltsangabe gehören keine Details. Falsch: Der Mann, der einen feinen dunkelblauen Anzug mit Krawatte trug, traf die Frau vor dem Supermarkt. Richtig: Der Mann traf die Frau vor dem Supermarkt.

☐ Keine Wiedergabe direkter Rede. Falsch: Er fragte: "Darf ich Ihnen ein Kompliment machen?" Richtig: Auf die Frage, ob er ihr ein Kompliment machen dürfe...

☐ Einleitung und Schluss werden zu lang gehalten

☐ Die Handlungen werden nicht chronologisch erzählt

Schritte der Textanalyse und -interpretation: Inhaltswiedergabe und sprachlich-formale Analyse und Interpretation epischer Kurzformen

1. Lies den Text und markiere auffällige Wörter, unklare Begriffe, wichtige Stellen der Handlung.

2. Notiere deine ersten Eindrücke und Assoziationen auf einem extra Notizzettel. Achte dabei auch auf die Überschrift sowie Hinweise auf Autor, Erscheinungsjahr, Textsorte.

3. Gliedere den Text in Sinnabschnitte und gib diesen Zwischenüberschriften.

4. Lege dir Notizen zur Personenkonstellation, der Erzählperspektive, dem Spannungsaufbau (falls vorhanden), Anfang und Ende, dem Verhältnis von erzählter Zeit und Erzählzeit, dem Ort der Handlung, dem Sprachstil und der Erzählzeit. Achte auf auffällige Adjektive und Verben, z.B. Verben der Bewegung oder des Stillstands. Markiere im Text mögliche spätere Zitate.

5. Lies die Aufgabenstellung und notiere dir notwendige Arbeitsschritte für eine mögliche Gliederung der Analyse und Interpretation. Beziehe hierfür auch dein Hintergrundwissen aus dem Unterricht mit ein.

6. Formuliere eine Einleitung, in der du Autor, Titel, Erscheinungsjahr, Textsorte und Thema des Textes benennst. Achte von nun auf sinnvolle Absätze bis zum Ende deiner Ausführungen.

7. Formuliere deine Interpretationshypothese.

8. Formuliere einen Überleitungssatz zur Wiedergabe des Inhalts. Diesen solltest du knapp (Beantwortung der W-Fragen), sachlich, im Präsens und nur in indirekter Rede wiedergeben. Orientiere dich dabei an den Sinnabschnitten und Zwischenüberschriften auf deinem Notizblatt, habe aber auch den Mut, den Schluss einer Parabel, einer Kurzgeschichte usw. vorwegzunehmen - du sollst die Geschichte ja eben nicht „spannend nacherzählen“, sondern sachlich erläutern.

9. Benenne auffällige sprachliche Mittel (Stilmittel), die Stilebene des Textes (umgangssprachlich? jugendsprachlich? gehoben? Fachsprache? usw.), achte auf Satzbau und Ausdruck des Textes. Verweise auf treffende wörtliche oder indirekte Zitate („vgl. ...“). Gib jeweils die Wirkung dieser sprachlichen Mittel an, beziehe dich dabei immer wieder auf die eingangs formulierte Interpretationshypothese.

10. Weise nach, um welche Textsorte es sich handelt. Belege auch diese durch passende Zitate und interpretiere ihre Wirkung im Hinblick auf deine Interpretationshypothese.

11. Formuliere im Schlusswort ein Resümee der wichtigsten Erkenntnisse, bestätige deine Interpretationshypothese und nimm - wenn du magst - Stellung zur Geschichte. 12. Lies den fertigen Text Korrektur- achte auf Aufbau, Vollständigkeit (Vergleich zum Notizblatt!), Rechtschreibung und Zeichensetzung

## 12 Die Schritte der Textanalyse

### 12.1 Grobstrukturelle und Feinanalyse

Die Analyse des transkribierten Texts beginnt mit einer makroskopischen, auf strukturelle Aspekte gerichteten Perspektive und geht dann zu einer mikroskopischen Betrachtung der lokalen Identitätskonstitution über. Der erste Schritt (Kap. 12.2) besteht in einer Erarbeitung der Grobstruktur des Interviewtexts. Dabei untersuchen wir mit Hilfe erzählanalytischer Beschreibungskategorien, wie der Erzähler seinen Text aufgebaut hat, d.h. wie er seine Themenabfolge und -darbietung in Segmenten organisiert. Im nächsten Schritt (Kap. 12.3) wenden wir uns der mikroskopischen Betrachtungsweise zu, d.h. wir analysieren die pragmatisch-rhetorische Feinarbeit des Erzählers anhand kleinflächiger Textphänomene. Grobstrukturelle Analyse: Gliederung in Erzählsegmente Thematische I sequentielle Gliederung Sequenzübergreifende Phänomene Feinanalyse: Wort-für-Wort-Analyse pragmatisch-rhetorische Aspekte von interaktiver Wirklichkeitsherstellung Textlokale Phänomene Abb. 10 Wechsel zwischen struktureller und Feinanalyse Der Gang der Analyse lässt sich, wie der gerade Pfeil im Diagramm symbolisiert, als Weg von der Grobgliederung zum Kleinflächigen beschreiben. Der untere Pfeilbogen deutet aber an, dass feinanalytisch heraus zu arbeitende Aspekte des Texts wiederum zur strukturellen Betrachtungsweise beitragen. So bedürfen die inhaltliche Bestimmung von Segmenten und die Identifikation ihrer Grenzen oft feinanalytischer Überlegungen. Die Feinanalyse führt G. Lucius-Hoene et al., Rekonstruktion narrativer Identität © Springer Fachmedien Wiesbaden 2002 318 Teil C: Praxis der Textanalyse daher oft zur Präzisierung und Korrektur der grobstrukturellen Ergebnisse. Im letzten Schritt (Kap. 12.5) werden die Ergebnisse aufeinander bezogen und zu einer Fallstruktur zusammengefügt An verschiedenen Stellen des Auswertungsprozesses stellen sich immer wieder bestimmte Aufgaben und arbeitsorganisatorische Fragen, die wir in Kapitel 12.4 diskutieren.

### 12.2 Die strukturelle Textanalyse

#### 12.2.1 Die Segmentierung des Gesamttexts

Im ersten Schritt wird das gesamte Transkript nach strukturellen Merkmalen in Segmente gegliedert. Die Grundlagen der Textsegmentierung sind in Kapitel 6 und 7 beschrieben. Zunächst ist der Text entsprechend seiner Erzähldynamik in Abschnitte zu teilen. Die Segmentierung dient der Aufdeckung der narrativen Gliederung, d.h. der Zusammenhänge, Sprünge, Wiederaufnahmen und Untergliederungen im Verlauf der Erzählung. → Rekonstruieren Sie, aus welchen Darstellungssegmenten das Transkript besteht. Achten Sie dabei besonders auf die Segmentgrenzen, d.h. Markierungen der Eröffnung und Beendigung von Abschnitten und des Übergangs zwischen ihnen (Kap. 6.1 ). Die Segmentierung kann sich vor allem nach folgenden Gliederungsprinzipien richten: • lebenszeitliche

Einschnitte (Kap. 6.1 ), • thematische Wechsel (Kap. 6.3), • Wechsel im zeitlichen Auflösungsgrad des Textes (Kap. 6.2), • Wechsel der vorherrschenden Textsorte (Kap. 7). -+ Suchen Sie zunächst Texteinheiten, die größeren lebenszeitlichen, thematischen, Ereignis- oder Handlungsabschnitten entsprechen, und bestimmen Sie ihre Grenzen. -+ Identifizieren Sie anschließend innerhalb der größeren Segmente (z.B. eines lebensgeschichtlichen Abschnitts) Subsegmente, die eine Binnengliederung darstellen (z.B. die Abfolge verschiedener Textsorten). Diese Analyse der Binnengliederung sollte noch nicht in die Details eines Textabschnitts gehen. Eine feinkörnigere Analyse bleibt dem nächsten Arbeitsschritt vorbehalten. -+ Untersuchen Sie, ob sich im Text Haupt- und Nebenerzähllinien erkennen lassen. Analysieren Sie die Gliederungsverhältnisse der Segmente, d.h. ihre Abfolge-, Über- bzw. Unterordnungs- und Einschlussverhältnisse (Kap. 6.1.3). Verschaffen Sie sich so einen Überblick über die Grobstruktur der Gesamterzählung und dokumentieren Sie diese stichwortartig

### **12-mavzu. Matn tahlili metodlari**

Lingvistik sharxlash (kontekstual ma'nolar tahlili, denotativ va konnotativ ma'nolar birikishi tahlili, matn birliklarini, ularning lug'atdagi ma'nolari bilan solishtirish).

**1.Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari (printsiplari). Badiiy matnning lingvoepik tahlili metodologik usullari.**

2.Tahlil tiplari (tematik, kompleks) va turlari (lingvistik, stilistik va adabiy tahlillar).

**Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:**

Metodologiya, metod, tamoyil, usul, shakl va mazmun birligi tamoyili, makon va zamon birligi tamoyili, xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili, ilmiy mushohada usuli, lisoniy tabdil usuli, matn variantlarini qiyoslash usuli, lug'atlarga asoslanish usuli. Xususiy (tematik) tahlil. Umumiy (kompleks) tahlil. Lingvistik tahlil. Stilistik tahlil. Adabiy tahlil.

**Mavzuga oid asosiy muammolar:**

1. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillarining qaysi biri asosiy hisoblanadi?
2. Badiiy matnning lingvoepik tahlili metodologik usullari haqidagi turlicha fikrlarga qanday qaraysiz?
- 3 "Badiiy matnning lingvistik tahlili"ga yana qanday tahlil tiplarini qo'shsa bo'ladi?
4. Adabiy tahlil haqida yana qanday qo'shimcha fikrlaringiz bor?

**1-savol bo'yicha darsning asosiy maqsadi:**

Talabalarga badiiy matnning lingvoepik tahlili kursining metodologiyasini tushuntirish. shakl va mazmun birligi tamoyili haqida tasavvurga ega bo'lishdilariga erishish.Makon va zamon birligi tamoyili haqida tushuncha hosil qilish. Xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyilini izohlashga o'rgatish. Talabalarda lisoniy tabdil usuli haqida tasavvur o'yg'otish. Talabalarga matn variantlarini qiyoslash usulini anglatish. Lug'atlarga asoslanish usulini o'rgatish.

**Identiv o'quv maqsadlari:**

- 1..Lingvoepik tahlilning qanday tamoyil va usullari borligini tushunib oladi.

2. Mazkur kursning metodologiyasi qanday qonuniyatga asoslanishini anglab etadi.

3. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli haqida tasavvurga ega bo'ladi.

4. Lisoniy tabdil nima ekanligini anglab etadi.

5. Matn variantlarini qiyoslash usuli haqida tushunchaga ega bo'ladi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

Badiiy matnning lisoniy tahlili fanining metodologiyasi dialektik tafakkur qonuniyatlariga asoslanadi. Metodologiya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, **metodos**–yo'l, usul va **logos**–ta'limot demakdir. Boshqacha qilib aytganda, insonning nazariy va amaliy faoliyatini to'g'ri uyushtirish, tashkil etish haqidagi ta'limotdir. Dialektik tafakkur narsa va hodisalarning mohiyati ularning bir-biri bilan aloqadorligi va rivojlanishi falsafiy qonunlar, tushunchalar (kategoriyalar) tizimi yordamida ochib beradi. Dialektikaning qonun va tushunchalari voqelikdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqasini aks ettirib, insonda narsalarning mohiyatiga chuqur kirib borish va ongli tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Lekin mazkur qonuniyatlar muayyan badiiy asarga tatbiq qilinganida uning xususiy tomonlarini hisobga olish zarur. Shundan kelib chiqib, badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko'rilsa maqsadga muvofiq bo'ladi degan fikrdamiz:

1. shakl va mazmun birligi tamoyili.

2. Makon va zamon birligi tamoyili.

3. Xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili.

Tahlil usullari sifatida esa quyidagilar e'tirof etiladi:

1. Lisoniy tabdil usuli.

2. Matn variantlarini qiyoslash usuli.

3. Lug'atlarga asoslanish usuli.

4. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli.

**1. shakl va mazmun birligi tamoyili.** Borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish turlaridan biri shakl va mazmunning dialektikasidir. shakl va mazmunning dialektik birligi tushunchasi har qanday matn uchun zaruriy xususiyat hisoblanadi. Faylasuflar mazmunga «muayyan narsa va hodisalarni tavsiflovchi ichki elementlar va o'zgarishlarning majmui» deb baho beradilar. shaklni esa «mazmunni ifodalash usuli, tashkil etuvchisi» sifatida talqin qiladilar. shakl va mazmun bir-biri bilan shunday bog'lanib ketganki, birida sezilgan nuqson ikkinchisidagi butunlikka putur etkazishi mumkin. shakl va mazmun muvofiqligi buzilsa, muallifning niyati to'la namoyon bo'lmay qolishi turgan gap. Bunda asosiy e'tiborni matn va uning janr xususiyati o'rtasidagi muvozanatga qaratgan holda, matndagi lisoniy birliklarning matn tabiatiga mosligi masalasini ham diqqat markazidan qochirmaslik kerak. Masalan, qahramon ruhiyatidagi g'azablanish holatini ifodalashda siqiq jumlalarning ishlatilishi, dag'al va chet so'zlarning qo'llanishi kabilar ham mazkur tamoyil asosida tekshirilishi mumkin. yoki muallif nutqini ko'zdan kechiradigan bo'lsak ijobiy qahramon tasvirida ko'tarinki bir ruh, yorqin ranglar va yoqimli ifoda tarzini sezamiz. So'zlar ham shunga mos tanlanadi. Salbiy qahramon tasvirida esa buning teskarisini kuzatamiz. YUz-ifoda yoki fe'l-atvor tasvirida tund ranglar, bezgin ruh va yoqimsiz ifoda tarzi sezilib turadi. Insonning fe'l-atvori va qiyofasida ham ma'lum ma'noda muvofiqlikning bo'lishi tabiiy hol. YOzuvchilar badiiy asar yaratishda bu

muvofiqlikni yana-da bo'rttirib, yana-data'kidlab ifodalashga harakat qiladilar. shu orqali asarning ishonarliligini ta'minlaydi hamda kitobxon munosabatini shakllantirib boradi. Mavzu bilan tanlangan janr o'rtasidagi moslik shakl va mazmun birligi tamoyilining asosiy tekshirish ob'ektlaridan hisoblanadi.

**2.Makon va zamon birligi tamoyili.** Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib Yondashish kyerak. Har qanday asar davr va makon bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tarixiy mavzudagi asar tilida muayyan zamon ruhini tashuvchi voqealarning qaysi makonda, qanday muhitda yuz byerayotganini oydinlashtiruvchi leksik-grammatik birliklar ishtirok etadi. Makon va zamon birligi tushunchasi badiiy asargagina xos belgi emas. U har qanday matn ko'rinishiga taalluqlidir. Ushbu tamoyil asosida tahlil olib borilayotganda matn yozilgan davr, matnda ko'tarilgan mavzu va matn birliklarining tabiatiga qarab diaxron va sinxron aspektlardan biri tanlanishi kyerak. Buni yirik so'z san'atkori Abdulla Qahhor hikoyasidan olingan quyidagi parcha asosida ko'zdan kechiramiz:

*-Ha, sigiring yo'qoldimi?*

*-Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.*

*-Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?*

*-Ola ho'kiz...*

*-Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?*

*-Qo'sh mahali...*

*-Yaxshi ho'kiz birov etaklasa ketabyeradimi?*

*-Bisotimda hech narsa yo'q...*

*-O'zi qaytib kelmasmikin?... Birov olib ketsa qaytib kela byer, deb qo'yilmagan ekan-da. Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! (Tanlangan asarlar. 1-tom. 33-bet).* Bu suhbat qayerda, qaysi davrda, qanday odamlar o'rtasida bo'lib o'tayotganligini keltirilgan ushbu kichik parchadan ham bilsa bo'ladi. Savol ham qisqa, javob ham. Savol byerish tarzida kibr, mensimaslik, voqelikka arzimas bir narsaga qarayotgandek beparvo munosabat seziladi. Piching, kesatiq va masxara ohangi aniq aks etgan. Javobdan esa qahramonning soddaligi, faqirligi anglashiladi. Suhbat amin huzurida bo'lib o'tyapti. shunga muvofiq rasmiy nutq elementlaridan foydalanilgan.

**3.Xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili.** Har bir til hodisasi muayyan matnda alohida – alohida olib o'rganiladi, izohlanadi va shu asosda umumlashtiriladi. Badiiy asarda tilga olingan detallar asarning umumiy ruhiga yoki davr ruhiga qay darajada mos kelishi aniqlanadi. qahramon dunyoqarashi uning nutqida qay darajada aks etgan? Asar ishtirokchilarining dialoglari monologlari badiiylik talablariga javob byeradimi? Umuman, asardagi xususiy holatlar asarning butuniga aloqadormi, yo'qmi kabi holatlar aniqlanadi. «Mavzu, janr, uslub va tilga xos umumiy belgilar hamda muallif individualligiga xos xususiy belgilarning matnda namoyon bo'lishini izohlash»<sup>85</sup> ham shu tamoyil talablaridan hisoblanadi. Turli qatlamga xos so'zlarning badiiy matnda qo'llanishi bilan bog'liq tekshirishlar yoki qahramonlarning o'zlari mansub bo'lgan toifa tilidan qay darajada iste'foda qilishini o'rganish kabilarda xususiylikdan umumiylikka o'tish qonuniyati hisobga olinadi.

**1.Lisoniy tabdil usuli.** Tabdil – «almashtirish, o'zgartirish, o'rin almashtirish» degan ma'noni bildiradi. Ayrim adabiyotlarda o'zakdosh so'zlarning juft holda qo'llanishiga nisbatan ham ishlatilishi aytiladi.<sup>86</sup> Asar tilining badiiyligi, ishonarliligi, yozuvchining mualliflik mahoratini aniqlashda ushbu tahlil usuli natijalaridan foydalaniladi. Asarda qo'llanilgan so'z yoki iboralarni, jummalarni qayta tuzib ko'rish, o'xshashi bilan almashtirib ko'rish va shu asosda baho byerish nazarda

tutiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «Anor» hikoyasidagi mana bu misolga e'tibor

byering: «-Yo qudratingdan, indamaydi-ya!-dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab-mana, chaynab ko'r! Ko'rgin, bo'lmasa, innaykiyin degin...

Ayni o'rinda *narsa* so'zi emas, balki atayin *mato* so'zi qo'llangan. *Narsa* so'zi uslubiy jihatdan xolis, *mato* so'zi esa ayni ma'nosi bilan xolis emas, Ya'ni unda kamsitish bilan bog'liq ma'no qirrasini mavjud, bu ma'no qirrasini titkilab fe'l shakli bilan yana ham ta'kidlangan. Anorga boshqorog'i bo'lgan va erining anor olib kelishini intiq kutib o'tirgan xotin nazarida, bu-ku arining uyasi – mumli asal ekan, toza asalning o'zi ham *narsa* emas faqat *mato*. Hikoyaning umumiy intonatsiyasi, voqea rivoji ayni o'rinda *mato* so'zini boshqa sinonimi bilan almashtirishga imkon byermaydi.»<sup>87</sup>

Mahoratli adib Cho'lpon asarlaridan bunday holatlarni istaganicha topish mumkin. Masalan, o'zbek tilida o'ramoq, burkamoq, chulg'amoq, chirmamoq tarzidagi ma'nodosh so'zlar qatori mavjud bo'lib, burkamoq so'zida o'ramoq so'ziga nisbatan o'rash belgisi anchayin ortiq, Ya'ni uning ma'no qurilishida «hech bir ochiq joyini qoldirmay» degan qo'shimcha ifoda semasi mavjud. shuning uchun ham ushbu parchada Cho'lpon tegishli mazmun ifodasi uchun o'ramoq so'zini emas, balki ayni burkamoq so'zini tanlash orqali tasvirdagi aniqlik va ekspressivlikni oshirishga muvaffaq bo'lgan: *Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib etmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo'ltig'ini to'lg'azardi.* shuning uchun ham mazkur o'rindagi birliklarni sinonimi bilan yoki boshqa biror so'z bilan almashtirib bo'lmaydi. Almashtirilsa asar badiyatiga putur etadi.

<sup>85</sup> O'rinboev B. va b. O'sha asar, 16-bet.

<sup>86</sup> Ziyovuddinova M. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asarida poetika.-Toshkent, TDshl, 2001, 66-bet.

**2.Matn variantlarini qiyoslash usuli.** Bu usul orqali ma'lum asar matni boshqa variantlari bilan qiyoslanadi va lisoniy farqlarning mohiyati adib nuqtai nazari, badiiy-estetik niyati hamda asar g'oyasiga bog'lab yoritiladi. Yozuvchining badiiy asar tili ustida ishlashini o'rganishda, yozuvchi tuzatishlarni ayni bir mazmunni ifodalashga qaratilgan turli vositalarni aniqlashda va umuman yozuvchining tildan foydalanishdagi mahoratini belgilashda bu usul yaxshi samara byeradi. Masalan, «Navoiy» romanining qo'lyozmasida: -*Buvijon, - hayajonlanib so'zladi Dildor, - ko'rsangiz ayting, hech qanday yomon niyatda bo'lmasin, tinch yursin* (600-bet). Nashrda: – *Buvijon, - shivirladi u, - uni ko'rsangiz ayting, hech qanday yomon niyatda bo'lmasin, tinch yursin* (237-bet).

Bu epizodda suhbat Podshoh harami darvozasi Yonida yuz byeryapti. Vaziyat va ruhiy holat uyg'unligi ikkinchi variantda aniq ko'rinadi. yoki G'afur G'ulomning «shum bola» asari qahramoni – Qoravoyning yoshi dastlabki nashrda 17, keyingi nashrda 14 deb berilgan. Bunda ham qahramonning hatti – harakati va yoshi o'rtasida muvofiqlik hisobga olingan. Bu bevosita yozuvchining tuzatishlari. shunday holatlar bo'ladiki, asar matni noshirlar tomonidan yoki adabiyotshunoslar tarafidan atayin o'zgartiriladi. «O'tkan kunlar» romani bir necha o'zgartishlar bilan nashr etib kelingani ko'pchilikka ma'lum.

**3.Lug'atlarga asoslanish usuli.** Asar tili, ayniqsa tarixiy mavzudagi asar yoki tarjima asarlarining til xususiyatlari tekshirilayotgan paytda tegishli lug'atlarga murojaat qilish lozim bo'ladi. Masalan, «shayboniyxon» dostoni tilida qo'llanilgan

---

*gudar, savash, sovut, sodoq, g'ul, tuv, baydoq* kabi o'sha davr ruhiyatiga mos harbiy atamalar ma'nosini bilish asarni puxta o'rganishga yordam byeradi. Bu-ku bir necha yuz yil oldingi asar ekan, o'tgan asr boshlarida yozilgan asarlar uchun ham lug'at tuzish oddiy ehtiyojga aylanib bormoqda. Masalan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon kabi shoir va yozuvchilarning asarlari uchun maxsus, so'zlarning bevosita asarda reallashgan ma'nosiga asoslanib tuzilgan lug'atlar tayyorlanishi kyerak. «O'tkan kunlar»da har bir sahifa ostida ayrim tushunarsiz so'zlarning izohi byerib borilgan. Masalan, **utta** - *u yerda*; **siporish** - *topshiriq*; **muvofiquttab'** – *ta'bg'a mos, munosib*; **ashrof** – *e'tiborli kishi lar, ulug'lar*; **mushovir** - *maslahatchi*; **musohib** - *hamsuhbat* kabi. Va bu faqat mazkur asardagina emas, boshqalarida ham shunday. Lekin adibning barcha asarlarining tiliga bag'ishlangan maxsus lug'at tayyorlanishi lozim. J.Lapasovning «Badiiy matn va lisoniy tahlil» deb nomlangan qo'llanmasida muayyan bir badiiy matnning lug'atini tuzish bo'yicha namunalar hamda lug'at ustida ishlash bo'yicha muhim ko'rsatmalar byerilgan. Olim to'g'ri ta'kidlaganidek: «Badiiy matnning lisoniy tahlilini turli-tuman lug'atlarsiz tasavvur qilish qiyin. Lug'at ustida ishlash o'quvchi va talabalarning so'z boyligini, og'zaki va yozma nutqini o'stirishning eng muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi va shu lug'at yordamida nafaqat so'zlarning tub ma'nosini, balki ko'chma ma'nolari, har bir so'zning qaysi til unsuri ekanligi, etimologiyasi (so'zning kelib chiqish tarixi va tadrijiy rivoji), tarkibi, ba'zan esa grammatik shakli bilan yaqindan tanishiladi.»<sup>88</sup>

<sup>88</sup>Lapasov J. «Badiiy matn va lisoniy tahlil».-Toshkent, «O'qituvchi», 1995.

**4.Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli.** Badiiy matnning lingvopoetik tahlili jarayonida asardagi lisoniy birliklarning indeksini tuzib chiqish talab qilinadi. Buning

---

87 Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat.-Toshkent, «O'zbekiston», 1992.

uchun dastlab, asardagi eng ko'p qo'llanilgan, asar badiiyati uchun xarakterli bo'lgan birliklar (masalan, iboralar, sinonimlar, antonimlar yoki epitelli birikmalar, metonimiya, metaforalar bo'lishi mumkin) aniqlanadi. Keyin alifbo tartibida tyerib chiqiladi. Bu yozuvchining lisoniy mahoratini yoritishda faktik material vazifasini o'taydi. Masalan, mohir so'z san'atkori Abdulla Qahhorning

«Sarob» romanida qoʻllangan yuzdan ziyod ibora, metafora yoki metonimiyalarning indeksini quyidagi tarzda tuzib chiqishimiz mumkin: (5 jildlik. 1-jild. Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1987 yil).

**Iboralar:** *Aftini burishtirmoq* – qimirlasam, biqinim sanchadi, – dedi Saidiy xuddi hozir sanchadiganday aftini burishtirib. (41-bet)

*Boʻyniga olmoq* – Saidiy xayrlashib chiqdi, qishloqqa borishni boʻyniga olib qoʻydi. (83-bet)

*Dami ichiga tushmoq* – Saidiy Yoqubjonning aytganini qilganida Kenjaning dami ichiga tushdi. (124-bet)

*Oqizmay-tomizmay etkazmoq* – Soʻz oʻrni kelganda, u Saidiyda zakovat belgilari koʻrganini, bu yigit oddiy studentlardan Yuqori turishini soʻzlar, buni esa Munisxon oqizmay-tomizmay Saidiyga etkazar edi. (67-bet)

*Taʼbi ochilmoq* – U qishloqqa kelganida dastlab Yangi muhitga oʻrganolmay koʻp qiynalgan edi, ammo oʻrganganidan soʻng, taʼbi ochilib ketdi. (89-bet)

*YUragi dov byermaslik* – Munisxon paltosining yoqasini koʻtardi-yu, eshikdan chiqishga yuragi dov byermay, turib qoldi. (43-bet)

*Uhda qilolmaslik* – shef bilan ishlab ham uhda qilolmayotirsizmi? (82-bet)

*Quloq bermoq* – Qiz uning soʻziga oʻzi ustidan chiqarilgan hukmni tinglaganday quloq byerar edi. (35-bet)

**Metaforalar:**

*shervachcha* – Assalomu alaykum, shyervachcha, – dedi bir kekxa tovush va bu tovushning egasidan ilgari «toʻq» etib hassa kirdi.(88-bet) – shervachcha, – dedi chol ikkala qoʻlini koʻkragiga qoʻyib, xirillab, - gazetaga byersalar... (89-bet)

*Dori* – Yo bosh ogʻrigʻini dori bilan bosaylikmi? Bir ryumka-bir ryumka... (129-bet)

*YAqinlik iplari* – Bora-bora ikki oradagi Ehson tugʻdirgan yaqinlik iplari uzila boshladi. (42-bet)

*Toʻngak* - «Toʻngak» bilan professor oʻrtasida oʻtgan bu gap butun univyersitetga dovruq boʻldi. (43-bet)

**Metonimiyalar:**

*Zal* – Yana qarsak zalni koʻtarguday boʻldi.(94-b.) Butun zal domlaga qaradi (94-b.)

*Katta, mayda* – U «katta» yozish uchun avval «mayda» bilan oʻquvchi orttirish kyerak, dedi. (136-bet)

*Oshiqlar* – Xususan, Kenja Saidiyning «Oshiqlar»i ochiqdan-ochiq shoʻro hukumatining xotin-qizlar ozodligi toʻgʻrisidagi siyosatiga zarba byerish, (...) Abbasxonning oʻzi tasalliga muhtoj boʻlib qoldi. (139-bet)

*Fakultet* – Fakultetni tashlashga oʻzingizda bu qadar majburiyat sezsangiz noiloj davom etmang, Chunki bu narsa fakultetdan haydalishtirishga olib keladi. (106-bet)

*Firqa* – shunda, albatta firqa koʻrsatgan yoʻldan boramiz. (94-bet)

*Univyersitet* – Univyersitet chaqirtirayotir. (91-bet) «Toʻngak» bilan professor oʻrtasida oʻtgan bu gap butun univyersitetga dovruq boʻldi. (43-bet)

*shisha* – Buni esa koʻproq shisha osonlashtiradi. (112-bet) 94

**Muhokama uchun savollar:**

1. Badiiy matnning lingvoepik tahlili kursining metodologiyasi qanday qonuniyatlariga asoslanadi?
2. Shakl va mazmun birligi tamoyili haqida tushuncha byering.
3. Makon va zamon birligi tamoyili tarixiy asarlar tahlilida qanday rol o'ynaydi?
4. Xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili haqida nimalar deya olasiz?
5. Mazkur kursning metodologiyasi qanday qonuniyatga asoslanadi?
6. Lingvoepik tahlilning qanday tamoyil va usullari bor?
7. Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli deb nimaga aytiladi?
8. Lisoniy tabdil deganda nimani tushunasiz?
9. Matn variantlarini qiyoslash usuli deb nimaga aytiladi?

### **2-savol bo'yicha darsning maqsadi:**

Talabalarda lingvistik, stilistik (biri fonografik-uslubiy tahlildir) va adabiy tahlillar haqida tushuncha hosil qilish. Matnni uslubiy (badiiy san'at turlarining qo'llanilishi) jihatdan tahlil qilish haqida tasavvurga ega bo'lish. Lingvistik nazariya, til tizimi va tarixi faktlariga asoslangan filologik tahlilni ham o'rgatish. Talabalarga tahlil tiplari haqida tushuncha byerish. Tematik va kompleks tahlillar haqida tasavvur hosil qilish.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Lug'atlarga asoslanish usuli haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi.
2. Tematik tahlilni tushuntirib byera oladi.
3. Kompleks tahlilning "Badiiy matnning lingvistik tahlili" fanida tutgan o'рни va rolga baho byeradi.
1. Tahlil tiplariga asoslanib ish ko'ruvchi tahlil turlari haqida tasavvurga ega bo'ladi.
2. Lingvistik tahlil turlarini izohlay oladi.
3. Matn tahliliga bag'ishlangan darslarni tashkil qilish masalalariga e'tibor byerishni o'rganadi.

### **2-asosiy savolning bayoni:**

Tahlil tiplari (tematik, kompleks) va turlari (lingvistik, stilistik va adabiy tahlillar).

Til vositalarini saralash ustidan nazorat qilib borish matn tahlilining aspektlaridan biri. Ana shu aspekt asosida til birliklarini badiiy adabiyot uslubida tanlash imkoniyatlari ham har xil bo'ladi. Turli tip matnlardagi til ifoda vositalarining tanalanishi va qo'llanishidagi potentsial hamda amaliy imkoniyatlarni kuzatish-tekshirish chiqish tahlilning maqsad va vazifasini belgilaydi. Maqsadi, printsipi va qamrov hajmi jihatidan tahlil tiplari ham har xil bo'ladi: xususiy (tematik) va umumiy (kompleks).

**Xususiy (tematik) tahlil**da matnning ma'lum bir qismini yoki to'liq matnni tilning bir jihatiga: yo badiiy tasvir vositalariga yoki obrazlar tizimiga e'tibor qaratiladi. 95

**Umumiy (kompleks) tahlil**da tilning barcha sohalariga xos birliklar va ularning konkret qo'llanishi matnning g'oyaviy-tematik mazmuni, janri va strukturasi bilan o'zaro bog'liqlikda olib o'rganiladi.

Badiiy matnni tahlil qilishning tamoyil va usullari bo'lganidek, o'ziga xos tiplari ham mavjud. Tahlilning maqsadi, yo'nalishi va qamrovini asar hajmi jihatini hisobga olib ikkiga ajratish mumkin: **tematik va kompleks tahlil**.

**1. Tematik tahlil** deganda, biror bir badiiy asarni tilning bir jihati bo'yicha va ma'lum tamoyil, usullar bo'yicha tahlil qilish nazarda tutiladi. Tematik tahlil asosan, til sathlaridan biri bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan, Cho'lponning «Kecha va kunduz» nomli romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz, deylik. Asardagi lug'aviy birliklar (ayrim so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib olinadi. Lug'aviy birliklar asar badiyatiga qay darajada xizmat qilishi, an'anaviy yoki individual ekanligi aniqlanadi. Matn komponentlarini birikish usullari alohida o'rganiladi. Matn tiplari va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**2. Kompleks tahlil.** Tilning barcha sohalariga xos birliklar va ularning muayyan bir asarda qo'llanishini matnning umumiy mazmuni, janri, tarkibiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liklikda olib o'rganish kompleks tahlilning asosini tashkil etadi. Bu xildagi tahlil umumfilologik yo'nalish, mazmun va xarakter kasb etadi. shuning uchun matnni tahlil qilishdan avval adabiyotshunoslik va Tilshunoslik bilan aloqador sohalarning tamal qonuniyatlaridan albatta xabardor bo'lishimiz kyerak. Bunday tahlil xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyiliga muvofiq olib boriladi. Kompleks tahlil biror bir ijodkorga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday tahlilni bir asarni turli sathlar bo'yicha yoki bir necha asarni bir sath bo'yicha o'tkazish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani lingvopoetikasi (til sathlari bo'yicha). yoki Abdulla Qodiriy asarlari lingvopoetikasi. Bunda adib qalamiga mansub barcha asarlarning lisoniy xususiyatlari tekshiriladi va natijalar umumlashtirib tahlilga tortiladi. Bu oson ish emas. shuningdek, bir yoki ikki kishi ning ishi ham emas. Adib asarlarini har taraflama tekshirish, tahlil qilish, shu kungacha qilingan barcha ishlarni bir joyga to'plash, tasniflash, indeksli ma'lumotlar bazasini yaratish, zaruriy lug'atlarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirish jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan lingvopoetikaning faoliyat doirasiga kiradi. Adabiyotshunoslikda B.Frantsning V.shekspir asarlari tiliga bag'ishlangan «shakespeare grammatik» deb atalgan yirik hajmli asari alohida e'tiborga molik ish sifatida e'tirof qilinadi. Unda shoir ijodi tilning barcha sathlari bo'yicha tahlilga tortiladi. shu bilan birga ijtimoiy tuzum, shoirning falsafiy dunyoqarashi, hayot tarzi, shoir zamondoshlarining shoirga munosabati yoki shoirning o'z zamondoshlariga munosabati davr bilan bog'liq estetik tafakkur tarzi va hokazolar haqida ham ma'lumotlar byerib boriladi. Mazkur tadqiqotdan faqatgina shoir asarlarining tili emas, balki o'sha davr tili haqida ham noyob ma'lumotlarni olish mumkin. Lekin shuni unutmaslik kyerakki, badiiy asar tom ma'noda estetik voqelikdir. Uni tematik tahlil qilamizmi, kompleks tahlil qilamizmi bundan qat'i nazar, asarning estetik hodisa sifatidagi mohiyatini nazardan chetda qoldirmasligimiz kyerak.

Tahlil tiplariga asoslanib ish ko'ruvchi tahlil turlari (Lingvistik stilistik va adabiy tahlillar) haqida gap ketar ekan, avvalo shuni ta'kidlash kyerakki, matn - Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, umuman filologiya fanining tekshirish ob'ekti sanaladi.

Biror matn Tilshunoslik fani nuqtai nazaridan tekshirilar ekan, diqqat adabiy til yaruslari-leksik, fonetik, morfologik va sintaktik birliklardan qay darajada foydalanganliklariga qaratiladi.

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan esa matnning janr xususiyatlari, shakl va mazmun, syujet va kompozitsiya, uslub va uslubiy vositalardan foydalangan

holda matnda davr ruhini obrazlar va til shakllari vositasida qanday aks ettirilgani tahlil qilinadi. Tahlil tiplariga asoslanib ish ko'ruvchi tahlil turlari ham har xil bo'ladi.

**Lingvistik tahlil** ham turli xil bo'ladi: a) matnning umumiy mazmunini oydinlashtirishda til ifoda vositalarini tanlash faktorlari va ularning matn tuzilishidagi rolini aniqlash. Mazmun-matnning til materiali jihatidan strukturasini belgilovchi yetakchi asos. Til ifoda vositalari: so'z, so'z shakllari, so'z birikmalari, gap tiplarining tanlanishi, qo'llanishi va uyushishini tahlil qilish nazarda tutiladi. Masalan, Alishyer Navoiyning "Farhod va shirin" dostonini o'rganish jarayonida eskirgan so'zlar va so'z shakllariga yo'l-yo'lakay izoh byerib boriladi; b) lingvistik nazariya, til tizimi va tarixi faktlariga asoslangan **filologik tahlil**. Adabiy uslub, janr, badiiy-estetik printsiplar, muallif shaxsi va uning nutqiy manyerasi va boshqalar matn til ifoda vositalarining tarkibi hamda qurilishini belgilovchi omillardir. Masalan, G'afur G'ulom she'riyatida tarixiy so'zlarning qo'llanishi sabablarini izohlash.

**Stilistik (uslubiy) tahlil**-matndagi badiiy tasvir vositalarini izohlash. Tasviriy vositalar har xil uslub va janrda qo'llanilib, u umumtilga hamda muallifga tegishli bo'lishi mumkin. Asarda ishtirok etayotgan qahramonning nutq qurilishi, tilining leksik tarkibi, uning xarakterini ochishda muhim vosita sanaladi. Masalan, Uyg'un o'zining "Jontemir" poemasi Jontemir xarakterini chizishda badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalanadi:

"Rang-barang chechaklar to'lg'anib, jozibali kulib boqqandir", "na bulut silkitmay oltin par", "mo'ylov burab, jilmayib tog'lar" (jonlantirish), "Nozli bulbullar, daydi ellar, kumush suvlar, shirin qo'shiq" (sifatlash); "Qirchillama sho'x yigitlarday, olmos kabi yaltirab asta, zuluk kabi so'rib qonini" (o'xshatish), "Na ko'kning fonari o'chmasdan, na yulduz sayr etib ko'chmasdan..." (istiora). Matndagi badiiy tasvir vositalarini izohlash stilistik(uslubiy jihatidan) tahlil deyiladi.

Matnning lingvistik tahlil usullaridan yana biri **fonografik-uslubiy** tahlildir. Bunday usuldagi tahlilda byerilgan matnning ayrim, alohida olingan so'zini yoki shu so'z tarkibidagi qo'shimchani lingvistik tahlil qilish mumkin. Bunday til elementlarining (xoh o'zak morfema, xoh affiksial morfema bo'lsin) matnda Yonma-Yon kelgan boshqa til elementiga munosabati va aloqasi asosga olinib tahlil qilingandagina real natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

CHog'ishtiring: Suhbatni eshiti-i-ib o'tir. Suhbatni eshiti-i-ib o'tirdim.

Ikkala matndagi "eshiti-i-ib" so'zining cho'zib talaffuz qilinganligi oxirgi bo'g'indagi "i" unli fonemasining ikkilantirib yozilganligi ko'rsatib turibdi, "eshitib" so'zining cho'ziq talaffuzi va uning "o'tir" va "o'tirdim" so'zlari bilan birikib kelgan bir butun holati ularning har biri o'z konnotativ ma'nolariga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

eshiti-i-ib o'tir

- 1) buyurish;
- 2) undash;
- 3) ta'kidlash;
- 4) ko'niktirish;
- 5) majburiylik;
- 6) mag'rurlik;
- 7) itoat qildirish;

eshiti-i-ib o'tirdim

- 1) rohatlanish;
- 2) ma'qullash;
- 3) mamnun bo'lish;
- 4) rozi bo'lish;
- 5) odob saqlash;
- 6) quloq solish;
- 7) ilhom olish;

- |                                |                                |
|--------------------------------|--------------------------------|
| 8) ma'qullash;                 | 8) chidash;                    |
| 9) tinchlantirish;             | 9) tan olish;                  |
| 10) tinchlanish;               | 10) bilim olish;               |
| 11) quloq soldirish;           | 11) qabul qilish;              |
| 12) gapirmaslik;               | 12) diqqat qilish;             |
| 13) diqqatini to'plash;        | 13) ma'naviy hordiq chiqarish; |
| 14) tushunishga undash va h.k. | 14) xursand bo'lish va h.k.    |

Bu usuldagi lingvistik tahlil talabani fikrlash doirasini kengaytiradi, shu bilan bir qatorda u har bir til elementining cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini sezadi va o'z nutqida unumli foydalanadi.

Ko'rinadiki, matn tahlilida so'zlarning yozilishiga va tovush ifodalanishiga, Ya'ni fonografiyasiga ham e'tibor byerish lozim. So'zning cho'ziqlik darajasini biror unlining so'zda ikki yoki undan ortiq yozilganligi bilan o'lchanadi. Agar bir unli tovush uch yoki undan ortiq ifoda bilan yozilgan bo'lsa, tovush cho'ziqligi ham ahuncha kuchli bo'ladi. Bu holat shu so'zdagi konnotativ ma'noga ta'sir qiladi va uni o'zgartiradi. Bunga yuqorida qayd etilgan "eshitib" so'zida qayd qilingan "i" unlisi to'la misol bo'la oladi.

**Adabiy tahlil**-matn tahlilining murakkab turlaridan bo'lib, bunda xilma-xil vazifalar bajariladi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning barcha xususiyatlarini o'rganishdir.

Badiiy matnda kishi larning munosabatlari va shu munosabatlar doirasida bir-biri bilan bog'langan kishi lar hayotining ma'lum davrdagi voqealari tasvirlanadi. Bu voqealarda davrning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy hayoti o'z aksini topadi. Matnning adabiy tahlilida quyidagi masalalarga alohida e'tibor byerilishi lozim:

1. Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka yozuvchining munosabati aniqlanadi. Masalan Alishyer Navoiyning "Farhod va shirin" dostonida olijanob fazilatlarni ulug'lash, adolat va xalqparvarlik, do'stlik va qahramonlik, muhabbat erkinligi va unga sadoqat asar g'oyaviy mazmunini tashkil qiladi. Asarda Xisrav, shyeruya, Yosumon kabi yovuz kuchlar bilan Farhod, shirin, Mehinbonular o'rtasidagi kurash ko'rsatiladi. shoir Farhod, Mehinbonu, shirinlarning barcha harakatlariga xayrixohlik bildiradi. shohni adolatli bo'lishga undash g'oyasini ilgari suradi.

2. Tahlilda asarning mazmuniga ham, shakliga ham ahamiyat byerish va mazmunning yetakchi rolini ta'kidlab o'tish zarur.

3. Asar tahlilida obrazlar asarning umumiy mazmuni bilan bog'liq holda o'rganiladi.

4. Asar syujeti va kompozitsiyasini o'rganish ham adabiy tahlilning asosiy vazifasidir.

**Adabiy tahlil** –badiiy asardagi mavzu, obraz, til, kompozitsiya muayyan g'oyani ifodalaydi. Mavzu va g'oyaning aktualigi va xalqchilligi, mazmun va shaklning o'zaro mosligi, obrazning tipikligi va haqqoniyligi, syujet va kompozitsiyaning pishiqligi, badiiy tilning tasviriyligi va ekspressivligi-adabiy tahlil jarayonida aniqlanadi.

Matn tahlilida tahlilning yuqoridagi u yoki bu turidan foydalaniladi. Matnni sharhlash orqaliso'z va so'z shakllari, badiiy tasvir vositalarining asar g'oyaviy va estetik mazmunini oshirishdagi roli izohlanadi. Matnni sharhlashda lingvistik aspekt asosiy o'rinni egallaydi. U an'anaviy adabiy tahlilda ham

yetakchi sanaladi, chunki u matnning estetik strukturasi va badiiy tasvir vositalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Tahlil tiplari va badiiy matnni lingvistik sharhlash aspektlari munosabatini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

1. Tahlil lingvistik, stilistik va adabiy bo'ladi, ular bir-biri bilan bog'liq holda olib boriladi.

2. Badiiy matnni lingvistik sharhlashda tahlil aspektlari tahlil, sintez hamda asarning g'oyaviy mazmuni va poetikasini izohlashga xizmat qiladi.

Turli darajada qo'llanilgan til birliklarini aniqlash va tushuntirish hamda matndagi ekstralingvistik omillarni izohlash tahlilning vazifasi sanaladi. Voqelikning yaxlit bo'lagi bilan badiiy tasvir vositalari, obrazli so'zlar bilan asar kompozitsiyasining o'zaro ta'sirini aniqlash sintezning vazifasi sanaladi.

shunday qilib, badiiy matnni kompleks tahlil qilishda adabiy tahlil qo'l keladi, lekin filologik sharhlashda uning doirasi cheklangandir.

Xullas, matn tahliliga bag'ishlangan darslarni tashkil qilishda: matn tahlilining mazmuni va uzviy elementlari, uning umumiy sistemasi va takomillashib borishi, tahlil usullari kabi metodik masalalarga e'tibor byerish kyerak.

### **Muhokama uchun savollar:**

1. Lug'atlarga asoslanish usuli deb nimaga aytiladi?

2. Tematik tahlil deb nimaga aytiladi?

3. Kompleks tahlil deb nimaga aytiladi?

4. Biror bir ijodkorga bag'ishlangan tahlil qanday tahlil turiga kiradi?

5. Tahlil tiplariga asoslanib ish ko'ruvchi tahlil turlari qaysilar?

6. Lingvistik tahlilning qanday turlari bo'ladi?

7. Lingvistik nazariya, til tizimi va tarixi faktlariga asoslangan filologik tahlil qanday bo'ladi?

8. Matndagi badiiy tasvir vositalarini izohlash stilistik (uslubiy jihatidan) tahlil qilish tahlilning qanday turi sanaladi?

9. Qanday tahlil –badiiy asardagi mavzu, obraz, til, kompozitsiya muayyan g'oyani ifodalaydi?

10. Fonografik-uslubiy tahlil deganda nimani tushunasiz?

11. Qanday tahlilda so'zlarning yozilishi va tovushni cho'zib (ikkilantirib ) ifodalanishiga e'tibor byerish kyerak?

9. Matn tahliliga bag'ishlangan darslarni tashkil qilishda qanday masalalarga e'tibor byerish kyerak?

### **Mavzu bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:**

Badiiy matnni tahlil qilishning tamoyil va usullari bo'lganidek, o'ziga xos tiplari ham mavjud. Tahlilning maqsadi, yo'nalishi va qamrovini asar hajmi jihatini hisobga olib ikkiga ajratish mumkin: tematik va kompleks tahlil.

**1. Tematik tahlil** deganda, biror bir badiiy asarni tilning bir jihati bo'yicha va ma'lum tamoyil, usullar bo'yicha tahlil qilish nazarda tutiladi. Tematik tahlil asosan, til sathlaridan biri bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan, Cho'lponning «Kecha va kunduz» nomli romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz, deylik. Asardagi lug'aviy birliklar (ayrim so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib olinadi. Lug'aviy birliklar asar badiyatiga qay darajada xizmat qilishi, an'anaviy yoki individual ekanligi aniqlanadi. Matn komponentlarini birikish usullari alohida o'rganiladi. Matn tiplari va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**2. Kompleks tahlil.** Tilning barcha sohalariga xos birliklar va ularning muayyan bir asarda qo'llanishini matnning umumiy mazmuni, janri, tarkibiy tuzilishi bilan o'zaro bog'liqlikda olib o'rganish kompleks tahlilning asosini tashkil etadi. Bu xildagi tahlil umumfilologik yo'nalish, mazmun va xarakter kasb etadi. shuning uchun matnni tahlil qilishdan avval adabiyotshunoslik va Tilshunoslik bilan aloqador sohalarining tamal qonuniyatlaridan albatta xabardor bo'lishimiz kyerak. Bunday tahlil xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyiliga muvofiq olib boriladi. Kompleks tahlil biror bir ijodkorga bag'ishlangan bo'ladi. Bunday tahlilni bir asarni turli sathlar bo'yicha yoki bir necha asarni bir sath bo'yicha o'tkazish mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani lingvopoetikasi (til sathlari bo'yicha). yoki Abdulla Qodiriy asarlari lingvopoetikasi. Bunda adib qalamiga mansub barcha asarlarning lisoniy xususiyatlari tekshiriladi va natijalar umumlashtirib tahlilga tortiladi. Bu oson ish emas. shuningdek, bir yoki ikki kishi ning ishi ham emas. Adib asarlarini har taraflama tekshirish, tahlil qilish, shu kungacha qilingan barcha ishlarni bir joyga to'plash, tasniflash, indeksli ma'lumotlar bazasini yaratish, zaruriy lug'atlarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirish jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan lingvopoetikaning faoliyat doirasiga kiradi. shuni unutmaslik kyerakki, badiiy asar tom ma'noda estetik voqelikdir. Uni tematik tahlil qilamizmi, kompleks tahlil qilamizmi bundan qat'i nazar, asarning estetik hodisa sifatidagi mohiyatini nazardan chetda qoldirmasligimiz kyerak.

#### **Nazorat savollari:**

- 1.Lisoniy tahlilning qanday tamoyil va usullari bor?
- 2.shakl va mazmun birligi tamoyili deb nimaga aytiladi?
- 3.Makon va zamon birligi tamoyili deb nimaga aytiladi?
- 4.Xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili deb nimaga aytiladi?
- 5.Ilmiy mushohada usuli deb nimaga aytiladi?
- 6.Lisoniy tabdil deganda nimani tushunasiz?
- 7.Matn variantlarini qiyoslash usuli deb nimaga aytiladi?
- 8.Lug'atlarga asoslanish usuli deb nimaga aytiladi?
- 9.Tematik tahlil deb nimaga aytiladi?
- 10.Kompleks tahlil deb nimaga aytiladi?

#### **Ma'ruza bo'yicha mustaqil ta'lim materiallari:**

- 1.Cho'lponning «Kecha va kunduz» nomli romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qiling. Asardagi lug'aviy birliklar (ayrim so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib oling..
- 2A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" rolmanidagi lug'aviy birliklar (ayrim so'zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib oling va daftaringnuzga yozing.

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».
2. H.Jamolxonov, M.Yo'ldoshev «Badiiy matnning lisoniy tahlili» TDPU, 2000.
3. M. Yo'ldoshev «Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari» T.: «Fan» 2007.
4. Doniyorov X., Mirzaev S. So'z san'ati (badiiy mahorat va til haqida mulohazalar). –Toshkent, «Fan», 1962.
5. Hojiahmedov A. she'r san'atini bilasizmi?–Toshkent, «sharq», 1999

6. Hojiev A. Tilshunoslik tyerminlarining izohli lug'ati.–Toshkent, «O'ME»., 2002.

### **Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:**

- “Badiiy matnning lingvistik tahlili” fanida qo'llanilayotgan tahlil tiplariga ilmiy nuqtai nazardan Yondoshish muammosi.
- Adabiy tahlil muammosining siyosiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy hayotda o'z aksini topishi.

**Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda e'tiborni qaratish zarur bo'lgan omillar. Badiiy matn tahlilida lug'at ustida ishlash.**

### **Asosiy savollar:**

1. Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda e'tiborni qaratish zarur bo'lgan omillar.
2. Lug'atlarga aslanish usuli. O'zbek mumtoz adabiyoti matnlarini o'rganishda lug'atlarning roli.

### **Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:**

Dastlabki tayyorgarlik. Matn va til estetikasi. Badiiy matn va tasviriy vositalar. Estetik hodisa sifatida matn.

Lug'at. Entsiklopedik lug'atlar. Lingvistik (yoki filologik) lug'atlar. Bir tilli, tarjima, dialektologik, tarixiy, etimologik, frazeologik, sinonimik, omonimik, antonimik, Yangi so'zlar, o'zlashtirma so'zlar, differentsial lug'atlar. Eskirgan, unutilgan, kam qo'llaniladigan so'zlar. “Kitoblarning kitobi”

### **Mavzuga oid asosiy muammolar:**

1. Taxlil usullari tanlashda qanday omillarni hisobga olish muammosi.
2. Tahlil usullari haqida turlicha qarashlar mavjudligi muammosi

### **1-savol bo'yicha darsning asosiy maqsadi:**

Talabalarda matnni tahlil qilish uchun dastlabki tayyorgarlik haqida tushuncha xosil qilish. Matn va til estetikasi tushunchasini izohlash. Badiiy matn va tasviriy vositalarni bilib olishlariga erishish. Matn estetik hodisa sifatida. Matn va ijtimoiy hayot o'rtasidagi aloqani o'rganish.

Matn tuzilishini o'rganish. Matnga aloqador ma'lumotlarni o'rganish. Badiiy nutq ko'rinishlarini belgilash.

### **Identiv o'quv maqsadlari:**

1. Dastlabki tayyorgarlik bosqichlarini sanab byera oladi.
2. Matn va til estetikasi xaqida tushuncha hosil qiladi.
3. Badiiy matn va tasviriy vositalar nimalardan iboratligini bilib oladi.
4. Matn va ijtimoiy hayot o'rtasidagi aloqani o'rganadi.
5. Matn tuzilishini o'rganadi.
6. Matnga aloqador ma'lumotlarni o'rganadi.
7. Badiiy nutq ko'rinishlarini belgilaydi.
8. Badiiy asarning ta'sirchanligini oshirishda qo'llanilgan vositalarni bilib oladi.

### **1-asosiy savolning bayoni:**

#### **TAHLILGA TAYYORGARLIK BOSQICHLARI**

1. Dastlabki tayyorgarlik.
2. Matn va til estetikasi.
3. Badiiy matn va tasviriy vositalar.
4. Estetik hodisa sifatida matn. Biror bir she'rni, hikoya yoki romanni o'qiyotganimizda asar mazmunini yakka-yakka so'zlardan yoki ayrim iboralardangina emas, balki matn deb ataluvchi butunlik bilan munosabatga

kirishgandan so'nggina anglay boshlaymiz. Badiiy asarni gazeta o'qigandek o'qib bo'lmaydi. Badiiy asarni o'qish uchun ham alohida tayyorgarlik kerak. Voqealar tizimini kuzatib borish bilangina asar o'qigan bo'lib qolmaysiz. O'zingizda faol o'qish tarzini shakllantirishingiz zarur, aks holda asar o'qish shunchaki vaqt o'tkazish mashg'uloti bo'lib qolavayeradi. Xo'sh, faol o'qish tarzini shakllantirish uchun nima qilish kerak? Buning uchun yozuvchi va matn bilan haqiqiy muloqotga kirishishingiz talab qilinadi. Ularga o'zingizning savollaringizni muntazam byerib borishingiz zarur. Matnni har tomonlama tahlil qilib borishingiz kerak. Matn mohiyatiga kirib borish uchun avvalo Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning tamal qonuniyatlaridan xabardor bo'lish lozim. Quyida sizga havola qilinayotgan tahlil tartibi qat'iy-qotma tartib emas, uni tahlil ob'ekti va metodiga qarab o'zgartirishingiz mumkin.

**A.Dastlabki tayyorgarlik.** Har qanday badiiy asarni o'qish uchun dastlabki tayyorgarlik zarur bo'ladi. Bu tayyorgarlik aslida avtomatik tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, biror bir asarni o'qimoqchi bo'lganingizda asar muqovasining o'ziyoq sizga dastlabki ma'lumotlarni byeradi. Muqovaning bezatilishi, muallif ismi-sharifi, hatto *roman* deb yozib qo'yilgan bo'lsa, o'sha so'zning o'zi ham matn bilan munosabatga kirishishingizni ta'minlaydi. Biz aytmoqchi bo'lgan tayyorgarlik ham shunga yaqin faqat biroz vaqt, biroz qunt va jiddiyat talab qilishi bilan farqlanadi. Bu tayyorgarlikni to'rt odimda umumlashtirishga harakat qildik:

*Birinchi odim.* Matnga aloqador ma'lumotlarni o'rganish.

- Asarning nomi, yozuvchisi, nashr etilgan yili va joyi. Hajm belgisiga ko'ra matn turini aniqlash.

- Matn haqidagi yozuvchining yoki nashrga tayyorlovchining kirish so'zi.

- Matn turini aniqlash.

*Ikkinchi odim.* Matn tuzilishini o'rganish.

- Matnning tashkil tarzini o'rganish. Bob, fasl, qism, bo'lim va ularning nomlarini, nazmiy asar bo'lsa bayt, misra kabi tashqi xususiyatlarini aniqlash.

- YO'rdamchi qismlarini aniqlash. Epigraf, epilog, agar nazmiy asar bo'lsa sarlavha, atov so'zi, bayt, misra kabilarni aniqlash.

*Uchinchi odim.* Matnni birinchi marta o'qish. Matnni sinchiklab o'qish va tushunilishi qiyin bo'lgan joylarni belgilab borish, o'qish jarayonida e'tiborni tortgan so'z, ibora, maqol-matal va ayrim epizodlar Yoniga belgi qo'yib borish tavsiya qilinadi.

*To'rtinchi odim.* Matn va ijtimoiy hayot o'rtasidagi aloqani o'rganish.

-Matn qaysi davrda, qayerda, qanday ijtimoiy muhitda yozilganligini aniqlash.

-Matnda qalamga olingan voqealar qaysi hudud va qaysi davr uchun xosligini aniqlash. Matnning ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra turini belgilash.

-Matn yozilgan davr va yozuvchi mavqei. YO'zuvchiga zamondoshlarining munosabati va yozuvchining zamondoshlariga munosabati.

-YO'zuvchining boshqa asarlari va siz tahlil qilayotgan asari o'rtasidagi aloqadorlik. Bu asarning boshqa asarlardan farqi.

**B. Matn va til estetikasi.** Sizga ma'lumki, til kommunikativ (aloqa quroli, vositasi), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash) kabi bir necha funksiyalarni bajaradi. shunga ko'ra matndagi til birliklari muayyan maqsadga

yo'naltirilgan bo'ladi (Ya'ni, kim-nima, kimga-nimaga, kim haqida-nima haqida).

*Birinchi odim.* Badiiy nutq ko'rinishlarini belgilash.

-Monologik nutq, dialogik nutq, parallel nutq. Ichki nutq, tashqi nutq. qahramonlarning yozma nutqlari, gazeta va jurnallardan olingan nutq ko'rinishlari.

-Hikoyachi shaxsini aniqlash. Kim hikoya qilyapti? Hikoyachi kim haqida gapiryapti? Hikoyachi o'zini bevosita ifodalayaptimi yoki bilvosita?

-Hikoyachi nutqining ko'rinishlarini belgilash: xolis nutq, munosabatli nutq. Ichki nutq, tashqi nutq.

-Qahramon shaxsini aniqlash. Bosh qahramon kim? qaysi toifa-tabaqa yoki ijtimoiy qatlam vakili? Qahramon fe'l-atvori, dunyoqarashini aniqlash.

-Qahramon nutqining ko'rinishlarini belgilash. Xolis nutq, munosabatli nutq. Ichki nutq, tashqi nutq.

*Ikkinchi odim.* So'zning estetik vazifasi.

-Badiiy asarda yozuvchi tomonidan atayin qo'llangan so'zlarni aniqlash. Nega aynan shu so'zni qo'llaganligi, bu so'zning asar mazmuni va estetikasi uchun qay darajada ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritish.

-Tarixiy, arxaik va Yangi so'zlarni aniqlash, ma'nosini izohli lug'atlarga asoslanib sharhlash. Ularning asarda qo'llanilish o'rni va sababini belgilash.

-Iste'mol doirasi chegaralangan so'zlar (kasb-hunar so'zlari, shevaga oid so'zlar, chet va dag'al so'zlar)ni aniqlash, ma'nosini zaruriy lug'atlarga asoslanib sharhlash. Ularning asarda qo'llanilish o'rni va sabablarini izohlash.

-Ma'nodosh, shakldosh, paronim va zid ma'noli so'zlarni aniqlash. Ularning asar mazmuniga qanday ta'sir etganligi haqida mulohaza yuritish.

-Fonetik-fonologik o'ziga xosliklarni belgilash. Tovush takrori, tovush tushishi, tovushlarning qavatlanishi kabi hodisalarning asarda qo'llanilishi va ular yordamida erishilgan ekspressivlik haqida fikr yuritiladi.

-Matndagi morfologik o'ziga xosliklarni aniqlash. Masalan, ot so'z turkumidagi so'zlarni ketma-ket keltirish yoki takrorlash orqali erishilgan ta'sirchanlik, sifatlarni uslubiy maqsadlarda qo'llash, olmoshlarning matndagi vazifasi, fe'l nisbatlaridan emotsional-ekspressiv maqsadlarda foydalanilganlik kabilarni aniqlash.

-Matnning sintaktik o'ziga xosliklarini aniqlash. YOzuvchi tomonidan atayin qo'llanilgan so'z birikmalarini topish va nega qo'llanilgani haqida fikr yuritish. Gap turlarini aniqlash. Qaysi turdagi gaplardan ko'proq foydalanilganligini belgilash va yozuvchining maqsadi haqida fikr yuritish. So'z tartibi, invyersiya, antiteza, parallelizm, ellipsis kabilar.

-Abzas. Abzas qismlarinig joylashtirilishi. Tema-rematik munosabat. Abzaslarni bir-biriga bog'lovchi vositalar. Distant va kontakt aloqa. Mazmuniy o'q, mazmuniy yaqinlik va mazmuniy izchillik tushunchalari abzas tahlili asosida sharhlanadi.

**V. Badiiy matn va tasviriy vositalar.** Har qanday badiiy asarning ta'sirchanligini unda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari ta'minlaydi. Ularsiz badiiy asar quruq va zyerikarli bo'ladi. Chunki kitobxon uchun asarda qalamga olingan voqealargina muhim emas. Balki, voqealar qanday ifodalangani ahamiyatlidir. YOzuvchining mahorati badiiy tasvir vositalarini qay darajada ishlata olishiga bog'liq bo'ladi.

-Metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, o'xshatish, farqlash, jonlantirish, mubolag'a, kichraytirish, antiteza, parafraza, oksyumoron kabilarni aniqlash va ularning badiiy matndagi o'rnini, ahamiyatini yoritish.

-Ibora, maqol va matallar, hikmatli so'zlar, ta'sirchan birikmalarni belgilash. Kimning nutqida, qanday muhitda, qay maqsadda, o'rinli-o'rinsiz qo'llanilishi kabilar haqida fikr yuritiladi.

-Matnlararo aloqadorlikni aniqlash. Matn variantlarini qiyoslash. Matn ichida qo'llanilgan o'zga matn ko'rinishlarini (nazira, taqlid, naql, hadis, rivoyat, miflar, afsonalar) aniqlash va asar mazmuni bilan qay darajada uyg'unligi haqida fikr yuritish.

**G. Estetik hodisa sifatida matn.** Badiiy asar agar kitobxonlar e'tiborini tortgan bo'lsa, albatta bu asar haqida gazeta, jurnallarda, turli adabiy tanqidiy kitoblarda, ilmiy tadqiqot ishlarida u yoki bu darajada fikr-mulohazalar byerilgan bo'ladi. Asar haqidagi tanishtiruv maqolalar, taqrizlar munaqqidlarning fikrlari bilan tanishish fikr ufqingizni kengaytiradi. shuningdek, tahlil xolisligini ta'minlashga yordam byeradi.

